

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV

BESH BOLALI YIGITCHA

SARGUZASHT ROMAN


Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2009

Bolalik – beboshlik, deymiz. Ammo bu davr zahmatlarga, mashaqqatlarga limmo-lim bo‘lsa-chi? Beboshlikka, sho‘xliklarga o‘rin qolarmikan? Bunday bolaning qalbi, dunyosi kattalar hayotiga yaqin bo‘ladi. O‘zi bilib-bilmay taffakuri o‘sib, irodasi metin insonga aylanadi.

Sevimli adibimiz Xudoyberdi To‘xtaboyevning qayta-qayta o‘qiladigan ishbu asarini siz, aziz kitobxonlarga hadya etayotganimizdan mamnunmiz.

ISBN 978-9943-08-465-0

© Xudoyberdi To‘xtaboyev, «Besh bolali yigit». (Sarguzasht roman).
«Yangi asr avlodi», 2009-yil



ACHCHIQ HAQIQAT

Ushbu kitob qo'lyozmasini o'qir ekanman, yuragim bir-ikki martagina siqilgani yo'q. Nihoyat — ajoyib, dedim oxirgi sahifani yopar ekanman, ko'nglim yorishib. Achchiq qismat haqida hikoya qilib, iliq harorat hadya etish – har kimga ham berilmaydigan iste'doddir. Xudoyberdi To'xtaboyev buni uddalay olgan.

Men bunday qobiliyat egasini iste'dod targ'ibotchisi, degan bo'lardim. O'zidagi ezgulikni o'zgalarga tarqatmoqchi bo'lgan odamni g'allakorga mengzash mumkin emasmi?

“Besh bolali yigitcha” – ajoyib asar. Urush davridagi bolalik haqida kam yozilmagan. Men buning salbiy jihatini ko'rmayman. Yer yuzida o'zining bolaligini yodga olmagan yozuvchilar deyarli yo'q. Endi esa bu bilan zamon mashg'ul – adabiyotga shunday odamlar kirib kelishdiki, ularning bolaligi, o'smirligi urushga to'g'ri kelgan, aniqrog'i, urushning og'ir ko'lankasi ularning bolaligi, o'smirligi, yoshligiga soya solgan. Buni qalamda aks etgan urush davridagi bolalik xotiralari bilan izohlash mumkin.

Yana bir gap. Urush katta-kichik, hatto eng kichik yoshdagi go'daklar uchun ham iztiroblar, kurashlar davri ediki – to'rt yilda yigirma million inson yo'qotilganini eslang – hozir, oradan shuncha yillar o'tgan bo'lsa-da, dard, og'riq bilan yodga olinadi. Dushmanga qarshi urush olib borilar va bu haqda go'zal she'rlar va romanlar bitilgandi. Front ortidagi mehnat haqida ham kam yozilmagan. Iztiroblari, intilishlari, g'am-kulfatlari bilan yosh bolalar ham urush zahmatini his qilgan, beixtiyor ravishda unga jalb etilgan edi. Bu go'daklar ertaga katta

odamlarga aylanadigan buyuk ishtirokchilar edilar. Bu kelajak ishtiroki edi.

Kimki Aleksandr Neverovning “Toshkent – non shahri” qissasini o‘qigan bo‘lsa, Xudoyberdi To‘xtaboyev kitobidagi talay jihatlar tanish ko‘rinadi. Bu histuyg‘ular, fikrlarning ajoyib uyg‘unligidir.

Kitobdagi kichik qahramonlarning yetimligi, muhtojligi, darbadarligi fuqarolar urushi davridagi yosh tengqurlarining azob-uqubatlarini esga soladi. Esga soladi, xolos. Va bunday yodga solish Neverov va To‘xtaboyev kitoblarining ajoyib tarzidagi tafovutini namoyon etadi. Mazkur asarlardagi zamon, davr ulardagi o‘ziga xoslikni, jamiyat ruhiyatini ochib beradi.

Bosh qahramon Orif – nafaqat besh nafar go‘dakning akasi, u qarovchisiz bolalarning, o‘z oilasining kichik yo‘lboshchisi ham. Oila shamchirog‘i o‘chib qolmasligi uchun Orifning zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklangan.

Ota-onasidan judo bo‘lgan bolalar o‘z dunyosida yashalarsa-da, urush, vayronagarchiliklarni to‘la his etadilar.

Front uchun zambarak sotib olish maqsadida borbudini sotgan qariya-chi? Adolat uchun o‘zini o‘tga, cho‘qqa urishga shay turgan bolalar uyining omadsiz direktori rus ayoli Mariya Pavlovna-chi?

Oriflar oilasi yaxshi odamlar orasida yashaydi, biroq hayot kabi haqiqat qissasi ham shafqatsiz va yaxshi odamlar hamma vaqt ham boshiga musibat tushgan bolalarga yordam qo‘llarini cho‘za olmaydilar. Ammo ular go‘daklar yonida bo‘lmasalar-da, mehribonlik ko‘rsata oladilar. Bu esa yaxshi qahramonlarning emas, balki yovuzlikka qarshi kurashib, dunyoni munavvar etuvchi yaxshilik, ezgulikning kuchidir! Adib mazkur haqiqatni tasdiqlar ekan, bolalarning Toshkentdan Qo‘qonga — qarddon qishloqlariga kelishdagi mashaqqatli yo‘lida ezgulik yordam qilgani, yovuzlik esa xalaqit berganini yorqin aks ettiradi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev – ajoyib iste’dod egasi. Urush yillaridagi o‘smirlar hayotini yorituvchi kitobi ham achchiq qismatdan hikoya qiluvchi ajoyib asardir.

Axir, yaxshilikning faqat shirin ta’mi borligi haqida kim aytdi?

Hayotda yaxshilik, xotirjamlik, ravon yo‘l emas, aksincha, sinovlar insonni inson darajasiga ko‘taradi. Bu sinovlar achchiq bo‘lmasa qani edi! Modomiki, davr shuni taqozo etgan ekan, nachora!

Besh bolali Orif achchiq sinovlarni boshidan kechirdi. U g‘olib bo‘ldi.

Aytish mumkinki, u zafar quchgan Orifdir!

Albert LIXANOV

«TANISHING, DO‘STINGIZ ORIFJON!»

Og‘ir urush yillari... Shu urushning kasofati tufayli butun-butun qishloqlar huvillab qolgan. Yosh-u qari -- barcha urushning tashvishi bilan yashaydi, ular orasida bir oz quv, bir oz sho‘x-shaddod, bir oz latifago‘y, ammo juda ham pok Orifjon ismli bola ham bor. Urushning kulfatlari uning ham yelkasiga tushgan. Bu haqda uning o‘zi yarim hazil, yarim chin qilib shunday deydi: «Belim sal bukikroq, buni o‘zim ham tan olaman, ukalarimni ko‘taraverib, shunaqangi bo‘lib qolganman, bo‘yim ham tengqurlarimga qaraganda sal pastroq, buni ham inkor qilmayman. Men yuqoriga qarab o‘ saman deganimda ukalarim yelkamga minib olib, pastga qarab bosishavergan. Shuning uchun pakanaroq bo‘lib qolganman. Besh bolali deyishlariga ham, rostini aytsam uncha jahlim chiqmaydi. Nega desangiz, chindan ham ropparosa beshta ukam bor. Beshoviniyam o‘zim katta qilganman, oyijonim traktorchi, urush boshlanganidan buyon kechasi-yu, kunduzi dalada».

Orifjon tabiatan sho‘x bola. Og‘ir paytlarda o‘ziga-o‘zi latifa aytib, ovunib o‘tiradi. Kuni bo‘yi makka uqalaydi, sigirining tagini tozalaydi, pol artadi, o‘tin yoradi, kir yuvadi. Ba‘zan o‘zi singari tengqurlarining o‘yinlariga aralashib ketishni xayol qiladi. Ammo o‘yinga berilib ketib, uydagi ishlarning qolib ketishidan qo‘rqadi.

Shu tariqa iste‘dodli yozuvchi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi Tuxtaboyevning «Besh bolali yigitcha» romanining qahramoni Orifjonning qiziqarli, ammo og‘ir hayot yo‘li boshlanadi. Uning xarakteridagi ba‘zi bir jihatlar adibning «Sariq devni minib» romanidagi yoqimtoy Hoshimjonni esga tushiradi. Ularning sho‘xligi ham, quvligi ham, xayolparastligi ham, adolatga intilishlari ham go‘yo bir qarashda bir-birlariga aynan o‘xshashdek bo‘lib tuyuladi. Ammo «Besh bolali yigitcha» romanini sinchiklab uqigan

kitobxon bu xildagi o'xshashlikning juda ham yuzaki ekanligiga ishonch hosil qiladi. Bu farq avvalo hayotiy materialning o'zgachaligida, qahramon-larning turli sharoitlarda harakat qilishlarida, ularning bir-birlariga mutlaqo o'xshamaydigan yorqin taqdirlarining haqqoniy yaratilganligida.

«Besh bolali yigitcha» romanidagi voqealar Orifjonning hikoyasi orqali beriladi. Uning hikoyasi bilan tanishar ekansiz, gohida beixtiyor jilmayasiz, qah-qah otib kulasiz, gohida urush yillaridagi kecha-yu kunduz tinimsiz mehnat qilgan vatanparvar odamlarning buyuk ishlariga tasanno aytasiz, gohida ko'pchilikdan ajralib qolgan «ortiqcha» kishilarning qiliqlaridan jirkanasiz. Hech kimga sir emaski, bolalarning hayot va odamlar haqidagi tasavvurlari juda ham toza va musaffo bo'ladi. Ular borliqni tabiiy holda qabul qiladi. Shu sababli Orifjonning odamlar haqidagi hikoyalari kishini o'ylashga, fikrlashga undaydi.

Mana uning dadasi. Bir o'zi «bitta traktorning ishini bemalol» bajaradigan bu odam armiyaga chaqiruv qog'ozini kelganida kolxozdagi ishining qolib ketayotganligidan ko'ngli o'ksiydi. Tuni bilan urushdan qaytib kelguniga qadar yetib ortadigan o'tin tayyorlab chiqadi. Oyisining xatti-harakatlari va qiliqlariga bir e'tibor bering. Butun umri mehnat bilan o'tgan bu ayolning oyog'ida doimo «kerza etik, erkaklarning paxtali shimi, egnida serpaxta fufayka, boshida quloqchin, yuzlari kir, qo'llari moy» bo'lib yuradi. U eriga chaqiruv qog'ozini kelganida uni hijjalay-hijjalay o'qib chiqadi-da, huzur qilib non chaynayotgan o'g'li Omonning kir boshiga yuzini bosib, o'y surib ketadi. Uyqusizlikdan traktorning tagida qolib ketgan bu ayolning obrazi uzoq vaqt kitobxonning xotirasida saqlanib qoladi.

Adib hayotiy bo'yoqlar va ranglardan juda ham o'rinni foydalanadi. Shu sababli romanda yaratilgan ayrim obrazlar va kartinalar yozuvchining mahorati tobora

takomillashib borayotganligini ko'rsatib turibdi. Men bu o'rinda urushda bir oyog'ini yo'qotib kelgan, general bilan qo'l berib so'rashganligini pesh qilib gapirib yuradigan To'ron amakini ham, darsda afandi latifalarini aytib beradigan Roziq amakini ham, ona-bola raisni ham, har gapining birida «mozori sharif» deb turmasa, ko'ngli joyiga tushmaydigan Meli baqqolni ham, mo'ylovining uchlari buralib-buralib borib qulog'ining orqasiga o'tib ketgan temir yo'l qorovulini ham, pakana buvani ham ko'zda tutayotirman. Har biri o'zining xulqi, odati, qiliqlari, taqdiri bilan kitobxonning ko'z o'ngida ravshan gavdalanadi. Shuningdek, urush yillaridagi o'qish kartinasi ham, bolalar uyidagi yetim bolalarning yashash tarzlari ham juda tiniq «chiziladi». Yosh kitobxon kichkintoylarning urush davridagi hayoti bilan tanishar ekan, bugungi kundagi farovon hayotning qadriga shu qadar yetgisi keladi.

Romandagi Parpi buva va O'ris xola obrazlari ham yozuvchi tomonidan alohida mehr-muhabbat bilan chiziladi. Ikkala obraz talqinida ham Xudoyberdi To'xtaboyev ijodiga xos eng yaxshi fazilatlar aks etgan. Qolaversa, bu obrazlar Orifjonning tasavvuri orqali beriladi. Orifjon bo'lsa Parpi buva bilan O'ris xolaning inson sifatidagi o'ziga xos fazilatleri va nuqsonlarini juda ham samimiy hikoya qiladi. Aytaylik Parpi buva – chin vatanparvar. U bir paytlar qo'lida qurol bilan jang qilgan. Oradan yillar o'tadi. Nemis-fashist bosqinchilari Parpi buvaning nazarida «girmonning har bitta o'qi aravaning gupchagidek keladi», «o'sha girmon deganlari juda zo'r bo'lsa, Ko'rshermatcha bo'lar-da», deydi u. U girmonni yengish uchun frontda jang qilayotgan o'g'illariga zambarak sovg'a qilmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda mayizi, o'rigi, oq jo'xorisi, sigiri, buzog'ini sotadi. To'plangan bir xurjun pul ham yetmaydi. Hatto yomon ko'rgan kishisi Meli baqqoldan qarz olib bo'lsa ham zambarak sotib olmoqchi bo'ladi. O'ris xola

Yurtning boshiga og‘ir kun tushganda yetimxonaga tushgan bolalarning boshini silaydi.

«Besh bolali yigitcha» romaniniig asosida Orifjon ukalari va do‘stlarining hayoti turadi. Orifjon bo‘lsa hamisha to‘g‘ri yo‘ldan yuravermaydi. U ba‘zan adolatni qaror toptirish uchun xatolarga ham yo‘l qo‘yadi. Ukasi Sultonni izlab ko‘pgina qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazadi. Kichik singlisi o‘lim to‘shagida yotganida unga u-bu olib kelish uchun chayqov bozorida tuflisini sotmoqchi bo‘ladi. Hatto birovlarining qovunini o‘g‘irlab bo‘lsa ham, ukasining ko‘nglini olmoqchi bo‘ladi. Bola baribir bola-da! U doimo adolat bo‘lishini istaydi va adolat qidiradi. Lekin turmush murakkab. Turmushning murakkabligini osongina anglab olish ham qiyin. Shu jihatdan romandagi «Sarsonlik-Sargardonlik» bobi o‘zining hayotiyliigi, tasvirning tiniqligi bilan alohida ajralib turadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Besh bolali yigitcha» romani adibning ilgarigi asarlaridan ba‘zi bir jihatlari bilan farq qiladi. Bu birinchi navbatda yozuvchi ijodida hayotiy voqealarning yana ham boyiganligi va kuchayganligida ko‘rinadi. Agar adibning avvalgi romanlarida sehrli qalpoqcha yordami bilan ezgulikni qaror toptirish yo‘lida harakat qiladigan beg‘ubor Hoshimjon bilan tanishgan bo‘lsak, bu asari orqali og‘ir urush yillarida hayotning qiyinchiliklarini kaltalar bilan bab-baravar tortgan, ammo yaxshi kishilar ta‘sirida tarbiya topgan, adolatparvar, ezgulikni qaror toptirish yo‘lida tinib-tinchimaydigan Orifjon va uning do‘stlari obrazlari bilan do‘stlashib qolamiz. Mana shu tariqa adib o‘z kitobxonlarini Ikkinchi jahon urushi yillari erta-yu kech tinimsiz mehnat qilib, g‘alabani tezlatishga munosib hissasini qo‘shgan xalqimizning buyuk bardoshi va mislsiz matonati bilan tanishtiradi.

*Pirmat SHERMUHAMEDOV,
filologiya fanlari doktori*

OPAJONIM DOR EDI...

Birinchi qism

CHAQIRIQ QOG‘OZI

Meni qishlog‘imizdagi jamiki o‘g‘il bolalar yomon ko‘rishadi, shuning uchun ham menga «besh bolali» deb laqab qo‘yishgan.

Besh bolali deyishlariga, rostini aytsam, uncha jahlim chiqmaydi. Nega desangiz, chindan ham roppa-rosa beshta ukam bor. Beshoviniyam o‘zim katta qilganman, opam traktorchi, urush boshlanganidan buyon kechasi-yu kunduzi dalada. Otam bo‘lsa, bola yupatishni hech bilmaydi, ukalarim yig‘lagudek bo‘lsa, to‘nini yelkasiga tashlab sekingina guzarga jo‘nab qoladi.

Bolalar meni nega yomon ko‘rishlarini aytsam, ular men tufayli yo opasidan, yo otasidan dakki eshitadi. «Sen ahmoq, kun bo‘yi ko‘cha changitib o‘ynaysan, sen tengi Orif bo‘lsa ukalariniyam o‘ynatadi, uy ishlariniyam tinchitadi...» deb quloqlaridan cho‘zishadi. Bir kuni mahallamizdagi bolalar to‘planib: «Sen ahmoqni hozir suvga pishamiz», – deb o‘rtaga olib qolishdi.

– Mayli, – dedim parvoyimga ham keltirmay, – besh-o‘n kundan buyon bet-qo‘limni yuvganim yo‘q edi, bahonada cho‘milib olaman.

– Endi seni o‘yinga qo‘shmaymiz, – deyishdi, yana bolalar.

– Unda sizlarga bittayam afandi aytib bermayman, – deb yana bo‘sh kelmadim.

Aytgandek, sizga gapirib bermadim shekilli, bizning qishloqni Afandi qishloq deyishadi. Kattalr u yoqda tursin, men tengi, mendan kichkina bolalar ham bir-biriga afandi aytib, bir-birini qiqirlatib kuldirishni juda, juda ham yaxshi kurishadi. Men hammasidan ham ko‘p

bilaman. Soy mahalladagi o‘zim bilan birga o‘qiydigan Mahmud sallani ham, Qibla mahalladagi Olim mallaniyam og‘iz ochtirmay qo‘yaman. Mana, hozir ham tomدا o‘tirib makka uqalayapman-u, qiziq-qiziq afandilarni o‘ylab, o‘zimni-o‘zim ovuntirib, o‘zimni-o‘zim kuldirib o‘tiribman... Ho‘ narida, jarlik orqasidagi yalanglikda bo‘lsa, o‘rtoqlarim ko‘zimni kuydirib varrak uchirishyapti, osmonda katta-kichik varraklar shunaqangi ko‘pki, biri shoh tashlab, boshqasi havolab, chiroyli uchyaptiki, bepoyon osmonda xuddi qush bozori bo‘layotganga o‘xshaydi.

Yoki men ham varragimni ko‘tarb, o‘sha yoqqa yugurib qolsammikin... Xo‘sh, makkani ertaga uqalasak nima bo‘libti, sigirning tagini buguncha tozalamasa ham bo‘ladi, sut bermaganidan keyin hadeb tozalayve-ramanmi! Poya qirqish kerak, o‘tin yorishim kerak... Uf-uf, qay birini qildim endi? Yo‘q, men ham birpas o‘ynab kelaman. Shunday deb sekin o‘rnimdan turayotgan edim, ko‘chada qo‘ylarini oldiga solib haydab, varragini boshi uzra avaylab ko‘tarib borayotgan Akrom bilag‘onga ko‘zim tushib qoldi. Qarab turgan edim:

– Ha, oyimqiz, tomga chiqib oftob chuvoqda ko‘rpa qaviyapsanmi, – deb so‘radi.

– O‘zing oyimqizsan, bildingmi! – dedim achchig‘im chiqib.

– Idish-tovoq yuvishing yolg‘onmi?

– Yolg‘on!

– Kir yuvishing-chi?

– Yolg‘on!

– Sigir sog‘ishing-chi?

– Hozir boshingga kesak bilan tushiraman!

– Qo‘lingga xina-yu, qoshingga o‘sma qo‘yishing ham yolg‘onmi? – deb Akrom bilag‘on qiqirlab kulayotgan edi, doni qoqib olingan makka so‘tani otgan edim, essizgina, mo‘ljalni sal noto‘g‘ri olib qo‘ygan ekanman, qulog‘ining yonidan zuvillab o‘tib ketdi. Ikkinchisini otmoqchi

bo'luvdim, bilag'on shataloq otib qochib qoldi, bexavotirroq joyga borib olib:

- Yig'lama, qiz, yig'lama. Ertaga to'ying bo'ladi! - deb yelkalarini uchirib, o'yinga tushib, meni masxara qila boshladi... Mana shunaqa, menga hech kun berishmaydi. Uyda opalaridan kaltak yeb chiqib, alamini mendan olishadi. Shoshmay turishsin hali, ukalarim eson-omon katta bo'lib, uyga qaraydigan bo'lib qolishsin, men ham shunaqangi o'yingaroq bo'lib ketayki, shunaqangi qiziq o'yinlar topib o'ynayki, alam qilganidan sochlarini yulib olishsin. Hozir esa hecham o'ynay olmayman, o'yinga berilib ketsam, uydagi ishlarim qolib ketadi. Keyin opam xafa bo'lib qolishi mumkin. Men opamni yaxshi ko'raman, juda, juda ham yaxshi ko'raman, hecham xafa qilmasam, hecham yig'latmasam deyman. Opam ham meni yaxshi ko'radi: «Hayriyatam esim yo'g'ida seni tug'ib olgan ekanman, bo'lmasa, ahvolim nima kechardi» - deb, erkalatgani-erkalatgan. Ukalarim bo'lsa, yosh, Sulton endigina o'n ikkiga kirdi, Zulayho o'n birga, biz hali hammamiz ham bir-birimizdan bir yoshdan farq qilamiz. Sulton fe'ldor, ko'ngli xushlasa, eshakday ishlaydi, xushlamasa yana o'sha eshakka o'xshab, to'rt oyog'ini bir joyga tirab turaveradi. Zulayhoga o'zim ataylab ishni kam buyuraman, qiz bolalar nimjon bo'lishadi, nimjon bo'lgandan keyin ularni ehtiyot qilish kerak deb o'ylayman. Usmon ukam juda xayolparast, qozon-tovoq qilib o'tirib ba'zan o'choq boshida uxlab ham qolaveradi. Buning ustiga, shunaqangi ozg'inki, xuddi tandirga olov yoqadigan kosovga o'xshaydi. Kun bo'yi rasm chizgani-chizgan, qo'li ham ancha kelishib qolgan^ga o'xshaydi. Shu ukamdan hammamizning ham umidimiz katta. Zo'r rassom bo'ladi deb o'ylaymiz. Shuning uchun ham unga hech ish buyurmayman. Bo'sh vaqti ko'p bo'lsa, ko'p chizadi, ko'p chizsa, tezroq kamolga yetadi deb o'ylayman. Endigina besh yoshga kirgan Omon ukam

bo'lsa temir qanot bo'lgan chumchuq bolaga o'xshab chirqillab, ovqat so'ragani-so'ragan. Shunaqangi mechkayki, hatto uxlaganda ham og'zini ochib uxlaydi, deng. Jajji singlim Robiya endigina ikki yoshga kiryapti...

- Ha, besh bolali! - degan ovoz eshitildi qulog'imga. Bir cho'chib tushib, atrofga alanglab qaragam, pastda Hayit kalla turibdi. Eshagiga yantoq ortib, ustiga minib ham olibdi, - ja boshingni egib, nimalar haqida o'ylayapsan, yo yangi latifa to'qiyapsanmi?

- Ha, yangi latifa to'qiyapman, - deb yolg'on gapirdim.

- Qani ayt-chi.

- Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Hayit kalla degan bir afandi bo'lgan ekan, - deb gap boshladim.

- Senga o'xshab beshta bolasiyam bo'lganmikan? - kesatib dedi Hayit kalla.

- Yo'q, senga o'xshab bitta urg'ochi eshagi bor ekan.

- Xo'sh, keyin nima bo'libdi?

- Keyin daladan eshagiga yantoq yuklab kelayotgan ekan, to'satdan o't chiqib, alanga ichida qolibdi. Sakrab eshakdan tushib, nima der emish degin?

- Xo'sh, nima dermish?

- Eshagiga qarab: «Esing bo'lsa o'zingni suvga tashla!» - deb baqirarmish...

Hayit kalla afandining ham o'zingga o'xshagan bemaza ekan deb, eshagini yo'rg'alatib jo'nab ketdi. Men negadir xafaroq bo'lib qoldim. Nega desangiz, shu paytda kim bilan bo'lsa ham birpas gaplashgim kelayotgan edi... Yoki jarlik orqasiga borib varrak uchirayotganlarga qo'shilsammikan... Yo'q, u yoqqa hecham bormayman, Akrom bilag'onga qo'shilib, boshqa bolalar ham: «Oyimqiz keldi» - deb meni masxara qilishadi... Undan ko'ra shu yerda, tomda o'zimga-o'zim latifalar aytib, o'zimni-o'zim kuldirib mazza qilib o'tiraverganim yaxshi... Bir bor ekan, bir yo'q ekan bir afandi bo'lgan ekan, qo'shnisi g'alvir so'rab chiqsa: «G'alvirga suv quyib

qo'rganman» debdi, «Ie, g'alvirgayam suv quyiladimi» desa, «bergisi kelmagandan keyin har narsa quysa ham bo'laveradi», dermish...

– Hu Mirza aka! – degan ovoz eshitilib qoldi ko'chadan. O'rnimdan turib qarasam, qo'ltiqtayog'iga suyanganicha kolxozimizning qorovuli To'ron amaki turibdi. O'ziga o'xshagan cho'loq oti bor edi, ko'rinmaydi, piyoda kelganga o'xshaydi.

– Nima deysiz? – dedim.

– Uqachapolvon qayerda? – so'radi qorovul.

Uqachapolvon... kechirasiz, mening otam bo'ladi. Otam, bechoraga ham xuddi menga o'xshatib roppa-rosa beshta laqab qo'yishgan.

– Otang qayerda, deyapman?

– Qirda dedim-ku!

– Oying-chi?

– Traktor xaydayapti.

– Dadangga chaqiruv qog'ozi bor, tezda yetkazish kerak.

Qorovul chaqiruv qog'ozini qo'ltiqtayog'ining uchiga ilib tomga uzatdi-da, otamga tezda yetkazishimni qayta-qayta tayinlab, o'zi jo'nab ketdi... O'tirgan joyimda o'tirib qoldim. Juda g'alati bo'lib ketyapman, xafamanmi, xursandmanmi, o'zim ham bilmayman, yig'lashim kerakmi kulishim kerakmi, ishonsangiz, bunisiniyam bilmayman. Makkani qopga solib, pastga olib tushdim-da, eshakni to'qimlab, dalaga, opamning oldiga qarab choptirib ketdim.

ESHAK MINGAN XABARCHI

Eshagimning o'lar-qolariga ham qaramay ketma-ket xala bosib, qamchilab uchirib ketyapman. Bu xabarni tezroq opamga yetkazishim kerak otamning oldiga esa hozir borib bo'lmaydi, juda uzoqda, qirning tagida! Armiyaga olsa nima bo'пти? Hammaning otasini olgan-

da, mening otamni ham olishlari aniq edi-ku! Qishlogimizda uch yuz xonadon bor, shu xonadonlardan hozir uch yuz yigit urushga ketgan. Har bir uydan bittadan. Parpi buvamning uch o'g'li ketgan. To'lg'on xolamning ikki o'g'li, ukasi ...hammasi bo'lib ulardan ham uch kishi urushyapti, demak bizdan ham bir kishi borib urushishi kerak-da, sal kattaroq bo'lganimda-ku, o'zim borardim-a, belimda qalin remen, yelkamda o'qdon, qo'limda miltiq, oh qanday yaxshi bo'lardi-ya! Ana undan keyin birortasi meni mazax qilolmagan bo'lardi... Lekin bari bir opam javob bermaydi-da, men ketib qolsam idish-tovoqlarni kim yuvadi, ukalarimga kim qaraydi? Mollar-chi, xo'sh, eshakning tagini kim tozalaydi? «Yo'q, men urushga bormayman, traktorchi bo'laman» o'shanda opam uyda qolib ukalarimga qaraydi, kirniyam o'zi yuvadi, yamoqniyam o'zi qiladi, to'yib-to'yib uxlab oladi, hozir, mana bir yil bo'lib qolyapti, uyquga hech to'ymaydi.

Eshagim goh yo'rg'alab, goh, chopqillab boryapti, o'zim bo'lsam har xil o'ylar qanotida olislarga uchaman, qarang-a, dalalar juda gashtli bo'lib ketibdi. Ariqlar bo'yida o'tlar ko'karib, chuchmo'malar gullabdi, qizchalar, ukam tengi bolalar to'p-to'p bo'lib jag'-jag', otquloq uzishyapti, ko'k beda terishyapti. Kattalar ho'kiz qo'shib, ot qo'shib yer haydashadi. Ayollar chopaymi-chopmaymi deb, darmonsiz ketmon urib, yer tekislashadi. Zambilda tuproq tashiyotganlar ham ko'p.

- Cho', eshagim! - deb xala bosaman, eshagim yana yo'rtib ketadi.

Xayriyat yaqinginadan traktorning tarillagan ovozi eshitilib qoldi. Demak opam shu atrofda. Hozir ko'raman uni, hozir! Lekin bu xabarni qanday aytaman unga, xafa bo'lib yig'lashga tushmasmikan, opajonim hecham yig'lamasa, ko'zlarida hecham yosh ko'rmasam deyman. Hu ana, traktor ham yaqqolroq ko'rinib qoldi, o'xho', ishlar kattaku! Traktorga bir yo'la uch ayol minib olibdi.

Opam rulda, qolganlari yonida – tik turib ketishyapti, mazza qilib kataysa qilishayotganga o'xshaydi.

Ukalarim beriroqda, katta qari tutning tagida o'ynab o'tirishgan ekan. Robiya hali aytganimdek endigina ikkiga kiriyapti. O'shani ovuntirib o'tirish uchun Zulayho ataylab maktabga bormaydi. Zulayho bormayaptiku, deb bahona qilib, Usmon ham o'qishni yig'ishtirib qo'ygan hisob. Hozir hamma ukalarim tut tagida jamuljam bo'lib o'ynab o'tirishibdi. Robinisa uxlab qolibdi, dadamning eski choponiga o'rab qo'yishganidan bildim. Zulayho bilan Usmon bo'lsa, to'ptosh o'yiniga berilib ketishibdi. Omon ariq ichida g'imirlab endigina nish urgan yalpizlarning uchini chimdib yuribdi. Ukalarim o'yinga shunaqangi berilib ketishibdiki, yonginalarida eshakdan tushib, qancha mahal tikilib turdim hamki, sezishmadi. Bir mahal Usmon boshini ko'tardi:

– Voy, akam kelibdi! – deb irg'ishlab o'rnidan turib ketdi. Bilmadim, negadir shu ukamning mehri menga sal boshqacharoq. Bir xil bolalarga o'xshab yig'laganda otam yoki opam deb yig'lamaydi, yo'q, akam, akajonim deb yig'laydi. Bitta-yarimtasi xafa qilgudek bo'lsa ham, «Hali qarab turgin, Orif akam kelsin, ta'ziringni berib qo'yadi» deb maqtanadi. O'ziyam yo'rgakdan chiqibdiki, men bilan birga, mening yelkamda katta bo'ldi desam ishonavering. Usmon darrov arz-dod qilishga tushdi:

– Aka, Zulayhoni qarang, qizil toshlarimni olib qo'ydi!

– Hecham-da, – o'zini oqladi Zulayho, – men ularni o'ynab yutib oldim.

– Sen g'irrom o'ynaysan!

– O'zing o'ynashni bilmaysan-ku! – bo'sh kelmadi Zulayho. Ovozimizni eshitib, ariq ichida piypalanib yurgan Omon ham oldimizga yugurib keldi.

– Aka, akajon, – deb u ham arz qila ketdi, – Zulayho bilan Usmoningiz nonimni yeb qo'yishdi.

- Yo'g'e, - dedim ishonqiramay.

- Rost, o'lay agar, mana, ishonmasangiz qornimni ko'ring, juda och! - shunday deb Omon etagini ko'tarib palapon bo'lgan chumchuq bolaning qornidek qip-qizarib irg'ib chiqqan qornini ko'rsata boshladi. Yaxshiki, cho'ntagimda bir kaft turshak bor ekan, olib darrov ukamga uzatdim.

- Zulayho, nega uning nonini yeb qo'yding, - deya urishgan bo'ldim, - yana shunday qilsang, seni eshakka mindirmayman.

Omon men bergan turshakni cho'ntagigami, bilmadim, qayerigadir berkitib yana arz-dod qila boshladi;

- Aka, Usmoningiz ham nonimni yeb qo'yyapti, to'g'rimi, Usmon, yeb qo'yding-a?

Ukaginam shunday mo'ltirab turibdiki, rahmim kelib ketganidan, darrov cho'ntagimni kavlashtira boshladim. Xayriyat, bir chekkasida besh-olti dona mayiz qolgan ekan olib, chang-chungdan tozalab, uzatgan edim, ukaginam shosha-pisha uni og'ziga soldi-yu, tomog'iga don tiqilgan xo'rozdek ketma-ket yutinib:

- Aka, men kasalman, mana, qornimni ushlab ko'ring, mayiz yesam tuzalib qolaman, - deb yolvora boshladi.

Endi nima qilsam ekan, cho'ntagimda hech narsam qolmadi-ku, bir jihatdan olganda, shu ukaginamga ham qiyin, ayni yeb-ichadigan payti. Goh to'yib, goh to'ymay kun bo'yi dalada, traktorning ortidan ergashib yuradi... Yerdan dast ko'tarib oldim-da, peshanasi-dan o'pib:

- Yur, oyjonimni oldiga boraylik - dedim, - ehtimol senga non olib qo'ygandir.

Omon nonning daragini eshitib, tipirchilab qo'limdan tushdi-da, hozirgina haydalgan shudgor oralab traktor tomonga yugurib ketdi, ortidan o'zim ham jo'nadim. Yerlarni traktor juda chuqur haydabdi, qora nam tuproqdan hovur ko'tarilib turibdi. Chigirtkalar, har xil

qurt-qumursqalar tuproq yuzasiga chiqib qolgani uchun qushlar g'ujg'on o'ynab, ularni ovlash bilan ovora....

Yo'q, men yanglishgan ekanman, opamning yonida o'tirganlar kataysa qilgani chiqqan qizlar emas ekan, shogirdlari ekan. Bittasi eri urushga ketayotganda bo'yniga osilib yig'lab, hammaning dilini ezgan Qumrinisa opa, ikkinchisi eridan yaqindagina tilla soat bilan ikkita jun ro'mol solingan posilka olgan Mukarram xola. Mukarram xolamning ham emizikli bolasi bor. O'sha bolaga ham qarab yurgani uchun ro'mollardan bittasini Zulayhoga hadya qilgan.

Traktor marzaga yaqin kelib to'xtadi. Opam mashinaning rulini Mukarram xolamga berib, uning ingalab yig'lab turgan chaqalog'ini qo'liga oldi-da, juda avaylab sekin-asta yerga tusha boshladi. Mashina yurib ketgach, anchagacha ortidan tikilib turdi. Xuddi shu paytda negadir chaqaloq ham jim bo'lib qoldi.

– Bari bir to'g'ri haydashni uddalay olmayapti, – dedi opam xuddi uh tortgandek qilib. Men opajonimga tikilib qoldim, juda uzoq tikildim. Shu turishida u ayol kishiga hecham o'xshamaydi, oyog'ida juda, juda ham og'ir kerza etik erkaklarning paxtali shimi, egnida serpaxta fufayka, boshida quloqchin, yuzlari kir, qo'llari moy... Eh-eh, tezroq katta bo'la qolsaydim, trakorni o'zim boshqarib, opamni hecham ishlatmagan bo'lardim.

Opam marzaga, qalin tuproq ustiga o'tirib, huzur qilib esnadi-da, Omonni tizzasiga oldi. Cho'ntagidan suvi qochib, uqalanib ketay-uqalanib ketay deb turgan zog'ora non olib, unga uzatdi. Keyin, «bugun vaqtliroq kelibsanmi, o'g'lim», deb menga yuzlandi.

– O'zim... – dedim-u, u yog'ini aytolmay chaynalib qoldim.

- Sholini tuydingmi?
- Tuydim.
- Qatiq uvitdingmi?
- Uvitib qo'ydim.

– Makkani nima qilding?
– Tomga yoyib, yarmini uqaladim.
– Ajoyib o'g'lim bor-da, kel, peshanangdan bir o'pib
qo'yay, barakalla! Yaxshiyamki, esim yo'qligida seni
tug'ib olgan ekanman...

Shu paytda negadir juda, juda ham g'alati bo'lib
ketdim. Tomog'imga iliq bir narsa tiqilgandek butun
vujudim bo'shashib ketgandek bo'ldi, yig'lab yubordim.

– Ie, tentak, nega yig'laysan?.
– Ona!
– Nima gap o'zi?
– Xafa bo'lmaysizmi?
– Nega xafa bo'lar ekanman!
– Yig'lamayman, deb so'z bering!
– Avval ayt-chi!
– Yo'q, avval so'z bering.
– Ha, aka so'z berdim.
– Otamni... – dedim-u, yana yig'lab yubordim, –
urushga olib ketar ekan.

Yo'q, opam xafa bo'lmadi, bir qalqidi-yu, jim bo'lib
qoldi, chaqiruv qog'ozini hijjalay-hijjalay o'qib chiqdi-
da, bir so'z demay menga qaytarib berdi. So'ngra shu
paytda huzur qilib non chaynayotgan Omonning kir
boshiga yuzim bosib, o'y surib ketdi. Nimalar haqida
o'ylayotgan ekan, har qalay xursand emas, bo'lmasa
ko'zini mendan olib qochmasdi...

Otamning oldiga, qirga jo'naydigan bo'ldim, hali erta,
kech kirguncha bemalol borib kelsam bo'ladi. Ochig'i,
otam ishlayotgan joy bu yerdan uncha uzoq ham emas.
Uchta qishloqning odami uchta qishloqqa suv beradigan
anhorni kovlashyapti. Anhor suvi yozda loyqa, bo'tana
bo'lib qoladi. Quyqa tashlab, ariqlarni ko'mib yuboradi,
bahorda kovlashmasa, yozda katta suv haydab bo'lmaydi.

Anhorga tezgina yetib bordim. Tabelchilar har bir
kishining chekini alohida-alohida qilib o'lchab beribdi.
Ketmonchilar katta anhor ichiga tushib olib, yuqoriga

qum, shag'al otishyapti, otamning oldiga tabelchi Murodxon aka boshlab bordi. U chaqiriq qog'ozi kelganini eshitib, baribir Polvon tog'ani urushga olishmaydi, u hozir to'rt-besh norma ishlayapti, otangdadan yana uch-to'rt kishi ketib qolsa, kolxozning ishi yotib qoladi, deb qo'ydi. Chindan ham boshqalarga to'rt-besh metrdan o'lchab berilgan, otamning cheki bo'lsa naq yigirma metrcha keladi, uniyam tugatay deb qo'yibdi. Otam shoshmasdan, bir me'yorda to'xtovsiz yuqoriga qum irg'itardi. Qo'lidagi katta ketmoning ustaga o'zi buyurtirib olgan. Bu ketmonda boshqa odam chopolmaydi, naq supraday keladi, og'ir, juda og'ir. Murodxon tog'a bir oz kuzatib turdi-da:

– Polvon tog'a, sizga eshak mingan xabarchi kelibdi, – deb qo'ydi.

Otam ketmon urishdan to'xtab, sopiga ko'ksini qo'yib, bizga qaradi. Menga ko'zi tushgach, nazarimda kulimsirab qo'ygandek bo'ldi. Peshanasi terlab ketibdi, chuqur-chuqur nafas olyapti, to'ning etagini qayirib, beliga qistirib olgan. Negadir bir yengini chiqarib, bilagini ham yalang'ochlab olibdi.

– Orifjonmisan? – dedi nihoyat dadam.

– Menman, ota.

– Polvon tog'a, bu yoqqa chiqavering, – gapga aralashdi tabelchi, – muhim bir gap chiqib qoldi.

Otam, chekimdan ozginasi qoldi, bir yo'la tugatib chiqaman deb ko'nmadi...

Anhordan chiqqach, men olib borgan xabarni eshitib: «Qara-ya, Murodxon, shu bugun tushimda ham ayon bo'luvdi, oq ot minib kun botar tomonga qarab ketayotgan emishman», – deb qo'ydi. So'ngra boshqa hech narsa demay, goh burnini, goh chakkasini qashlab kulimsiragancha uzoq jim turib qoldi.

«BIR KO'ZLI YOVNING BOSHI UZILSIN»

Kolxozimizning ona-bola raisi otamni urushga jo'natmaslik uchun ko'p harakat qildi, voyenkomatga ham borib keldi. Mirzapolvonning bir o'zi bitta traktorning ishini qilyapti, u ketib qolsa kolxozdagi ishlarni kim qiladi, degan gaplarni ham aytibdi, ko'nishmabdi. Hozir urushga shunaqangi pahlavon yigitlar kerak deyishibdi.

Otam, men kelguncha o'tindan qiynalib qolmanglar deb, tuni bilan uxlamay bog'dagi katta o'rikni kesib, o'tin tayyorladi, azonda tegirmonga borib bug'doy bilan jo'xori tortib keldi. Bitta burdoqi qo'yimiz bor edi, ukam Omonning to'yiga boqib yuruvdik o'shani so'yib, go'sht-yog'idan bir qismini sotib, otamga yo'l xarj qilib berdik bir qismini qovurib katta kastryulga bosdik otam olib ketadigan bo'ldi.

Kechqurun uyimizga erkak-ayollar to'planishdi, lekin ko'pchilik kelmadi, nega desangiz, o'sha kuni kishlog'imizdan yana to'rt kishi armiyaga ketayotgan ekan. Odamlarning qolgan qismi xayr-xush qilish uchun o'shalarnikiga ketishibdi.

To'lg'on xolam frontga ketgan ikki o'g'li bilan ukasiga atab uchta xaltada quruq meva olib chiqibdi, borgan kuniyoq darrov bergin, onang soppa-sog' yuribdi deb qo'ygin, dedi-yu, ko'ngli buzilib ketdi shekilli, to'satdan yig'lab yubordi. Ketidan Parpi buvam bilan xotini To'xta xolamlar chiqishdi. Buvam otamning ota avlodidan bo'lar ekan. Umuman, qishloqda bizning urug'larimiz juda kam. Bor-yo'g'i shu Parpi buvam, xolos. Opamning bo'lsa urug'laridan hech kim qolmagan deyishadi. Parpi buvam bilan To'xta xolam ham o'g'illariga atab sovg'a-salomlar olib chiqipdi. Buvam hassaga tayanib, oqsoqlana-oqsoqlana zo'rg'a yurib chiqti. Ko'zini mo'ltillatib boshi-boshi qilganicha ichkariga, erkaklarning oldiga kirib ketdi-yu,

o'tirganlardan bitta-yarimtasi ko'ngliga yoqmadi shekilli, darrov orqasiga qaytib chiqdi.

– Polvon, qani be'ri kelchi, – deb dadamni chaqira boshladi, so'ng hovli o'rtasida tik turgan kelini yotqizib, yonma-yon o'tirishga h, xo'rsina-xo'rsina so'zini davom ettirdi: – Xudo nasib qilib o'g'illarimni ko'radigan bo'lsang, uchovining ham peshanasidan o'pib qo'ygin, xudoyo boshlari toshdan bo'lsin. Mana bunisi – o'risvoyga, ichida quloqchin bor, darrov kiyib olsin, nomard kelinim er qilib ketganini aytma, ko'ngli eziladi... Mana bunisi – Anorvoyga, tezroq bergin, ichida patiri bor, qotib qolmasin tag'in. Mana bu, ola xalta, esingda bo'lsin, olasi, kenjatoyimga... Esizgina, bola g'o'r edi-ya! Endi o'n oltiga to'luvdi-ya! Meli baqqolning chaquvi bilan ketdi bola... Eson-omon qaytib kelsalaring, bu ziqna baqqolning ta'zirini o'zlaring berasizlar. Inshoollo, o'sha kunlarga yetaylik... Kenjatoyimga aytgin, rasmini jo'natsin, juda sog'indim, har kuni tushimga kiradi... Tavba qildim-ey, nuqul oyog'imni uqalaydi, degin... Bolala-chaqangdan tashvishlanma, xudo jonimni omon qo'ysa, bularni xo'rlatmayman, o'rtadagi devorni ertagayoq buzib, hovlini bitta qilib olamiz. Mana Orifing ham katta yigit bo'lib qoldi.

– Amaki, o'zim yetimlik bilan o'sib, yuragim to'la qon edi, – sekingina dedi otam uning ovozi qaltirab ketgandek bo'ldi. Ko'zlarida miltillab yosh tomchilari ko'rindi. Katta odam yig'lasa, g'alati tuyularkan. O'zimni o'ng'aysiz seza boshlab, teskari o'girilib oldim. Parpi buvam ertalab seni o'zim kuzatib boraman, endi uyga kirib, oyoq qurg'urga kepak qizdirib bosaychi, zora og'rig'i bosilsa deb, chorvoq orqali uylariga chiqib ketdi.

Ichkarida ancha-muncha odam to'planib qoldi. Qo'shnimiz, hozir kolxoz omboriga tungi qorovul bo'lib ishga kirib olgan Meli baqqol, To'ron amakim, urushda bir oyog'ini yo'qotib kelgan qiziqchi Roziq tog'am, soy

bo'yida yashaydigan chapaqay Xo'janazar aka, yosh-yalanglar, keksalar kelishdi. Otam kuzda xumga musallas solib, ustini suvab qo'yg'an ekan, men ketsam buni kim ham ichardi deb, bugun o'sha chapaqay Xo'janazar aka ikkovlari suzishgandi, choynakda olib kirib har joy-har joyga quyib chiqdim. Mehmonlarga sho'rva tortgach, men ham ostona yoniga cho'kib, kattalarning gapiga quloq solib o'tirdim. Urushdagi ahvoldan, biznikilar juda qattiq jang qilayotganligidan, bozordagi narx-navo oshib borayotganligidan nolib gaplashishardi. Bir xil yurtlarda qattiq ocharchilik boshlanib ketibdi. Odamlar ko'chalarda sulayib qolayotgan emish, qo'shni qishloqda o'n bir kishi shishib o'libdi. Bittasi sholining to'ponidan non yopgan ekan, tandirda yonib ketibdi. Qo'shni qishloqlik Dehqon shapka degan odam Isfaradan bug'doy olib kelayotgan ekan, yo'lda o'ldirib ketishibdi.

Parpi buvam uyida o'tirolmadi shekilli, darrov orqasiga qaytib chiqib, davraga qo'shildi-yu, qiziq-qiziq gaplardan gapirib odamlarni kuldirishga tushdi.

– Roziqvoy, bu Girmonni bitta ko'zi oldida, bitta ko'zi orqasida bo'ladi deyishadi, shu rostmi? – so'radi buvam.

– Men bunaqasini kurganim yo'q, – deb qo'ydi Roziq tog'a sho'rva ho'plab.

– Yo'q, men haligi lashkarboshisini aytyapman.

– Unisiyam siz bilan menga o'xshagan bir odam.

– Sen uni o'z ko'zing bilan ko'rdingmi?

– Ko'rganman.

– Ko'rgan bo'lsang, qani ayt-chi, o'sha Girmon kofirmi, musulmonmi?

– Kofir.

– Kofir bo'lsa, demak, bitta ko'zi oldida, bitta ko'zi orqasida bo'lishi to'g'ri, sen payqamabsan. Qadimgi kitoblarda shunday deb yozilgan... Xo'b, mayli, bunisini qo'yaylik. Qani aytchi, o'sha Girmonning har bitta o'qi aravaning gupchagidek keladi, deyishyapti, shu to'g'rimi?

– To‘g‘ri, – tasdiqladi Roziq tog‘am, – lekin biznikilar ham ularnikidan qolishmaydi.

– Demak biznikilar ham zo‘r degin?

– Bo‘lmasam-chi, shunday o‘qlarimiz borki, nima desam ekan, hovlidagi kelini ko‘rdingizmi?

– Ko‘rdim.

– Har bitta o‘qimiz ana o‘sha kelidek keladi!

– Bay-bay-bay, – deya yoqasini ushladi Parpi buvam, – o‘sha o‘q bilan ham o‘ldirib bo‘lmayaptimi? Joni to‘ng‘iznikidan ham qattiq ekanda. Ha, ishqilib hukumat omon bo‘lsin.

Musallasni hammadan ko‘ra ko‘proq To‘ron amaki ichib, hammadan oldin mast bo‘lib qolgan ekan, oldiniga ko‘zlarini g‘alati suzib kulimsiragancha o‘y surib o‘tirdi-yu, keyin to‘satdan tutaqib ketdi. Katta mushti bilan dasturxondagi tozalanmagan suyakni bir urdi-da:

– Roziq! – deb chaqirdi.

– Nima deysan? – so‘radi Roziq tog‘a ham hushyor tortib.

– Nima deb aljiyapsan o‘zing?

– Aljiganim yo‘q.

– Mana, dushmani mendan so‘ra, elliktasini o‘ldirganman! Yoki yolg‘onmi?

– G‘irt yolg‘on! – dedi Roziq tog‘am boshqalarga qarab ko‘zini qisib.

– O‘zing yolg‘onchisan... Men o‘n marta nayzabozlik jangiga kirdim, har kirganimda beshtadan nemisni o‘ldirdim, ko‘kragiga mana bunday qilib nayza sanchib o‘ldirdim, bildingmi? Sen... sen... Parpi buva, men bitta nemisni kallasini qiyiqqa tugib, olib kelayotgan edim... Mana shu o‘zimizning Qo‘qonga kelganda, ug‘irlatib qo‘ydim, kisovur bolalar o‘g‘irlab ketishibdi...

– Yolg‘on, qip-qizil yolg‘on! – deb Roziq tog‘am o‘tirganlarga birma-bir qarab chiqadi.

– Yolg‘onmi? – qo‘ltiqtayog‘iga suyanib o‘rnidan tura boshladi To‘ron amaki.

- Yolg'on! Agar ellikta nemisni o'ldirgan bo'lganingda qahramon bo'larding. Ko'ksing to'la orden bo'lardi!

- Orden dedingmi?

- Orden bor.

- Qani ko'rsat-chi?

- Hoy Roziq, sen men bilan ko'p pachakilashaver-ma, bildingmi! Men orden talashib urushganim yo'q, qongaqon, jonga-jon deb urushdim, bildingmi. Gospitaldan chiqayotganimda yangi borgan askar bolalarga ordenlarimni esdalikka ulashib berdim. To'ron tog'angdek urushinglar dedim, bildingmi! Sen Roziq cho'loq, razvedkachiman, shuhrat ordenim bor deb kerilaverma... Men... men serjant To'ron O'runov bo'laman, generallar bilan qo'l berib so'rashganman! Serjant O'runov slushayet, bildingmi..

To'ron amaki to'satdan ho'ngrab yig'lab yubordi. Ko'ksini yirtib, boshlariga ikki qo'llab mushtlab, urushga birga ketgan o'rtoqlarining nomini aytib chaqirib, shunaqangi uzoq yig'ladiki, oxiri qo'ltig'idan olib uyigacha eltib qo'yishdi.

Odamlar anchagacha bir-birlariga gap qo'sholmay g'alati bo'lib o'tirishdi, Hamma sukutda... xuddi to'satdan tillari yo'q bo'lib qolganday oshni yeb bo'lishguncha ham gaplari bir-birlariga qovushmadi. Nihoyat Roziq tog'am:

- Polvon, shunday qilib erta junaysizlarmi? - deya sukunatni buzdi.

- Shunaqa shekilli... - yo'tal aralash dedi dadam.

- Ishqilib o'g'lim, tagobli yigitlarning yuzini yerga qaratmagin-da, - nasihat qilgan bo'ldi Parpi buvam, - astoydil urushgin, og'zingdan kalimai shaxodat hech tushmasin, shunda senga o'q kor qilmaydi... Tagoblilar bosmachilarga qarshi yomon urushmovdi, endi bunisigayam bo'sh kelmanglar... O'sha Girmon deganlari juda zo'r bo'lsa Ko'rshermatcha bo'larda... o'shani yengdigu... Nima deding Roziqvoy?

– To‘g‘ri, amaki, – tasdiqladi Roziq tog‘a, – muhimi, Polvon, urushda shoshib qolma! Keyin, ruslarning yonida bo‘lishga harakat qil, ulardan o‘rganasan... Meniyam urush maydonidan o‘shalar olib chiqdi. Yetti yot begona o‘ris ko‘tarib chiqdi-ya!.. Qani, Parpi buva, bir duo qiling, sekin qo‘zg‘alaylik endi.

Parpi buvam cho‘kka tushib, ikki qo‘lini yuqori ko‘tardi:

– Iloyo omin, – shunday dedi-yu, nazarimda u yog‘ini esidan chiqarib qo‘ydi shekilli, bir nafas jim bo‘lib qoldi, – iloyo omin, oy borib, omon kelgin. Girmon otli bir ko‘zli yovni boshi tanidan judo bo‘lsin, hammalaringa xudo madadkor bo‘lsin, oblohu akbar!

– Oblohu akbar, - deyishdi boshqalar ham. Mehmonlar hovliga chiqib otam bilan quchoqlashib yuzko‘zlaridan o‘pishib, xayrlasha boshlashdi. Ayollar ulu tortib yig‘lab yuborishdi, ukalarim ham bo‘zlab yig‘lashga tushishdi...

Nihoyat mehmonlar tarqab, qop-qorongi hovlida o‘zimiz qoldik. Men mollarga xashak olgani og‘ilxonaga kirib ketdim. Opam hozirgina erkak mehmonlar o‘tirgan katta yorug‘ uyga hammamizga bitta qilib joy solibdi. Ilgari uchta uyda, uchga bo‘linib yotardik Usmon ikkimiz oshxonada, Omon bilan otam mana shu katta uyda, opam ukalarimni yoniga olib kichkina uyda uxlashardi. Bugun otam bilan so‘nggi kecha birga bo‘layotganimiz uchun opam joyni ataylab birga solibdi. Uyga kirsam, Omon bilan Robinisa otamning tizza-siga o‘tirib olib, topishmoq aytiryapti. Opam Zulayhoning sochini maydalab o‘rib o‘tiribdi. Usmon mis laganning ustiga shaltoq daftarini yozib, ko‘ksini yerga berganicha inqillab rasm chizish bilan ovora.

Men halidan buyon razm solmagan ekanman, opam negadir saylga ketayotgandek yasanib olgan ekan, sandiqdagi hamisha behining hidi anqib turadigan atlas ko‘ylagi, qora baxmal to‘nini kiyib olibdi, peshanasida

ko'k shohi durra, sochini ham yuvib, silliq qilib tarab olibdi.

– Ishqilib xatni kanda qilmasangiz bo'lgani, – deyapti opam.

– Bo'lmasachi, sen ham tez-tez xat bitib turgin, – javob qilpti otam, – boqqolning pulini berdingmi?

– Berdim.

– Yaxshi qilibsan... Bundan keyin undan qarzga hech narsa olmanglar.

– Xudo betini teskari qilsin! – qarg'andi opam, – yana omborga qorovul bo'lib olibdi-ya!

– Kattalar bilan bordi-keldisi bor deyishadi, tushuntirdi otam.

– Voy esim qursin, – shunday deb opam cho'ntagini kavlashtirib tumor chiqarib, otamga uzatdi. – Ko'kragingizga taqib oling!

Otam avvaliga shunaqa irim-sirimlaringni qo'ysang-chi, deb ko'nmagandi, opam bu yerga hamma bolalaringizning nomini yozdirganman degan edi, otam tumorni olib shosha-pisha bo'yniga osib oldi.

Men shu paytda negadir juda, juda ham xursand edim. Hozirgina uyimiz to'la aziz mehmonlar, qadrdon kishilarimiz bo'lgani uchunmi, butun oilamiz bilan hammamiz jamuljam o'tirganimiz uchunmi yoki o'zim ham bilmagan boshqa biror sababdanmi, har qalay men behad xursand, ta'riflab bo'lmaydigan darajada shod edim. Shu xilda xursandligimcha uxlab qolibman. Tong pallasida uyg'onib ketdim, ko'zimni ochsam, opam otamning tizzasiga boshini qo'yib piq-piq yig'layapti, otam, qo'y, qo'ysang-chi, deb katta qo'llari bilan opamning sochlarini avaylab silab o'tiribdi...

– Polvon, uxlab qolmadingmi? – Parpi buvamning ovozi eshitildi tashqaridan.

«TEZROQ KELING, OTAJONIM!»

Barvaqt yo'lga chiqdik.

Parpi buvam bilan To'xta xolam o'zlarining eshaklariga minishdi.

Zulayho, Usmon, Omon uchovlari bizning eshakka minishdi.

Otam to'ning etagini qaytarib, orqasiga Robinisani solib oldi.

Sulton, oyim uchovimiz piyoda jo'nadik.

Rayon markaziga borish uchun katta yo'ldan ketsak ham bo'lardi-yu, otam so'qmoqdan bora qolaylik yo'limiz olti chaqirimga qisqaradi, deb taklif qilib qoldi.

So'qmoqdan yurdik.

Eshaklilar oldinga o'tib olishdi. Hammamiz jim borayapmiz, qiziq, xuddi gaplashadigan gapimiz tamom bo'lib qolgandek. Otam o'zi aslida kamgap odam, so'rasang javob beradi, bo'lmasa xaftalab ham jim yuraveradi. Men bo'lsam xuddi shu paytda dadajonimni gapga solsam, ko'p narsalarni so'rab bilsam, ovozlarni eshitib ketsam deyman. Yelkamdagi qopchiqni sal yuqoriroq ko'tarish uchun ikki oyog'imni kerib silayotgan edim:

– Charchadingmi? – deb gapirib qoldi otamning o'zi.

– Charchaganim yuq, – dedim shosha-pisha.

– Orifjon!

– Labbay, ota!

– Senga qiyin bo'ladigan bo'ldi-da, o'g'lim!

– Nega unday deysiz?

– Hali ukalaring yosh, oying kun buyi dalada, butun ro'zg'or o'zingga qolyapti-da, o'g'lim.

– Tashvishlanmang ota, men ishdan qochmayman.

– Rahmat o'g'lim, ishqilib o'qishingni tashlab yubormagin. Ukalaringning ham o'qishidan o'zing boxabar bo'lib tur... Endi shunaqa ekan-da... Ko'pga kelgan to'y, nima ham qilardik... Bo'lmasa sizlarni

o'qitaman, katta maktablarda o'qitaman, deb mo'ljal qilib qo'yuvdim... O'qish kerak... Men ahmoq o'qisam ham bo'lardi-yu... haligi savodsizlarni tugatadigan maktabga olib borishsa, Nisormat maxsumning tapqi hovlisida shunaqa maktab ochiluvdi, derazadan tashlab qochibman-a.. Mana endi sizlarga xatni qanday qilib jo'natar ekanman, deb o'ylanib ketyapman.

- Sheriklaringizga aytib yozdirsangiz bo'lmaydimi, ota?

- Endi, o'g'lim, sheriklar ham bir kun yozib berar, ikki kun yozib berar, oxiri zerikadi-da, to'g'rimi?

- To'g'ri, ota!

- Shuni bilsang o'qishni payidan bo'l, haligi ko'zoynak taqib, qizil papka ko'tarib yuradigan katta domla bo'lish payidan bo'laver...

- Ota, siz miltiq otishni bilasizmi?

- E o'g'lim, mendan ketmon chopishni so'ra. Rosmana milittsiya hali ko'rganim ham yo'q... Keyin, o'g'lim, yana bitta iltimosim shuki, opang bechorani xafa qilmanglar.

- Xo'p!

- Kechalari ukang Omonni o'zing olib yotgin, ertaklar aytib bergin... Ertak eshitmasa uxlay olmaydi u, shu ukang sal g'alatiroq chiqdimi deyman, ertak bilan topishmoqni biram sevadiki, tavba!

- Ota, uningiz she'r to'qishniyam biladi, she'rini eshitganmisiz ?

- Bir xillarini eshitganman. Ha mayli, xudo xohlasa eson-omon qaytib kelsam buniyam o'qitamiz... Orifjon!

- Labbay, ota!

- Qo'ying tug'sa sigirni sotib yuboringlar, qo'yning sutini amallab turarsizlar, oyingga ham aytdim... Sigiring qarib qoldi, endi yolchitib sut bermaydi... Bolasini olib qolinglar...

Oldinda ketayotgan eshak uynoqlab, andek bo'lmasa Zulayho bilan Usmonni ustidan ko'tarib urayozdi.

Umuman, yo'lga tushganimizdan buyon tuzuk yurmayapti u. Goh chopgisi kelib oldingi ikki oyog'ini osmonga ko'tarib nag'ma ko'rsatadi, goh «nos chekib», engashib, yerni hidlab turgan joyida gir aylanadi, hala qilsa, shattalab yana bezor qiladi. Aslida ayb o'zimda, kecha musallas suzganimizda katta tog'ora bilan liq to'la chori chiqqan edi. Tog'ora-pog'orasi bilan eshakning oxuriga qo'yuvdim, paqqos tushirib olgan ekan, mast bo'lib qolganga o'xshaydi, ha-ha mast bo'lib qolibdi u! Ana, ikki oyog'ini osmonga ko'taryapti yana!

– Otajon! – qichqirib yubordi Zulayho. Eshak uchov ukamni ustidan itqitib tashlab, chap tomonga – shudgor qilingan yerlarga qarab yugurdi, hamma yoq qiy-chuv bo'lib ketdi. Tasodifni qarangki, shoshilib eshakdan tushayotib Parpi buvam bilan To'xta xolam ham ketmaket gupillab yiqilib tushishdi. Ukalarimning joni qiynalganini ko'rib opam ham yig'lab yubordi.

Otam ikkovimiz eshakni quvib ketdik ortimizdan Sulton ham yugurdi. Eshak xaydalmagan taqir yerga chiqib olgach o'ynoqlab, shataloq otib, xuddi bizga o'yin ko'rsatmoqchi bo'lgandek g'alati-g'alati qiliqlar qilib qocha boshladi. To'xtab, biz tomonga tumshug'ini cho'zib turadi-da, yetay-etay deganimizda yana o'ynoqlashga tushadi. Sulton bizga qaraganda chopag'onroq ekan, ikki marta yetib olib tizginini ushladi-yu, ammo eshak siltanib chiqib ketdi. Ikki soat chamasi ovora bo'ldi quva-quva baland-past qirlarga borib qolibmiz. Tepalikdan u yog'i terak bo'yi keladigan jarlik. Shu yerda ushlat olarmiz deb xalqaga olib yaqinlashib kelayotgan edik eshak ikki oyog'ini ko'tarib, jarlikka shunday sakradiki otam:

– Eh, – deb uh tortib yubordi.

Eshak jarlik tubiga gupillab urildi-yu, baqadek yalpayib qolgandek bo'ldi.

– Tamom! – dedi otam bosh chayqab.

Otam bilan Parpi buvam bizga juda ilxaq bo'lishibdi. Ehtimol dasht orqali rayonga jo'nab ketgandir deb ham o'ylashibdi.

- Ro'zg'orga yarab turuvdi, - xuddi kechirim so'ragandek bir ohangda dedi otam.

- Mayli, Polvon, qayg'urma, bolalaringning boshi-ko'zidan sadaqa, - otamning ko'nglini ko'tardi buvam, - eshagim tug'sa bolasini berarman, endi tezroq jo'naylik tag'in hukumatdan gap eshitib yurmagin.

Harbiy komissariatning hovlisiga choshgoh mahalida yetib bordik. Hamma yoqqa odam demagani sig'may ketibdi. Chol-u kampirlar, yosh-yosh qiz-u juvonlar, men tengi, mendan kichkina bolalar - igna tashlasang yerga tushmaydigan bo'lib ketibdi.

Otam tengi, undan yoshroq ikki yuz chog'li kishini hovlining qoq o'rtasiga ikkitadan qilib safga turg'izib qo'yishibdi. Safdagilarning bir xillari tartibga rioya qilib tikka turibdi, bir xillari bor-e, oyog'im tolib ketdi, qo'lingdan kelganini qilmaysan-mi deb, qopining ustiga o'tirib olibdi, atrofdagilar bo'yinlarini cho'zib, bir xillari qo'lini og'ziga kuvacha qilib safdagilarga gap ham qo'shib turishibdi:

- Dada, dadajon, men bu yerdaman!

- Hakim, bora solib adresingni jo'natgin!

- Bolaginam, bemahalda ko'chaga chiqmagin!

- Akajon, rasmingizni jo'natib yuboring, oyimga darmon bo'ladi.

- Adasi, bolalaringizdan ko'nglingiz tinch bo'lsin, bir yaxshi qilib olib o'tiraman.

Otam Parpi buvam bilan quchoqlashib xayrlashdi, bolalarimni sizga, sizni xudoga topshirdim, dedi. Hammamizni bir-bir bag'riga bosib peshanamizdan o'pdi. Opam bo'lsa otamning yelkasiga qo'lini qo'yishi bilan, negadir ho'ngrab yig'lab yubordi.

Otam nihoyat o'rtaga o'tib yoshgina rus komandiriga ro'baro' bo'ldi. Komandir ro'yxatdan otamning fami-

liyasini topib, qo'lini shop qilib bir narsalar degan edi otam yo'lda eshak qochib ketib ovora bo'lib qoldik dediyu, oxirida yana:

- Eshshak... – deb qo'shimcha qilib qo'ydi.
- Eshshak?! – xayron bo'lib so'radi komandir.
- Da, eshshak! – dedi yana otam.

Komandir negadir battarroq tutaqib ketdi, yer tepindi, otam yana qayta boshdan tushuntira boshladi. Eshak mast bo'lib qolgan ekan dedi va:

- Piyanista, – deb qo'shimcha ham qilib qo'ydi.
- Piyanista?! – qoshlarini kerib takrorladi komandir.
- Ha, eshak piyanista, – dedi otam nihoyat tushuntira

olganidan mamnun bo'lib. Ammo komandir jahl otiga minib oldi. Nazarimda sochlari tikka bo'lib ketgandek bo'ldi, vizillaganicha ichkariga kirib, o'zi tengi bir uzbek komandirni boshlab chiqdi.

- Nega komandirni haqorat qildingiz? – so'radi yigit. Otam bo'lgan voqeani aytib bergan edi, o'zbek xaxolab kulib yubordi, rusga tarjima qilgan edi, u ham xaxolab kulib yana bir narsalar deb qo'ydi.

- Nima deyapti? – qiziqsinib so'radi otam.
- Essizgina, eshagini olib kelganda otliq askarlar safiga yozib qo'yardim, minib jang qilardi, deyapti, – tushuntirdi o'zbek komandir.

Safda turganlar o'rtasida yengilgina kulgi ko'tarildi. Otam ham kulib, shosha-shosha javob qaytardi:

- Komandirga aytgin, Parpi amakining eshagi tug'sa xo'tikchasini berib yuboraman deyapti, o'shani minib jangga kiraveraman.

O'ris komandir yana kuldi, yaqin kelib otamning yelkasiga shappatilab, safga qo'ya boshladi. Otamning bo'yi juda baland ekan, qayerga qo'ysa yoni-beridagilar beli barobar bo'lib qolaverdi. Oxiri safning eng oldiga o'tkazib ko'rди, unda ham bo'lmadi. Sheriklarining bo'yi otamning yelkasidan bo'lib qoldi.

– Sal engashib turaman, – dedi otam bo‘yi novchaligidan xijolat bo‘lib.

– Hechqisi yo‘q, – dedi komandir, – artilleriyaga sizdaqangi pahlavonlar kerak.

Komandir orqaroqqa chekinib, safga tiziling deya o‘rischa buyruq berdi. O‘tirganlar o‘rinlaridan turib, bir xillari qopchigini qo‘liga oldi, boshqalari yelkasiga tashladi. Komandir chappa buriling deb buyurgan bo‘lsa ham safdagilarning yarmi o‘ngga, yarmi orqaga burilishdi. Bir xillar yurib keta boshladi, yana bir xillari turgan joyida qoqilgan qoziqdek jim turishaverdi. Komandir safni avvalgi holiga keltirguncha naq terlab ketdi. Chappa deganda qayoqqa, o‘ngga deganda qayoqqa burilish kerakligini rosa tushuntirgach:

– Chappa! – deb buyruq berdi yana. Yo‘q, bu gal uncha anglashilmovchilik bo‘lmadi, hamma chappa burildi.

– Olg‘a! – buyruq bo‘ldi yana. Saf qo‘zg‘alishi bilan kuzatuvchilar ulu tortib yig‘lashga tushdi. Minglab odamlarning jam bo‘lib yig‘lagani juda qo‘rqinchli bo‘larkan.

– Otajon!

– Akajonim!

– Pahlavonim!!!

– Hoy, adasi, to‘xtang! – degan ovozlari eshitilib qoldi har tomondan. Nazarimda, butun olam yig‘layotgandek yer-u ko‘k daraxtlar ham ko‘z yoshi to‘kayotgandek bo‘lib ketdi. Usmon yig‘layapti, Omon bo‘zlayapti, Robiya chinqiryapti...

– Voy xudoyim!

– Alining qilichiga uchrasin o‘sha Girmon!

– Essizgina yigitlar!

– O‘g‘ilginam! – deb xayrlashishyapti odamlar. Opam negadir jim, yig‘lamaydi ham, gapirmaydi ham, to‘satdan loqayd, beparvo bo‘lib qoldi. Kun bo‘yi shu ahvolda yurdi. Miting paytida ham, askarlarni mashinaga chiqari-

shayotganda ham toshdek qotib turaverdi. Ukalarim yopishsa, siltab tashlaydi. Uyga qaytib kelgunimizcha ham kayfiyati o'zgarmadi. Xuddi jin chalib ketgandek tili yo'q gung bo'lib qoldi.

Uyga kelsak ish juda rasvo bo'libdi. Oy-kuni yetib turgan sovlig'imiz cho'zilib yotibdi, tug'aman deb ko'p urinibdi-yu, tug'olmay o'lib qobdi.

– E attang! – dedi Parpi buvam bosh chayqab, – bolasi teskari kelgan ekan... O'zim oldida bo'lganim-da osongina qutulardi-ya.. Ha mayli, kelgan balo shunga urgan bo'lsin.

Omon opamga surkalib non berasiz, qornim og'riyapti deb xarxasha qilgan edi, opam to'satdan portlab ketdi:

– Yo'qol!!!

PARPI BUVAM ZAMBARAK SOTIB OLMOQCHI

To'ron amaki bilan Roziq tog'am uyma-uy yurib jangchilar uchun meva-cheva, qo'lqop, jun paypoq, quloqchinga o'xshash narsalar yig'ishyapti, biz bolalar bo'lsak qani kim nima berarkin, qancha berarkin deb qiziqqanimizdan galalashib ularning ortidan ergashganmiz. Navbat Parpi buvamga kelganda Roziq tog'am:

– Bir xillar shu bir kap mayizini ham qizg'anadi, – deb gap boshladi, – toshkentlik bir odam butun boshlik tanka sotib olib beribdi!

– Tankang nimasi? – so'radi Parpi buvam.

– Tanka deb urushadigan traktorga aytishadi.

– Yopiray, tanka ham urushadimi!

– Urushadi, – gapga aralashdi To'ron amakim – bitta sizga o'xshagan chol to'plab yurgan puliga samolyot olib beribdi.

– Ayriplonmi? – xayron bo'ldi buvam.

– Ha, ayriplon.

– Bu hukumat shunaqa ishga ruxsat berarmikan?

– Beradi, – ishonch bilan dedi To‘ron amakim, – qani endi, siz, ham o‘g‘illaringizga atab bitta zambarak olib jo‘natsangiz...

Parpi buvam soqolining uchini chaynab bir oz o‘ylanib turdi-da, oxiri «Qo‘ysangchi shunaqa gaplarni, hozir bozordan tuzukroq otashkurak topib bo‘lmaydi-yu, zambarakni qayerdan topaman» – deya qo‘l siltadi. Roziq tog‘am «Siz zambarakning pulini jam qilib bersangiz bo‘lgani, hukumatning o‘zi u yog‘ini to‘g‘irlab oladi» – dedi.

Parpi buvam soqolining uchini chaynashdan to‘xtab:

– Xo‘sh, bu zambaragingning bahosi qancha ekan? – deb so‘radi.

– Yuz ming!

– A?! – Nazarimda Parpi buvam turgan joyida bir qalqib ketgandek bo‘ldi.

– Nima, siz uni uchiga tosh boylab otadigan sopqon deb o‘yladingizmi?

– Roziq, menga qara, sal arzonroqqa ko‘ndirishning iloji yo‘qmi?

Roziq tog‘am «Sizni birov zo‘rlayotgani yo‘q, xohlamasangiz shu bir yelpig‘ich mayizingiz ham yetadi, hali aytdim-ku, bir xillar shuniyam berishmayapti...» deb qo‘ydi-yu, sekin yurib keta boshladi. Parpi buvam, «To‘xtab tur, men kampir bilan bir maslaxatlashib ko‘ray» deb ichkari kirib ketdi. To‘xta xolam hovlida kir yuvib o‘tirgan edi, bobom uning yoniga borib gapni juda uzoqdan boshladi: hozirgi urushda zambarak bo‘lmasa dushmani yengib bo‘lmaydi, mana o‘zing bilasan, Ko‘rshermatni qo‘rg‘ondan quvib chiqarishda zambarak ish bergan edi, dedi. To‘xta xolam:

– To‘g‘ri, zambarakka cho‘yan soqqa solib otisharmish, – deb qo‘ydi.

Parpi buvam o‘rnidan turib mabodo kampir quvlab qolsa qochib ketishim osonroq bo‘ladi deb o‘yladi shekilli, ko‘cha eshik yoniga borib:

– Kampir, – deb chaqirdi.

– Qulog‘im karmas, sekinroq gapiravering, – deb qo‘ydi To‘xta xolam.

– Men ham o‘g‘illaringga atab bitta zambarak olaman!

Yo‘q xolam bobomni quvlamadi, o‘rnidan ham turgani yo‘q, «Zambarakni o‘g‘illarimga hukumatning o‘zi olib beradi» deb qo‘ya qoldi. Bobom xolamga sal yaqinlashib: «Hukumat hammaga zambarak olib berolmaydi, pul yetkazolmaydi», – dedi. Xolam yana parvosiga keltirmay: «Hukumatning pul ishlab chiqaradigan zavodi bor, siz tashvishini tortmay qo‘ya qoling, undan ko‘ra ichkariga kirib bo‘zingizni to‘qing» dedi. Bobom: «Hukumatning pul ishlab chiqaradigan zavodi bir hafta oldin dushmanning qo‘liga o‘tib ketibdi» dedi. Bu gapni eshitib xolam bir oz o‘ylanib qoldi, nihoyat kir yuvishni to‘xtatib:

– O‘sha zambaragi necha pul turarkan? – deb so‘radi.

– Orif, bolam, sen aytgin, necha pul deyishdi? – deb buyurdi bobom.

– Yuz ming! – dedim shosha-pisha.

– Nima?! – sekin o‘rnidan tura boshladi xolam, – ehtimol Orifjon, yaxshi eshitmagandirsan?

– Yo‘q, aniq eshitdim.

– Nima, sen zambarakni uchiga tosh boylab otadigan sopqon deb o‘yladingmi! – dedi bobom zardasi qaynagandek bo‘lib, – uni qora po‘latdan quyishadi, bildingmi!

– Miyangiz aynab qopti! Shuncha pulni qayerdan topasiz?

– Xudo xohlasa topaman!

Bobom gapga juda chechan ekan, bora-bora xolamni og‘iz ochirtirmay qo‘ydi. Urushda yengib chiqishimiz mana shu bobom jo‘natadigan zambarakka bogliq. Xolamning o‘g‘illari Anorvoy akam, Bo‘rivoy akam,

Dehqonboy akamlarning ham sog'-salomat qaytib kelishlari mana shu zambarakka bog'liq ekan, shu zambarak eson-omon urush maydoniga yetib borsa, qishlog'imizdan ketgan uch yuz yigit ham tezroq qaytarkan, e boringki, shu kecha-kunduzda avj olib borayotgan ocharchilik ham mana shu zambarak tufayli daf bo'lishi mumkin ekan...

– Ha bo'пти, – dedi oxiri xolam rozi bo'lgandek bo'lib, – bilganingizni qiling!

Bobom pul sanashni bilmas edi, shuning uchun ertasiga bozorga meni o'zi bilan birga olib ketadigan bo'ldi. Kolxozdan ot-arava olib, ikki qop mayiz, uch qop o'riq, to'rt qop oq jo'xori yukladik. Bozordagilar ham Parpi buvamning kelishini kutib turishgan ekanmi, olib borgan narsamizni, ishonsangiz, ko'z yumib ochguncha talab ketishdi. Chorshanba bozoriga sigir bilan buzoqni ham xaydab borib pullab keldik, tomdagi ikki-uch yildan buyon qurib yotgan beda ham tuzukkina pul bo'ldi. Nihoyat o'tirib pulni hisoblab ko'rgan edik mo'ljalga yetmabdi.

– Endi nima qildik? – Mendan maslahat so'rab qoldi bobom. Men nima deb maslahat berishni bilmas edim, shuning uchun yelkamni qisib qo'ya qoldim.

– Xolangda pullasa bo'ladigan narsalar bor, – dedi bobom, – akalaringni uylantiraman deb yig'ib yuribdi beqasam, shoyi hammasidan bor... Lekin bermaydi-da...

– Yolvorib so'rasak-chi? – deb maslaxat bergan bo'ldim.

– Yo'q bari bir bermaydi... Yashirib olsak bo'ladi-yu...

– O'g'irlab olsak deysizmi?

– Yig'lab-yig'lab joyiga tushib qolarmikin deymanda.

– Bilmasam... – dedim men yana yelkamni qisib. Xu narida charx yigirib o'tirgan xolam suhbatimizga zimdan quloq solib o'tirgan ekanmi, jimgina o'rnidan turib, omborxonaga kirib ketdi-yu, xiyol o'tmay Dehqonboy

akamga atab qilingan bannani katta qiyiqqa tugib chiqdi. «O'g'illarim eson-omon qaytib kelsa, bir amallab to'ylab olarman» deb tugunni bizning oldimizga tashladi.

Bozor kuni bannani ham sotib keldik. Pul yana mo'ljalga yetmagan edi, Parpi buvam bu gal negadir tayoqib ketdi. «Sen kallavaram, dadangga o'xshamay o'lgur, ko'zingni ochibroq sana, bir xillarini shunday o'tkazib yuboryapsan» deb andek bo'lmasa meni quvlab chiqarayozdi.

– Bir xurjun pul mo'ljalga yetmadimi, a?

– Yetmayapti, – deb qo'ydim yana urishib berishidan qo'rqib.

– Xo'sh, qancha yetmaydi?

– O'n ming deyapman-ku.

– Endi nima qildik sotadigan hech narsa qolmadi-ku?

– Qarz ola qolaylik.

– Boqqoldanmi? – ko'zlarini katta-katta ochib so'radi Parpi buvam.

Boqqoldan boshqa odamda pul bo'larmidi? Pulning kattasi o'shanda-da! Odamlarning aytishiga qaraganda pulning sassig'iga yotolmay kechalari yurib chiqarmish. Lekin Parpi buvam Meli boqqolni yoqtirmaydi, ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q. Aslida-ku, boqqolni hech kim yoqtirmaydi-ya, yoqtirishmaydi-yu bari bir ishini o'sha bilan bitirishadi. Bobom ham pulni Meli boqqoldan so'rashga qaror qildi. Uning hovlisi ichkari-tashqarili, ichkarisida bola-chaqalari turadi, tashqarida mehmonxona, mehmonxonaning yonida kichkinagina eshikchasi ko'chaga ochiladigan boqqolxona bor. Bu yerda lampa moyi-yu zig'ir moy, arpa bo'g'do-yu qand-qurslar, e boringki, eshakning taqasidan tortib qalampirmunchoqqacha hamma narsa topiladi.

Biz kirganda Meli boqqol oldida katta daftar, yonboshida chut bir narsalarni hisoblab o'tirgan ekan.

Boqqol amaki, o'zi pakana-yu lekin yuzi katta, peshanasi keng, yakkam-dukkam soqolli, burni puchug,

iyagi kalta bir odam. Qorni ham xaddan tashqari katta bo'lgani uchun o'tirganda xuddi bir qop go'shtdek bo'lib qoladi. O'ziyam juda g'alati odam, sergapmi, kamgapmi bilib bo'lmaydi. Bir qarasangiz, qiziq-qiziq gaplardan gapirib odamlarni kuldirib o'tiradi, yana bir qarasangiz xuddi shu kechasi tili yo'q bo'lib qolganday, gung bo'lib boshini egib oladi. Shunaqangi qasamxo'rki, asti qo'yaverasiz, agar gapning birida «mozori sharif ursin» deb turmasa, ko'ngli joyiga tushmaydi...

Xayriyat, bugun kayfiyati joyidaga o'xshaydi, bizni shunaqangi xursand bo'lib kutib oldiki, ishonsangiz, o'tqizgani joy topolmay tor uyda pildirab qoldi, ammo bobom qarz so'ragani chiqqanini eshitib, nafasi ichiga tushib ketdi.

– Pul yo'q! – dedi xuddi uh tortganday qilib.

– Xudodan ko'rqsangchi! – deb yolvorishga tushdi bobom.

– Parpi amaki, siz otamni ko'rgan odamsiz, sizdan jonimni ham ayamayman pulim bo'lganda o'sha siz olmoqchi bo'lgan zambarakni, xudo ursin agar, o'zim olib bergan bo'lardim.

– Men senga ikki barobar qilib qaytaraman.

– Aytdim-ku o'zimda pul yo'q deb.

– Birovdan bo'lsayam topib berasan!

– Lekin u odam ikki barobarga ko'nmas deb qo'rqaman.

– Xo'sh, o'sha odaming qanchaga ko'narkan?

– Ikki yarim barobar so'rasa kerak deb qo'rqaman.

– O'sha odamga aytgin, men rozi! – dedi bobom ish o'ngidan kelayotganiga o'zida yo'q sevinib.

Meli boqqol yana ancha mahalgacha uni-buni bahona qilib, talashib-tortishib o'tirdi, qasam ustiga qasam ichib, o'zimda bo'lganda sizga, otamni ko'mgan mehribon bir amakimga yeb ketarga bergan bo'lardim, dedi. Oxiri katta qornini arang ko'tarib, ko'k beda yeb bo'kib qolgan sigirdek pishillab zo'rga o'rnidan turdi-da, qayoqqadir

chiqib ketib, bir osh hamlam fursat yo'q bo'lib ketdi... nihoyat yana inqillab, kimnidir imonsiz deb qarg'ab qaytib keldi-da, bobomning oldiga bir dasta pul tashladi:

– Padar la'natini arang ko'ndirdim!

Bobomning topshirig'iga binoan pulni sanab ko'rdim, bir haftadan buyon kechasi-yu kunduzi pul sanayverib o'ziam usta bo'lib ketgan ekanman, ko'z yumib ochguncha hisobini chiqarib:

– Uch yuz kam, – dedim.

Gapimga Meli boqqol ishonmay, o'zi pulni qayta boshdan sanab ko'ra boshladi. Oxiri «Obbo nomard-ey, aldabdi-ya, deb o'sha qarz bergan odamni boplab bir so'kib qo'ydi. Lekin kamini bari bir to'ldirmadi, olmasangiz olmang, men o'rtada turganim uchun zarar ko'rishni istamayman deb pulni qaytarib chuntagiga solayotgan edi:

– Ha mayli, kam bo'lsayam bera qol, – dedi bobom shosha-pisha.

Ertasiga ishlarimiz juda tez yurishib ketdi. Pulni xurjunga solib, kolxoz idorasiga olib borgan edik kolxozning ona-bola raisi rayonga olib borib o'z qo'lingiz bilan topshirib kelasiz, boshliqlar xursand bo'ladi deb yonimizga hisobchi amakini ham qo'shib berdi...

Harbiy komissariatda bizni hu birda dadamga, eshagingizni minib kelganingizda otliq askarga yozib qo'yardim, deb hazillashgan rus komandiri kutib oldi. Gap nimadaligini bilib, ichkaridan yana bitta komandirni boshlab chiqdi. Ichkaridan chiqqan katta komandir o'zi o'ris bo'lsa ham o'zbekcha gapirishni yaxshi bilarkan, Parpi buvamni quchoqlab peshanasidan, soqollaridan o'pib:

– Yo'q, biz urushda yengilmaymiz, sizga o'xshagan otaxonlar, mana bu yigitchaga o'xshagan askar bolalarimiz omon ekan, yanchib tashlaymiz, – deb qo'ydi.

Pul bilan kecha uyda yozib qo'yganimiz xatni ham qo'shib topshirdik. Xatda: «Ushbu pulga sotib olingan

zambarakni Katta Tagob qishlog'idan borib jang qilayotgan usta Parpi buvaning o'g'illari Anorboy, Bo'rivoy, Dexqonboylar va, shuningdek usta buvaning ota avlodidan bo'lgan Mirzapolvon, Ahmadpolvon o'g'illari birgalikda otis'isin...» degan so'zlar bor edi.

SULTON IZDAN CHIQIB BORYAPTI

Otam armiyaga ketgandan keyin opam bizga sal mehribonroq bo'lib qoldi. Nima bo'lsa ham maktabdan qolmanglar, otalaringning birdan-bir iltimosi shu edi, deb maktabga qatnash uchun Zulayhoga ham ruxsat berdi. Tong saharda Omon bilan Robinisani oyim traktor haydayotgan joyga eltib tashlayman, so'ng Usmon, Zulayho, Sulton to'rttovimiz maktabga jo'naymiz. Usmon birinchi sinfni bitiray deb qoldi-yu, haligacha harf tanimaydi, bir chekkaga o'tirib olib, rasm chizgani-chizgan.

Zulayho bo'lsa juda tirishib, astoydil o'qiy boshladi. Qolib ketgan darslarni ham yetkazib oldi. Maktabdan har kuni mukofotga yarimtadan non olib yeyapti, Sulton bo'lsa... juda rasvo bo'lib ketdi. Maktabga biron marta bo'lsin jild ko'tarib bormaydi, jildida hech narsa yo'q, nimaiki bo'lsa hammasini yo sotgan, yo nonga, meva-chevagami almashtirib yuborgan. Ochig'ini aytsam, maktabga u o'ynagani, bundan ham ochiqroq qilib aytsam, maktabda ulashiladigan nondan qolmaslik uchun boradi, orqa partaga o'tirib olib, uxlagani-uxlagan.

– Nega tuzukroq o'qimaysan? – deyman ba'zan xafa bo'lib.

– Tag'in qanaqa o'qiyman axir, – shovqin soladi Sulton, – har kuni boryapman-ku.

– Axir doim «yomon» olasan!

– Muallimlarda boshqa baho bo'lmasa nima qilay!

Sulton otam ketgach, hayiqadigan odami bo'lmagani uchunmi, uy ishlariga ham butunlay qarashmay qo'ydi,

ish buyursam: «Omborxonaning kaliti senda turadi-yu, men ahmoq bo'lib sening ishingni qilar ekanman-da» deb erta-yu kech men bilan kalit talashadi. Bir kuni kalitni unga qoldirib ukalarimni olgani dalaga ketuvdim, qaytgunimcha ishni rasvo qilib qo'yibdi. Ozgina tuzlangan go'sht bor edi, olib chiqib jarlik tomonga o'tishibdi-da, ho'l novdadan six tayyorlab o'rtoqlari bilan kabob pishirib yeyishibdi. Bir-ikki marta uni opamga chaqib ham berdim, bari bir unga ham bo'yin egmadi u.

– O'zingiz-chi, o'zingiz! – dedi ostona oldiga borib va mabodo opam hamla qilib qolgudek bo'lsa qochib qolish uchun shaylanib, – o'zingiz ham dalada mazza qilib yuribsiz-ku.

– Men traktor xaydayapman, – jig'ibiyroni chiqib dedi opam.

– Xotin kishi uyda o'tirib ro'zg'orga qarashi kerak bolalarini yuvib-tarashi kerak bildingizmi!

– Voy, tilingni xakka cho'qigur, bu gapni senga kim o'rgatdi?

– Ichimdan chiqaryapman, bildingizmi.

– Yo'q, buni senga birov o'rgatgan.

– Hecham-da, hammasini o'zim bilaman. Xotin kishining qo'liga traktorning rulidan ko'ra sigirning emchagi yarashadi, bildingizmi! Undan ko'ra bizni yetim xonaga berib qo'ya qoling bo'lmasa!.. Mana, etigimni ko'ring, paytavasi chiqib yotibdi... Xotinlar, oying o'sha patilloq traktorini silab-siypalaguncha kiyimlaringni yuvib bersa bo'lmaydimi deyapti.

– To'xta, to'xta bolaginam, – deb yolvordi opam, – bu gaplarni senga kim aytdi o'zi?

– Aytmayman! – Sulton eshikni sharaqlatib yopib chiqib ketdi. Ko'chadan turib: «Siz, erkaksabzisz!» deb baqirdi. Opam Sultondan bunaqangi gap chiqishini hech kutmagan ekanmi, xang-u mang bo'lib qoldi. Bu hoynahoy qo'shnilarimizdan chiqqan gap. Nega endi

to'ppa-to'g'ri opamning o'ziga aytmay, Sulton orqali aytirishar ekan, axir hozir urush pallasi, erkag-u xotin barobar ishlashi kerak-ku... opajonim tikka turganCHA o'ylanib qoldi. Nazarimda shu holida tikka turganCHA uxlab qoladiganday, nega desangiz, esnab-esnab qo'yyapti, ko'zlari ham yumilib boryapti.

- Orifjon! - dedi bir mahal o'ziga kelib.

- Labbay, opa!

- Beri kel, o'g'lim, - opamning issiqqina ko'ksiga boshimni qo'ydim. Peshanamdan o'pib, dag'al qo'llari bilan yelkamni uzoq siladi, - sening esing borku, hammasiga tushunasan-ku?

- Tushunaman, opajon!

- Urush ham tugur, otang ham qaytib kelar, - chuqur xo'rsindi opam, - men ham traktorni urushdan qaytgan yigitlarga topshirib uyda qolarman, to'g'rimi, o'g'lim?

- To'g'ri!

- O'shanda men ham sizlarni yuvib-tarab, popukdekkina qilib qo'yarman, to'g'rimi o'g'lim?

- Siz qo'shnilarning gapiga parvo qilmang.

- O'zimni esligim, - opam yana yuzlarimdan o'pa boshladi. Opam istar-istamay dalaga jo'nab ketdi. Keta turib ostona tagida o'ziga g'alati qarab turgan Sultonning ham peshanasidan o'pdi. - Akangni ko'p kuydirmagin, kelasi bozorga yangi etik olib beraman deb shivirladi qulog'iga...

Xullas, Sulton mana shunaqangi cho'rtkesar, hech ta'riflab bo'lmaydigan darajada dangasa bo'lib borayapti, aftiga qarab bo'lmaydi. Yuziga xuddi tug'ilganidan buyon suv tegmaganga o'xshaydi. Bo'ynining kiri xoh ishonning, xoh ishonmang xuddi eski maxsidek qat-qat bo'lib ketgan. Sovunlab yuvgin desam:

- Ertaga tag'in kir bo'ladi! - deb qo'l siltab qo'ya qoladi. Bugun ertalab u meni yana kuydirdi. Saharda Robinisa bilan Omonni dalaga olib keta turib, men kelguncha sigirning tagini tozalab, choy qaynatib

qo'yg'in, deb tayinlab ketuvdim. Men ketishim bilan yana o'rniga yotib olibdi.

– Nega sigirga qaramading? – dedim achchig'im chiqib.

– Otam uni sotinglar deb ketgan! – parvosiga ham keltirmay dedi Sulton.

– Axir sotguncha qarab turish kerak-ku?

– Sut bermaganidan keyin ahmoq bo'pmanmi qarab, – shunday deb Sulton sekin o'rnidan turayotgan edi, qo'ltig'idan yarimta qotirma tushib ketdi. Ana xalos, ishning bu yog'i yana rasvo bo'lganga o'xshaydi, yugurib borib, qozonning qopqog'ini ko'tardim, – to'rtta qotirma bor edi, nonushtaga asrab qo'yuvdim – yo'q, bittasi ham yo'q.

– Qotirmani kim yedi? – dedim qaltirab.

– Men yedim, – dedi Sulton kerishib.

– Nega yeding?

– Qornim och bo'lgandan keyin yeyman-da.

– Oqshom To'xta xolam bergan shavlani ham bitta o'zing tushirding-ku?

– Iltima shavla ekan... Og'zim suv ochib ketdi, – shunday deb Sulton betini ham yuvmasdan maktabga jo'nab ketdi.

Usmon, Zulayho uchovimiz nonushtasiz qoldik. Bir kapdan mayiz olib, biz ham maktabga otlandik. Ochig'ini aytsam, shu kunlarda o'qishning ham mazasi ketgan. O'qish bo'lib o'qishmas, bekorchilik bo'lib bekorchilikmas. Ilgarilari o'n uch-o'n to'rtta sinf xonasi liq to'la bo'lardi, hozir bo'lsa ba'zan bitta, ba'zan ikkita sinf xonasi arang to'ladi. Ilgarilari besh-olti soatlab o'qiyverib naq miyalarimiz suyulib ketar-di, endi bo'lsa nari borsa ikki soatgina o'qiyimiz, xolos. Qolgan vaqtda nuqul o'ynaganimiz-o'ynagan. Muallimlarning hammasi armiyaga ketib qolishgan. Roziq tog'amdan boshqa erkak o'qituvchi yo'q. Rahima opa sinfga kirib bo'r bilan doskani qoq ikkiga bo'ladi-da, yarmiga

boshlang'ich sinf bolalari uchun ona tilidan mashq yozib beradi, yarmiga yuqori sinfdagi-lar uchun arifmetika dan masala yozib qo'yadi, shu bilan tamomvassalom. Sinfdagi to'polon, shovqin-suron avjiga chiqadi, musht ketdi boshlanib ketadi, muallima bo'lsa parvosiga ham keltirmaydi. Bir chekkada eridan kelgan xatni o'qib, yoki shilq-shilq yig'lab eriga xat yozib o'tiraveradi. Muallima Ro'zixon opa bo'lsa, qo'ng'iroqdan narigi qo'ng'iroqqacha bo'lgan vaqtni sinfdagi to'polonni bostirish, bolalarga tanbeh berish bilan o'tkazadi. Endi sinf tinchiganda tanaffus bo'lib qoladi-yu, dars o'tmasdan chiqib ketaveradi. Biz o'quvchilar bundan aslo xafa bo'lmaymiz, nega desangiz, ko'pchiligimiz maktabga dars tinglashga emas, balki nonushtaga yarimtdan zog'ora, tushlikka ikkitadan pishirilgan kartoshka olgani kelamiz.

Roziq tog'am «Voyenniy dela»dan dars beradi. Faqat o'shaning darsigina sal qiziqarli o'tadi. Nega desangiz, Roziq tog'am ko'pincha darsda afandi aytib beradi, ba'zida bolalarning o'ziga ham aytiraveradi.

Shunday qilib desangiz, Sultonni na maktab, na oyim, na men yo'lga sololyapmiz, boshimizga bitgan balo bo'ldi u, tinchgina o'yinini o'ynab, berganimni yeb yursa ham mayli edi-ya! Eng yomoni qo'li qalb bo'lib qolyapti uning. Kuni kecha kelida tuyib, suyuq osh qilamiz deb bir tovoq makkani oftobga yoyib ketgan edim, xomligicha yeb qo'yibdi... Endi nima qildim-a? Nima qilsam ukamni yo'lga solib olar ekanmiz?

TEPALIK UCHUN BO'LGAN MUSHTLASHUV

Katta tanaffusdan so'ng qizlarga javob berib yuborildi. Nega desangiz, ular harbiy ishga butunlay yaroqsiz deb topilgan. Bir marta «hujum» darsida qatnashib birlarining betini timdalab, sochlarini yulib olishgan, hatto uylariga qaytib borgandan keyin ham tinchishmay,

bir-birlarini rosa yumdalashibdi. O'shandan buyon ular harbiy darsga butunlay kiritilmaydigan bo'lishgan.

Birinchi sinfdan to yettinchi sinfgacha bo'lgan jamiki o'g'il bolalar oltinchi «A»ning xonasiga to'plandi. Sinf xonasi xuddi uzumga qora yaloq tushgandek shovqin-suron bo'lib ketayotuvdi, xayriyat, ostonada yog'och oyoqlarini qo'qon aravaning gupchagidek g'ichirlatib Roziq tog'am ko'rinib qoldi:

– Bu nima to'polon! – dedi u qo'ltiqtayogi bilan ostonani urib.

Sinf suv quygandek jimib qoldi. Roziq tog'am muallimlar stuliga o'tirib, sinfga ko'z yugurtirib chiqdi, qo'ltig'idan buklangan daftar olib oldingi partada, menga biron ish buyurib qolmasmikan, deb umidvor bo'lib ko'zini lo'q qilib o'tirgan Hamroqlga uzatdi:

– Ma, bor bolalarning familiyasini yozib qo'y.

– O'tgan jangda halok bo'lganlar ham yoziladimi? – so'radi Hamroql.

– Yoziladi.

– Bedarak yo'qolganlar-chi? – savol berdi orqada o'tirganlardan biri.

– Ahmoq! – dedi Roziq tog'am ovoz chiqqan tomonga qarab.

– Domla, ahmoqlar qaysi ro'yxatga yoziladi? – deb so'radi boshqa burchakda o'tirganlardan biri. Sinfdan yengilgina kulgi ko'tarildi, Roziq tog'am ham kulib qo'ydi. Kula-kula sekin o'rnidan turayotgan edi, sinf yana jim bo'ldi. Nega desangiz, Roziq tog'am kulib-kulib odamning jonini oladi. Qulog'ingdan cho'zib, bo'yi barobar ko'taradi-da, to dodlab yubormaguningcha ushlab turaveradi. Xayriyat, bu gal unaqqa qilmadi, yana o'rniga o'tirib:

– O'tgan darsda nimani o'tuvdik? – deb so'radi.

– Nasriddin afandining sarguzashtlarini, – javob qaytardi bir bola.

– Til ushlab kelishni.

– Akromning og‘ziga latta tiqishni!

– Toshtemirning boshiga mushtlashni... – deya har tomondan chuvillab qolishdi bolalar. Muallim qarasa bo‘lmaydigan, shartta o‘rnidan turdi-da, oyog‘i bog‘langan xo‘rozdek hakkalab kelib, Toshtemir bilan Akromning qulog‘idan cho‘za boshladi:

– Xo‘sh, qaysi darsni o‘tuvdik?

– Qulog‘imni qo‘yib yuborsangiz keyin aytaman, – yig‘lamsirab dedi Akrom.

– Qaysi darsni o‘tuvdik deyapman! – quloqlarini battarroq cho‘zdi muallim.

– Domla, o‘tgan darsda quloq cho‘zmami o‘tganmiz! – deb yana qiziqchilik qila boshladi Toshtemir. Shu paytda qiziq voqea yuz berdi, muallim ikkovining qulog‘idan battarroq cho‘zish, o‘tirganlarning yuragiga ko‘proq qo‘rquv solish o‘rniga to‘satdan qo‘yib yuborib, qaytib o‘rniga utirdi. Qiziq, u sinfdan ko‘zlarini olib qochyapti, qilgan ishidan xijolat bo‘ldimi, yoki qalbida shu yarim och, yarim yalangoch o‘tirgan, ochlik hissini qiziqchilik bilan bosayotgan bolalarga nisbatan beqiyos rahm-shafqat uyg‘ondimi bilib bo‘lmaydi. Cho‘ntagidan popukli xaltacha olib maxorka o‘ray boshladi. Qo‘llari tinmay qaltirab maxorkani to‘kib yuboryapti, sinf jim, pashsha uchsa eshitilgudek jimlik... Roziq tog‘amga rahmim kelib ketdi, unga qiyin, juda ham qiyin, armiyadan qaytishi bilan xotini tashlab ketib qoldi, bitta cholga erga tegib ketdi, Roziq tog‘am yolg‘iz, hech kimi yo‘q. Uyi ham bo‘m-bo‘sh, eski sholcha, qora qumg‘on, jo‘mrangi qadoqlangan choynak – boshqa hech narsasi ham yo‘q. Bir oyog‘i yo‘q, kechalari kesilgan joyi zirqirab og‘rib chiqarmish, buning ustiga o‘ng qo‘li ham yaxshi ishlamaydi... Qiyin juda qiyin unga! Biz bo‘lsak uni oq ko‘ngil, yumshoq tabiatli, sal qiziqchiroq bo‘lgani uchun mayna qilganimiz-qilgan...

Bir mahal mening ukam Usmon qo‘l ko‘tarib:

– O‘tgan darsni men aytsam maylimi? – deb so‘radi sekingina.

– Ayt-chi, – maxorka tutunini chuqurroq tortib dedi Roziq tog‘am.

– Razvedka.... – xuddi esidan chiqarib qo‘yayotgandek shoshilib dedi Usmon.

– To‘g‘ri, – tasdiqladi muallim, – xo‘sh, razvedka-chi qanaqa bo‘lishi kerak?

– Botir.

– Yana?

– Qo‘rqmas.

– Yana?

– Mushuk... – Bu so‘z Usmonning og‘zidan chiqishi bilan sinfda yana sekingina, bilinar-bilinmas kulgi ko‘tarildi. Roziq tog‘am ham kulimsirab «ya‘ni mushukdek chaqqon bo‘lishi kerak demoqchisan, shundaymi?» deb so‘radi. Usmon, ha, deb tasdiqlagach, unga besh yozib qo‘y deb tayinladi Hamroqulga.

– Endi, bolalar, yangi dars boshlaymiz, – sekin o‘rnidan turayotib dedi muallim. Ammo bolalar yana chuvillab qolishdi, afandi aytib berasiz, afandining urushdagi sarguzashtlaridan so‘zlab berasiz deb, partalarni chalib to‘polon ko‘tarishdi, Ishonsangiz, o‘zim ham shuni talab qila boshladim, chunki Roziq tog‘am qishlog‘imizning eng usta latifachisi, kattalar bilan o‘tirganda hammani sharaqlatib kuldiringani-kuldiringan. Hozir foydalanib qolmasak, keyin bizga hecham aytib bermaydilar.

– To‘g‘ri! Afandi bo‘lsin!

– Afandi aytib bermaguningizcha tinchimaymiz! – deb qichqira boshladik.

– Ha, mayli... – nihoyat rozi bo‘ldi muallim. U afandi boshlashdan oldin odatda bir kulib olardi, hozir ham shunaqa bo‘ldi, kulib, obbo senlar-ey, deb qo‘ydi. – Mulla Nasriddin armiyaga chaqirilgan ekan, komandir granata otish, nayza sanchish, o‘z-o‘zini himoya qilish mashqini o‘ta boshlabdi. Bir mahal komandir bunday qarasa, Nasriddin okopga tushib cho‘zilib yotgan emish, ha afandi nega yotibsiz, desa:

– Men o‘lishni mashq qilyapman! – dermish afandi.

Bir oz kulishib olganimizdan so‘ng yangi dars boshlandi. Bugun biz, ya‘ni pishirilgan kartoshka qachon ulashilar ekan deb so‘lagini yutib, ko‘zini lo‘q qilib o‘tirgan shu qirq ikki nafar askar dushmanning mudofaa chizig‘ini yorib o‘tib, noma‘lum bir tepalikni egallashimiz kerak ekan. Muallim qanday qilib mudofaa qilish, nayzabozlik jangini qanday o‘tkazish, qanday qilib granata irg‘itish yo‘llarini o‘rgata boshladi, u shunday berilib, shunaqangi bir shavq-zavq bilan gapirar ediki, nazarimizda biz o‘zimizni chinakam askarlardek his qilib o‘tirardik.

– Oyoqqa! – baqirib yubordi bir mahal, hammamiz sapchib o‘rnimizdan turib, to‘polon, ur-yiqit bilan hovliga chiqib, ko‘z yumib-ochguncha, safga ham tizilib bo‘ldik. Maktabimizda qirqta yog‘och miltiq, o‘nta yog‘och granata, ikkita yog‘och pulemyot bor edi. Bu qurollar chinakam qurollardan hech qolishmasdi, faqat otayotganda og‘zing bilan «paq-paq», «gumbir», «tirta-taqa-taqa-taqa» deb turishing kerak ana shunda har qanday yovni ko‘z yumib ochguncha qirib tashlasa bo‘ladi.

– Muxtorali akaning devoriga qarang! – buyruq berdi maktab qo‘shinlarining qo‘mondoni. Askarlar Muxtorali akaning devori tomonga, ya‘ni o‘ngga burilishdi. O‘ng qatordagilar mudofaada turadigan, chap qatordagilar hujum qiladigan bo‘ldi, mudofaada turganlarga Hayitkalla, hujum qiluvchilarga, tasodifni qarangi, meni komandir qilib tayinlashdi. Qurollar teppa-teng taqsimlandi.

– Maktabning orqasiga qarab yuring! – buyruq berdi maktab qo‘shinlarining qo‘mondoni.

Chinakam askarlarga o‘xshab tap-tup qadam tashlab yurib ketdik.

– Bir-ikki-uch! – deb qo‘yadi bosh qo‘mondon oyoq tashlashimizga moslab.

- Birlikdadir kuch! – deydi askarlardan biri.
- Qanot boylab uch! – deydi ikkinchisi.
- Xayollaring puch! – masxara qiladi uchinchisi.

Yog'och oyoqlarini g'ichirlatib xuddi oyog'i bog'langan qushdek hakkalab-hakkalab kelayotgan bosh qo'mondon:

- Kim u gapirgan? – deydi-achchig'i chiqib.
- O'zingiz gapirdingiz! – deydi Mahmudxon.
- Mahmudxon ham gapirganday bo'ldi! – gapga qo'shiladi Akrom.

Maktabimizdan uch yuz metr narida uncha baland bo'lmagan bir tepalik bor. Avvalgi darslarda uning atrofiga o'zimiz okop qaziganmiz, pulemyot o'rnatiladigan tokchalar ham qilganmiz. Safimiz ana shu okoplar yaqiniga kelgach, maktab qo'shinlarining qo'mondoni to'xtashga buyruq berdi, burchimiz nimadan iborat ekanligini yana bir bor tushuntirib:

- Himoyada turganlar ham, hujum qilayotganlar ham shu tepalik ona Vatanimizning bir parchasi, uni dushmanga bermayman deb jang qilishi kerak! Tushunarlimi? – deb so'radi oxirida.

- Tushunarli, – javob qaytardi askarlar.
- Menda savol bor? – qo'l ko'tardi Akrom,
- Ayt-chi.
- Kim yaxshi jang qilsa o'shanga ikki norma kartoshka beriladimi?
- Xuddi shunday.
- Oramizdan qo'rqqoq yoki xoinlar chiqib qolsa-chi?
- Bir hafta davomida kartoshka berilmaydi, tushuntirdi maktab qo'shinlarining qo'mondoni.

O'z o'rnimizni egalladik. Dushman qo'shinlari tepalik atrofidagi okoplarga joylashib olishdi, granatalar shay, pulemyotlar o'rnatilgan... Men ham o'z askarlarim bilan hujum chizig'iga saf tortdim.

Raketa – tosh tugilgan oq latta osmonga otildi, xuddi shu paytda qoidaga ko'ra biz pulemyotlardan o't

ochishimiz kerak ammo mening yonginamda yotgan Usmon o'rnidan turib, «Ur-re» deb qichqirganicha dushman pozitsiyasiga qarab yugurib ketdi, o'sha tomondan «paq-puq» degan miltiq ovozlari eshitildi. Tepalikda jang maydonini kuzatib turgan maktab qo'shinlarining qo'mondoni:

- Usmon, sen o'lding! - deb qichqirdi.
- O'lganim yo'q! - javob qaytardi Usmon.
- O'q tegdi senga, yot!
- O'q tekkani yo'q, xudo ursin agar!
- Yot deyapman!
- Yotsam kartoshka bermaysiz-da?
- Yot, axmoq!

Bechora ukaginamga juda achinib ketdim, yo'q o'q tekkani uchun emas, yo'q-yo'q, u och edi, ertalab nonushta qilgani yo'q, yaxshiroq urushsam ko'proq kartoshka olarmikanman deb, hammadan oldin yugurgan edi u, mana kartoshkaga yetay-etay deganda bevaqt nobud bo'lib ketdi u...

Yuz metr chamasi emaklab borgach, o'rnimdan turib:

- Vatan uchun jangga!! - deb o'z askarlarimga komanda berdim «Ur-ra!» deya qichqirishib, nayzabozlik jangiga tashlandik. Tepalik uchun chinakam jang boshlanib ketdi: avvaliga yog'och miltiqlarning uchini urishtirib nayzabozlik qildik keyin o'zimiz ham bilmagan holda miltiqlarni uloqtirib, qulochkashlab mushtlashishga tushib ketibmiz. Bunday qaragam, askarlar dushman tomon bilan aralash-quralash bo'lib ketibdi. Bir-birini bosib olgan kim, bir-birini yoqasidan bo'g'ib olgan kim, qo'ltig'ining tagidan qo'l o'tka-zib pahlavonlardek kurash tushayotgan kim, bilib bo'lmaydi.

- Endi chekinglar axir! - deb qichqiramiz.
- Ha, biz chekinsak kartoshka o'z'laringga qoladi-da-a! - deydi dushman tomondagilar.
- Hoy, sekinroq bo'g', qusib yuboraman!

– Bo‘lmasa, siyohni to‘la, kecha siyohdonimni sindirib qo‘yuvding.

– Og‘zingga latta tiqmasammi, sen shaytonni!

– Mana senga shayton, mana! – degan gaplar ham eshilib, turibdi. Bir mahal ukam Sulton (u dushman tomonda turib tepalikni himoya qilayotgan edi) yelkamga tarmashib yerga bosib olsa bo‘ladimi! Bilasiz-ku, u xirsdan ham kuchli! Shu harakat qilaman, qani endi tagidan chiqib keta olsam.

– Ahmoq, tur endi! – dedim siltanib.

– Omborxonaning kalitini ber, keyin turaman!

– Tur deyaрман!

– Kalitni ber!!

Xayriyat xuddi shu payt maktab qo‘shinlarining qo‘mondoni teshik tog‘orani «dang-dung» qilib chalib, bizga chekinish uchun buyruq berib qoldi, bo‘lmasa kim biladi deysiz, aka-uka chinakam mushtlashib qolarmidik. Sapchib o‘rnimdan turib askarlarimga chekinish haqida qo‘shimcha buyruq berdim, yarador bo‘lganlarini yelkamizga opichlab, jang maydonini sharmandalarcha tashlab chiqib ketdik. Maktab qo‘shinlarining qo‘mondoni oldimizga kelib, «Rahmat, chakana jang qilmadilaring, lekin taktika ishlatish kerak edi, bo‘lmasa dushmanni tepalikning naryogiga uloqtirib bo‘lmaydi» dedi.

Biz boshimizni qotira-qotira nihoyat bir hiyla o‘ylab topdik. Ya‘ni yolg‘iz turgan dushmanga bir yo‘la uchtamiz hujum qilib qurshovga olamiz-da, qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, navbatdagnosisiga tashlanamiz...

Yana osmonda raketa porladi, o‘rnimdan turib:

– Vatan uchun, xalq uchun! – deya ovozimning boricha qichqirdim.

Ishonsangiz, o‘ylab topgan hiylamiz juda qo‘l keldi, yarim soat o‘tar-o‘tmas battol dushmanning yigirma bir jangchisini asir oldik. Qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, og‘zini yerga

qilib yotqizib qo'ydiq. Oxiri Sulton qo'lga olindi, beliga minib olib:

– Xo'sh, Sultonboy, omborxonaning kaliti kerak-mi?
– deb so'radim.

– Sen hali shoshmay turgin! – dedi Sulton pitillab.

Urush tugaganligi haqida yana tog'ora chalindi. Hammamiz hozirgina og'ir janglardan so'ng qo'lga kiritganimiz tepalikka to'plandik yarador bo'lganlar-u, o'lganlarni ham o'sha yerga sudrab olib chiqdik.

– Muallim, menda savol bor? – deb qoldi bir mahal dushman tomonning asir olingan komandiri Hayitkalla.

– Xo'sh?

– Bular bizni aldadi.

– Aldab nima qildi?

– Urushdan oldin siz qo'l-oyoqni bog'lash haqida hech narsa demagan edingiz-ku?

– Bu – taktika, – dedim men.

– To'g'ri, – tasdiqladi maktab qo'shinlarining qo'mondoni, – ba'zan urushda mana shunaqangi kutilmagan usullarni ham qo'llashga to'g'ri keladi. Ochig'ini aytsam, men bularning topqirigidan xursand bo'ldim... Hammalaring ham chinakam qahramonlik ko'rsatdilaring! Hayitvoy, sening askarlaring ham bo'sh kelishmadi, rahmat sizlarga, har bir jangchi ana shunday fidoyilik bilan jang qilsa biz dushmani majaqlab tashlaymiz.. Xo'sh, bugungi jangda eng ko'p qahramonlik ko'rsatgan kim bo'ldi?

– Sulton.

– Sulton Mirzayev! – deb qichqirishdi askarlar.

Maktab qo'shinlari qo'mondonining buyrug'i bilan noma'lum tepalik uchun bo'lgan jangning qahramoni Sulton Mirzayevga eng oliy mukofot – ikki norma kartoshka beriladigan bo'ldi.

– Endi, hurmatli askarlar, – murojaat qildi maktab qo'shinlarining qo'mondoni, – eng so'nggi tepalik – kartoshka qaynab turgan dosh qozonni qurshab olish uchun olg'a! Bir-ikki-uch...

- Birlikdadir kuch!
- Qozon tomon uch!
- Kartoshkalar puch!
- Kim u gapirayotgan? – tartibga chaqiradi maktab qo‘shinlarining qo‘mondoni.
- O‘zingiz gapirdingiz, – javob qaytaradi Mahmudxon.

OTAMIZDAN XAT KELDI

Rostini aytсам, otam ketgandan buyon xuddi yetim bolalardek mung‘ayib qolganmiz. Uyimizda tuzukroq bir xursandchilik ham yo‘q. Har kuni bir dilisiyohlik. Omon kech kirishi bilan ko‘cha eshik oldiga o‘tirib olib, «Ota keling, non olib keling» deb yig‘lash-ga tushadi. Bir amallab qornini to‘yg‘azib qo‘ysam, «Ota keling, ertak aytib bering...» deb yig‘isining ikkinchi qismini boshlab yuboradi. Ba‘zan qo‘ni-qo‘shnilar, Omonboy, nega hadeb yig‘layverasan deb so‘rashsa, nima qilay axir boshqa ishim bo‘lmasa, deb qo‘yadi. Goho yig‘lay-yig‘lay og‘zida noni bilan ostona tagida uxlab qoladi.

Opam bo‘lsa hamon daladan beri kelmaydi. Sulton aytganidek u traktorni o‘ziga o‘g‘il qilib olgan, o‘shani silab-siypaydi, onda-sonda kelsa ham, esnab-esnab o‘tirish yoki jindek mizg‘ib olish uchun keladi. O‘zim bo‘lsam goh dalaga, goh maktabga, goh uy ishlariga yuguraverib naq abjag‘im chiqib ketgan. Ko‘pincha o‘tirib olib yig‘lab-yig‘lab olaman yoki kuchim yetadigan ukalarimdan bitta-yarimtasini savalab, sal hovrimdan tushganday bo‘laman, urishga uraman-u, lekin ularga qo‘shilib o‘zim ham yig‘lashga tushaman...

Bir kuni kechqurun hovlida Zulayho bilan g‘ijillashib turgan edik eshikning ikkov tavaqasi sharaqlab ochilib ketdi-yu, hovliqqancha Sulton kirib keldi.

- Aka, akajon! – dedi entikib.
- Nima deysan?

- Suyunchi, suyunchi ber.
- Nima gap axir?
- Yo'q, avval suyunchi cho'zasan!

Suyunchi bersam bera qolay, xushxabarni tezroq eshita qolay deb ukamga omborxonaga kirib, bir hovuch o'rik olib chiqib berdim.

- Otamdan xat keldi! - qichqirib yubordi Sulton.
- Xat?! - Zulayho ham qichqirib yuborgandek bo'ldi.

Ichkari uyda o'ti uchib qolgan tanchada oyoqlarini qo'lga tiqib boshqa ukalarim ham o'tirishgan edi. «Otam, otam kepti!» deya qiyqirishib yalang oyoq yugurib chiqishdi. Men ham xuddi otamning o'zi kirib kelgandek o'zimda yo'q sevinib ketdim. Huvillab turgan hovlimiz bir nafasda quvonch-u shodliklarga to'lib-toshgandek bo'ldi. Ichkari kirib, qora chiroqni yoqdik-da, tancha atrofiga qaldirg'och bolalaridek tizilishib xatni o'qiy boshladik.

«Sog'inchli salom!

Uzoq ellardan borib ma'lum bo'lsinkim, men kim Mirzapolvon Ahmadpolvon o'g'li oqil-u dono komandirlarimizning tarbiyasida sog'salomatdurman.

Tun-u kun traktor haydab, yerlarning tanobini tortib yurgan jufti halolimiz Karomatbibiga, onasining ham o'g'il-u ham qizi, ukalariga ham aka-yu ham ota bo'lib qolgan aqlli o'g'limiz Orifjonga, pahlavon Sultonboyga, kamtaru kamgap, jondan yaxshi ko'rgan qizim Bibizulayhoga, rasmlar chizib, chopqillab o'ynab yurgan Usmonjonga, shoir o'g'lim, ertakchi o'g'lim, suyakligim Omonjonga, kenjatoyim, ona qizim, tili chuchuk Robiyabibiga alangali salomlar bo'lsin va yana otam o'rniga otam, suyangan tog'im, o'g'il-qizlarimning mehriboni Parpi amakimga, onam o'rnida onam, ko'zimning nuri To'xta xolamga lak-lak duoi salomlar yo'llab qolaman va ularga ma'lum bo'lsinkim, haligacha na Anorvoyni, na Bo'rivoyni, na Dehqonboyni ko'ra oldim. Ular boshqa jang maydonida urushayotgan bo'lsa

kerak. Kolajonim berib yuborgan sovga-salomlarni qopga solib orqalab yuribman, ko'rib qolsam albatta topshiraman.

Sizlarga xat yozmaganimning boisi shuki, Toshkentga kelgandayoq hamqishloklarimdan ajralib ketganman, xat yozib beradigan odam topolmay yurdim.

Bir oy kechasi-yu kunduzi yo'l bosdik mana hozir kichkinagina bir shaharchamiz, Miltiq otishni, pulemyot o'qlashni, «Ur-ra!» deb hujum qilishni o'rganyapmiz. Komandirlar mendan xursand, zehningiz tuzuk ekan deyishyapti. Tunov kuni yolg'ondakam hujumga o'tganimizda og'zidan o'q yeydigan zambarak loyga tiqilib qoldi, yelkam bilan itarib quruqlikka olib chiqib bergan edim, katta komandir, sen yaxshi askarsan, deb orqamga urib qo'ydi, shunisiga ham shukur.

Qimmatli o'g'lim Orifjon, bilaman, senga juda og'ir, shunday bo'lsa ham, baribir sendan yana iltimos qilaman, opangni ko'p kuydirmanglar, o'sha sho'ring qurg'urga ham oson emas, chigitni ekib bo'lguncha yordam berib turinglar.

Sigirni sotdilaringmi? Uni yelinini to'ldirib turib sotinglar, keyin, o'g'lim, tokning tagini choptirib qo'yg'in, bo'lmasa novda surmaydi. Haligi katta uyda chuqur tokcha borku, o'sha yerda mening Farg'ona kanalida Oxunboboyev bilan tushgan rasmim bor, qog'ozga o'rab qo'yibman, ushani olib, sandiqqa solib qo'yinglar, tag'in sichqon kemirib ketmasin.

Endi, esli o'g'lim, senga oxirgi iltimosim shuki, yaxshi o'qigin, ukalaringning o'qishidan ham boxabar bo'lib tur, opang ikkovimizning savodsiz bo'lganimiz ham yetar.

Ushbu duoi salomni Qo'rg'oncha qishloqlik Sa'dulla Burxonov degan yigitga aytib yozdirdim. Bu akang uch kun oldin bizga komandir bo'lib keldi, to'ppa-to'g'ri urushdan chiqib kelibdi, bizni urushga o'zi olib borarkan, vaqt topib Qo'rg'onchaga borib, akangning onasiga

ko'pdan-ko'p salom aytib qo'yg'in. Xudo xohlasa, tez kunda yuz ko'rishib qolarmiz.

Qo'l qo'ydim Mirzapolvon Ahmadpolvon o'g'li».

Ishonsangiz, xatni bir emas, uch bora o'qib beribman hamki, ukalarim:

– Yana!

– Tag'in o'qib bering! – deb chuvillashadi deng. Nihoyat suyunchi olish uchun To'xta xolamnikiga qarab yugurdik. Bechora xolam negadir o'zini yo'qotib qo'ydi, pildirab goh eshikka chiqadi, goh uyga kiradi, nuqul «Voy xudoyim»laydi. Bizga suyunchi olib chiqaman deb bir mahal omborxonadan bir lagan tuz kutarib chiqibdi deng.

– Xola, buningizni yeb bo'lmaydi-ku, – deb kulib yubordi Sulton.

– Voy, esim qursin! – deb xolamning o'zi ham kulib qo'ydi. Keyin bizga xatni tezda Karomatbibiga yetkazinglar, bechora xat so'rayverib yurak-bag'ri ezilib ketdi, deb tayinladi. Men shoshilib dalaga otlangan edim, Sulton ham indamasdan yirtiq etigini oyog'iga torta boshladi. Sultonni ko'rib, Usmon ham taraddudlanib qoldi, e boringki, yana galalashib hammamiz boradigan bo'ldik-da.

Traktor tulkixonaning orqasiga o'til ketgan ekan. Izlab topgunimizcha naq yarim kechasi bo'lib qolayozdi. Buning ustiga traktor ham yurmayotgan ekan, bo'lmasa-ku, ovoz chiqqan tomonga qarab tusmollab boravergan bo'lardig-a. Traktor buzilib qopti, Mukarram opa tarasha yoqib atrofni yoritib turibdi, opam traktorning ostida, paypaslanib allakimni «og'zidan qoning kelgur» deb qarg'ab yotibdi. Biz kelganimizni ko'rib opam:

– Orifjon, tinchlikmi? – deb so'radi.

– Otamdan xat keldi! – chuvillashdi ukalarim.

– Voy tillaringga shakar-ey – dedi opam entikib, lekin negadir xatni darrov o'qimadi, Robiyabibini qo'liga olib, xabarchi qizimdan o'rgilay, deb yuz-ko'zlaridan o'pdi, Omonni tizzasiga o'tqazib boshlaridan siladi, Zulayho,

Usmon – **hammamizni bir-bir erkab chiqdi. Suvi qochib qolgan piyozli patiri bor ekan, o'sha bilan bizni mehmon ham qildi.**

– **Qani, Orifjon, xatni o'qichi, – dedi nihoyat. Mukarram opam tarasha yoqib atrofni yoritib turdi, men xatni deyarli yoddan o'qib berdim.**

– **Xayriyat, eson-omon ekan, – dedi opam xo'rsinib. Keyin negadir yig'lab yubordi...**

Traktorni yurgizishning iloji yo'q ekan, hammamiz uyga qaytadigan bo'ldik. Opam Robiyani, Mukarram opam qora po'stinga o'ralib uxlab yotgan qizchasini, shu holicha, po'stinga o'ralganicha ko'tarib oldi. Yo'l-yo'lakay qiziq-qiziq gaplardan gaplashib, qiqlashib kulishib keldik. O'ringa yotayotganimizda Omon:

– **Opa, endi traktoringiz hecham yurmasin, xo'p mi? – dedi esnab.**

– **Nega unday deysan, shirin o'g'lim?**

– **Endi har kuni men bilan yotasiz, traktor bilan yotmaysiz.**

– **Obbo shirinim-ey, beriroq yot, orqangni qashib qo'yay, – kulib dedi opam.**

Kechasi hammamizning tushimizga otam kiribdi. Omon otamni ot qilib minib yurgan emish, otam rasmana otga o'xshab, kishnab to'rt oyoqlab choparmish, Omon qiqlab kularmish. Usmonni qovun saytiga olib borgan emish, otam, Usmonjon, qovunni ko'p yemagin, kechasi ko'rpangni ho'l qilib qo'yasan dermish. Zulayhoga otam chit ko'ylak bilan popukli ro'mol olib bergan emish-u, meni quvlab yetsang keyin beraman deb hadeb qochar emish. Sulton ko'rgan tushini yaxshi eslay olmay:

– **Men o'ngimda ko'rdim, o'lay agar, kechasi hovliga chiqsam otam o'tin yorayotgan ekan, o'z ko'zim bilan ko'rdim, xudo ursin agar! – deb qasam ichib turib oldi.**

Men bo'lsam, otam armiyaga ketayotganda eshagimiz qochib ketgan edi-ku, o'shani ko'rgan emishman. Eshak gocharmish ikkovimiz quvlar emishmiz... Ota, keta

qo'layliq axir siz kechga qolyapsiz, desam, «yo'q, buni ushlab o'qitish kerak **eshak o'qimasa odam bo'lmaydi**» deb yana quvlar emish. Bir mahal eshaklar juda ham ko'payib ketdi, hammasi oldingi oyoqlarini ko'tarib, og'zini ochib men tomonga bostirib kela boshladi:

- Ota, otajon! - deb baqirib yubordim.

Ehtimol otam opamning ham tushiga kirgandir-u, lekin buni biz bilolmay qoldik. Nega **desangiz** biz o'rnimizdan turganimizda opam allaqachon dalaga ketib bo'lgan ekan.

OPAM BOZORGA OLIB BORDI..

Bugun **yakshanba**, maktabga bormaymiz, issiq o'rnimizdan turgani erinib, bir-birimizga tush **aytishib**, tili burro Robiyani gapga solib kulishib yotgan edik to'satdan eshik ochilib ostonada opam **paydo** bo'lib qoldi:

- Voy sho'rim, haliyam yotibsizlarmi? - **ranjigandek** bo'lib so'radi.

- Sigirga xashak solib qo'yganman, - **dedim** nima qilishimni bilmay.

- Qani, tezroq turinglar, - ish kiyimlarini **yecha** boshladi opam, - bozorga boramiz.

- **Hammamizni?** - hovliqib so'radi Sulton.

- **Hammamiz!**

Shu paytda yuz bergan to'polonni ko'rsangiz: biri ko'yлагini axtargan, biri shimini kiyolmay tepingan, boshqasi yuzini yuvish uchun hovliga **yugurgan**, yana bittasi ishtonini teskari kiyib shunday **ketaveraman** deb irg'ishlagan...

- **Opal!** - deb qoldi bir mahal Omon.

- Nima deysan, shirinim?

- **Usmonni olib bormaysiz.**

- **Nega endi olib bormas ekanmiz?**

- Har kuni tuya qilib beraman deb nonimning chekkasini yeb qo'yadi u.

– Obbo mug‘ambir-ey!

– Undan keyin, opa mana shu Sultonniyam olib bormaymiz.

– Xo‘sh, nega olib bormas ekanmiz?

– Har kuni ko‘rpada yotganda ajina kelyapti deb meni qo‘rqitadi.

– Qulog‘ini kesib olaman uning! – dag‘dag‘a qildi opam.

– Opa, bozorda xo‘rozqand ham olib berasizmi? – maydalab so‘rashda davom etdi Omon.

– Olib beraman, toychog‘im. Bibi Robiyaga ham olib beramiz.

Opamning oyoqlari ostida pildirab yurgan Robiya qopqora ko‘zlarini chaqnatib:

– Qand? – deb so‘radi.

– Ha, ona qizim, qand olib beraman.

– Menga?

– Ha, senga dilbarim, do‘ppingni to‘ldirib olib beraman... – deb opam engashib Robiyaning lo‘ppi yuzidan cho‘lpillatib o‘pib oldi. Ana shundan keyin Bibirobiya deganlarining kerilganini ko‘rsangiz, ko‘zlarini suzib, lablarini cho‘chchaytirib, kallasini bir tomonga qiyshaytirganicha g‘alati-g‘alati qiliqlar qila boshladi. Opam kim yuz-qo‘lini sovunlab yuvsa, o‘shanga yangi kiyim-bosh olib beraman, degan edi, ukalarim oldin men yuvinaman deb obdasta talashib, naq bo‘lmasa mushtlashib ketishayozdi. Bir mahal bunday qaragam, bir oydan buyon betiga suv tegmagan Sultonboy mol paqirga suv to‘ldirib olib chapillatib bo‘ynini yuvib, atrofga suv purkab yotibdi.

Nonushtaga sut pishirib ichdikda, tezdand bozorga jo‘nab ketdik. Sulton Omon ukamni, men Robiyani ko‘tarib olganmiz, Zulayhoning qo‘lida yog‘cheva, Usmonda tugun, yugurishimizni ko‘rsangiz, tezroq bozorga yetsag-u, tezroq yangi-yangi kiyim-boshlarni oldirib bir birimizga ko‘z-ko‘z qilsak deymiz.

Bozor joyga odam sig'maydi, nima balo, hammasi ham bugun ko'ylak-ishton olgani kelganmi? Bir-biriga yo'l bermaydi-ya! Bir tomonda bo'z, qalami bozori, bir tomonda meva-cheva bozori, don bozori, un bozori... Mis choynag-u piyola sotgan kim, eski etik charm tasma sotgan kim, bir xillari uncha-muncha tutilgan kigiz-u u yoq-bu yog'i yirtilgan gilamini yozib xaridor kutayapti, bir xillar chala qoplangan ko'rpasini ko'z-ko'zlab xaridorning etagidan tortyapti.

– Kep qoling, qand-u novvot bu! – deydi nisholda-furush oppoq ko'pikni shopirib.

– Yarmi asal, yarmi qand, – deydi pishirilgan qizilcha sotayotgan men tengi bir bola.

– Hoy, sizda insof bormi?

– Hozir odamlarda insof qoptimi?

– Voydod, cho'ntagimni kesib ketishyapti!

– Qoch, yog' bo'lasan!

– O'g'limga atab tikkandim, jon inim, shuni siz oling!

– Sizda oq rang bormi?

– Tovba, oq rang ham bo'ladimi dunyoda?

– Qo'shnim aytuvdi.

– Sizni laqillatibdi.

– Essizgina echkim-a, yuz so'm arzon ketdi-ya!

– Olmacha anoringga balli!.. Kimga patefon kerak?

– Katta buvingga olib bor!

– Kalamush fol ochayotgan emish, qo'shni.

– Voy yuring, Olimjonni ko'rsataylik ovsin.

– Bir qop sabziga bir kilo guruch olsam-a.

– Guruch qayerda bor ekan?

– Paranjingni yig'ishtirsang-chi!

– Tort eshagingni! – degan baland ovozlari ham hech to'xtamaydi. Bozor guvillaydi, bamisoli uzumzorga yaloq qush qo'ngandek hamma yoq chag'-chug'. Tiqilinchda yo'qolishib qolmaylik deb xuddi «qoch bolam, soy keldi» o'yinini o'ynayotgandek bir-birimizning etagimizdan

ushlashib olganmiz. Boshida opam, oxirida men, o'rtada besh bola. **Bir xillar:**

– **Hammasi o'zingiznikimi?** – deb so'raydi.

– **Xudoga shukur, o'zinniki!** – deb qo'yadi opam. Yana bir xillari:

– **Oxir zamonning bolalari, uyda o'tirsanglar bo'lmaydimi!** – deb turtib o'tib ketadi.

Opam **MTSdan bir yo'la uch oylik maoshini, uch oylik mukofotini ham qo'shib, naq bir xurjun pul olgan ekan, hammamizga boshdan-oyoq sarpo olib berdi, kiyim-boshining eng chiroylisi Sultonga tegdi: yurganda g'arch-g'urch ovoz chiqaradigan xirom etikcha, ko'k trinkadan it yoqa qilib tikilgan ko'ylak pochasi keng shim, chamanda gul do'ppi... Xoh ko'ring, xoh ko'rmang xuddi go'shangaga kirib ketayotgan kuyov bolaning o'zginasi bo'lib qoldi.**

– **Bo'yginangdan o'rgilay!** – deb qo'ydi opamning o'zi ham suyunib.

Zulayho bo'lsa... o'zi qiz bolalarning hammasi ham shunaqa bo'ladi yoki bu sal boshqacharoq chiqdimi, tovba qildim-ey, opam ikkovimizni naq bir soat qiynasaya! Bo'z ko'ylak kiymas emishlar, yo gulli batis, yoki rohatibadan oldirarmishlar, obbo! Idish-tovoq yuvishni bilmay uzzukun yig'lab o'tiradi-yu, nozi firoqlarini qarang! Oxiri u ham aytganini oldirdi. Bodom gulli ko'k farang ko'ylak amirkon maxsi-kalish, zar do'ppi...

– **Mana endi Mahmudxon bilan qo'l ushlashib xohladinga borsalaring ham bo'laveradi!** – deb jig'iga tegdi Sulton. Ammo Zulayho ham bo'sh kelmay: «O'zingchi, o'zing, o'zing ham Saddiniso bilan xohladinga borarsan» dedi boshlarini g'alati silkitib.

Bozordan chiqayotganimizda:

– **Opa, o'zingizga hech narsa olmadingiz-ku?** – deb so'radim.

– **Sizlarning kiyganlaring meni kiyganim, – deb qo'ydi opam. Darvoza oldida har xil pishirilgan taomlar qatori**

no'xatsho'rak ham sotishayotgan ekan, mana shu yerdan Omonni olib o'tishning hech iloji bo'lmadi. Bir tovoq nisholda olib choyxonada bug'doy non bilan mazza qilib yeb, issiq-issiq choy ichib sal isinib ham olmoqchi edik. Omon nisholda yesam qornim og'riydi deb yerga o'tirib oldi, yesak yeya qolaylik deya no'xatsho'rak solingan tog'ora atrofiga davra qurdik. O'zi tortib yegan narsangga qorin to'ymas ekan, sotuvchi ayol jag'i-jag'iga tegmay javrab, aylanay-aylanay deb tortib beryapti, biz tushirib turibmiz, tortib beryapti... bir mahal bunday qarajak bir tog'ora no'xatsho'rakni pok-pokiza tushirib qo'yibmiz.

- Puli qancha bo'ladi? - o'rnidan turib so'radi opam.

- Ot bilan tuya bo'larmidi, aylanay, - dedi sotuvchi xotin sal mujmalroq qilib.

- Qancha deyaqman? - negadir jerkib so'radi opam.

- Uch yuz so'm bera qoling, aylanay.

Opam gilam xurjunning ko'zidan uchta yuz so'mlik chiqarib berdi. Endi bitmagan yana bitta ishimiz qoldi! - otamga jo'natish uchun hammamiz rasimga tushmoqchimiz.

Rasmxona yog'och bozorining orqasida ekan, so'roqlay-so'roqlay arang topdik borsak bizga o'xshab rasmini otasiga jo'natish uchun kelganlar navbat kutayotgan ekan. Navbatimiz yetgach, bir ko'ziga qora lenta taqib olgan sochi jingalak odam bizni ichkariga, g'alati narsalarning hidi kelib turgan pastakkina uyga taklif qildi. O'rtaq opam, ikki yoniga Sulton ikkovimiz turdik ukalarim yerga o'tirishdi, rasm oladigan apparati juda qo'rqinchli ekan: yerga tiralgan uchta yog'och oyog'i teppasiga patefonning qutisiga o'xshash yashikcha o'rnatilgan, qutichaning yonboshida non yopadigan yengchaga o'xshash bir narsa xunuk osilib turibdi. Qutichaning old tomonida kattaligi piyolacha keladigan ko'zi ham bor ekan. Bir ko'zli suratchi boshiga qora choyshab yopib apparatning vahimali ko'zini bizga

to'g'rilayotgan edi, halidan buyon dag'-dag' qaltirab o'tirgan Omon:

– Otajon, – deb sakrab o'rnidan turdi-da, o'zini ko'chaga urdi. Ketidan miltiqning o'qidek otilib Usmon ham chiqib ketdi... ana xolos, bu yog'i endi necha puldan tushdi! Koshki bu Omon deganlarga yetib bo'lsa, bir qochishga tushsa bormi, hurkak kiyikning o'zginasi deysiz – tog'dan-toqqa sakraydi u. Ikkovlarini ushlab kelguncha Sulton bilan men qora terga botib ketdik lekin, bari bir suratga tushirib bo'lmadi, ularni, ikkovi ham dodlab, tepinib, hamma yog'imizni tishlab uzib olishdi...

Suratga o'zimiz tushib, MTSga jo'nadik. Direktor opam tengi bir ayol ekan, Usmon bilan Omonning hiqqilab turganini ko'rib:

– Karomatxon, nega bularni xafa qilib qo'ydingiz? – deb so'radi. Opam bo'lgan voqeani aytib bergan edi, direktor opa xandon otib kuldi, yoshligimda men bir shunaqa bo'luvdim, tog'dan-toqqa qochuvdim deb ichkaridan bir hovuch dandon qand olib chiqdi-da, hammamizga ulashib berdi.

Opam minayotgan traktorning allaqaysi joyi buzilib qolgan ekan, ertaga, uzog'i bilan indinga ertalab o'zgartirib jo'nataman, dedi direktor opa.

Shu gapdan keyin dala yo'li bilan uyga jo'nab ketdik. Xiyol o'tmay, haligi suratxona oldidagi dilsiyohlikni unutib, tezroq qishloqqa yetib borib, o'rtoqlarmizga yangi kiyim-boshlarimizni ko'z-ko'zlash ishtiyoqida yonib bir-birimizni ortda qoldirib keta boshladik ayniqsa, Sulton o'zida yo'q shod edi, o'zicha Bog' aro qo'ysam qadam, gulg'uncha qolmay xandadir» deb ashula aytib boryapti, sog'iga piston qadalgan etikchasini ko'z-ko'zlab chopqillab oldinga o'tib ketgan Omon:

- Opa, bitta she'r o'qib beraymi? – deb so'radi.
- O'zing to'qiganmisan?
- O'zim to'qiganman.
- Qani, qani eshitaylik-chi.

Omon ikki qo'lini biqiniga tirab, boshini bir tomonga xiyol qiyshaytirganча ko'zlarini chaqnatib:

*Pista sotar baqqolman,
O'zim echki soqolman,
Nasiyaga mol bersam,
Tong otguncha o'larman.*

– deya she'r o'qiy boshladi. Opam yurishdan to'xtab, xuddi qo'rqib ketgandek ko'zlarini katta-katta ochib:

– Voy o'g'lim, boqqol buvang eshitib qolsa nima qilamiz? – deb so'radi.

– Nega bo'lmasa qurutidan bermaydi?

– Qurutidan bermagani uchun masxaralab she'r o'qidingmi?

*– Qurutiga qurt tushsin,
Soqoliga bit tushsin,
Holsidan bermasa,
Omboriga o't tushsin*

– deb Omon yana irg'ishlay boshladi. Opam Omonni ushlab bag'riga bosmoqchi bo'luvdi, ukam qiyqirib qochishga tushdi.

Boshqa ukalarim uni quvlab ketishdi.

SUMALAK, SUMALAK, JON SUMALAK!

Kechqurun To'xta xolamning hovlisi xoh ko'ring, xoh ko'rmang, xuddi sayilgohga aylanib ketdi. Hovlining qoq o'rtasiga katta o'choq kovlab, qirq quloqlik dosh qozonga sumalak solishgan, sumalak biqirlab qaynab turibdi. Biz mahallaning jamiki bolalari bo'lsak hovlida goh u yoqqa, goh bu yoqqa yugurishib kun bo'yi ovora bo'lib tayyorlagan kurakchalarimizni bir-birimizga ko'z-ko'z qilishib, ur-to'polon qilib yuribmiz.

- Hoy, qoqvoshlar, birpas ko'chaga chiqsanglar-chi!
- deb katta kaltakni olib quvlab qoladi To'xta xolam.
- Sumalak, sumalak, jon sumalak! - deb sakray boshlaydi Akrom bilag'on.
- Qorni ochga non sumalak - jo'r bo'ladi Mahmudxon.
- Joni yo'qqa jon sumalak! - deydi yana bittasi irg'ishlab.

Shundan keyin To'xta xolam butunlay tutoqib ketgandek bo'ladi. «Senlarni ushlab, terilaringga somon tiqmasammi» deb uzun yenglarini shimarib, ko'ylagining etagini sal yuqori ko'tarib quvlashga tushadi. Bilasizku, bunaqangi paytda biz echkidan ham shaytonroq bo'lib ketamiz: birimiz devordan, birimiz quradan, yana bittamiz eshikning boshidan oshib ko'chaga chiqib ketamiz...

Ko'chaga chiqsak qizlar guruh-guruhlarga bo'linib «Lapta», «To'p urar», «Qoch bolam, soy keldi» singari o'yinlarni o'ynashayotgan ekan. Guruhlarga o'zimizni urib, qizlarni bir qiyqiratib oldik-da, o'zimiz ham biron o'yin boshlash payiga tushib qoldik:

- Besh bolali, ke, bov ustiga bov o'ynaymiz! - taklif qilib qoldi Hayitkalla.

- Boshladik! - dedim ko'chaning sertuproq joyiga yugurib. Bunaqangi o'yinni hech o'ynaganmisiz! Oh-oh, juda gashtli bo'ladi-da, uch-to'rtta baquvvat-baquvvat bola o'rtaga turib oladi, o'nlab mayda-chuyda chuldirvoqilar ularga tashlanib yiqitmoqchi bo'lishadi, goh chuldirvoqilar ularni yiqitgan bo'ladi, goh haligi baquvvatlar chuldirvoqilarni bosib olgan bo'ladi.

- Bos!
- Ustiga min!
- Oyog'idan tort!
- Ur-re, biz yengdik! - degan qiyqiriqlar eshilib turadi.

O'ziam o'tgan yilgi sumalakdan buyon bunaqangi ko'p bola to'planmagan, o'yin ham shu bugungidaqangi

qizimagan edi. Bov ustiga bov o'ynab charchagach, «Eshak mindi»ga o'tdik ketidan «G'itting-bitting» degan bir o'yinni boshlab yubordik. Endi, nimasini aytsam ekan, qiziqdikda aslida bunga teng keladigan o'yin yo'q dunyoda. Bir bolaning yelkasiga minib, oyoqlaringni ko'kragiga tashlab, qorning bilan chekkasiga suyanib olasan. O'n metr narida ikkinchi bola ham shunday qilib turgan bo'ladi, tepada turgan bola;

- G'itting! - deya do'ppisini narigi bolaga otadi, narigi bola ilib olsa:

- Bitting! - deya egasiga qaytaradi. Do'ppining egasi ilolmasa yutqazgan bo'ladi, sherigi bilan o'rin almashtirib oladi.

Men Hayitkallaning yelkasiga bahuzur minib olib, endi mazza qilayotgan edim, ichkaridan hovliqqancha Usmon chiqib: «Tez yur, opam chaqiryapti» deb oyog'imdan tortqilay boshladi.

- Nima ishi bor ekan? - dedim jerkib.

- Robinisani uxlatolmayapti, - tushuntirdi ukam. Shu Robinisa juda qiziq bola bo'ldi-da, uyqusi kelib qolsa tuqqan opasi u yoqda qolib, mening tizzamga bosh qo'ymaguncha uxlay olmaydi deng.

- Ha, katta xola, bolang yig'lab qoptimi? - deb mazax qildi Hayitkalla.

- Ha, ha, yig'layverib kallasi pishib ketganga o'xshaydi, - dedim men ham bo'sh kelmay.

Ichkari kirsam chindan ham jajji singlim yig'layverib ko'karib ketibdi, opam bechora menga ko'zi tushishi bilan:

- Orifjon, buningni o'zing tinchit, jon bolam, - deb yolvordi.

Robinisani qo'limga olib lu-lu-lu qilganimcha o'choq boshiga bordim. To'g'ridagi uyda To'xta xolamga o'xshagan yigirma chog'li kampir-u, amma-buvilar yig'ilishib olib, savobi urushga ketgan o'g'illarimizga tegsin, eson-omon qaytib kelishsin, deb «Mushkul-

kushod» o'qishyapti. Otinbibi xolam sal g'amginroq, lekin shirali ovoz bilan xuddi allakimga yolvorgandek nola qilib:

*Salli olo saodat,
Har kim aytsa bir soat,
Duo bo'lgay ijobat,
Lo iloho illo anta...*

deb men tushunmaydigan g'alati-g'alati she'rlar o'qiyapti. Amma-buvilar uning g'amgin, qaltiroq ovozigga hamohang chayqalishib, har zamonda:

– Huvvv! – deb yig'lab qo'yishadi.

Otinbibi xolam sumalak qanday kelib chiqqanini ham gapira boshladi, ilgarigi zamonda Bibifotima degan bitta ayol, o'zi juda obro'li odamning xotini bo'lishiga qaramay, bexad kambag'al bo'lganidan bolalariga ovqat topib berolmay qozonga tosh bilan ko'k o't solib qaynata boshlabdi. Bir mahal bunday qarasa, shu sumalak pishib qolgan emish, ko'zini kattaroq ochib qarasa, o'choq boshida seyimalak ya'ni o'ttizta farishta o'tirgan emish.

– Huvvv! – yig'lab yuborishdi yana amma-buvilar.

Xullas, bu sumalak deganlari xudoyi taoloning taomi emish, kimda-kim pishirib, yaxshi niyat bilan yalasa niyatiga yetarmish, bitta yetim qiz shu sumalak tufayli naq podshoning o'g'liga erga tegib olgan emish.

– Huvvv! – degan ovoz eshitildi yana ichkaridan. Mana shunaqangi gaplardan eshitib, mazza qilib o'tiraverar edim-u, ammo Robinisa tizzamda uxlab, yuk bosib oyoqlarim uvishib qoldi.

Jajji singlimni uyimizga yotqizib chiqdim. Yotqizib chiqqanimni opamga aytib qo'yishim kerak edi. Opam bo'lsa, kampirlarning orasida ko'rinmayapti. To'xta xolamlarning hovlisi, sizga aytuvdim shekilli, ichkari-tashqarili, sumalak tashqarida pishyapti, «diydiyo»ni

ham shu yerda o'qishyapti, ichkari hovliga o'tdim... O'h-ho', ishning kattasi bu yoqda ekan-ku!

Parpi buvam chekkaroqdagi pastakkina uychada butun dunyoni unutilib shaq-shuq moki otib, bo'z to'qiyapti, uning sumalak bilan ham, podshoning o'g'liga tegib olgan yetimcha qiz bilan ham ishi yo'q, faqat bo'zini tezroq to'qib, pulini ko'paytirib, Meli boqqoldan olgan qarzini tezroq to'lasa bo'lgani! Beriroqda bo'l-sa... hali aytganimdek ishlar gumbir! O'ttiz chog'li qiz-u juvonlar to'planishib, yaxshi qizdirilmagan childirmani dapir-dupur urishib o'yin qilishyapti. Opam davraning o'rtasida, galma-galdan qizlarni o'yinga tortib:

– Hoy, yosh narsa kimdan uyalasan, – deb tanbeh ham beryapti.

– Karomatxon, o'zingiz ham bir o'ynab bering, – taklif qilib qoldi ayollardan biri.

– Ha-ha, o'zlariyam o'ynasin.

– O'rtadan chiqarmanglar, – deya qiz-u juvonlar opamni davradan chiqarishmay, o'ynab bermaguningizcha javob bermaymiz, deb turib olishdi. Opam qo'llarini o'yinga moslab bir ko'tardi-yu, bir oz o'ylanib turgach, «Yo'q, bo'lmaydi» deya kulib yubordi. Qiz-juvonlar qiyqirishib talab qila boshlashdi.

– Qani, Shahrixon, chal bo'lmasa! – nihoyat rozi bo'ldi opam.

– Nimaga chalay, opajon?

– Bilganingga chalaver.

– Dilxiroqga chalaymi?

– Maylin.

Voy tavba, men bilmas ekanman, opam biram chiroyli, biram ta'sirli o'ynarkanki, hammalarini mahliyo qilib qo'ydi-ya! Lekin qiziq, men uyalganimdanmi, negadir g'ashim kelib qitig'im ham kelayotganga o'xshab ketdim. Endigina tashqariga chiqib ketaman deb turuvdim, opam taqqa to'xtab:

– Qarib qolibman, Mo‘tabar, – deb chuqur-chuqur nafas ola boshladi.

– Voy, biram yaxshi o‘ynayotuvdingizki, – dedi Mo‘tabar xolam, – endi Sojidanani tortinglar!

Boshqalar ham Sojidanani torting, ashulasi bilan o‘ynasin, o‘zi to‘qigan ashulasi bor, o‘shani bir eshitaylik deb talab qilishdi. Sojida opam ko‘pam talashib-tortishib o‘tirmadi, shoshilib o‘rtaga chiqdi-yu, qo‘ying-e, uyalaman, deb ikki kafti bilan yuzini berkitib oldi, lekin darrov qo‘llarini yuzidan olib:

– Ashulasiniyam aytaymi? – deb so‘radi qiz-u juvonlardan.

– Voy, o‘shanisiga ishqivozmiz-da, qoqindiq! – deb qo‘ydi Mo‘tabar xolam.

Childirmachi ohang boshladi. Sojida opam yo‘rg‘alab o‘ynab ketdi. U mening opamga qaraganda juda sho‘h juda yengil o‘ynarkan, o‘ynab-o‘ynab davra o‘rtasida to‘xtadi-da, ashula boshlab yubordi:

*Urushga ketgan akam,
G‘azotga ketgan akam,
Onamizni yig‘latib,
Xatni kam bitgan akam!*

– Tilingga novvot!

– Jonim fido, qoqindiq!

– Akalarini sog‘ingan-da, – deb pichirlashib oldi ayollar. Sojida opam kuylab o‘ynashda davom etdi:

*– Osmondagi qarchig‘ay,
Sen bilan birga ketay.
Onam salom aytdilar,
Akamga tez yetkazay.*

*Qarib qoldilar dadam,
Hassasiz bosmas qadam.*

*Arslonim qayda deb,
Yig'lab olar damba-dam.*

*Dadam qilich bersinlar,
Dalda, kuch ham bersinlar.
Uring, savang yoularni,
Onam xivich bersinlar.*

Qiziq, men shu paytda negadir otamni eslab ketdim. Biz bu yerda sumalak pishirib, eshak mindi o'ynab, raqslar tomosha qilib o'tiribmiz, otam-chi, u qayerda ekan hozir? Ehtimol sovuq okopda dildirab o'tirib o'y surayotgandir. Yoki pulemyotni sudrab hujumga o'tishdimikan, bizdan borgan xatni o'qitishga odam topolmay, okopma-okop sudralib yurgan bo'lsa-ya... Otam, otajonim...

Ko'chada o'ynayotgan bolalar ham xuddi bir narsadan quruq qolgandek yopirilib kelib qolishdi. Parpi buvam ham ishini to'xtatib ashula eshitgani chiqdi. Sojida opam bo'lsa xuddi allakimning qarshisiga o'tirib olib yiglayotgandek hamon kuylashda davom etyapti:

*Soyimizda qunduz bor,
Boshimizda yulduz bor.
Omon qayting akajon,
Sizni kutgan bir qiz bor.*

*Ariq, bo'yida rayhon,
Sizni kutgan Sanamxon.
Aka unga xat yozing,
Yuragi to'la armon.*

*Osmondagi oy bo'lay,
Gijinglagan toy bo'lay.
Aka, qiring dushmanni,
Sizga o'q-u yoy bo'lay*

*Daraxt ekdir bog' bo'ldi.
Qovjirab yantog' bo'ldi.
Tezroq qayting akajon,
Yuragim adog' bo'ldi...*

Ashula hammadan ko'ra ham Parpi buvamga qattiq ta'sir qilganga o'xshaydi.

– E parvardigori olam, – deya chuqur xo'rsinib qo'ydi. Opamning ko'zida ham yiltillab yosh tomchilari ko'ringanday bo'ldi. Mo'tabar xolam yig'lab yubordi, ashula tugashi bilan:

– Omon bo'ling, Sojidaxon!

– Dilimdagini to'qibsan, o'rtoqjon.

– Hoy o'rtoq, so'zini yozib bersang-chi, – deyishib, qiz-u juvonlar Sojida opamni xuddi armiyadan cho'loq bo'lib qaytgan soldatni o'rtaga olgandek har tomondan qurshab olishdi. Xuddi shu paytda tashqari hovlidan ayol kishining vahimali dodlagani, kampirlarning qiy-chuvi eshitilib qoldi, hamma o'zini o'sha yoqqa urdi. Sumalak pishayotgan katta o'choqqa o't qalab o'tirgan Qumri opam shaytonlab qolganga o'xshaydi, yuziga suv sochib o'ziga keltirishyapti, yuragi tezroq joyiga tushsin deb bir piyola muzdekkina suv ham ichirib yuborishdi.

– Nima bo'ldi, qizim? – so'radi To'xta xolam.

– Voy xolajon, – entikkanidan Qumri xolam yana gapirolmay qoldi.

– Hoy, o'zingizni qo'lga olsangiz-chi! – urishib berdi Otinbibi xola.

– Ana qozonda!

– Nima qozonda?

– O'sha, o'sha!

– Nima axir o'sha?

– Avval, xolajon, osmon-u falakda, bulutlarning ostida oppoq qushga o'xshagan bir narsa ko'rindi, keyin qanotlarini yozgancha asta-asta pasayib kelaverdi... mana shu hovlining ustiga kelganda... voy xudoyim!

– Tezroq gapirsangiz-chi! – qistadi Otinbibi xolam.

– Mana shu hovlining tepasiga kelganda haligi qush qanotlarini bir silkitib kattakon doka rumolga aylandida, o‘zini qozongani urdi.

– Voy tovba!

– E xudoyim!

– Lo iloha illollo... – deyishib amma-buvilar dosh qozonga yopirilib kelishdi. Soy mahalladan kelgan Soqolli xola «bismillohu rahmoni rahim» deb yenglarini tirsagigacha shimarib katta kapgir bilan qozonni kovlagan edi, chindan ham atalaga pishilgan doka ro‘mol kapgirga ilashib chiqdi.

– Bibifotimai Kibiriyoning mo‘tabar ro‘mollari bu! – deb to‘satdan yig‘lab yubordi Otinbibi xolam.

Xuddi shu paytda, ishonsangiz, hovlida tirik jon borki hammasi taxtadek qotib qoldi: biri ko‘zlarini olaytirib, biri yelkasini qisib, yana bittasi og‘zini ochganча qozonga tikilib angrayib turibdi, Parpi buvam bo‘lsa yoqasini ushlab:

– Astag‘furullo, astag‘furullo! – deb qo‘yyapti.

Otinbibi xolam Bibifotimai Kibiriyoning ro‘mollarini avaylab katta tog‘oraga soldi-yu, bismillo deb sekin ko‘tarib ayvonga olib bordi. Suvini tog‘oraga siqib, yopishgan xamirlarini tushirib, bir-ikki silkitgan edi, doka ro‘mol asli holiga kelib kampir buvilarning ko‘zini chaqnatib yubordi. Otinbibi xolam ho‘l ro‘molni chiroyli taxlab qo‘yniga solayotgan edi, To‘xta xolam:

– Bu yoqqa bering, – dedi jerkib.

– Nima-nima? – dedi otinbuvi xola ham xuddi o‘sha ohangda.

– Sumalakni men pishiryapman.

– Mushkulkushodni men o‘qiyapman-ku!

– Bering deypman.

– Nari turing.

Ro‘molning bir uchi To‘xta xolamda, boshqa uchi Otinbibi xolamda, ikkovlari ikki tomonga tortisha-

yotgan edi, Bibifotimai Kibiriyoning mo'tabar ro'mollari osmoni falakda uchib yuraverib chirib qolgan ekanmi, shirillab yirtilib ketdi.

– Bir parchasini menga ham beringlar, – dedi soy bo'yidan kelgan Soqolli xolam.

– Voy, aylanay, menga ham jindek tegib qolsin, – dedi past mahalladan kelgan yana bir xolam.

Mana shunaqangi gaplardan keyin desangiz, mo'tabar ro'moldan bir parcha olish uchun shunaqangi kattakon janjal boshlanib ketdiki, asti qo'yaverasiz. To'xta xolam ro'molining bir qismini ko'ksiga bosib hovlida qochib yuribdi. Otinbibi xolamni bo'lsa allaqachon kigizga bosib olishgan.

– Voy, tortmang!

– Qo'lingni ol, ochopat!

– Savobdan men ham bebaxra qolmay.

– Ho o'l, nomozni tahoratsiz uqiysan-ku... – deyishib amma-buvilar xuddi chavandozlar uloq talashgandek ro'mol talashyapti, birining burni qonagan, boshqasining yuzi timdalangan, bu orada doka yirtilib, parcha-parcha bo'lib cho'ntaklarga ham tushib turibdi... Xuddi shu paytda Qumri opam:

– Voy xudoyim, – deb yana dodlab yubordi: – yana ro'mol tushyapti, osmondan tushyapti! Ana, ana!.. Yo parvardigor!

Katta-yu kichik barobariga yalt etib osmonga qarashdi, yo tavba, chindan ham kattakon bir ro'mol ulkan bir qushning o'ligidek salanglab yerga tushib kelyapti. O'choqda yonayotgan katta olovning shu'lasida ro'molning ostki tomoni yaltirab ko'zlarni qamashtirib yubordi. Kiyikdek chaqqon bo'lgan Hayitkalla bir sakrab ro'molni havodaligidayoq ilib oldi-yu, boshi uzra pir-piratib ichkari hovliga qarab yugurdi.

– Ushlanglar uni! – buyruq berdi Otinbibi xolam.

Mana shu gapdan keyin mo'tabar ro'mol talashish-ning ikkinchi bosqichi – eng og'ir pallasi boshlandi.

Savobdan bebahra qolmaslik uchun bolalar-u, haligi childirma chalib o'yinga tushayotgan ayollargacha aralash-quralash bo'lib ketishdi. Kim biladi, bir parchasi menga ham tegib qolsa, konvertga solib jo'natib yuborsam, otamni dushmanning o'qidan omon saqlab qolishi ham mumkin-ku deb o'ylab, men ham o'zimni to'daga urib Hayitkallaning qulog'idan cho'zg'ilay boshladim.

Tiqilinchda past mahallalik bir kampir xolaning oyog'ini bosib olgan ekanman:

– Nari tur, itvachcha! – deb xolajonim qulog'imning tagiga bir tushirib qo'ydi.

– Hu, xolajonlar, – degan ovoz eshitildi bir mahal qayoqdandir, ammo hech kim bu ovozga parvo qilmay, tort-tortni avjiga chiqaraverdi.

– Bir-birlaringni o'ldirib qo'ymanglar, – dedi yana haligi ovoz, – ro'molning tagi mo'l, kecha magazinga doka kelgan.

Hamma janjal-u, tort-tortni to'xtatib Shokir buvaning tomiga qaradi. Tomning chekkasida Roziq tog'gam bilan soy mahallalik chapaqay Xo'janazar amakim qo'llarini biqiniga tirab qarab turishibdi, ikkovi ham qotib-qotib kulib, har zamonda tizzalariga shappalab qo'yishyapti.

– Bibifotimaning ro'molidan yana nechta kerak? – deb so'radi Roziq tog'am kulishdan to'xtab, – mana, tag'in bittasini otpravka qilyapman, janjallashmasdan bo'lib olinglar.

Orasiga tosh solib otilgan ro'mol osmon-u falakka chiqqach, toshdan ayrildi-yu, bir nafas havoda muallaq turib qoldi. Keyin salanglab pastga tusha boshladi.

– Yer yutgur, Roziq, avvalgisiniyam sen otganmiding? – qaltirab so'radi To'xta xolam.

– Bo'lmasam-chi, xolajon, axir bu dunyoda mendan boshqa mexriboningiz yo'q-ku.

– Hu tiling kesilgur! Dadangga o'xshamay o'lgur! – deb To'xta xolam paypaslanib tomga otish uchun kesak

axtara boshladi. Bolalar-u qiz-juvonlargacha hammalari qiyqirib kulib yuborishdi, amma-buvilar sharmanda bo'lganlari uchun hamma aybni Otinbibi xolamga to'nkab, xuddi uyatli ish qilib qo'ygan yosh boladek qizarishib, bo'zarishib ichkariga kirib ketishdi.

Biz bolalar bo'lsak yetti uxlab tushimizga ham kirmaydigan bu ajoyib tomoshaning guvohi bo'lganimiz uchun o'zimizda yo'q shod, xursand edik.

– Sumalak sumalak jon sumalak! – deb irg'ishlay boshladi Hayitkalla.

– Noni yo'qda non sumalak! – deb jo'r bo'lishdi boshqa bolalar ham sakrashib.

OPAM, OPAJONIM

Yarim kechasi uyg'onib ketdim. O'zim uyg'ondimmi desam, yo'q, tashqaridan kelayotgan sharpa ovozidan uyg'ongan ekanman... Hovlida ikki-uch odam g'imirsib yurganga o'xshaydi... Bu qanaqasi bo'ldi, nahotki o'g'ri tushgan bo'lsa, sigirni yetaklab chiqib ketishayotgan bo'lsa-ya!..

Yalang oyoq, ko'ylakchan yugurib chiqdim.

– Orifjon, zambil bormi? – so'radi o'g'rilardan biri... yo'q, o'g'ri emas, Usmon buva, brigadir. Opam uch kundan buyon o'shaning yerlarini haydayotgan edi.

– Qanaqa zambil? – so'radim sal-pal o'zimga kelib.

– Zambildaqa zambil-da, qanaqa bo'lardi, – dedi yana bittasi. Ie bu doktorku. Maktabga kelib hammamizni emlab ketadigan doktor-ku. U nima qilib yuribdi bu yerda? Zambilni topib berdim. Kiyinib chiqib orqalaridan ergashdim, ko'cha eshigimiz oldida otarava turibdi. Aravada oyimning shogirdi Mukarram opam tik turibdi.

– Orifjon, ukaginam! – Mukarram opam negadir yig'lab yubordi. Zambilni aravani ustiga chiqarib otamning katta qora po'stiniga o'ralgan bir narsani

ehtiyotlab zambilning ustiga qo‘ya boshlashdi. Ko‘zlarim yaraqlab ochilib ketgandek bo‘ldi. Opam, opajonim-ku...

– Opajon! – qichqirib yubordim.

– Dodlama! – sekingina dedi doktor, – qo‘shnilarni uyg‘otib yuborasan.

– Opamga nima bo‘ldi?

– Ke, zambilni ko‘tarishib yubor, – past ovozda dedi doktor.

Zambilni ko‘plashib ko‘tarib yangi, derazali uyimizga olib kirdik. Doktor paypaslanib, turtina-surtina chiroq yoqdi. Shundagina ko‘zim tushib qoldi – opajonim qoniqushga bo‘yalgan, behush yotibdi...

– Opajonim!!!

– Eshikka olib chiqing! – buyurdi doktor. Mukarram opam qo‘limdan tortib hovliga olib chiqa boshladi. Hech narsa bo‘lgani yo‘q, xudo xohlasa tuzalib qoladi, deb ko‘nglimni ko‘taryapti. O‘choqqa guldiramazon qilib o‘t yoqib yuborishdi, uyga yana bitta chiroq yoqishdi... Ko‘chadan otning kishnagani eshitildi, xiyol o‘tmay kolxozimizning ona-bola raisi Xayri xolam bilan Mashrab tog‘alar hovliqqancha kirib kelishdi. To‘xta xolamni uyg‘otib chiqishdi. Parpi buvam ham chiqdi. Men xuddi behushdek hamon hovli o‘rtasida so‘rrayib turibman. Nima bo‘ldi, nima bo‘ldi ekan opajonimga? Parpi buvam ichkariga, opamning yoniga shoshilib kirib ketdi-yu, lekin negadir darrov orqasiga qaytib chiqdi:

– Orifjon, bo‘tam! – dedi ovozi qaltirab.

– Nima bo‘pti, buvajon?

– Xudo xohlasa hech gapmas, tuzalib qoladi...

– Nima bo‘pti, nima bo‘pti axir?

– Traktor bosib qopti.

– Buvajon!

– Yig‘lama bo‘tam!

Rayon markazidan katta doktorni olib kelish uchun ketma-ket ikkita otliqni jo‘natib yuborishdi. Tupuriq quriguncha yetkazib kelmasalaring boshlaringni

olaman, deb dag'dag'a qilib qo'ydi rais amaki, keyin qo'lidagi qamchisini Usmon brigadirga o'qталib:

– Hamma ayb sizda! – deb baqirib yubordi.

– Tepamda xudo bor, Mashrab! – yig'lamsirab dedi Usmon brigadir, – axir kecha o'chshom ham jindakkina mizg'ib ol qizim, deb xudoni zorini qildim. Yo'q, deb turib olsa nima qilay axir... Uch kundan buyon traktorning ustidan tushmadi-da axir...

– Soqolingizni yulib olaman! – yer tepinib dedi rais.

Opajonim traktorning ustida uxlab qopti, traktor izdan chiqib ariqqa ag'anab bosib qopti...

Mukarram opam, To'xta xolam, doktor uchovlari ichkarida bir narsalar qilishyapti. Soyalari derazadan goh u yoqqa-goh bu yoqqa o'tib turibdi. Doktor sovun, o'tkir pichoq so'ragandek bo'ldi, ketidan tog'orada iliq suv olib kirib ketishdi. Asta-sekin qo'shnilarimiz chiqa boshlashdi. Hammalari allaqanday vahima ichida pichirlashib, imoishora bilan so'zlashishyapti, ba'zan menga, ba'zan ichkarida uxlab yotgan ukalarimga g'alati-g'alati qilib qarab qo'yishadi. To'xta xolam eshikni ochib:

– Xudoga shukur, ko'zini ochdi, – dedi-yu, yana shoshib eshikni ichidan berkitib oldi.

Ukalarim ham birin-ketin uyg'onib biri ko'ylakchan, boshqasi yalang oyoq uyqusirashib, ko'zlarini ishqalashib tashqariga chiqa boshlashdi. Omon pildirab kelib oyog'imga yopishdi, ko'tarib oldim.

– Aka, opam menga ukacha tug'ib beryaptimi? – shivirlab so'radi u.

– Bilmadim.

– Aka, opamning oldiga kiraylik ukachani ko'raylik.

– Keyin, keyin ko'ramiz.

Omonning uyqusi chalaga o'xshaydi, ko'zlari yumilib boryapti, uxlatish uchun uyga olib kirdim. O'ringa yotqizib endigina ustiga ko'rpa tortayotgan ham edimki, Mukarram opam kirib opalaring so'rayapti, darrov yuringlar deb qoldi.

Zulayho hech narsadan xabarsiz pishillab uxlab yotgan Robiyani, men ko'zi ilinay deb turgan Omonni ko'tarib oldim. Opajonimning hamma yog'ini doka bilan o'rab tashlashibdi. Ko'rpada odam emas xuddi oq matodan yasalgan ulkan qo'g'irchoq yotganga o'xshaydi. Yuzi, ko'zlarigina ochiq xalos. To'xta xolam bosh tomonida, Mukarram opam chap yonida o'tirishipti. Doktor o'choq oldida shishadan piyolaga dori tomizyapti. To'xta xolam qo'li bilan yaqinroq kelinglar deya ishora qilib qoldi. Opamning ko'zlari yumuq, kipriklarida yosh tomchilari yiltirab turibdi, ko'kragi temirchining damidek ko'tarilib-tushyapti...

– Suv! – pichirladi lablari.

Opam To'xta xolam tutgan suvni ichgach, ko'zlarini katta-katta ochib atrofga tikilib qaradi, lablari burishib, ko'zlaridan duv etib yosh to'kilib ketdi.

– Orifjon, o'g'lim...

– Labbay, opajon?

– Ke, peshanamdan o'p. Barakalla, ukalaringga bosh bo'lgin.

– Unday demang, opa!

– Xo'p degin.

– Xo'p!

– Hammalaring o'qinglar.

– Xo'p!

– Dadang qaytguncha tarqab ketmanglar.

– Opajon!

– Uyimizning chirog'i o'chib qolmasin!

– Opa!

– Xo'p degin!..

– Xo'p!

– Ukalaringni hecham urishmagin!

– Xo'p!

– Sultonjon, pahlavonim, ke, peshanamdan o'pgin.

– Opajon!

– Yig'lama, qani yoshingni artchi, artdingmi? Endi hecham yig'lama, xo'pmi?.. Akang bilan urishmagin. Zulayho, ona qizim, qani menga qarachi, kap-katta qiz bo'p qopsan-ku...

– Opa...

– Usmonginam, rassom o'g'lim, beri kel, barakalla, qani bir achomlachi... Omonjon, bu senmisan, voy toylog'im-ey! Qorning ochmi?

– Usmoningiz har kuni nonimni yeb qo'yyapti.

– Voy shirinim-ey, endi yemaydi. Usmonjon endi nonini yemaysan-a?.. Robinisam qani? Uyg'ot, uyg'otinglar! Suv... suv beringlar... Xolajon, rozi bo'ling... bolalarim sizga qoldi... Orifjon, bolaginam... chirog'imiz o'chib qolmasin, chiroq...

To'xta xolam tutgan suvni opam icholmadi. Lablari yumilib qoldi, ko'zlari ham allaqanday olayib, bir tomonga tikilganча qotib qolgandek bo'ldi. Doktor yugurib kelib, engashib oyijonimning ko'ksiga qulog'ini bosdi, shu holida, qulog'ini bosganча bizga qo'li bilan tashqariga chiqinglar deya ishora qildi.

– Opajon! – qichqirib yubordi Zulayho.

To'xta xolam qo'limizdan yetaklab tashqariga olib chiqa boshladi. Hali tong yorishganча yo'q, hamma yoq qop-qorongi, qo'ni-qo'shnilarimiz hovlining o'rtasiga o't yoqishibdi, rais ham, onasi ham yo'q, qayoqqadir ketishganga o'xshaydi. Mahmudxon, Hayitkallalar ham chiqishibdi. Meli boqqol ham paydo bo'lib qopti. Parpi buvam bilan bir narsalar to'g'risida shivirlashib gaplashishyapti.

– Opang tuzukmilar? – sekin so'radi Mahmudxon. O'pkam to'lib javob qaytarolmadim. Mo'tabar opam ukalaringni olib biznikiga yura qol, tanchaga o't qildim, bozillab turibdi, isinib chiqasizlar deb hammamizni bir yo'la taklif qilib qoldi. Ko'chaga chiqishimiz bilan To'xta xolamning:

– Voy, xudoyim, Karomatbibidan ayrilib qoldik! – degan chinqirigi eshitildi.

- Opajon!
- Opajonim! - deb ukalarim ham chinqirishib orqalariga qaytishdi.

ENDI NIMA QILAMIZ?

Mana, opamning yigirmasini ham o'tkazib yubordik ma'arakaga to'plangan odamlar ham tarqalib bo'lishdi. Mo'tabar opam idish-tovoqlarni naridan-beri yuvgan bo'ldi-da, u ham chiqib ketdi. Parpi buvam opamni ko'mgan kunimiz ertasiga ikki oyog'i shol bo'lib yotib qolgan. To'xta xolam ham kasal, nafasi qisyaпти, ertayu kech yotgani-yotgan.

Ukalarim bilan katta uyimizda o'tiribmiz. Otamni shu uydan kuzatgandik opam bilan ham shu uyda vidolashganmiz. Usmon do'lananing shoxidan kesib zuvuldoq yasayapti, Sulton oshiqning chikka tomoniga qo'rg'oshin quyish bilan mashg'ul - shunday qilsam og'ir bo'ladi, boshqalarnikini bemalol yutib olaman deb o'ylaydi. Zulayho Usmonning ishtoniga yamoq solish bilan ovora. Usmon ukam so'nggi kunlarda yog'och minib o'ynaydigan odat chiqarib olgan - har kuni ishtonining orqa tomonini yirtib keladi, urishsam: «Ishton o'zidan-o'zi uzilyapti» deb parvosiga ham keltirmaydi... O'zim Omonning boshini tizzamga qo'yib, ko'ylagini qaytarib, bitini o'ldiryapman. Shu kunlarda bizni bit bosib ketgan. Qiziq, bit ham odamning o'ziga o'xshagan bo'larkan: Sultonning biti o'ziga o'xshab baqaloq tirsillab turgan semiz bo'ladi. Usmonning biti nimjon, sap-sariq, barmog'ing orasiga olib har qancha siqsang ham qoni chiqmaydi. Zulayho ikkovimizning bitimiz bo'lsa, tavba qildim-ey, xipcha bel, cho'ziqdan kelgan, darmonsiz bo'ladi. Omon bilan Robiyada bitdan ko'ra ko'proq sirka uchraydi, lekin shu sirkalar ham ularga hech tinchlik bermaydi, ikkovi tinmay g'ingshib, qashingani-qashingan.

- Aka, - sekin chaqirib qoldi Zulayho.
- Nima deysan?
- Munkarnakir go'rga qayerdan kiradi?
- Bilmasam...

- Hozir opamni tiriltirib olib so'roq qilayotgan bo'lsa-ya!

- Qo'y, unaqa gaplarni gapirma.
- Gunohi bo'lsa gurzi bilan urarmish-ku?
- Yolg'on? - Omon sakrab o'rnidan turib ketdi, chopqillab borib Zulayhoning sochiga tirmashdi. - **Opamning** hecham gunohi yo'q! Uni hech kim urmaydi! Qani urib ko'rsin-chi!!

Shu gapni aytib ukaginam kigizga dumalab dodlashga tushdi. Uning shovqinidan yerda uxlab yotgan Robiya uyg'onib:

- **Opam!** - deya ko'zlarini javdiratib u yoq-bu yoqqa qaray boshladi.

- **Opaga** ertaga boramiz, - dedim jaji singlimni tizzamga olib. U opamning vafot qilganini hali bilmaydi, traktor xaydagani ketgan deb yuribdi bechora. Kechqurunlari ko'cha eshik oldiga chiqib, yo'lini poylaydi. Uzoqdan bitta-yarimta ayol ko'rinib qolgudek bo'lsa, opam kelyapti deb pildirab oldiga chopadi.

- Ertaga boramiz? - so'radi Robiya tizzamga joylashibroq o'tirib.

- Ha, ertaga boramiz.
- Menga qand beradi?
- Ha, qand beradi.

Robiya yana bir narsalar haqida so'ramoqchi edi-yu, ammo uyqu zo'r kelib, esnay-esnay yana uxlab qoldi. Omon g'ingshishdan to'xtab Zulayhodon boshimni boqib qo'yanan deya talab qila boshladi. Zulayho janjaldan osongina qutulganiga shukur kilib, Omonning boshini tizzasiga oldi, sochlarining orasini bitta-bitta qarab sirkasini o'ldira boshladi.

Men yana o'ylanib ketdim. Nima qilsam ekan? Yoki ukalarim bilan detdomga borib qo'ya qolsammikan? Yo'q, biz ketib qolsaq uyimizning chirog'i o'chib qoladi. Opam, uyimizning chirog'i o'chmasin deb vasiyat qilib ketgan! Keyin biz ketib qolsak opamning qabridan kim xabar oladi... Kecha arvohi kapalak bo'lib uchib keldi, avval Robiyaning boshiga, keyin Zulayhoning yelkasiga qo'ndi, atrofga nazar tashlagandek bo'ldi, uyimiz tinch, biz ham ahilgina o'tirganimizni ko'rib yana mozor tomonga uchib ketdi. Opa, opajonim!! Nima qilay, maslahat bering. Axir odamlar detdomga borasan deb qiyin-qistovga olishyaptiku. Roziq tog'am ham, ona-bola raisimiz ham, hu birda bizga popukli qand bergan MTS direktori, sizning o'rtog'ingiz bor edi-ku, o'sha xola ham qistab qo'yishmayapti. Faqat Parpi buvam bilan To'xta xolam ko'nishmay turishib-di, biz tirik ekanmiz bolalar shu yerda bo'ladi deyishyapti. Yoki Meli boqqolnikiga kirib, qarol bo'lib ishlaylikmi? Yo'q-yo'q, unikiga kirmaymiz, hecham kirmaymiz. Sigirimizni olib qo'ydi u. Siz opajonim, undan olgan qarzingizni dadam armiyaga ketayotgan kuni bergan edingiz, biz ham ko'rib turuvdik endi bo'lsa tondi, qasam ichib tondi! Ma'arakangizda, yettingizda ul-bul narsa bergan bo'ldi-da, birovdan qarzga oluvdim, qistab keldi deb Parpi buvamni ham yum-yum yig'latib, sigirimizni olib qo'ydi u. Endi bo'lsa, Sul-ton ikkovlaring biznikida mol boqarlik qilinglar, hech bo'lmasa qorinlaring to'yadiku deb qistayapti. Yo'q, yo'q! Opajon, unikiga hecham kirmaymiz. Sul-ton ham uni jinidan battar yomon ko'radi. Sigirimizni olib chiqib ketayotgan kuni boqqolning qo'lga yopishib, hamma yog'ini tishlab uzib oldi. Parpi buvam «Qo'y, Sul-tonboy, tuzalib ketsam sigirni o'zim olib beraman... Opaginang qabrida tinch yotsin, qarzi bo'lsa yotolmaydi» deb arang yupatdi. Bo'lmasa Sul-ton uning boshiga tosh bilan urmoqchi edi.

Opajon, opajonim, endi nima qilay, yeydigan hech narsamiz ham qolmagan, ko'pincha och yuribmiz... yoki

Parpi buvam oyoqqa turguncha detdomga borib turaylikmi? Axir tuzalib qolsalar yana qaytib kelave-ramiz-da. Ungacha ehtimol otam ham kelib qolar...

– Aka, – deb chaqirganday bo‘ldi Omon

– Nima deysan? – dedim o‘zimga kelib.

– Nega yig‘layapsiz?

– Yig‘laganim yo‘q, uka.

– Ko‘zingizda yosh bor-ku?

– O‘zim... tupurigimni surtib oldim.

– Uyqungizni qochiryapsizmi?

– Ha.

– Aka, bugun opamning oldiga bormadik-ku? Yuring bir borib kelaylik bizni kutib o‘tirgan bo‘lsa-ya!

– Kech bo‘ldi, Omonjon.

– Mayliga, boraveramiz, – Omon dik etib o‘rnidan turdi, kelib qo‘limdan tortqilay boshladi, – opam tirilgan bo‘lsa, go‘rdan chiqolmay qiynalayotgandir, yuring, quloq solaylik...

Omonni kimdir opang albatta tirilib keladi deb ishontirib qo‘yibdi. Esiga tushdi deguncha kechasi demay, kunduzi demay meni qabristonga sudraydi, olib bormasam dodlab xunob qilib yuboradi... Endi nima qildim, hozir dodlashga tushadi u.

– Aka, odamlar kelyapti! – hovliqib dedi derazaga qarab xayol surib o‘tirgan Zulayho.

Rostdan ham uzun-qisqa bo‘lishib uch-to‘rt kishi kirib kelishyapti, oldindagisi rais, Mashrab amaki. Ketidan likanglab kelayotgani – qorovul To‘ron amaki. MTS direktori, opamning o‘rtogi ham kelyapti... Ketidagisi kim bo‘ldi ekan? O‘risga o‘xshaydi-ku, ha o‘ris, sochlari ham o‘rilmagan, yelkasiga tushib turibdi... Bizni olib ketgani kelishyapti... Endi nima qildik opajon?

Mehmonlar to‘ppa-to‘g‘ri uyga kirib kelishdi.

– O‘-ho‘, jamoat jam-ku, – deb qo‘ydi rais.

Men gap nimadaligini bilganimdan ataylab indamadim. Ukalarim ham javob qaytarishmadi, hammamiz

o'rnimizdan turib, boshimizni solintirib jim turaverdik. Direktor opa oq batis qiyiqqa tugib bir narsa olib kepti, tokchaga qo'ydi. Keyin mening orqamga berkinib olgan Omonni ko'tarib peshanasidan o'pa turib:

- Katta yigit bo'p qopsan-ku, - deb qo'ydi, - qand beraymi?

- Yemayman.

- Voy, nega?

- Biz opamning oldiga ketyapmiz, - shunday deb Omon tatalanib yerga tushdi-da, yana mening orqamga o'tib berkinib oldi.

Mehmonlar poygastroqqa o'tirishdi.

- Orifjon, nega tik turibsizlar, qani, o'tiringlar-chi! - buyurdi rais amaki, - ha barakalla, mana bu boshqa gap... Ma'rakani o'tkazib oldilaringmi?

- Ha, - deb qo'ydim sekingina.

Mehmonlar bir-birlariga ma'noli qarab olishdi. Direktor opa sal joylashibroq o'tirib:

- Orifjon, sizlarni olib ketgani keldik - dedi juda mehribon bir ohangda gap boshlab.

- Qayoqqa? - dedim qo'rqib.

- Detdomga!

- Yo'q, bormaymiz! - shartta o'rnimdan turib ketdim. Ukalarim ham qo'rqib ketishdi shekilli, sapchib turib ketishdi. Zulayho bilan Usmonning ikki ko'zi o'ris xotinda bo'lib qoldi. U hech o'tirolmayapti. Goh chordona qurib oladi, goh qiroat qilayotgan domla pochchaga o'xshab cho'kka tushib oladi, sochini kaltagina qilib kestirib olgan, qulog'iga yetay-etay deb turibdi. Gavdasi ham juda katta - xuddi otamcha keladi deng. Omonga qarab ko'zini qisgan edi, Omon tilini chiqarib boplab masxara qilib qo'ydi uni.

- Nega unday deysan, o'g'lim? - avvalgisidan ham mehribonroq bir ohangda dedi direktor opa, - men aslida sizlarga begona emasman - xolalaring bo'laman! Karomat bilan traktorchilikka birga o'qiganmiz,

to'yiniyam childirma chalib, yor-yor aytib o'zim o'tkazganman... Orifjon, sening kindigingni men kesganman, o'g'lim. Opang rahmatli, seni traktorning ustida turg'ib qo'ygan edi... Nima qilaylik endi, shunaqa bo'p qoldi. Axir, ukalaringni o'ylasang-chi!

– Bir amallab boqib olaman.

– Qiynalib qolasizlar.

– Qiynalmaymiz, kolxozga ishga kiraman! – dedim yig'lavorgudek bo'lib, yo'q, allaqachon yig'lagan ekanman, ko'z yoshlarim burnimning ustiga oqib tushayotganidan sezib qoldim.

Direktor opa uzoq gapirdi. Opajonim hukumat uchun juda foydali ayol bo'lgani, shuning uchun ham rayon rahbarlari bizni yetimxonaga joylash haqida buyruq chiqarishganini aytib, cho'ntagidan suv qog'ozga yozilgan xatni olib ko'rsatdi. Rais har zamonda yakka-yolg'iz qo'li bilan etigining sog'iga shap etkazib urib, jim o'tiraverdi. To'ron amaki bo'lsa hech narsadan hech narsa yo'q, tutoqib ketib, bizni so'kishga tushdi. «Sen ham otangga o'xshab, qip-qizil ahmoq bo'psan, Polvon ham foyda bilan ziyonning farqiga bormas edi. Rayon hukumati senlarga yaxshilik qilyapti-yu, sen bo'lsang hiqillab nozi-firoq qilasan-a! Hozir remen bilan savalab qolaymi, ahmoq!» deb o'shqirib berdi.

Rais oxiri cholning oldiga kiraylik bular bilan bari bir ish bitira olmaymiz deb, yakka-yolg'iz qo'li bilan fotiha o'qib, o'rnidan turdi.

Men ham orqalaridan ergashdim, kirsak To'xta xolam hozirgina Parpi buvamni hovlidagi so'riga olib chiqib yotqizgan ekan. Hol-ahvol so'rashishdi, buvam tuzukman, kechadan buyon oz-oz yuryapman ham deb qo'ydi. Direktor opa aslida Parpi buvam bilan eski tanish ekan, shuning uchun bo'lsa kerak gapini juda uzoqdan boshlab yubordi, kelinigizning er qilib ketganini eshitib juda xafa bo'ldim, o'shanda meni kelin qilmovdingiz,

traktorchini kelin qilib tomorqa haydatamanmi, deb ko'nmovdingiz, endi ajab bo'lsin, deb hazillashdi.

– Kim bilibdi deysan, qizim, – deb qo'ydi Parpi buvam inqillab. Direktor opa «Hozir ham kech emas, Bo'riboy akam kelguncha erga chiqmay turaman, o'zim sizga kelin bo'laman» deb yana kuldi.

– Haliyam traktordamisan? – so'radi Parpi buvam.

– Amaki, keliningiz hozir jamiki traktorchilarga boshliq bo'lib ko'tarilib ketganlar, – tushuntirdi kolxozimizning raisi.

Parpi buvam halidan buyon cho'zilib yotgan edi, bir amallab turib o'tirib oldi, orqasiga yostiq qo'yib berishdi.

– Barakalla qizim, martabang bundan ham ulug' bo'lsin, – deb gapini davom ettirdi Parpi buvam, – bo'lmasa, otda yuradigan bo'lib ketibsan-da, a?

– Keliningiz qo'sh otlı izvoshda yuradi – tushuntirdi To'ron amakim.

– Izvoshda dedingmi? Barakalla, – deb xursandchilik bildirdi Parpi buvam, – menga qara qizim, o'sha izvoshingni bir kunga berolmaysanmi, tegirmonga borib don-dun tortib kelardim... Eshakka minolmay qoldim.

Direktor opa izvoshini beradigan bo'ldi. «Siz uchun bir kunga emas, bir haftaga ham yo'q demayman, chunki siz juda tabarruk kishisiz, zambarakka pul berganingiz uchun hozir butun oblastda sizni gapirishyapti, jannati odam ekan deyishyapti» deb Parpi buvamni maqtashga tushdi. Parpi buvamning shu ishi tufayli rayonimizning kattalari hukumatdan maqtov qog'ozi olishgan emish...

– O'sha zambarakni bir kunga berib turishmasmikan? – to'satdan jonlanib so'radi buvam.

– Zambarak nimaga kerak bo'lib qoldi?

– Meli boqqolni otmoqchiman, – dedi Parpi buvam. O'tirganlar sharaqlab kulib yuborishdi, o'ris xola ham kulib qo'ydi. U, negadir, chiqqanimizdan buyon ikki ko'zini mendan olmaydi. Uygа kirsam ham, eshikka chiqsam ham menga tikilgani-tikilgan, tavba, nega hadeb tikilaverar ekan?

– Orifjonlarni olib ketgani keldik ota, – to‘satdan gapni bu yoqqa burib yubordi direktor opa.

– Yetimxonagami? – Nazarimda bir cho‘chib tushgandek bo‘ldi buvam, – o‘tgan safar bo‘lmaydi deb aytuvdim-ku.

– Tanangizga bir o‘ylab ko‘ring ota, o‘zingiz kasal bo‘lsangiz.

– Xudoga shukur, hali tirikman, qizim!

Parpi buvam bechorani to‘rtovlari o‘rtaga olib ketishdi. Xaligi o‘ris xotin ham o‘zbekchalab gapira boshladi, Yetimxona nomi yetimxona bo‘lgani bilan aslida jannatga o‘xshagan bir joy ekan, bolalar uchun turgan-bitgani rohat ekan. Hozir o‘sha yerga boraman deganlar soni mingta emish-ku, lekin hammasini olishning hech iloji yo‘q, emish... Umuman, bizni vaqtincha olib borishar ekan, Parpi buvam oyoqqa turishi bilan qaytarib tashlab ketishar ekan. Direktor opa bizni bolalar uyiga olib bormaguncha opamning arvohi oldida qarzdor bo‘lib qolaverar emish. Opajonim direktorning tushlariga kirib «Bolalarimga qara, ularni senga tashlab keldim» deyayotgan emish mana shunaqa gaplar emish.

– Ishqilib kofir bo‘lib ketishmaydimi? – o‘pkasi to‘lib so‘radi Parpi buvam.

– Voy, otaxon, ajoyib yigit-qizlar bo‘lib yetishishadi.

– Mayli, qzim, meni ko‘p qistayverma, nabiralarim bilan bir maslahat qilib ko‘raychi, javobini ertaga olasan... Endi qizim, menga kelin bo‘lmoqchimisan?

– Gap bitta, otaxon to‘y tayyorgarligini ko‘raving.

– Bo‘lmasa bir cho‘qim osh damlab bergin, qo‘lingni bir ko‘raylik bunaqa mo‘tabar qo‘y so‘ysam ham kelmaydi, qizim. Hoy, kampir, sabzidan olib chiq!

Mehmonlarning ishlari tig‘iz ekan, oshga to‘xtashmadi. Bitta oshga emas, kattaroq ziyofatga tushiramiz sizni, hali shoshmay tursangiz o‘g‘illaringiz kelsin, xumchadagi musallaslarini ham ichamiz, deyishib chiqib ketishdi.

BEGONA ELLARDA**Ikkinchi qism****OMON O' RIS XOLAGA O'G'IL BO'LMOQCHI**

Detdomxona darvozasi oldida aravadan tusha boshladik.

Roziq tog'am bilan Parpi buvam yuz-ko'zlarimizdan o'pishib, tez-tez xabar olib turishga va'da berib, Omon bilan Robiyaning bu yerda qolmaymiz deb chinqirib yig'lashlariga ham qaramay ko'zlarini chirt yumib, jo'nab ketishdi. O'zini yerga urib yig'layotgan Omonni men, undan battar faryod chekayotgan Robiyaning O'ris xola ko'tarib oldi, ichkari kirdik. Hovli juda katta, gir atrofi g'ishtli imorat ekan. O'ris xola bizni hovlida qoldirib o'zi bir chekkadagi pakana uylardan biriga kirib ketdi. Ko'z yumib ochguncha atrofimizni begona bolalar qurshab olishdi. Xuddi maymunmi, ayiqning bolasinimi yoki undan ham qiziqroq biror narsani tomosha qilayotganday angrayishib qolishdi. Bir xillari ko'zlarini katta-katta ochib, tilini chiqarib masxara qilayotgandek bir xillari voy bechoralar-ey, deb achinayotgandek uchinchi bir xili qani, sinchiklab qaraychi qaysi birini o'rtoqlikka tanlasam bo'larkan deya boshdan-oyog'imizga razm solishyapti. Yana bir xillari kiyim-boshimizga, bet-qo'limizni yuvgan-yuvmaganligimizga ham razm solayotganga o'xshaydi. Ular bo'lsa ozoda kiyinib olishgan, kiyim-boshlarida yamoq yo'q, bet-qo'llari ham sovunlab yuvilganga o'xshaydi. Qorinlari ham to'q bo'lsa kerak ko'zlarida ovqat tashvishi sezilmayapti, yuzlari yiltirab, chehralari kulib turibdi...

Ukalarim qo'rqib ketishdi shekilli, yig'lashdan to'xtab, ona tovuq atrofiga jamlangan jo'jalardek g'uj bo'lib olishdi... Bu bolalar qanaqa bolalar bo'ldi?

Rahmdil, mehribon, Mahmudxonga o'xshash oq ko'ngilmi yoki Hayitkallaga o'xshab musulmanshahidlikni yaxshi ko'radigan bolalarmi?

Ko'zlari chaqnaq, yuzlari uchib turgan men tengi bir bola yaqinimga kelib, sekin biqinimga turtidi:

- Oting nima?

- Orifjon, - dedim shosha-pisha. Keyin juda landovur, qo'rqqoq bola ekan deb o'ylamasin dedim-u, o'zimni dadil tutib uning ham ismi-sharifini so'radim.

- Laqabchi, - dedi begona bola.

O'zimni erkin tutayotganligimni, ulardan hech hayiqmay turganligimni isbotlash uchun hazil qilgim kelib qoldi-yu, so'zini eshitgan bo'lsam ham eshitmaganga solib:

- Taqachi dedingmi? - deb so'radim.

- Laqabchi! - ovozi sal ko'tarib dedi bola.

Men o'zimni yana yaxshi eshitmaganga, eshitsa ham yaxshi anglamaganga solib:

- Chaqimchi? - deb so'radim.

Bizni qurshab olgan bolalar yengilgina kulib olishdi. Sulton bilan Zulayho ham kulib qo'yishdi. Shu kulgidan keyin o'rtadagi o'ng'aysizlik sal ko'tarilgandek bo'ldi.

- La-qab-chi! - bo'ynini cho'zib, boshini silkitib dedi bola, - men bolalarga laqab qo'yib beraman, senga ham qo'yib beraymi?

- Mening o'zi chiroyli laqabim bor.

- Qani ayt-chi, baqirib ayt, komissiya a'zolari eshitsin.

- Besh bolali yigitcha.

- Be, - dedi bola qo'l siltab, - shu ham laqab bo'pti-yu... laqab degani sal xunukroq bo'ladi, seniki chiroyli ekan, bo'lmaydi, boshqasini topamiz. Xo'sh, senga... afti-boshing kirligi uchun... qora tunka desammi, yo'q bo'lmaydi, o'zimizda tunkadan ikkitasi bor, ha mayli... hozircha laqabing Besh bolaligicha qolaversin, mana bu kim, ukangmi?

– Ukam.

– Bunga Baqaloq deb laqab qo‘ysa bo‘ladi, – deb Laqabchi Sultonning biqiniga xuddi suhbat boshida mening biqinimga turtgandek qilib sekingina turtgan edi, biqini og‘ridimi yoki Laqabchining gerdayishi, o‘zini xo‘jayindek tutishi Sultonga yoqmadimi:

– O‘zing baqaloq, – deb Laqabchining ko‘krigidan itarib yubordi, bola gandraklab borib orqasi bilan yerga o‘tirib qoldi. Xayriyatki shu paytda ichkaridan hovliqib chiqqan O‘ris xola «Orifjon, ukalaringni olib, bu yoqqa kel» deb chaqirib qoldi. Bo‘lmasa, kim biladi deysiz, laqab qo‘yish marosimi qulochkashlab, mushtlashish, burunlarni yerga ishqash bilan tugagan bo‘larmidi. Sheriklari oldida izza bo‘lgan laqabchi dik etib o‘rnidan turdri-da, orqasini qoqib:

– Sen hali shoshmay turgin! – deb o‘dag‘ayladi, – senga oltmishta laqab qo‘yib, shunaqangi ta‘ziringni berayki!

Sulton yana bo‘sh kelmay:

– Mana senga laqab! – deya mushtini ko‘rsatib qo‘ydi unga.

Nazarimda boshqa bolalar Sultonga xayrixoh bo‘lib: «Ajab qilding, boplading» degandek qarab turishardi. Shuning uchun ham ukamning bu qo‘rsligini o‘zimcha kechirgan bo‘lib, indamay qo‘ya qoldim.

Ichkarida bizni tarbiyachilar, oshpaz ayollar kutib turishgan ekan. O‘ris xola bizni ularga nom-banom tanishtirib chiqqach, o‘z navbatida ularning ham nomini, vazifasini aytib bizga tanishtira boshladi. Biz o‘sha paytda juda qattiq hayajonda edik. Yangi, o‘zimiz uchun butunlay notanish bo‘lgan olamda to‘satdan paydo bo‘lib qolganimiz uchunmi, tarbiyachi-yu oshpazlar bizga g‘alati-g‘alati qarashlar qilib oyog‘imizdan boshimizga cha sinchiklab nazar tashlayotganlari uchunmi, hozirgina tashqarida bo‘lib o‘tgan ko‘ngilsiz voqeaning oqibatidan qo‘rqkanimizdanmi yoki o‘zimiz ham

bilmagan boshqa sababdanmi biz olti aka-uka goho-goho boshimizni egib, nafasimizni ichimizga yutib entikib turardik. Ehtimol shuning uchundir semiz, baqaloq oshpazlarning ham, oriq, qotma tarbiyachilarning ham nomlarini eslab qololmadik. Faqat shu narsa esda qoldiki, bizni boshlab kelgan O'ris xolani Mariya Pavlovna deb atashar ekan. Mariya Pavlovna bu yerda ham direktor, ham bosh tarbiyachi, ham oshpazlarning nachalnigi ekan...

Tarbiyachilardan bittasi boshlaringda yara yo'qmi, kiyim-boshlaringda bit ko'pmi deb so'radi. Yana bitta tarbiyachi opa bu yerda tartib-intizom juda qattiq, tarbiyachilarning gapini ikki qilgan bola darrov haydab yuboriladi, o'rniga boshqasi olinadi, dedi. Bu yerga kelmoqchi bo'lganlar son mingta emish, lekin bir yo'la hammasini qabul qilishning hech iloji yo'q emish... Xullas yaxshi odam bo'lib chiqish faqat o'zimizga bog'liq emish.

U yog'i juda tez yurishib ketdi, hammomga tushish ham, kiyim-bosh kiyishimiz ham pand-u nasihatsiz o'tdi. Oshxonaga olib kirib, ovqatlantirib ham qo'yishdi. Biz ilgari hech stolda oyog'imizni osiltirib o'tirib ovqat yemagan edik temir qoshiqda ham ovqat ichmagandik oldin Sulton, ketidan Omon ham og'izlarini kuydirib olishdi. O'ris xola bu yerdagilarning hammasini yuragini olib qo'ygan ekanmi, hammomni yoqib bergan stolining o'ng tomoni oq, chap tomoni qora chol buva ham, omborxonadan bizga kiyim-bosh olib chiqqan manqa kampir ham oyoq uchida harakat qilishib, biron narsa buyurib qolsa, bexabar qolmay, deb O'ris xolaning ko'zini, og'zini poylab ish qilishyapti.

Oshxonadan chiqsak... voy-bo'y, hovliga bola demagani sig'may ketibdi. Hammasining oyog'ida qo'njli botinka, kechagina moylatishgan bo'lsa kerak yalt-yult qilib turibdi, egnilarida kostyum-shim, boshlarida chuchvara nusxa do'ppi... ikki qator bo'lib safga tizi-

lishgan, haligi Laqabchi barabanchi ekan. Barabanini bo‘yniga osib olibdi. Uning yonida bir yo‘la ikkita surnaychi ham turibdi.

Bizni haligi tarbiyachi opalardan biri o‘rtaga olib chiqib, yuzimizni safga qaratib turg‘azib qo‘ydi. Men yana o‘ng‘aysizlana boshladim, nega desangiz, hammaning ko‘zi bizda bo‘lib qoldi. Xayriyat, O‘ris xola boshqa tarbiyachilar bilan chiqib kelishdi-yu, hammaning diqqati o‘shalarda bo‘lib qoldi.

– Hamma shu yerdami? – so‘radi tarbiyachilardan biri.

– Shu yerdamiz, – qichqirishdi bolalar.

Qiziq, direktor negadir bizning haqimizda emas, balki urushdagi ahvol haqida gapira boshladi, qizil askarlar hozir yovuz dushmanning bosqinini to‘xtatib, qarshi hujumga o‘tib zarba ustiga zarba berayotgan ekan. Ana shu zarba berayotganlar orasida bizning akalarimiz, otalarimiz ham bor ekan, ularning vazifasi dushmanni tezroq yanchib tashlash ekan.

– Xo‘sh, bizning vazifamiz-chi? – so‘radi direktor.

– A‘lo o‘qish, – qichqirishdi bolalar.

– Yana?

– Intizomli bo‘lish.

– Yana?

– Voy-dod! – qichqirib yubordi bir qizcha, – ilon!!

Qizcha dodlagan joyida saf aralash-quralash bo‘lib ketdi. O‘ris xola chopqillagancha o‘sha yerga yetib bordi, nozcha, yuziga bilinar-bilinmas sepkil toshgan, peshanasi yiltiroq, qo‘ng‘ir sochli bir bola:

– Ilon yo‘q, – deb o‘zini o‘zi oqlay boshladi.

– Bor, ichiga berkitib oldi, – yig‘lab dedi qizcha.

Bola chindan ham qo‘yniga ikki qarichcha keladigan chipor ilonni berkitib olgan ekan, qo‘lga tushgach, bu chaqmaydi, o‘rgatilgan, kechasi ham qo‘ynimga solib yotaman deb yana o‘zini oqlay boshladi. Yo‘q, direktor juda qattiqqo‘l ekan, peshanasi yiltiroq bolaning

qulog'idan cho'zib, yelkasidan itarib safdan chiqarib yubordi. Yig'ilishdan keyin sen bilan boshqacha gaplashaman, deb dag'dag'a ham qilib qo'ydi. O'rniga qaytib yana gapira boshladi.

- Yuz kishilik ahil oilamizga bugun olti a'zo qo'shilyapti, ularni o'z akamiz, o'z ukamizdek bilib, bilganimizni o'rgatib, bilmaganimizni o'rganishimiz kerak.

- Shunday qilamizmi? - ovozini bir parda ko'tarib so'radi direktor.

- Shunday qilamiz, - takrorlashdi begona bolalar.

- Bizning xonamizda uch kishilik joy bor!

- Ko'rpamni ho'l qilib qo'ymasam o'rtasini men yonimga olaman.

- Arifmetikadan o'zim o'rgataman.

- Ona tilisi mening bo'ynimga, - degan ovozlari ham eshitildi. Mana shu gaplardan keyin biz o'zimizni sal bosib olgandek bo'ldik. Juda yomon bolalar emas ekan, odamgarchiligi ham chakki emasga o'xshaydi, degan fikr o'tdi ko'nglimdan, nazarimda ukalarim ham shu xususda o'ylashgan bo'lsa kerak yuzlariga qizillik yugurib, tabassum guli ochilgandek bo'ldi.

Direktorning topshirig'i bilan surnaychi bolalar do'stlik marshini chala boshlashdi. Laqabchi barabanini beo'xshov urib, ularga jo'r bo'lib turdi. Biz safdagi jamiki bolalar bilan qo'l berib so'rashib chiqdik. Xuddi shu paytda qalbidam shodlik quvonch hislari mavj urayotganini sezib qoldim. Bolalardagi samimiyatmi, surnay bilan barabanning yoqimli sadosimi, direktor bilan tarbiyachilarning iliq-iliq boqishlarimi, bilmayman, ishqilib o'zimda yo'q sevinib ketdim, entika-entika otimni aytib, safni aylana boshladim...

Sulton, Usmon uchovimizni ellik kishilik bir xonaga joylashtirishdi, shundoqqina eshikning yonginasiga uchta sim karavot qo'yib berishdi. Zulayho bir-pasda o'ziga o'rtoq topib oldi, men shu singlim kamgap-u kamsuqumroq bo'lgani uchun yakkalanib qoladi deb

qo'rqan edim. Yo'q, unaqa bo'lmadi, tantanali tanishuv tugashi bilan qizlar uni qurshab olishdi. Xuddi yangi tushgan kelinchakni e'zozlagandek o'rtaga olib yotoqxonalariga olib kirib ketishdi. Robiya bilan Omon vaqtincha O'ris xola bilan yotib turadigan bo'lishdi. O'ris xola hu birda, bizning uyga borganda, Omonga yasatilgan yog'och ot sovga qilib, menga butunlay o'g'il bo'lganingda qilichiniyam beraman degan edi. Shu qilichni qo'lga kiritish umidida Omon O'ris xolaning etagiga mahkam yopishib oldi.

Kechqurun bizning yotoqxonamizga tarbiyachi opa kelib suhbat o'tkazdi. Rayonimizdan bitta qahramon chiqib, rasmi gazetaga bosilgan ekan, o'sha qahramon haqida so'zlab berdi. Juda yaxshi o'qigan ekan, umuman, yaxshi o'qigan bolalar katta bo'lganda yo qahramon bo'larkan, yoki juda obro'li odam bo'lib yetishar ekan. O'sha oqshom ko'p bolalar bilan tanishib oldim. Haligi ilon o'ynatgan bolaning oti Samar bo'lib, detdomda uni Samovar deb chaqirishar ekan. Samovarning ota-onasi urush boshlanmasdan oldin o'z ajali bilan o'lib ketgan ekan, bu yerga kelganiga ikki yil bo'libdi, umuman, bu yer yaxshi ekan. Mening yonginamda yotgan yuzlari qopqora, ko'zlari chaqnab, yelkalari galma-gal uchib turadigan bolani Qoravoy deb chaqirishar ekan. Bizning xonamizda yana Ko'rshermat, Islom qo'rboshi, Yebto'ymas degan bolalar ham bor ekan, lekin ular bilan durustroq tanisha olmadim.

QAROQCHILAR MENI QANDAY QILIB KALTAKLASHGANI

Otam, opam, ukalarim hammamiz hovlidagi katta supada qovun yeyapmiz, ukalarim qiqirlashib kulishib, bir-birlariga urug' otishadi.

To'satdan yer qimirlab, supani ko'tarib tashladi.
Sapchib o'rnimdan turib ketdim.

Tush ko'rayotgan ekanman... Yotoqxonada o'rtasida qora chiroq miltillab yonib turibdi, bolalar bir me'yorda pishillab o'xlashyapti, tepamda biron turganga o'xshaydi. Qiziq, kim bo'ldi ekan bu?

- Tursang-chi, ahmoq! - yelkamdan tortdi sharpa.
- Kimsan o'zi? - so'rayman qo'rqa-pisa.
- Tur, direktor chaqiryapti.
- Nima ishi bor ekan shu mahalda?
- O'zidan so'raysan.

Direktorning menga ham, ukalarimga qilgan mehribonchiligi, yaxshi muomalalari uchun yaxshi ko'rib qolganmiz, ber desa unga jonimni ham berishga tayyorman. O'rnimdan turib shoshilib kiyindim. Hovliga chiqqach, sharpani ovozidan tanib qoldim - Laqabchi, ha, o'shaning o'zginasi. Qiziq, nega endi direktorning xabarchisi yuziga niqob tutib keldi ekan... Tavba! Ehtimol meni tungi navbatchilikka qo'yishmoqchidir... Bordi-yu, qishloqdan biron shum xabar kelib qolgan bo'lsa-ya, ishqilib tinchlik bo'lsin-da...

- Men seni tanib turibman - dedim niqobli bolaga.
- Xo'sh, tanigan bo'lsang kim ekanman?
- Laqabchisan.
- Bekor aytibsan.
- Meni qayoqqa olib boryapsan?
- Mariya Pavlovnaga.
- Boshqa yoqqa ketayotganga o'xshaymiz-ku?
- Ishing bo'lmasin, ezma.

Torgina yo'lakchadan boqqa chiqdik. Bog' juda katta bir gektarcha keladi, ehtimol undan ham kattadir. Quchoq yetmaydigan o'rik-yong'oqlar tarvaqaylab o'sib yotibdi... Atrofdagi tiq etgan ovoz yo'q, hamma yoq jim jit. Har zamonda kakku qushning sayragani eshitilib qoladi. Haddan tashqari qorong'i bo'lgani uchunmi kakkuning ovozi xuddi boyo'g'lining ovozidek vahimali eshitiladi... Qiziq, juda qiziq, direktor bemahalda bog'ning etagiga nega bordi ekan... Ha-ha, tushundim,

to'nka ko'chirisha-yotgan bo'lsa kerak kecha kunduzi oshpazlar o'tin yo'q deyishganda, Mariya Pavlovna, bolalarning kattarog'idan olib boqqa chiqib to'nka ko'chiringlar, deb tayinlagandi, demak kechasi ko'chirmoqchi bo'lishibdi-da, yuzlariga niqob tutib, hech kimga bildirmasdan bajarishmoqchi bo'lishibdi, qoyil! Mayli, ishlayman, astoydil ishlayman ukalarim bilan yarim och qolib hamma yog'imizni bit talab ketganda bizga yaxshilik qilishdi, yangi kiyim-bosh, issiq o'rin, ovqatlar... shular uchun ham ishlayman. Shoxlari har tomonga tarvaqaylab ketgan ulkan yong'oq daraxti orqasidan yana uchta sharpa chiqib biz tomonga kela boshladi..... Negadir oyoq-qo'lim qaltirab ketdi. Direktor turgan tomonga, bog' etagiga qarab qochmoqchi bo'luvdim, meni kuzatib kelayotgan sharpa shartta yelkamdan oldi:

- To'xta!

- Qo'yvor! - dedim siltanib. Yo'q, kechikdim. Sharpalar meni har tomondan o'rab olishdi. Qo'llarida uchiga temir qadalgan tayoq, dodlamoqchi bo'luvdim ovozim chiqmasa bo'ladimi. Qattiq qo'rqib ketganimda hiqichoq tutadigan odatim bor, shu paytda ham don tiqligan xo'rozdek «qiyq-qiyq» qilib turaverdim.

- Xo'sh, Besh bolali yetimcha, ahvollar qalay? - so'radi novcha sharpa.

- Qo'yvoringlar meni, - dedim nihoyat o'zimni bosib olib, - bo'lmasa hozir direktorni chaqiraman.

- Ehtimol urushga ketgan dadangni ham chaqirarsan, - mazax qildi bittasi.

- Chaqiraman.

- Bor! - buyruq berdi novcha sharpa. Tappa yerga bosishib, og'zimga latta tiqishdi.

- Ariqning ichiga tort! - buyruq bo'ldi yana. Oyog'imdan sudrab suvi qurib qolgan anhorga olib tushishdi. Og'zimdani lattani olib:

- Xo'sh, - dedi bittasi, - yana dodlaysanmi?

– Sizlar kimsizlar o‘zi?

– Qaroqchilarmiz.

– Yolg‘on, ovozlaringni tanib turibman, – shunday deyishim bilan meni yana to‘rt tomondan qurshab olishdi-yu, haligi uchiga temir qadalgan tayoqlarni qorninga qadashdi, novcha sharpa sekin gap boshladi: bu yerda, ya‘ni bolalar uyida uch xil tartib bor ekan. Birinchi tartib, direktorniki ekan, uni buzgan bola haydalarmish. Ikkinchi tartib, tarbiyachilarniki ekan, uni kim buzsa, hayfsan eshitar ekan. Uchinchi tartib, Ko‘rshermat boshliq qaroqchilarniki ekan, kimda-kim bular o‘rnatgan tartibni buzsa, terisi shilinib olinar ekan yoki mana shu suvi qurib qolgan anhorga tiriklayin ko‘milar ekan. «Keyingisi og‘irroq ekan» deb o‘yladim vahima ichida.

– Tushunarlimi? – so‘radi qaroqchilar boshlig‘i.

– Tushunarli, qani ketdik bo‘lmasa, – dedim shoshapisha.

– Qayoqqa? – nazarimda to‘rttov sharpa baravar so‘ragandek bo‘ldi.

– Kunda ko‘chirmaymizmi?

– Qanaqa kunda?!

– O‘rikning kundasini-da.

– Esing joyidami?

– Bo‘lmasa meni nega chaqirib keldilaring?

– Ahmoq! – shunday deb tayog‘i bilan yelkamga turtib yubordi qaroqchilar boshlig‘i. Keyin yana maydalab tushuntira boshladi:

– Nechta ukang bor?

– Beshta.

– Demak o‘zing bilan olti kishisizlar, shundaymi?

– Shunday.

– Har kuni necha mahal ovqat beriladi?

– Uch mahal.

– Ovqatga necha burdadan non qo‘shib beriladi?

– Ikki burdadan.

– Bir burdasini bizga berasanlar. Uch mahalgisi o‘n sakkiz burda bo‘ladi. Ukalaringni ko‘ndirolmasang, joningdan umidingni uzaver.

Eshityapsizmi, men bu betiga niqob tutib olgan tentaklarga non berarmishman! Endi qornimiz to‘yib, yuzimizga qizillik yugurganda burnimizni qonatisharmish. Sultonning o‘zi arang to‘yyapti-yu gapni qarang-a! Yo‘q... o‘lsam o‘lamanki, bitta uvog‘ini ham bermayman.

– Gapir! – yelkamga turtdi qaroqchi.

– Senga beradigan nonim yo‘q.

O‘rtaga olib savalab ketishdi. Ochig‘ini aytsam, men ham qarab turganim yo‘q, duch kelganini yo mushtlab, yo tepib yuboryapman... Oxiri bo‘lmadi, holdan toyib yiqilib qoldim. Bittasi yelkamga minib, qulog‘imdan chuzib boshimni ko‘tardi:

– Xo‘sh, endi-chi?

– Quloqni yeding! – dedim loy tupurib.

– Shartga kundingmi?

– Yo‘q, yo‘q! – deb baqirib yubordim va shu baqirganim asnosida bilmadim, bu kuch qayoqdan paydo bo‘ldi ekan, yelkamdagi qaroqchini ag‘darib, o‘rnimdan turib ketdim. Bittasi orqamga tirmashib, yana yerga yiqitdi.

– Chaqimchilik qilasanmi?

– Qilaman!

– Shartga ko‘nmaysanmi?

– Ko‘nmayman!

– Qo‘l-oyog‘ini bog‘langlar!

– Bugunga shunisi ham yetar.

– O‘ziyam joni itning jonidan ham qattiq ekan!

– Ertagacha muhlat senga, ko‘nmasang tiriklayin ko‘mib yuboramiz.

– Ko‘msang-ko‘ma qol! – dedim-u, turmoqchi bo‘lib qo‘limni yerga tiragan edim, boshim aylanib, shilq etib yiqilib tushdim...

O'zi shu kunlarda juda darmonsizman. Opamning vafotiga ko'p kuyganimdanmi, tez-tez boshim aylanib, ko'zim tinib o'zimdanda ketib qoladigan bo'lib qoldim... Hozir ham yer gir aylanyapti, yulduz to'la osmon-u, azim daraxtlar bir-biri bilan aralash-quralash bo'lib ketayotgandek... Yo'q, yo'q, senlarga non bermayman, ukalarimning haqqini himoya qilishim kerak, opajonim shunday degan, otam tayinlab ketgan!

- Bermayman! - deb entikib yana o'rnimdan tura boshladim... Qiziq, qaroqchilar yo'q, ko'zdan g'oyib bo'lishibdi.

Asta-sekin yotoqxona tomonga qarab yurdim, ariqda yuz-qulimni yuvib, kiyimimni ham chang-chungdan tozalab oldim... Nima qildim endi, bu dahshatli voqeani direktorga aytaymi yoki aytmalik kerakmi? Xo'sh, o'sha qaroqchilarni menga ko'rsat desa kimni ko'rsataman, axir men ularni yaxshilab tanib ololganim yo'q-ku. Keyin chaqimchilik qilding deb bu zolim qaroqchilar meni chindan ham o'ldirib yuborishsa-chi, unda ukalarimning ahvoli nima bo'ladi... Uch kungacha o'rnimdan turolmay isitmalab yotdim, Mariya Pavlovna uncha-muncha do'xtirlikdan ham xabardor ekan, kaplab ichadigan, badanga surtadigan har xil dorilar berib turdi. Ammo unga bo'lib o'tgan voqeani aytmadim, faqat Sul-ton ukamga hech kimga aytmalik sharti bilan sal uchini chiqarib qo'ydim.

- Shaytonlar! - dedi ukaginam menga achinganidan yig'lagudek bo'lib, men hali ular bilan bir gaplashib qo'yaman.

- Qo'y uka, ular bilan tenglashib o'tirmaylik - dedim katta g'alva boshlanishidan cho'chib.

- Seni kaltaklatib men qarab turar ekanmanmi! - baqirib yubordi Sul-ton.

O'RIS XOLA HAM YETIM BO'LGAN EKAN

Ishonsangiz shu paytda juda, juda ham xursandman. Bolalarning oldida sakrab-sakrab, o'yinga tushvoray-tushvoray deb yugurib kelyapman. Oh, hozir opajonim tirik bo'lgandamidi! A'lo baho olganimni eshitib «Aqlligimdan o'rgilay» deb betlarimdan o'pgan bo'lardi... Umrin bino bo'lib ona tilidan birinchi marta a'lo olishim. Qishlog'imizda uy ishlaridan bo'shab, tuzukroq dars qilolmasdim, bu yerda dumini xoda-xoda qilib ma'rab turgan sigir ham yo'q, hovli ham supurmaysan, jo'xori tuyib osh solish-u, tomga sholi yoyishni ham o'ylamaysan, o'qiysan, o'qiysan, tamom-vassalom!

Rostini aytсам, ilonboz Samovar yaxshi bola ekan, xuddi qishloqdagi o'rtog'im Mahmudxonga o'xshab ketarkan, juda rahmdil, juda mehribon. Buning ustiga hamma fanlardan faqat a'lo olib o'qiydi deng. Darslarni birga tayyorlaymiz, Uchi, agar ishonsangiz, muallimlardan ham ko'p biladi, anavi chap yonimda yotadigan Qoravoyni aytmay sizmi, o'zi qo'ng'izdek dum-dumalog'-u, lekin kallasi to'la bilim ekan. Qoravoy ham men bilan o'rtoq bo'lib qoldi. Sinfda ham yonma-yon o'tiramiz, kechasi hovliga chiqquday bo'lsak ham bir-birimizga sherik bo'lib chiqamiz.

– Besh bolali, – deydi ba'zan dars qilib o'tirganimizda,
– menga qara.

– Nima deysan? – deb so'rayman.

– Darslaringni sal yetkazib olgin, keyin senga ham gorn chalishni o'rgatib qo'yaman, xo'pmi? Og'zing katta, tomog'ing yo'g'on, sendan ajoyib gornchi chiqadi...

– Gorning nimasi?

– Men chalaman-ku, o'sha-da.

– Uni bizning qishloqda surnay deyishadi.

– Yo'q, bu surnay emas, gorn! Bildingmi?

– Bildim.

– O'rgataymi?

– Mayli.

Bir nafas o'tar-o'tmas berigi yonboshimda peshanasini jiyirib hisob ishlab o'tirgan Samovar ham meni turtib qoladi:

– Besh bolali.

– Nima deysan?

– Kanikulda qayoqqa borasan?

– Bilmasam.

– Xo'p desang, bizning qishloqqa ketamiz.

– U yerda nima qilamiz?

– Qishloqning etagida kattakon ko'l bor, mazza qilib ilon ushlaymiz.

– Men ilondan qo'rqaman.

– Qo'rqma, ilon hech qachon birinchi bo'lib hujum qilmaydi.

– Qani, kanikul boshlanaversin-chi, – deb qo'yaman unga ham. Xullas mana shu ikki o'rtog'imning yordami bilan men bugun ona tilidan a'lo oldim... Ox, hozir opajonimmi, otammi bo'larmidi! Ha mayli, O'ris xolam bor-ku, suyunchining kattasini o'shandan olarman, o'zi a'lochilar qatoriga qo'shilgan kuning mukofotlayman degan edi-ku. Shuning uchun ham Qoravoy bilan Samovarni ortda qoldirib yugurib ketyapman. Atrofga qorong'i tushib qolgan, ammo mening dilim ravshan, qirqinchi chiroq yoqilgandek charog'on! Darvoza qorovuli – bir ko'zli – amakining hoy-hoylashiga ham qaramay eshikni sharaqlatib ochib, O'ris xolaning uyiga qarab yugurdim... E attang, eshigida shapaloqdek gulf osig'lik turibdi. Samovar bilan Qoravoy izma-iz yugurib kelishayotgan edi:

– Yo'qmikan? – afsuslanib so'radi Samovar.

– Oshxonadadur, – mening o'rnimga javob qaytardi Qoravoy, – ukalaring ham ko'rinmayapti-ku.

Suyunchi olgani kechki ovqatdan so'ng chiqadigan bo'ldik, nega desangiz kechikkan bolaga ovqat olib qo'yishmayd. Bir yuz yetti bola stol atrofita bir vaqtda o'tirib, bir vaqtda turishimiz kerak.

- Besh bolali, - deb yelkamga qo'lini qo'ydi Samovar.
- Nima deysan?
- Bir narsa so'rasam maylimi?
- Mayli.
- Ochiq, aytasanmi?
- Ochiq aytaman.
- Mariya Pavlovna sizlarga kim bo'ladi?
- Hech kim.
- Bolalar Mariya Pavlovna Oriflarning xolasi bo'larkan, Oriflar ham aslida o'ris ekan deyishyapti.
- Yolg'on!
- Demak sening oying o'zbekmi?
- Bo'lmasa-chi!
- Nega bo'lmasa, Mariya Pavlovna sizlarni bunchalik yaxshi ko'radi? Hammaga uch oydan keyin yangi kiyimbosh berardi, sizlarga bo'lsa kelgan kunlaringdayoq, bera qolishdi. Ko'rpalar-u bolishlaring ham yap-yangi... Yana bitta narsa so'rasam maylimi?
- Mayli.
- Singling Robiya bilan she'r to'qiydigan ukang Omonni Mariya Pavlovna o'z familiyasiga o'tkazib olgani-chi, bunisiyam yolg'onmi?
- Yolg'on!
- Bolalar aytishyapti-ku?
- Aytishsa-aytishaversin, bari bir yolg'on. O'ris xola o'zi ukalarimni yaxshi ko'radi, uyimizga borganda ham ukalarimni tizzasiga olib o'tirib yig'lab yuborgan, Parpi buvamga dadalari kelguncha bu bolalarni onasidek tarbiya qilaman deb so'z bergan... Undan ko'ra, Samovarjon, sen menga bir narsani yaxshi tushuntirib bergin. Sen O'ris xolani yaxshi bilasanmi?
- Bo'lmasam-chi.
- Qani, ochiq, ayt-chi, Mariya Pavlovnaning asli o'zi o'rismi, no'g'aymi yoki o'zbekmi?
- Voy, shuniyam bilmaysanmi?
- Bilmayman-da.

Samovarjonning aytishicha, O'ris xola ham yoshligida yetimxonada katta bo'lgan ekan, yigirmanchi yildami, yigirma beshinchi yildami, bunisi Samovarning esida yo'q, ekan, ishqilib bosmachilar ko'paygan paytlar ekanda, o'sha quturgan bosmachilar O'ris xolaning otasi bilan onasini otib ketishibdi...

– O'shanda Mariya Pavlovna to'rt yoshda ekan, – tushuntira boshladi Samovarjon. – Bitta o'zbek komandir uni o'ziga qiz qilib olibdi, lekin Mariya Pavlovna sigirdan qo'rqar ekan, sigirning o'zidan emas-u, shoxidan qo'rqar ekan. Aksiga olib, komandirning uyida bir emas ikkita sigir boqilar ekan, ko'chaga chiqsa ham, dalaga chiqsa ham hamma yoqda shoxi uzun sigirlar emish, buning ustiga biram xunuk ma'rasharkanki... Kunlardan bir kun komandirning xotinini bosmachilar qopga solib, otga o'ngarib ketishibdi. Ertasiga qizil komandir xotinini qidirib borgan ekan, xotiniga qo'shib uziniyam tiriklay ko'mib yuborishibdi... O'sha paytlarda mehribon odamlar juda ko'p bo'larkan, qizil komandirning o'g'li bilan Mariya Pavlovnani Qo'qondagi detdomga olib borib berishibdi. O'sha yerda o'zbek bolalar, o'zbek qizlar juda ko'p ekan, Mariya Pavlovna ham bora-bora o'zbek bo'lib ketibdi. Keyin, eshityapsanmi, keyin komandirning o'g'li bilan aka-uka bo'lishibdi, keyin er-xotin bo'lishibdi, oxirida mana shu rayonga o'qituvchi bo'lib kelishgan ekan.

– Eri qayerda hozir? – deb so'radim.

– Qahramonlarcha halok bo'lgan...

– Hozir ham O'ris xola sigirdan qo'rqadimi?

– Qo'rqadi, – davom etdi Samovarjon, – Ko'chada ketayotganda oldidan shoxlik maxluq, chiqib qolsa tamom, darrov orqasiga qaytib boshqa ko'chadan yuradi.

– Samovarjon, yana bitta narsa so'rasam xafa bo'lmaysanmi?

– Xafa bo'lmayman.

– Qani aytchi, nega O'ris xolaga Marayim polvon deb laqab qo'ydilaring?

- Bundan yaxshisini topib bo'lmadi-da.

- Eshitsa xafa bo'lmaydimi?

- Nega xafa bo'lar ekan, axir hammaning ham laqabi bor-ku. Ona tili o'qituvchisidiki «Ha, demak», tarbiyachi Donoxon opanidiki «Voy o'lmasam», oshpaz xolanidiki «Girgitton», senidiki «Besh bolali» mana menga bo'lsa «Samovar» deb qo'yishgan.. Mariya Pavlovnaning o'tin yorganini ko'rganmisan?

- Yo'q.

- Qopda don ko'targanini-chi?

- Yo'q.

- Bozordan qo'y orqalab kelganini-chi?

- Yo'q.

- Demak, Besh bolali, sen hech narsani bilmas ekansan. Marayim polvon chindan ham polvon, bir kuni uning o'ziga laqabini aytib bergan edik, shunaqangi kuldiki, ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi, oxiri ha mayli, shu bilan ovunsalaring men rozi, lekin yomon o'qisalaring, tartibni buzsalaring quloqlaringni uzib itga tashlayman, dedi.

Xullas, o'sha oqshom, ya'ni men ona tilidan a'lo baho olgan kunim Samovarjon, Qoravoy uchalamiz kechki ovqat mahalida ham, ovqatdan so'ng hovliga chiqib qizlarning o'yinini tomosha qilganimizda ham nuqul Mariya Pavlovna haqida gaplashdik. Qoravoy ham gapga tushib ketdi. O'ris xola eridan qora xat kelgan kuni o'zidan ketib naq bo'lmasa o'lib qolayozibdi... Yarim kun behush yotibdi. Bolalar Mariya Pavlovna to'satdan omonatini topshirib yuborsa, bizning ahvolimiz nima bo'ladi deb qo'rqqanlaridan piqillashib, bir xillari ulu tortib yig'lashga ham tushibdi. Bir mahal Mariya Pavlovna o'ziga kelib:

- Qizlarim, yig'lamanglar, mana tuzalib ham qoldim,

- deb hammasini bag'riga bosib, yuzlaridan o'pib, sochlaridan silabdi.

BIR BOR EKAN, BIR YO‘Q EKAN

Yotoqxonada hovlisidagi qiziq-qiziq, o‘yinlar tugagach, Samovar, Qoravoy uchalamiz a‘lo baho olganligimiz haqidagi xushxabarni tezroq Mariya Pavlovnaga yetkazib, suyunchiga biror narsa undirish umidida uning uyiga borgan edik, xonasida miltillab qora chiroq, yonib turganini ko‘rib qoldik. To‘ppa-to‘g‘ri bostirib kirishga yuragimiz betlamay, bir-birimizni itarishib asta derazadan mo‘ralay boshladik.

Bir yo‘la uch kishi ham yotsa bo‘laveradigan katta-kon temir karavotning bosh tomonida peshanasi yiltiroq qo‘g‘irchoqni bag‘riga bosib Robiya yotibdi, karavotning oyoq tomonida bo‘lsa, O‘ris xola sovg‘a qilgan yog‘och otni minib, Omon o‘tiribdi. Karavotning kungirador qubbasini mahkam ushlab, xuddi otini choptirib ketayotgandek tinmay silkinib turibdi u. O‘ris xolaning o‘zi bo‘lsa ot qashlaydigan kattakon yelim taroq, bilan sochini tarayapti. Ikkov ukam barobar javrashib ertak aytib berasiz, bo‘lmasa uxlamaymiz deb qiyin-qistovga ham olib turishibdi.

– Xo‘p mayli, ertak aytsam uxlaysizlarmi? – so‘raydi O‘ris xola.

– Uxlaymiz, – deyishadi ukalarim.

– Bir bor ekan, bir yo‘q, ekan, ilgari zamonda, shu o‘zimizning Qo‘qon tomonida, – deb ertak boshlab yubordi O‘ris xola, – bitta chumchuq, bo‘lgan ekan...

– Erkak bo‘lgan ekanmi yoki urg‘ochi bo‘lgan ekanmi? – shoshilib so‘radi Omon.

– Urg‘ochi bo‘lgan ekan... unaqaga gap qo‘shmay turginda, adashib ketyapman... O‘sha chumchuq bir kuni go‘ng tepani titib, bitta chigit topib olibdi. Chigitni tumshug‘ida tishlab dehqonning oldiga borib:

*Ek-ek mekunam,
Ekmasang mekunam,
Uyingni vayron qilaman,
Boshingni talqon qilaman.*

– debdi. Dehqon qo‘rqib ketib darrov chigitni yerga ekib beribdi. Chigit unib chiqib, gurkirab o‘sib, shona qilib, ko‘sak ham tugibdi. Paxtasi ochilgach, chumchuq haligi dehqonning oldiga borib:

*Ter-ter mekunam,
Termasang mekunam,
Uyingni vayron qilaman,
Boshingni talqon qilaman.*

– debdi. Dehqon g‘o‘zani terib beribdi. Chumchuq g‘o‘zani olib kampirning oldiga boribdi:

*Chuvi-chuvi mekunam,
Chuvimasang mekunam,
Uyingni vayron qilaman,
Boshingni talqon qilaman.*

– debdi. Kampir paxtani chuib savagich bilan savab, pitalab ham beribdi. Chumchuq pitalangan paxtani tumshug‘ida tishlab boshqa bir kampirning oldiga boribdi:

*Yigir-yigir mekunam,
Yigirmasang mekunam,
Uyingni vayron qilaman,
Boshingni talqon qilaman.*

– debdi. Kampir qo‘rqib ketib darrov ipni yigirib g‘ovakka o‘rab ham beribdi. Chumchuq g‘ovakni tumshug‘ida tishlab, bo‘zchining oldiga boribdi:

*To‘qi-to‘qi mekunam,
To‘qimasang mekunam,
Uyingni vayron qilaman,
Boshingni talqon qilaman.*

– debdi. Bo‘zchi ham qo‘rqib ketibdi-yu, ipni olib darrov bo‘z to‘qib beribdi. Chumchuq to‘qilgan bo‘zni tumshug‘ida tishlab chevarning uyiga borib, menga do‘ppi tikib berasan deb talab qilibdi:

*Tik-tik mekunam,
Tikmasang mekunam,
Uyingni vayron qilaman,
Boshingni talqon qilaman,*

– debdi. Chevar darrov do‘ppi tikib beribdi. Chumchuq yangi tikilgan do‘ppini boshiga kiyib, xonning saroyiga borib «Mening do‘ppim bor, xonning do‘ppisi yo‘q, mening do‘ppim bor, xonning do‘ppisi yo‘q, deb sakrab shoxdan-shoxga qo‘naveribdi. Xonning achchig‘i chiqib jallodga «Chumchuqni ushla», deb buyuribdi. Ammo chumchuq pIRR etib uchib ketibdi, daraxtning eng tepa shoxiga qo‘nib: «Mening do‘ppim bor, mening do‘ppim bor, xonning do‘ppisi yo‘q», deb battar jahlini chiqaribdi.

O‘shandan buyon xon chumchuqni quvarmish, chumchuq, shoxdan-shoxga qo‘nib uning jahlini chiqararmish. Omonjon, endi yotib uxlaysanmi, o‘g‘lim? – deb so‘radi oxirida Mariya Pavlovna, ammo Omon javob qaytarmadi, nega desangiz, u yog‘och otining ustida ikki qo‘li bilan karavotning qubbalaridan ushlab, peshanasini karavotning muzdek poyasiga qo‘yganча uxlab qolgan edi. Javob o‘rniga yengilgina bir xurрак tortib qo‘ydi.

– Sen-chi, ona qizim? – yana so‘radi O‘ris xola. Ammo ona qizlaridan ham javob bo‘lmadi, aftidan u kishi ham uxlab qolganга o‘xshaydi.

Mariya Pavlovna Omonni olib Robiyaning yoniga yotqizdi-da, ustiga ko‘rpa tortib qo‘ydi. Xuddi shu paytda uch o‘rtoq, xonaga kirib bordik-da:

– Ertagingizni mazza qilib biz ham eshitib oldik, – dedik balavariga. Mariya Pavlovna bosh yuvish uchun

sopol tovoqqa qatiq, suyultirib qo‘ygan ekan, yurganda hamisha shoshilib, oyog‘ining tagiga hech qaramay yuradigan Qoravoy tovoqqa turtinib ketib qatiqni to‘kib yubordi.

– Hechqisi yo‘q, – dedi Mariya Pavlovna, – yuqidagisi ham yetadi, o‘zi sochim ham uncha ko‘p emas... Bundan keyin gap poylamasdan to‘ppa-to‘g‘ri kirib kelaveringlar, xo‘pmi?

– Xo‘p.

– Menda ishlaring bormidi?

– Biz suyunchi olgani keldik.

– Suyunchi?

– Ha, suyunchi berasiz, – shoshilib dedi Samovar, – bugun Besh bolali kechirasiz, mana bu Orifingiz a‘lo baho oldi.

– A‘lo baho oldi?

– Ona tilidan, – qo‘shib qo‘ydi Qoravoy.

O‘ris xola chindan ham xursand bo‘lib ketdimi yoki bu yerda o‘zi odat shunaqa ekanmi, bunisini bilmaymanku, lekin har birimizning peshanamizdan alohida-alohida o‘pib, menga uchi ochilmagan rangli qalam, Samovarga ilon tutganingda kerak bo‘ladi deb po‘kak tiqinli yapaloq shisha, Qoravoyga bir yo‘la ikkita baqanusxa pero hadya qilib yubordi. Orifjonning o‘qishiga bundan keyin ham yordam bersalaring baliq, ovlaydigan qarmoq, olib beraman, deb va‘da ham qilib qo‘ydi.

Mariya Pavlovnaning bosh yuvishga tayyorgarlik qilib o‘tirganini ko‘rib huzurida uzoq, qolmay, tezgina tashqariga chiqib ketdik.

YETIMLARNING TUNGI NOLISHI

Zulayho, ilgari ham aytuvdim shekilli, juda ham irimchi qiz bo‘lgan. Qayoqdagi ins-u jinslarga, dev-u-parilarga shunaqangi qattiq, ishonadiki, xuddi Soy mahalladagi Otinbibi xolamning o‘zginasi deysiz.

Tasodifni qarangi, xuddi o'ziga o'xshagan bitta Dilbar degan qiz bilan topishib olishibdi, ikkovlari yotoqxonadagi qizlarga «Kechasi tuynuk oldiga kelib dadamiz-u akamiz, xullas kimni sog'ingan bo'lsak o'shaning nomini aytib nolish qilamiz. Nolamiz arsh-u a'loga xudoyi taologa borib yetsa, dadamiz-u akamiz albatta qaytib keladi, deyishibdi. Avvaliga qizlar ko'nabdi, keyinchalik, hammasi ham urushga ketgan dadasiy-u akasining tezroq qaytishidan umidvor emasmi, ha mayli, o'zimizni bir sinab ko'raylik-chi, deyishib yarim kechagacha nola qilishibdi. Kim biladi deysiz, tasodif yuz berganmi, yoki yetimlarning nolasi inobatga o'tib xudoyi taolo Leningrad frontida jang qilayotgan askarni uchirib olib kelganmi, ishqilib Obidaxon degan qiz ertalab yuzini yuvgani chiqsa, uzun shinel kiygan dadasi yotoqxonalarning qaysi biriga kirishni bilmay garang bo'lib turgan emish. Bir soat o'tar-o'tmas Sonya degan no'g'ay qizning ham dadasi so'roqlab kelib qoldi...

Shundan keyin, ishonsangiz, yotoqxonalarda xudoga nola qilish shunaqangi avj olib ketdiki, asti qo'yaverasiz. Lekin, hammasi yashirincha, navbatchi tarbiyachilar uxlagandan keyin bajariladi. Bugun nola qilish, ya'ni xudoyi taologa tuynuk orqali iltijo qilish navbati bizning yotoqxonaga ham yetib keldi. Sheramat bizning yotog'imizning tungi direktori hisoblanadi, hech kim uning gapini ikki qilolmaydi, ikki qilsa, niqobli qaroqchilar ta'zirini berib qo'yadi. Men ham anavi kungi kaltakdan keyin yurak oldirib qolganman.

Ana shu Sheramat avvaliga bolalar nola qilamiz desa ko'nmay, kim nola qilsa burnini kesaman deb dag'dag'a qildi. Bugun bo'lsa to'satdan bolalarni nola qilishga xuddi ko'rikka tayyorlayotgandek tayyorlay boshladi.

Kechqurun tarbiyachi Donoxon ona, ya'ni «Voy o'lmasam» opa navbatchilik qilishi kerak edi. Odatda bu opamiz boshqa navbatchilarga o'xshab to bolalar uxlamaguncha xonama-xona aylanib yurmasdi, yo o'zimizga

topshiriq berar, yoki gazetadan bitta-yarimta xabar o'qib berib, tunlaring xayrli bo'lsin deb, uyiga jo'nab qoldi. Bugun biz nolish qilmoqchi bo'lganimizni eshitib qolganmi yoki vaqtli ketib qolavergani uchun Mariya Pavlovnanan gap eshitganmi, ishqilib, yotoqxonamiz o'rtasiga oyog'i singan kursini qo'yib bafurja o'tirib oldi-da!

Endi nima qildik deb bir-birimizga qarab oldik.

- Uy vazifalari bajarilganmi? - suradi «Voy o'lmasam» opa.

- Bajarilgan! - bir ovozdan takrorlashdi bolalar.

- Menga savollar bormi?

- Savol yo'q.

- Bo'lmasa, mashg'ulotimizni boshlaymiz.

- Opa, bugun juda charchadik, mashg'ulot o'tmay qo'ya qolaylik, - iltimos qildi Samovarjon.

- Hali vaqt juda erta, - ko'nmay turib oldi «Voy o'lmasam» opa.

- Biz ertalab barvaqtroq, turib hovli supurmoqchi edik, - degan gaplarni ham qilishdi bolalar.

Ammo «Voy o'lmasam» opa bu bahonalarga ham parvo qilmadi. Bugun topishmoq aytishamiz, kim tez topsa va boshqalardan ko'proq topsa mukofotiga olti dona rasm qalam beriladi, deb e'lon qildi-da, o'rnidan turib:

- Boshladikmi? - deb so'radi.

- Boshladik, - shoshilib deyishdi bolalar ham. «Voy o'lmasam» opa uyida daftariga hammasini yozib kelgan ekan, o'sha daftardan boshini ko'tarmay, o'qiyotgan joyiga ko'rsatgich barmog'ini qo'yib:

Zuv-zuv boradi,

Zuv-zuv keladi,

Alham o'qiydi,

Gilam to'qiydi.

- bu nima? - deb so'radi.

- Ari! - tarbiyachining gapi tugamasdan dedi Qoravoy.

- To'g'ri topdipg, - dedi tarbiyachi opa, - uzun terak, ichi kovak, kim aytadi?
- Qamish! - dedi mening ukam Sulton.
- To'g'ri. Tap-tap etadi, tagidan karvon o'tadi?
- Qybolta, - dedi Shermat.
- Karavot, - dedi Islom.
- Elak, - baqirib yubordi Usmon.
- Topding.

Tang tang ko'zacha
Tangidorat ko'zacha
Kunguradorat ko'zacha.

- kim aytadi?
 - Ko'zacha, - dedi bittasi.
 - Tanga, - dedi boshqasi.
 - Angishvona, - dedi uchinchisi.

E boringki, «Voy o'lmasam» opa bizni naq, yetti huftongacha ushlab o'tirdi-da, topishmoqning ham shunaqangi qiyinlaridan yozib kelibdiki, bir xillariga javob topguncha naq, terlab ketdik. Nihoyat, tarbiyachimiz esnab-esnab o'rnidan turdi-da:

- Mukofotni Qoravoyga beramiz, - dedi-yu, rasm qalamlarni egasiga topshirib, xuddi orqasidan biroz quvlagandek shoshilinch chiqib ketdi.

- Besh bolali, - deb chaqirdi. Shermat, - tashqariga chiqib xabar olchi, hamma uxlaganmikan.

Tashqariga chiqib xabar olib keldim. Yo'q, hamma uxlamabdi. O'ris xolaning uyida ham, qorovulxonada ham miltillab chiroq yonib turibdi.

- Mayli, - dedi Islom - hozircha ovoz chiqarmasdan boshlaymiz.

- Hamma o'z karavotiga chiqib o'tirsin, - buyruq berdi Shermat. - Qibлага qarab cho'kka tushinglar.

- Har kim o'z bilganicha nola qilaversin! - buyruq, berdi Shermat fотиha o'qigandek ikki qo'lini oldinga cho'zib.

– E xudo, otajonim tezroq, kelsin, – deb yolvordi Usmon ukam.

– Opajonim ham tirilib kelsin, – pichirlab qo‘llarini boshi uzra ko‘tarib iltijo qildi Sul-ton.

– E xudo, Gitler tezroq, o‘lsin!

– E xudo, urushni tezroq tugat!

– Xudojon, akamni sog‘indim!

– Tezroq, keling, dadajonim! – degan past-baland ovozlar, yig‘lash-u xo‘rsinishlar eshitila boshladi. Bunday qaragam, yotoqxonamizdagi ellik uch bolaning hammasi cho‘kka tushib olib, qiblaga qarab qo‘llarini yozgancha nolish qilyapti. Birining dadasi, boshqasining akasi urushga ketgan, oyisi o‘lganlar, qarindoshlaridan judo bo‘lganlar bor. Ana shularni qumsab, sog‘inib yig‘lardi ular. Mehribon kishisining bir og‘iz shirin so‘zi, suyub erkalatishi, bag‘riga bosishi xumor qilgandi ularni. Mehrga, muhabbatga tashna qalblar faryod chekardi hozir. Bilaman, bu bolalarning biri hozir xayolan otasining tizzasida o‘tirib, yuzlarini asta silab, mo‘ylovidan beozor tortqilab erkalanyapti, boshqasi allaqachon opasi bilan topishib olgan, yuzlarini yuzlariga bosib bir-birlarining boshini mayin silab, hayajondan entikishib, iliq-iliq ko‘z yoshi to‘kishyapti, ona bag‘rining harorati mehrga tashna qalblariga malham bo‘lib quyilyapti, vujudini eritib, tanasiga huzur bag‘ishlab allalayapti... Ammo bularning hammasi xayolda... Opajoni allaqachon o‘lib ketgan, endi tirilmaydi u. Otasi bo‘lsa olis-olislarda yuribdi, akajonidan ham xat-xabar kelmaganiga ancha bo‘lib qoldi... e xudo, e xudojon, ular tezroq, kelsaydi!..

Samovarjonning jazavasi tutib ho‘ngrab yig‘layotganini eshitib qoldim, yoniga borib:

– Qo‘y, sherik, yig‘lama, – deb ko‘nglini ko‘tarmoqchi bo‘ldim.

– Sherik, dadajonimni shunday sog‘indimki, – dedi Samovar hiqillab, – uch yil bo‘ldi ko‘rmaganimga...

- Oying tirik-ku.
- O'gay.
- O'zingning oying-chi?
- O'lgan. Meni tug'ayotganda o'lgan ekan...

Oyijonimni ham sog'indim, juda-juda ham sog'indim... Qo'y, tegma, birpas yig'lab olay, yig'lasam sal ko'nglim ravshan tortgandek bo'ladi... Ke, sen ham o'tir, birga yig'laymiz.

Asta borib yana o'zimning karavotimga o'tirdim, bolalarning deyarli yarmi ho'ngrab yig'lashardi:

- Adajon, cho'loq bo'lsangiz ham keling!
- Oyijon, men bolalar uyidaman!
- Xudojon, jon xudo! - deb boshlarini chayqashib, duduv ko'z yoshi to'kishardi ular.

Men Ko'rshermat hammamizni savalab nonimizni tortib olayotganidan ulardek mehri qattik, toshbag'ir bo'lsa kerak deb o'ylab yurardim, yo'q unchalik emas ekan, shunaqangi yig'layaptiki, ishonsangiz o'zimning ham rahmim kelib ketyapti unga. Rostini aytsam unga juda qiyin, opasining ham, atasining ham qayerdaligini bilmaydi u. Uch yasharligida bozorda yo'qotib qo'ygan ekan, o'shandan buyon detdomma-detdom ko'chib yuradi u, bezoriligi uchun yo xaydab yuborishadi yo o'zi qochib ketadi. Shaharma-shahar tentirab, bozorma-bozor kezib ota-onasini axtargani-axtargan.

Xuddi shu paytda Usmon bilan birga birinchi sinfda uqiydigan Olim Chapayev degan bir bola bilan yonginasidagi karavotda yotadigan Usta laqabli bir bola jo'jaxo'rozdek tikkama-tikka bo'lib olishib ketishdi. Olim Chapayev bu yerga to'rt yoshligida kelgan ekan, tohning novdasini ot qilib minib, men Chapayevman deb, kun bo'yi xonama-xona shataloq otib yurarkan, yoshi yetib birinchi sinfga o'qishga borganda muallim familiyasini so'rasa bilmabdi, sheriklari:

- Oti Olim, familiyasi Chapayev, - deyishibdi. Muallim yo'qlamaga Olim Chapayev deb yozib qo'yibdi,

o'shandan buyon uning familiyasi shunaqa bo'p ketibdi. Hozir shu bola bilan Usta bir-birini bo'g'ishib olishdi:

– Nega sen baqirib nola qilyapsan? – dedi entikib Olim Chapayev.

– Men dadamni chaqiryapman, bildingmi? – undan battar qizishib dedi Usta.

– Qo'yvor yoqamni.

– Qo'yvormayman.

– Ho sizning dadangiz kelib, bizning dadamiz kelmas ekan-da, baqiraveraman!

– Qani, yana bir baqir-chi! – dedi Olim Chapayev o'rtog'ining yoqasini battar siqib. Joni qiynalib, alami oshib ketgan Usta bir siltanib o'rtog'ining qo'lidan chiqdi-da:

– Bari bir seni ag dadang kelmaydi! – deb o'chini olgan bo'ldi.

– O'zingning dadang kelmaydi!

– Dadang qo'rqq, urushishniyam bilmaydi.

– O'zingning dadang qo'rqq, miltiq otishni ham bilmaydi!

Shermat janjallashayotganlarga yaqinlashib bir xo'mraygan edi, ikkovi ham jim bo'lib, to'mshayishib o'z o'rinlariga o'tirib olishdi.

Nolish yana avjiga chiqib ketdi, endi hech kim sherigiga gap qo'shmay qo'ydi. Hammamiz chin yurakdan, astoydil nolish qila boshladik yana.

Vaqt ham allamahol bo'lib qolgan edi. Bir xillar nola qila-qila charchab, xuddi nomoz o'qiyotgandek cho'kka tushib, yana bir xillari peshanasini kaftiga qo'yganча uxlab qoldi. Men ham ochig'ini aytsam, otamni juda sog'ingan edim. O'rnim ham shundoqqina eshikning yonginasida emasmi, qo'limni og'zimga quvacha qilib uni rosa chaqirdim, chaqira-chaqira uxlab qolganimni o'zim ham sezmay qolibman... Bir mahal to'satdan otamni ko'rib qolsam bo'ladimi! Dalada opamning o'rniga traktorchilik qilayotgan emish, lekin traktori juda kichkina, bir chelak suv eltadigan samovarcha

kelarmish, ana shu samovarchadek keladigan traktorni minib yer xaydayotgan emish. Bir mahal traktorcha astasekin shishib, semirib shunaqangi katta bo'lib ketdiki, otam butunlay ko'rinmay, xuddi bulutlar orasiga kirib ketgandek bo'ldi.

- Otajon!! - deb baqirib yubordim, keyin o'zimning ovozimdan o'zim uyg'onib ketdim. Boshqa sheriklarim ham uyg'onib, otasini, akasini kelib qolishini kutib hovlida aylanishib yurgan ekan. Men ham chiqib kuta boshladim.

O'sha kuni birontamizning ham otamiz kelmadi, ertasiga ham indiniga ham hech kimdan darak bo'lmadi. Uchinchi kuni qiziq bir voqea yuz berdi-yu, hammamiz tungi qilgan nolishimizni butunlay unutib yubordik.

DUMLI MASXARABOZLAR

O'zi shu Shermat juda g'alati bola ekan, qiziq-qiziq narsalar o'ylab topgani-topgan. Qiziq-qiziq narsalar o'ylab topa olmagan kuni qarabsizki, yotoqxonada kattakon mushtlashish! Tarbiyachilar uni necha martalab tavbasiga tayantirishgan. «Xo'p, endi qilmayman», deydi-da, bir kun o'tar-o'tmas undan battarroq'ini qilaveradi.

Ertaga bozor deydigan kuni kechqurun Islom ikkovi qayoqdandir bir quchoq taxlangan eski gazeta topib kelishdi, tungi tarbiyachilar ketgach, eshikni ichidan berkitib:

- Ajoyib o'yin topdim, kim ishtirok etadi? - deb so'radi.

- Qanaqa o'yin? - chuvillyashib so'rashdi bolalar.

- Ertaga bozorda tomosha ko'rsatamiz.

- Qanaqa tomosha axir? - deb so'radim qiziqishim oshib.

- Sen, Besh bolali, aralashmaysan.

- Nega aralashmas ekanman?

- Sen qo'rqoqsan.

– O‘zing qo‘rqoq.

– Teringni shilib olaman!

– Yakkama-yakka olishasanmi? – dedim achchig‘im chiqib. Shermat mening vajohatimni ko‘rib, bir oz hayiqdimi yoki janjalimiz o‘yinga xalaqit beradi deb o‘yladimi, yelkamga qo‘lini tashlab:

– Hazillashdim, Besh bolali! – deb qo‘ydi. So‘ng, qani kim mard bo‘lsa o‘rtaga chiqsin, dedi o‘tirganlarga yuzlanib. Ma‘lum bo‘lishicha, yotoqxonamizdagi bolalarning hammasi mard ekan, bitta qolmay o‘rtaga chiqib, o‘yinboshini qurshab olishdi. Boshimizga gazetadan karnayga o‘xshatib o‘rab uzunchoq qalpoq, omborxonadan eski-tuski lattalar olib chiqib orqamizga dum qiladigan bo‘ldik keyin yuzimizning to‘rt joyigami, besh joyigami oq qog‘oz yopishtirib, to‘yma-to‘y yuradigan masxarabozlarga o‘xshab olgach, bozorning qoq o‘rtasida barabanchi barabanini chalishi bilan ellik uch bola bir yo‘la o‘yinga tushib yuboradigan bo‘ldik.

– Qalay, qiziqmi? – so‘radi o‘yinboshi.

– Qiziqlikka qiziq-ku, – ikkilanib qoldi Samovar-jon,
– Mariya Pavlovna bilib qolsa nima qilamiz?

– Mariya Pavlovna ertaga Qo‘qonga oziq-ovqat olgani ketadi.

– Qorovul bir yo‘la hammamizni ko‘chaga chiqaradiku? – tashvishlandi yana bitta bola.

– Bog‘ning etagida devorning pastqam joyi bor, o‘sha yerdan oshib o‘tamiz, – yo‘l ko‘rsatdi o‘yinboshi.

Birimiz dum yasashga, boshqamiz qalpoq tikishga tushib ketdik. Bir xil bolalalar dum qilishga latta topolmay bolishning jildini ham ishlatib yuborishdi, pol yuvadigan kir latta deysizmi, navbatchi bolalar yengiga taqadigan qizil parcha deysizmi, eski ko‘ylag-u kir ishton deysizmi, hamma-hammasini ishlatib yubordik. Nihoyat, yarim kechaga borib hamma narsa taxt bo‘lgan edi, Shermat havaskor masxarabozlarni o‘rtaga olib chiqib bir oz mashq ham qildirib ko‘rdi.

– Chakki emas! – o‘zida yo‘q xursand bo‘lib dedi o‘yinboshi, – endi yotib uxlanglar askarlarim. Uyquga to‘ymasanglar, o‘yinga yaxshi tusholmay meni qiynab qo‘yasizlar... Qoravoy, bugun chiroqni sen o‘chirasan!

Ertasiga choshgoh mahalida bozordagi g‘ovur eng avjiga chiqqan bir pallada don-dun sotiladigan tinning yonidagi yalanglikka to‘plandik. Laqabchi o‘zi chalib yuradigan barabanini ko‘rpaning avrasiga o‘rab olib borgan ekan, asta bo‘yniga osdi.

– Hamma kelib bo‘ldimi? – so‘radi o‘yinboshi.

– Samovar kelmadi, – dedi bittasi. – Masxarabozlikni yomon ko‘rarmish.

– Hechqisi yo‘q, – qo‘l siltadi Sheramat, – u xoinni kechasi mullo qilib qo‘yamiz. Qani, askarlarim, boshladik,

Avvaldan kelishib olganimizdek juda tezlik bilan boshimizga karnay nusxa qalpoqchalarni kiyiq ko‘z yumib ochguncha olachipor dumlarni ham taqib, yuzimizga qog‘oz parchalarini ham yopishtirib bo‘ldik. Baraban chalinishi bilan shunaqangi bir ajoyib o‘yinni boshlab yubordikki, asti qo‘yaverasiz: birimiz gavdamizni oldinga sal egib, dumimizni likillatib o‘ynayapmiz, birimiz suzong‘ich sigirdek boshimizdagi karnaynusxa kalpoqchamiz bilan kimnidir muljalga olgandek xiyol engashib o‘ynayapmiz, Sulton nima qilishini bilmay nuqul muqom qilyapti. Usmon shaytonning bolasiga o‘xshab, turgan yerida dik-dik sakrab turibdi.

Odamlar hang-u mang bo‘lib:

– Yo parvardigori olam!

– Yo tavba!

– Nima balo, qiyomat qoyim bo‘ldimi?

– Shuncha masxarabozni hech ko‘rmagandim, – deyishib, qo‘rqanlari ko‘kragiga tuflab, qo‘rqmaganlari bo‘ynini biz tomonga cho‘zib tikilib qolishdi. Chayqov bozori-yu go‘sh t bozori, non bozori-yu meva bozoridan odamlar oqib kela boshlashdi. Barabanchi bo‘lsa zaptiga

olib taka-tum qilib urib turibdi, o'yinchilar ham yangi-yangi qiliqlar ko'rsatishyapti...

– O'g'rini ushla!

– Voy, cho'ntagimni kesib ketibdi!

– To'xta, tirmizak! – degan ovozlar eshilib qoldi.

Bunday qarajak Ko'rshermat odamlarni oralab xuddi daraxtning panasiga berkingandek odamlarning orqasiga berkina-berkina allakim bilan yashinto'paloq o'ynab yuboribdi. Islom qo'rboshi yoymachi cholning gilam xurjunini qo'ltig'iga urib, qo'y bozori tomonga o'qdek uchib boryapti. Meni, ho' birda kechasi kaltaklashga ishtirok etgan Yepto'ymas oshpaz xotinning bir chelak suyuq oshini olib qochib odamlar orasiga tushib qolgan quyon boladek qayoqqa qochishni bilmay, garang bo'lib turibdi... To'satdan, ha to'satdan xunuk bir fikr boshimga keldi-yu, etlarim junjikib ketdi. Ko'rshermat bilan Islom qo'rboshi bizni laqillatganga o'xshaydi, ha, ha bizni boplashgan ekan. Hammamizni o'yinga solib, odamlarni chalg'itib, o'sha chalg'igan odamlarning cho'ntagini kesib ketishni mo'ljallashgan ekan.

– Oq qalpoqni ur! – dedi kimdir yelkam aralash tepib. Munkib ketib peshanam bilan yerga urildim, o'rnimdan turib duch kelgan tomonga qochmoqchi edim, shu paytda Usmonni birov quvib ketayotganini ko'rib qoldim. Ukaginam qo'lga tushib qolishdan qo'rqib, chinqirib dodlab boryapti. O'qdek uchib borib, quvlab borayotgan odamning yelkasiga tirmashdim, ikkovimiz guppang bo'lib yerga yiqildik. O'rnimdan turib dumimni yulib tashlab, boshimdagi oq qalpoqni yerga urib ukaginamning qo'lidan ushlagancha ko'chaga qarab yugurdim.

Bozor ichi olatasir bo'lib ketdi, bir xillar dumlini ushla, qalpoqlini ur, deb halloslab yugurib yuribdi, bir xillari qo'lga tushgan dumlining qulog'idan cho'zib, dodlatib karnay chaldiryapti, yana bir xili uyidan olib

kelgan tugunchasini bag'riga bosib qochishini ham, quvlashini ham bilmay garang bo'lib turibdi. Yo'l-yo'lakay Usmonning dumini yulib tashlamoqchi bo'lib, bir-ikki urinib edim qayoqda, pishiq lattadan qilgan ekan, uchini arang uzib oldim.

– Sulton qani? – so'radim tashqariga chiqqach.

– Qo'y bozoriga qochdi, – dedi ukam yig'lamsirab.

– Ushlab olishgan bo'lsa-ya!

– Yo'q, devorga sapchiganini ko'ruvdim, – dedi ukam.

– Yuraqol, tezroq ketaylik ushlahsa yomon urishadi endi.

Aka-uka yotoqxonaga qarab yugurdik kaltak yegan, dumi yulingan, qalpog'i yirtilgan masxarabozlar bir-birimizni quvlashib borardik. Yotoqxonaga qaytib kelsak qiziq, Ko'rshermat bilan Islom qo'rboshi go'yo hech narsa bo'lmagandek ustki kiyimlarini yechishib o'rinlarida mazza qilib yotishibdi... Tavba, bu qanaqasi bo'ldi endi?

– Sen, sen nega yotib olding? – dedim Sherमतning tepasiga borib.

– Xalaqit berma, uxlayapman, – beparvogina dedi o'yinboshi.

– Bolalarni kim qutqaradi?

– Qanaqa bolalar?

– Axir bir xillar qo'lga tushib qoldi-ku!

– Baqirma.

– Sen o'g'risan! – dedim qaltirab.

– Nima?!

– Cho'ntakkesarsan! – deyishimni bilaman Ko'rshermat sakrab o'rnidan turib kafti bilan og'zimni berkitdi. Islom qo'rboshi yelkamdan bosib ustimga ko'rpa yopa boshladi. Xuddi shu paytda halloslagancha Mariya Pavlovna kirib kelib qoldi.

– Bu nima to'polon! – dedi u tepamizga kelib.

– O'zimiz shunday... – dedi Islom ustimdan ko'rpani olib, – hazillashayotgan edik

– Yolgʻon! – gapga aralashdi boshqa bolalar.

– Samarjon, sen gapir, nima voqea boʻldi oʻzi? Nega hammang uyasi buzilgan aridek toʻzib qolibsani?

– Meni hech narsadan xabarim yoʻq, – deb Samovar sekingina tashqariga chiqib keta boshladi. Tavba, nega endi bu oʻtirgan bolalar ochigʻini aytib qoʻya qolishmaydi! Nahotki, niqob kiygan qaroqchilar ularning yuragini shunchalik olib qoʻygan boʻlsa, yoʻq, nima boʻlganda ham ochigʻini aytish kerak.. yoki bu xoinlik boʻlarmikin-a? Aytaymi, aytmaymi? Aytaman, nima boʻlsa ham aytaman! Aytmasam yanagi safar bundan battarini qilishadi. Sulton ham, Usmon ham oʻgʻri boʻlib ketishlari mumkin, aytaman...

– Mariya Pavlovna, – dedim nihoyat oʻzimni qoʻlga olib.

– Gapir, tezroq gapir!

– Sheramat oʻgʻirlik qildi!

– Nima?! – Mariya Pavlovna bir sapchib tushgandek boʻldi.

– Birovning choʻntagini kesdi

Choʻntagini kecdi?!

– Ha, Islom xurjun olib qochdi. Bir xil bolalarni ushlab ham olishdi.

– Qayerda?

– Bozorda.

– Voy shoʻrim... – shunday dedi-yu, Mariya Pavlovna yugurganCHA tashqariga chiqib ketdi.

«QAROQCHILARNING XAZINASI»

Hammamizni hovliga quvib chiqib safga tizishdi, bozorda uchta bola qoʻlga tushgan ekan, ularni ham yonimizga turgʻizib qoʻyishdi. Tarbiyachilar-u, oshpaz-u, qorovullargacha – hammalari shu yerda. Mariya Pavlovna qaysi birimizni savalab yoki tepkilab qolarkan deb yuraklarini hovuchlab turibdi. Goʻyo bir soatlik motam

e'lon qilingandek hamma jim, hamma sukutda, boshini egib olgan. Faqat Mariya Pavlovnagina xuddi qovog'ari chaqib olgandek vozillab yugurib yuribdi, duch kelganni turtib, tepib, yuboryapti. Hovlida bo'sh chelak yotgan ekan, toshga urib pachaqlab tashladi. Ustunning tagidagi oyboltani olib qulochkashlab otgan edi, nazarimda bir chaqirim naridagi maktabimizning tomiga borib tushgandek bo'ldi.

Men Mariya Pavlovnani qobil-mo'min, har qanday gapga ham kulimsirab qo'yaveradigan mehribongina opa desam, voy-bo'y... ha mayli, endi bu yog'ini eshiting.

Mariya Pavlovna xurjun da'vo qilib kelgan yakkam-dukkam soqolli yoymachi cholning yoqasidan olib:

- Seni nimangni o'g'irlashdi? - deb siltadi.

- Xur-xur... xur - dedi-yu, yoymachi chol gapirolmadi. O'ris xola yoymachining ko'krigidan itarib yuborib, yana vozillab yura boshladi. Haddan tashqari tutaqib ketgani aniq, lekin nima qilsak jahldan tushadi, hech birimiz bilmaymiz, faqat sukut qilamiz xolos...

O'ris xolaga achinib ketdim, juda, juda achindim unga. O'lay agar, bunaqa bo'lishini bilganimda masxarabozlarga hecham qo'shilmagan bo'lardim, o'sha dumi-yu qalpoqchasiyam boshida qolsin-e! Ishonsangiz, alamim oshganidan yugurib borib Ko'rshermatni yulib olgim kelyapti, qani endi hamma yog'ini tishlab-tishlab uzib olsam deyman, qo'limni musht qilib o'sha yoqqa o'qtalib-o'qtalib qo'yyapman. O'ris xola yurishdan to'xtab, entikib, qizarib ketgan ko'zlarini hammaga bir-bir tikib chiqdi:

- Kimdan chiqdi bu qiliq?

Qiziq, nega hammamiz jim turibmiz, axir bu bema'ni o'yinni kim boshlaganini bilamiz-ku? Qani, kim birinchi bo'lib gapirarkan, bir-ikki-uch... nega hamma jim, nega?!

Sekin qo'l ko'tardim.

Gapir! - yer tepinib dedi O'ris xola.

- Bu ishni Shermat... dedim-u, ko'ziga ko'zimni tushishi bilan u yog'ini gapirolmadim. Qo'rqib ketdimmi

yoki yuz-xotirga bordimmi, bilmayman. Ehtimol unga rahmim kelgandir, ehtimol xiyonat qilishni istamagandirman, nima bo'lganda ham u yog'ini aytolmay jim bo'lib qoldim. Ko'rshermat bo'lsa menga baqrayganicha qarab turibdi, labining bir chekkasida kulgi, yana bir chekkasida mazax borga o'xshaydi.

Ahmoq, o'zingdan chiqdi-ku bu gap, – dedi u to'satdan jonlanib. – Islom, gapir kimligini!

– Besh bolali boshladi, – deb qo'ydi Islom qo'rboshi ham.

– To'g'ri, mana Orifdan chiqdi, juda pisman bola ekan, – tasdiqladi Laqabchi.

Ie, bunisi necha puldan tushdi endi, o'ngimmi, tushimmi bu? Nahotki ko'zini lo'q qilib turib yolg'on gapiraversa.. Nega anavi bolalar jim turibdi, axir, axir... Qoravoy turgan joyida qo'l ko'tardi. Men ochig'ini aytaymi?

– Ayt!

Keyin mening terimga somon tiqishsa-chi?

– Bunday qilisholmaydi.

Qoravoy Sheremat bilan Islom shayka tuzib olishgan, qora matodan yuzlariga niqob, temirdan nayza, tunukadan qilich ham yasab olishgan degan edi, gapini tugatmasdanoq Sheremat bilan Islom bidillashib, aksincha Orif bilan Qoravoy shayka tuzishgan deb qasam ustiga qasam icha boshlashdi. O'ris xola qaysi tomonning gapiga ishonishni bilmay garang bo'lib qoldi. Nihoyat, Islom bilan Shermatni o'ngga, Qoravoy ikkovimizni chap tomonga o'tkazib, safga murojaat qildi:

– Qani aytinglar-chi, qaysi birlarining gapi to'g'ri?

Hamma jim, boshini egib turibdi. Sheremat bilan Islom g'oz turib ko'kraklarini kerib safdagilarga viqor bilan nazar tashlashyapti, ha-ha, ularning qarashi juda qo'rqinchli, ko'zlarida dahshat, vahima bor, ana shu ta'riflab bo'lmaydigan dahshat, yuraklarni xanjardek tilib o'tayotgan vahima ularning tilini gung, quloqlarini kar qilib qo'ygandek.

Olim Chapayev qo'lini boshi uzra ko'targancha pildirab o'rtaga chiqdi-yu, bir so'z aytmay yana pildiragancha orqasiga qaytdi. Keyin turgan yerida piqillab yig'lab yubordi.

– Ha, tag'in nima bo'ldi? – zardasi qaynab so'radi O'ris xola.

– Aytsam tilimni sug'urib olishadi.

– Kim sug'urib oladi?

– Ko'rshermat. Ana, qo'lini musht qilib turibdi, – shunday deb Olim Chapayev battar yig'lashga tushdi. O'ris xola jadal borib uni yerdan ko'tarib oldi.

– Nonimizniyam oladi, – hiqillab dedi Olim Chapayev.

– Kim oladi?

– Ko'rshermat bilan Islom qo'rboshi oladi, har kuni uch burdadan olishadi... Qantimizning ham yarmini beramiz, bermasak kechasi chorvoqqa olib chiqib savalashadi.

– Nega ilgari aytmading?

– Aytsang tilingni sug'urib olaman, degandi... Ana, qarang, yana qo'lini musht qilyapti.

O'ris xola xuddi bu gaplarning hammasidan avvaldan xabardor bir kishidek ko'pam ajablanmadi, kulimsiragancha bosh chayqab:

– Bolalar, Olim Chapayevning gapi to'g'rimi? – deb so'radi.

– To'g'ri!

– Hammamizdan oladi.

– Nonni to'plab qorovulga sotadi.

– Mendan ham non oladi, ham bir mushtdan urib turadi, – deb bolalar har tomondan chug'urlab qolishdi. O'ris xola bu gal ham uncha taajjublanmadi, kulimsiragancha «obbo sizlar-ey» degandek boshini chayqab savol-javobni davom ettiraverdi. Hali jahli chiqib, quturgan sherdek bo'lib ketganda tarbiyachilar-u oshpazlarning yuragini olib qo'ygan ekanmi, u bechoralar ham hamon turgan joylarida qoqilgan

qoziqdek tek turishibdi. Mariya Pavlovna yoymachi cholning xurjunini kim olib qochgan bo'lsa, aybiga ochiq iqror bo'lsa, kechirib yuboraman degan edi, hech kimdan sado chiqmadi, bo'yni olmaning savog'idek ingichka, kallasi katta yebto'ymas qo'rqa-pisa qo'l ko'tardi:

- Men aytsam maylimi?

- Ayt, - buyurdi Mariya Pavlovna.

- Men bir chelak suyuq osh olib qochuverdim.

- O'sha suyuq osh qani?

- Yarmini ichuverdim.

- Yarmi-chi?

- Bog'ning etagida, chelak-pelagi bilan o'rikning ustiga ilib qo'rganman.

- Bor, darrov olib kel.. Xo'sh, bolalar, chol buvaning xurjunini kim olganini endiyam aytmay sizlarmi?

- Islom olib qochgan! - chuvillashdi mayda bolalar.

Ammo Islomning o'zi ko'zini chaqchaytirib, peshanasini g'alati tirishtirib g'iq etmay turaverdi. Mayda bolalar gilam xurjun oshxonaning tomiga berkitilganini ko'rishgan ekan, darrov topib berishdi. Yoymachi buva duo qila-qila chiqib ketgach, Mariya Pavlovna yana tutaqib ketdi, bu gal zahrini tarbiyachilarga socha boshladi: hech qaysing ishga yaramaysan, essizgina davlatning puli, bugundan e'tiboran hammangni bo'shataman deb, ayniqsa «Voy o'lmasam» opani juda o'sal qildi. Ko'ksidan itarib o'rtadan chiqarib yubordi. Keyin yuqori sinfda o'qiydigan katta bolalar bilan Olim Chapayevni o'z xonasiga olib kirib, to'xtab qolgan savol-javobni kelgan joyidan davom ettirdi, ammo Ko'rshermat ham, Islom qo'rboshi ham xuddi og'izlariga talqon solgandek miq etmay turishaverdi. Olim Chapayev yana dadillik ko'rsatdi.

- Bularning xazinasini qayerdaligini men bilaman! - dedi u sakrab o'rnidan turib.

- Xazinalari ham bormi? - o'smoqchilab so'radi direktor.

– Bor! – negadir sevinib dedi Olim Chapayev.

Nazarimda Islom bilan Shermat turgan joylarida qalqib ketgandek bo‘lishdi, ikkovining ham peshanasi yiltirab, ko‘zlari olayib qoldi. Shermat o‘zini qo‘lga olib tomog‘ini qirib yo‘talgan edi:

– Yo‘talingdan qo‘rqmayman seni, – deb Olim Chapayev xuddi kar odamga gapirayotgandek qattiq-qattiq gapira boshladi, – men Chapayevman, bildingmi! Sen – bosmachisan, bildingmi! Chapayev bosmachidan qo‘rqmay-di, bildingmi!

– Xazinalarida nima bor? – juda mehribon bir ohangda so‘radi Mariya Pavlovna.

– Qilich bor.

– Qilich? Rosmana qilichmi?

– Rosmanasidan ham zo‘r!

– Yana nima bor?

– Nayza ham bor. Non bor, nonlar achib yotibdi.

– Yana?

– Chaqmoq qand bor, mis tovoqning ichida pul ham bor... Yana, yana... papiros ham bor edi shekilli, gugurt ham bor.

Savol-javob xuddi shu yerga yetganda O‘ris xolaning toqati toq bo‘lib ketdi shekilli, o‘rtadagi uzun stolni jonjahdi bilan mushtlab, o‘rnidan turib ketdi.

Ko‘rshermat bilan Islom qo‘rboshini shu yerga qamab, ularning xazinasini tezroq qo‘lga kiritish uchun bog‘ning etagiga qarab yugurdik.

To‘nkaning o‘rnini kengaytirib, hosil bo‘lgan chuqurlikning ustini shox-shabbalar bilan yopib yerto‘laga o‘xshash bir uy qilishgan ekan, jamiki boyliklari mana shu yerda saqlanarkan, Olim Chapayev aytgan narsalardan tashqari yana to‘rtta oq choyshab, ikki juft yap-yangi botinka, bitta mis samovar ham topib oldik. O‘ljalarni qo‘lga kiritib qaytgach, Mariya Pavlovna juda g‘alati bo‘lib qoldi. Hozir kulmoqchimi, yig‘lamoqchimi, baqirib yuraklarimizni yormoqchimi bilib bo‘lmasdi.

Eski divanda ikki qo'li bilan bag'rini changallagancha uzoq o'tirdi. Bir mahal boshini ko'tarib:

- Islom, qani yonimga o'tir-chi, - dedi negadir juda mehribon bir ohangda. - Sherjon, o'g'lim, qani sen ham yonimga o'tir, barakalla. Ikkovlaring ham endi qilmaymiz deb so'z beruvdilaring-ku! Islomjon, o'g'lim, axir sen tuppa-tuzuk bo'lib qoluvding-ku, yo sizlarni birov yo'ldan urdimi?.. Jamiki bolalardan non olarmidilaring?

- O'g'il bolalarning o'zidan, - yo'tal aralash javob qaytardi Islom.

- Qancha non yig'ardilaring?

- Bir yuz ellik burda...

- Shuncha nonni nima qilardilaring?

Islom sherigining ko'ziga bir tikildi-yu, xuddi esini yo'qotib qo'ygandek angrayib qoldi. Mariya Pavlovna Islomdan endi gap ololmasligini sezib haligidek yumshoq, mexribon oxdngda Shermatni so'roq qila boshladi.

- Bizni haydab yubormaysizmi? - to'satdan bir qarorga kelgandek boshini ilkis ko'tarib so'radi Shermat.

- Sen qo'rqoq emas eding-ku! - ta'na qilgandek dedi O'ris xola.

- Meni aytdi demaysizmi?

- Yo'q, o'zim topdim deyman, - so'z berdi direktorimiz. Shundan keyin Shermat ham, Islom ham juda dadillashib ketishdi. Darvoza yonida o'tinadigan bir ko'zli qorovul o'rgatibdi bu ishlarni. Bog'ning etagidagi yerto'lani ham o'shaning o'zi qazib beribdi. Har kungi yig'ilgan nonlarni olib o'rniga qilich yasash uchun temir, nayza yasash uchun yo'g'on sim topib berarkan, papiros, pul berarkan.

- Qorovulga non bilan qanddan boshqa narsalar ham berardilaringmi?

- Berardik.

– Masalan?

– **Kecha kechqurun, – deb negadir deraza orqali hovliga ko‘z tashlab oldi Shermat, – o‘n juft botinka bilan makaron, guruch olib bordik.**

– **Bularni qayerdan oldilaring?**

– **Omborxonadan.**

– **Kalit menda-ku.**

– **Mo‘ridan tushardik.**

– **Qizlarning ko‘ylagini hali sizlar olibmidilaring?**

– **Ha.**

– **Hammasini qorovulga berganmisizlar?**

– **Ha.**

– **Bordiy-u qorovul olganim yo‘q deb tursa-chi?**

– **Uyini tintuv qilish kerak – deb yo‘l ko‘rsatdi Ko‘rshermatning o‘zi, – xo‘p desangiz o‘zim boshlab boraman, tomdagi poxolning tagiga berkitgan.**

– **Yo‘q, o‘g‘lim, endi bu yog‘iga sizlar aralashmay-sizlar, – g‘azabdan yuzlari qizarib, tishlarini g‘ijirlatib o‘rnidan turdi Mariya Pavlovna, – ochiq iqror bo‘lganlaring uchun ham rahmat... endi, bolalar sizlardan bir iltimosim bor, bu gaplarning hammasi shu yerda qolsin, ko‘chaga chiqmasin. Obro‘yimiz bir pul bo‘ladi, to‘g‘rimi? Yana avvalgidek ahil, o‘rtoq, bo‘lib yashayveringlar. Chapayev qani, Sher akang bilan qo‘l berib so‘rashib olchi, barakalla! Qoravoy, nega qarab turibsan? Islom akang bilan achomlash-maysanmi? Barakalla!.. Demak hammasini unutdik shundaymi?**

– **Shunday, – deb qo‘yishdi bolalar.**

– **Endi bunaqa bemaza ishlar bo‘lmaydi, shundaymi?**

– **Hecham bo‘lmaydi, boshlarini egib yig‘lavorgudek bo‘lib deyishdi Shermat bilan Islom.**

Mariya Pavlovna shoshilgancha tashqariga chiqib ketdi.

O‘sha kuniyoq bir ko‘zli qorovul qamoqqa olinibdi. O‘n kundan so‘ng xloppunktning kino qo‘yadigan kattakon klubida sudi bo‘lib, sakkiz yilga qamalib ketdi

u. Oradan roppa rosa uch kun o'tgach, hiyla quyulib, kamgap-u kamsuqum bo'lib qolgan Islom bilan hammaga birdek mehribon bo'lib qolgan Shermat ikkovlarini ham detkoloniyaga jo'natib yuborishdi. Militsioner amaki ularni oldiga solib olib chiqib ketayotganda Mariya Pavlovna ikkovining ham peshanasidan o'pib,

- O'g'illarim, meni kechiringlar! - dedi-yu yig'lab yubordi.

TO'XTA XOLAMNING LAZZATLI QATLAMASI

O'qishlar tugab yozgi lagerga, tog' etaklaridagi soya-salqin sersuv joylarga chiqib ketish taraddudiga tushib qolgan kunlarimiz edi. Lagerimizni xlop punkt ishchilari tekinga remont qilib taxt ham qilib qo'yishgan edi, lekin negadir o'sha yoqqa ko'chishimiz ketga surilgandan surilaverdi.

Direktorimiz bir kuni oblastga ketib qopti, deb eshitdik boshqa bir kuni undan ham uzoqroqqa ketgan emish degan gaplar chiqib qoldi. Ana shunday kunlarning birida Qoravoy ko'chadan hovliqib kirib keldi.

- Besh bolali? Nima deysan?

- Bir gap aytsam, hech kimga aytmaysanmi?

- Aytmayman.

- Detdomimiz tugatilar emish. Bizning detdom o'zi Qo'qondagi katta detdomning qaramog'ida ekan. Bu yerda bizning nonimiz bilan qantimizni o'g'irlatib yuborishganini eshitib xafa bo'lishibdi. O'sha katta detdomning direktori bolalarning yarmini o'zimga olaman. Yarmini boshqa detdomlarga joylab, ahvollaridan xabar olib turaman, debdi.

Ertasiga mish-mish yana ko'paydi, bir yuz-u yetti boladan bir yuz yetti xil gap chiqa boshladi. Bir xillar katta katta o'g'il bolalarni askarlikka olisharmish desa, bir xillar mayda bolalarni ham olarkan-u, razvedkachilar

maktabida o'qitisharkan, deydi. Yana bir xillari Mariya Pavlovna yetim bolalarning ovqatini o'g'irlatib yuborgani uchun qamalarmish desa, to'rtinchi bir xillari esa detdomimizning o'rnini tekislab, qizilcha ekarmish, qand zavodiga qizilcha yetishmayotgan emish, degan bema'ni gaplarni ham aytishaverdi.

Bog'da o'ynab yurgan edik kimdir mening nomimni aytib chaqirib qoldi.

– Tezroq kel, eshak mingan bobong keldi, – deb qo'shimcha ham qilib qo'ydi o'sha ovoz.

Bobom, bobojonim!.. Oyog'imni qo'limga olib yugurdim, rost, rost ekan! Bobojonim eshakda, tugun ko'targan xolajonim uning yonginasida hovli o'rtasida qayoqqa borishini bilmay garang bo'lib turishibdi.

– Bobojon, xolajonim!

Xolajonimni achomlab, issiq ko'ksiga boshimni qo'yib ho'ngrab yig'lab yubordim.

– Voy xolang o'rgilsin, taylog'imdanda o'rgilay! – deydi To'xta xolam ham shilq-shilq yig'lab, keyin bobojonim bilan ko'rishdim, bechora bobojonimning oyog'i haliyam tuzalmabdi, to'qimning ikki yonida yengchadek shalvirab osilib turibdi.

Qo'y, bo'tam, yig'lama! – engashib peshanamdan o'pib dedi Parpi buvam.

– Bobojon, sizlarni juda sogindik.

– Ukalaring qani?

– Soy bo'yiga ekskursiyaga ketishgan, hozir kelib qolishadi.

– Voy, ana! – deb andak bo'lmasa To'xta xolam qichqirib yuborayozdi, – ana, Sultonim ham kelyapti.

Yopiray, Sulton bog' tomondan shunaqangi tezlik bilan yugurib kelyaptiki, xuddi podadan qaytgan onasini qarshilagan buzoqchanning o'zginasi deysiz. Sulton yig'lamadi, ovoz ham chiqarmadi, jimgina ko'rishib bo'lgach, qovog'ini solib:

– Endi keldilaringmi, – deb o'pkalanib qo'ydi.

– Boshqa bolalarning bobosi uch martadan keldi-ku!
– Bo‘yginangdan o‘rgilay, bobong ikkovimiz ham kasal edik – deb qo‘ydi xolajonim.

– Roziq tog‘am ham kelmasi, – dedi-yu, Sultonning ovozi g‘alati qaltirab ketdi, ko‘zlarida miltillab yosh tomchilari ko‘rindi.

– Yig‘lama, bo‘tam, yig‘lama, – yupata boshladi bo-bojonim, – Roziq tog‘ang uch oy oldin frontga, jang qilayotgan yigitlarga kiyim-bosh, meva-cheva olib ketgan edi, haliyam qaytgani yo‘q, obbo azamatlar-ey, rang-ro‘ylaring, ko‘z tegmasin, tupp-a-tuzuk. Kiyim-boshlaring ham yetimlarnikiga hech o‘xshamaydi... Ovqati qalay?

– Yomonmas, – yutinib qo‘ydi Sulton.

– Qorning to‘yyaptimi axir?

– Menga ikki norma berishadi.

– Seni yaxshi ko‘rib qolishibdi-da?

– Men oshxonaga suv, o‘tin tashib beryapman.

– Barakalla o‘g‘lim, mehnat qilsang ikki dunyoda kam bo‘lmaysan, avvalo diling ravshan bo‘ladi, qolaversa qorning ham to‘q bo‘ladi.

Yangi bo‘lgan qorovul amaki boqqa kirib o‘sha yerda dam olishimizga ruxsat berdi. Sulton ikkimiz Parpi buvamni bir amallab yerga oldik. Eshakni nariroqqa bog‘lab qo‘yib, endigina to‘yib-to‘yib suhbatlashamiz deb turgan edik sayoxatdan qaytgan ukalarim chopqillab kela boshlashdi. Oh, shu paytda bo‘lgan xursandchilikni ko‘rsangiz, quvonch-u shodliklarni, ko‘z yoshi-yu entikishlarni tomosha qilsangiz! Omon o‘zini qo‘yarga joy topolmay irg‘ishlagan, Bibirobiya yangi kiyimlarini ko‘z-ko‘zlab goh bobom, goh xolajonim bilan achomlashib ketgan, Usmon ukam ochko‘zlik bilan qatlamaga yopishgan, Sulton o‘rikni danagi bilan yutib tiqilib qolgan... o‘zimni aytmaysizmi, bir yo‘la yuzta narsani so‘rab, yuzta javob eshitgim keladi.

Bobojonim sovg'a-salomni ko'p olib kelgan ekan, ikki chelak o'rik bilan olcha, bir qiyiq yangi yopilgan non-u, qatlama, sopol tovoqda qaymog'-u bir xalta suzma... Ko'z yumib ochguncha atrofimizni bolalar o'rab olishdi. O'rig-u olchalardan hammalariga ulashib chiqdim, yigirmata qatlamani bir burdadan arang yetkazibman deng.

- Mening oyim ham qatlamani shunaqa shirin pishirardi. - xo'rsinib qo'ydi Qoravoy.

- Bizning bog'imizda ham meva, shunaqa erta pishar o'rik bo'lardi, - maqtanib qo'ydi Samovarjon.

- Olchangizdan yana ozgina bering, - iltimos qildi Olim Chapayev labini chapillatib.

Otamdan bir yo'la ikkita xat kelibdi, lekin xatlarning bittasi o'rischa, bittasi tojikcha ekan. Shoshilib ikkovini ham o'qib chiqdim-u, hech narsa tushunmadim. Bu yerda Obidjon degan bir tojik bola bor edi, o'zi hech kimga qo'shilmay kun bo'yi yotoqxonada kitob o'qib yotardi. Keyin G'ozzi abziy degan tatar bola ham bor, tatar bo'lgani bilan o'rischani suvdek ichadi u, sheriklarim ko'z yumib ochguncha ikkovlarini oyog'ini yerga tegizmay olib kelishdi. Avval o'rischasini, ketidan tojikchasini tarjima qildirdik.. Bechora otam-ey. Yelkasidan o'q yeb qalin o'rmon, ichidagi yerto'laga o'xshash kasalxonada yotgan ekan. O'q suyakka tegmay, et orasidan chiqib ketibdi, tuzalay-tuzalay deb qopti. Otam, opanning vafot qilganini, bizning detdomga kelganimizni haligacha eshitmabdi. Otajonim, bolalarni juda ehtiyot qiling, hammasini o'qiting, tomdagi quruq bedani sotib hammalariga kiyim-bosh olib bering, ketmon bilan o'roqning ortiqchasini yuvib omborxonaga kiritib qo'yinglar, zanglab qolmasin, deb yozibdi.

- Otajon! - yig'lab yubordi Omon xatni oxirigacha eshitolmay.

- Otamga boramiz! - o'rnidan turib pildirab jo'nab qoldi Robiya... Bir nafasda hamma narsa ostin-ustun

bo'lib ketdi. Haligi shodlig-u quvonchlardan asar ham qolmadi. Omon bu yerda qolmayman, otamning oldiga ketaman deb dodlashga, Robiya, opamni sog'indim, topib berasiz, deb bo'zlashga tushdi. To'xta xolam xudoyo urushning oti o'chsin deb qarg'anib, Bo'riboy tog'am-u Anorvoy akamlarni eslab ketdi shekilli, ketma-ket xo'rsinib nursiz ko'zlaridan yum-yum yosh to'ka boshladi. Usmon bu yerda yomon tushlar ko'ryapman, karavot g'ijillab, hech uxlay olmayapman deb bobojonimning soqollaridan silab, hech bo'lmasa meni olib keting, tahoratingizga suv isitib beraman, eshagingizga beda o'rib kelaman deb yolvorishga tushdi...

Biz yig'i-sig'iga berilganimizni ko'rib sheriklarim ham birin-ketin jo'nab qolishdi, bog' etagida hiqillashib, piqillashib, yolg'iz o'zimiz qolib ketdik.

– Kiyimlaring, xudoga shukur, ozodagina, o'zing yuvib olyapsanmi? – deb so'radi xolam Zulayhodan.

– Yo'q, o'zlari yuvib berishadi.

– Sochingni nega qirqtirding?

– Bu yerda shunaqa rasm ekan.

– Ha, mayli, shirinim, ishqilib omon bo'lsalaring bo'lgani...

– Qalay, O'ris xolang ham omonmi?

– Mariya Pavlovna bizga juda mexribon. Omon bilan Robiyani o'zi olib yotadi, shaharga borganda har xil o'yinchoqlar, popukli qantlar olib kelib beryapti.

– Voy xudoyim-ey!

– Har shanba ukalarimni murchaga olib borib yuvintirib keladi.

– Xudoyo umri uzoq bo'lsin! – negadir yig'lamsirab dedi To'xta xolam.

– Xolajon, mana shu yetimxonani O'ris xolaning o'zi ochgan, oylik olmasdan ishlarkan.

– Voy tilginangdan o'rgilay.

– Rost, xolajon, oyligini tarbiyachilarga berarkan.

– Qarang-a, dadasi, – deb To‘xta xolam iyagini cho‘zib soqolini Omonga taratib o‘tirgan bobojonning biqiniga sekingina turtib qo‘ydi, – o‘zi kofir bo‘lsayam musulmonning ishini qilarkan.

– Sen nima deb o‘ylovding bo‘lmasa, – dedi Parpi buvam, – men xudojo‘yligini ko‘zidan bilganman.

– Bobojon, O‘ris xolaning laqabini men bilib oldim, – deb gapga aralashdi Omon.

– Qani ayt-chi.

– Marayim polvon!

– Yo‘g‘-ey.

– Rost, o‘lay agar!

Bobojonim bilan xolajonimni darvoza oldiga kuzatib chiqib, bir-birimizni achomlashib, yopishib yig‘lasha-yotgan edik yana atrofimizni katta-kichik bolalar o‘rab olishdi.

– Bobojon, mana shunaqangi o‘rig‘-u olchalardan tez-tez olib kelib turing, – iltimos qildi Samovarjon.

– Qaymoqqa idish topolmasangiz, chelakda olib kelavering, – kulib dedi Qoravoy.

– Nevarangiz bir yuz-u yettita ekanligini unut-mang, – dedi yana bittasi.

Ancha olisga borib qolgan Parpi buvam eshakning boshini biz tomonga burib:

– Kelar bozor kuni, xudo xohlasa, albatta kelaman, – deb qichqirdi.

Lekin, bechora bobojonim kelar bozor kuni kelib detdomxona o‘rni huvillab yotganini ko‘rib, hang-u mang bo‘lib qolgan bo‘lsa kerak. Negaki o‘sha kuni kechqurun biz, bir yuz yetti yetimcha to‘rt boshliq rahbarligida qo‘sh otli pirgon aravalarga o‘tirib, o‘zimiz bilmagan dunyoning to‘rt tomoniga jo‘nab ketdik.

BEGONA SHAHARGA OTLANDIK

Poyezdimiz begona shaharga qarab xuddi bir narsadan quruq qolgandek qush bo'lib uchib ketyapti. Goho: Piti-kish, piti-kish, – deb g'alati ovozlari ham chiqarib qo'yyapti.

O'ttiz yetimcha rang-qutimiz o'chib, Mariya Pavlovnaning atrofiga g'uj bo'lib olganmiz. O'ris xola ham avvalgi quvnoq, hazilkash, har narsaga sharaqlab kulaveradigan O'ris xola emas, so'nggi kunlarda u negadir to'satdan qarib, kampir bo'lib qoldi. Beli bukchaygan, yuzlariga tirish tushib, ko'zlari ich-ichiga botib ketgan. O'zi hamisha xafa, so'zlari pala-partish...

– Bizni tashlab ketmaysizmi? – vahima ichida so'rashdi qizlar.

– Yo'q, tashlab ketmayman, – esnab deydi Mariya Pavlovna.

– Unda nega olib ketyapsiz bo'lmasa?

– O'qish boshlanguncha o'sha yerda turasizlar.

Biz tushgan vagon aralash vagon ekan, erkag-u xotin, bola-yu chaqa bir-biriga mingashib ketyapti, qop ko'targan chol deysizmi, paranji yopingan kampir-u, Pirgon – ikki ot qo'shiladigan to'rt g'ildirakli arava. Shinelini otning shtiga o'xshab bo'yniga tashlab olgan askarlar deysizmi, shishaning og'ziga rezinka tiqib sut ichib ketayotgan chaqalog'-u, to'rtta tovuqning oyog'idan bog'lab yelkasiga tashlab olgan o'spirin, rom ochib ketayotgan lo'li-yu, qarta o'ynab borayotgan qora soqolli kishilar deysizmi – hamma-hammasi aralashib ketgan. Vagonimizning berigi yog'ida kulgi ko'tarilsa, narigi yog'ida yig'i boshlanib qoladi.

Buning ustiga vagonning havosi ham shunaqangi og'irki, shunaqangi badbo'yki, nafas olib bo'lmaydi. Poyezd bo'lsa hamon yeldek uchib boryapti, tez ketayotganidan o'zida yo'q xursand bo'lsa kerak har zamonda:

– Pu-pu-puuuu, – deb qichqirib ham qo‘yyapti.

Bo‘y-basti o‘xshamasa ham kallasining cho‘ziqligi, betining kattaligi otamga juda o‘xshab ketadigan bir askar amaki qo‘lida kattakon chamadon, yelkasida qopchig‘i bilan yaqinimizga kelib bir oz tikilib turdi-da, mudrab ketayotgan Mariya Pavlovnadan:

– Sizlarga sherik bo‘lsam maylimi? – deb so‘radi.

– Bemalol, – deb qo‘ydi O‘ris xola. Askar amaki chamadonining ustiga avaylabgina o‘tirib:

– Detdomchilarmisizlar? – deb so‘radi yana.

– Ha, – hammamiz uchun javob berdi Qoravoy. – Sayoxatga ketyapsizlarmi?

– Ha.

– Oralaringda a‘lochilar ham bormi? Yebto‘ymas tepa xonada ketayotgan edi, uyasidan tumshug‘ini cho‘zgan chumchuq boladek bo‘ynini cho‘zib:

– Men a‘lochiman! – deb qo‘ydi. Askar amaki tepaga qarab:

– O‘-ho‘, gvardiyachilar bu yoqda ekan-ku, – deb negadir kulib yubordi, – yolg‘on gapirayotganing yo‘qmi, askar bola?

– O‘lay agar, – qasam ichdi Yebto‘ymas, – har kuni tushimga a‘lo baholar kiradi.

Askar amaki ham, direktor-u bolalar ham sharaqlab kulib yuborishdi. Kulgi to‘xtashi bilan:

– Bu yolg‘onchi, gapiga ishonmang, – deb gap boshladi Qoravoy, – buning tushiga faqat yomon baho kiradi... Oramizda bitta a‘lochi bor, uyam bo‘lsa Samovarjon.

– Qani o‘sha a‘lochi?

– Men bu yerdaman, – tepadan boshini ko‘rsatib dedi Samovar.

– O‘-ho‘, tuppa-tuzuk bola ekansan-ku, nega endi otingni Samovar qo‘yishadi.

– Amaki, bu bolaning ichida doim suv qaynab turadi, – deb gapga aralashdim men ham.

– Yo‘g‘-e.

– Rost, – dedim gap navbatini boshqa bola ilib ketmasin deya shoshib, – og‘ziga bir kap zavarka tashlab qulog‘idan silkitsangiz burnidan yetti choynak choy tushadi.

Yana hammamiz kulib yubordik Mariya Pavlovna qotib-qotib kulardi. So‘nggi kunlarda uning kulganini hech ko‘rmagandik direktorimizning qulfi-dili ochilganidan, avvalgi quvnoq O‘ris xolamizni yana topib olganimizdan biz yetimchalar o‘zimizda yo‘q sevinib ketdik.

– Obbo sen-ey, – dedi askar amaki yelkamga qoqib, – tuppa-tuzuk askiyachi ekansan-ku!

– Amaki, bu bola latifa aytishga ham usta, – deb qo‘ydi Samovar.

– Yo‘g‘-e!

– Rost, ishonmasangiz ana Mariya Pavlovnadan so‘rang, detdomga kelguncha ukalarining qornini latifa bilan to‘yg‘izgan.

– Ie, – ishonqiramay dedi askar amaki, – latifa ham qorin to‘ygazadimi?

– To‘yg‘azadi! Bir xillari-chi, amaki, odamning ko‘nglini aynitib o‘qchitib ham yuboradi... Besh bolali, qani boshla-chi.

Bolalar o‘zi g‘alati bo‘ladi, birov o‘zini sal yaqin oldimi, tamom, bor bisotlarini ko‘rsatib maqtangilari, qarshisidagi odamni hayron qoldirgilari, rahmat eshitgilari kelib qoladi, aslini olganda mening o‘zim ham shunaqaman. Shu paytda askar amaki oldida juda-juda ham maqtangim kelib qoldi.

– Qani, qulog‘im senda, – qistadi askar amaki.

– Bir bor ekan, bir yo‘q ekai, – deb xuddi Roziq tog‘amga o‘xshab bir kulib oldim, – bitta afandi bo‘lgan ekan, uni yoshligida armiyaga olib komandir qilib tayinlashibdi, okopda yotganda dushman bostirib kela boshlabdi. Afandi o‘rnidan turib askarlariga «Olg‘a!» deb komanda bermoqchi bo‘lib:

– Oyi! – deb qichqirib yuboribdi.

– He-he-he, – kuldi askar amaki, – afandi ularday qo‘rqqoq ekanda, a?

– Qo‘rqqoqligi haqida yana bitta aytib beraymi?

– Qani, qani?

– Afandini qo‘rqqoqligi uchun oddiy askarlikka tushirib qo‘yishibdi, hujumga o‘tadigan paytda komandir «Olg‘a!» deb buyruq beribdi, bunday qarasa, afandi oldinga qarab emas, orqaga qarab chopib ketayotgan emish. «Ha, mullo Nasriddin, qayoqqa?» deb so‘rabdi komandir.

– Qishloqqa! – debdi afandi.

– Shu paytda qishloqda balo bormi? – baqiribdi komandir.

– Oyim bilan xayrlashib kelay, – dermish afandi.

– Obbo sen-ey, – dedi askar amaki yengilgina kulib olgach, – afandining ham o‘zingga o‘xshagan soddagina ekan-da, a?

Askar amaki bolalar bilan gaplashishni yaxshi ko‘radigan, gaplashganda o‘zini teng olib, xuddi o‘rtog‘i bilan gaplashayotgandek gaplashar ekan... Ketma-ket uchta tankani portlatib yuborgani uchun katta komandirlar uyiga borib o‘g‘il-qizlarini ko‘rib kelishga ruxsat beribdi. Askar amaki hozir yana urushga qaytib ketayotgan ekan. Poyezdning bitta vagonicha keladigan kattakon qora chamadonini ochib: «Yo‘q, yo‘q, xudo ursin, qornimiz judayam to‘q» deyishimizga ham qaramay hammamizga yarimtadan yog‘li patir, bir kaftdan chala qovurilgan magiz ulashib chiqdi:

– Choyni Samovarjon bersin, – deb qo‘ydi oxirida.

Askar amakining qiziq-qiziq gaplariga mahliyo bo‘lib begona shaharga yetib kelganimizni ham sezmay qolibmiz. Poyezd bir siltanib, ketma-ket uh tortib taqqa to‘xtadi, vagonning ichi ari uyasidek to‘polon, vag‘ir-vug‘ur bo‘lib ketdi.

– Hech kim joyidan qo‘zg‘almasin! – buyruq berdi Mariya Pavlovna.

«HAMISHA KULIB YASHANGLAR»

Poyezddan hammadan keyin tushdik. Vokzalda shunaqangi odam ko'pki, shunaqangi ko'pki, xuddi katta sayil bo'layotganga o'xshaydi: qop ko'targan kim, bolasini yetaklab chopib borayotgan kim – bilib bo'lmaydi. To'p-to'p askarlar, voy bolamlab yig'layotgan kampirlar, e boringki, anchagacha angrayib qolibmanda.

– Orifjon, muncha angrayasan! – urishib berdi O'ris xola. Bir-birimizni yo'qotib qo'yimaslik uchun safga tizilib, safimizni jipsroq qilib oldik. Oldinda onaboshi bo'lib Mariya Pavlovna boryapti. Har zamonda orqasiga o'girilib:

– Hammalaring kelyapsizlarmi? – deya erinmasdan sanab chiqdi.

Nihoyat odamlarning orasini yorib o'tib keng maydon orqali kichkina-kichkina poyezdlar to'xtaydigan joyga bordik Omonni yelkandan tushirib:

– Samovar, bu poyezdchalarning o'txonasi qayerda, bo'ladi? – deb so'radim.

– Bilmasam, – yelkasini qisdi Samovar.

– Bu poyezd emas, tramvay, – bilag'onlik qildi Yebto'yimas, – ko'mirni orqasidan yoqishadi.

– Hecham-da, – gapga aralashdi Qoravoy, – tramvayga ko'mir yoqilmaydi.

– Nimaga yuradi bo'lmasa?

– Tarasha yoqishsa kerak – mujmalroq qilib dedi Qoravoy.

Munozaramiz xuddi shu yerga yetganda o'tirishimiz kerak bo'lgan tramvay ham kelib qoldi. Birinchi bo'lib chiqqani qo'rqib, sen chiq, men chiq qilib tisarilishib turgan edik yoz bo'lishiga qaramay oyog'iga kigiz etik kiyib olgan yoshgina bir xotin:

– Tez-tez chiqinglar, bo'lmasa ketib qolaman, – deb qo'ydi. Ana shundan keyin eshik oldida yuz bergan tiqilinchni ko'rsangiz, bir yo'la sakkiztamiz eshikka

tirmashib olibmiz, qani endi, na oldinga yurib bo'lsa, na orqaga! Pastda qolganlarning dodlaganini aytmay sizmi!.. Haligi kigiz etik kiygan xotin qorniga rezinka xalta osib olib, bilet sotayotgan ekan. Bizdan pul ham olmadi, bilet ham bermadi. Borayotgan joyimizni so'rab, qayerda tushib, qaysi tomonga qarab yurishimiz kerakligini tushuntirdi.

– Chapga, chapga! – deb tayinladi yana tramvaydan tushganimizdan keyin ham.

Biz so'roqlab borayotgan idora qanaqa idoraligini bilmayman-u, lekin to'rt qavatlimi, besh qavatlimi, ishqilib tepasiga qarasang do'pping tushib ketadigan binoga joylashgan ekan. Bunaqangi kattakon binoni ilgari hech ko'rmagandim, yuqorisiga narvondan chiqilsa kerak deb o'ylasam, yo'q, binoning ichida yuqoriga olib chiqadigan aylana zina bor ekan. Mariya Pavlovna bizni ko'cha eshik oldida qoldirib ana shu zinadan yuqoriga ko'tarilib ketdi... Birpas kutdik, ikkipas kutdik e boringki, bir soat vaqt o'tib ketdi hamki, direktorimizdan darak bo'lmayapti-da.

– Bizni tashlab qochib ketgan bo'lsa-ya, – ko'zlari to'la vahima bilan dedi Yebto'yimas. Yaqinginda bitta xotin bizning detdomimiz oldiga bolalarini tashlab qochib ketganini eslab, rosti o'zim ham qo'rqib ketdim.

– Yur, tepaga chiqib xabar olamiz, – taklif qildim Yebto'yimasga, xayriyat sherigim yo'q demadi. Bir-birimizni quvalashib yuqoriga ko'tarilayotgan edik Mariya Pavlovnaga ko'zimiz tushib qoldi. Yo'lakda o'zi ozg'in, ingichka bo'lsa ham ovozi yo'g'on, do'rillab eshitiladigan bir odam bilan san-manga borib turishgan ekan.

– O'sha oblastdagilar kallasini yeb qo'yibdi! – deyapti ovozi do'rildoq amaki, – o'zi shahardagi yetimlarni qayerga joylashni bilmay boshimiz qotib turibdi-yu... yo'q, xalq dushmanidan chiqqan ish bu! Men ular bilan hali gaplashib qo'yaman! Bolalaringiz qani?

– Pastda, – tushuntirdi O'ris xola

Ovozi do‘rildoq amaki xuddi orqasidan birov quvlayotgandek chopqillagancha pastga tusha boshladi, tashqariga, bolalarning oldiga chiqib hammaga bir-bir ko‘z tashlab chiqdi-da:

– Xush kelibsizlar, aziz mehmonlar! – dedi kesatgandek bir ohangda.

Ammo aziz mehmonlar javob qaytarishni o‘zlariga ep ko‘rishmadi shekilli, to‘mshayishib jim turishaverdi.

– Yo‘l urintirib qo‘yibdi-da, a? – sal kulimsirab so‘radi amaki.

Yo‘q, aziz mehmonlar bu gal ham javob qaytarishmadi.

Amaki baland imoratning orqasiga o‘tib ketdi-yu xiyol o‘tmay bir yarim tonnalik yuk mashinasiga o‘tirib chiqdi. O‘zi allaqachon shofyorning yonidagi yumshoq o‘rinni egallab olgan ekan, pastga tushsam joyimni birov olib qo‘yadi deb qo‘rqdi shekilli, qo‘li bilan mashinaga chiqinglar degandek ishora qilib qo‘ydi.

Ertalab askar amaki hammamizni kuldirib, g‘am-u tashvishlarimizii unuttirib yuborgan, ashula aytsak ham bo‘laveradigan darajada xursand qilib ketgan edi. Ovozi do‘rildoq amakining qovog‘idan qor yog‘ayotganini ko‘rib, biz yana vahimaga tushib, yuraklarimiz ezila boshladi. Mariya Pavlovna odam qurib ketgandek bizni borib-borib mana shu badqovoqning qo‘liga tashlab ketsa-ya... Unda ahvolimiz nima kechadi?

– Qoravoy, bizni karnay-surnay bilan kutib oladi devding-ku? – so‘radim sekingina.

– Karnaylar remonnda bo‘lsa kerak – deb qo‘ydi Qoravoy ham istamaygina.

Mashina qing‘ir-qiyshiq ko‘chalardan yurib nihoyat darvozasi oldida quchoqqa sig‘maydigan kattakon marvartak tut o‘sib yotgan bir hovli oldiga kelib to‘xtadi-yu, ovozi do‘rildoq amaki bilan Mariya Pavlovna qiz bolalarning chag‘ir-chug‘ur ovozi eshitilib turgan hovliga kirib ketishdi. Bir mahal temir darvozaning bir

tabaqasi ovozsiz ochilib, ichkaridan qorni haddan tashqari katta, bilaklari semiz, yuzi ham sirlangan chelakcha keladigan bir ayol g'ozga o'xshab lapanglab chiqib kela boshladi. Ketidan Mariya Pavlovna ham ko'rindi, uning qovog'i battar solingan, yig'lavoray-yig'lavoray deb turibdi:

Qizlar tushsin, qaltiroq ovoz bilan dedi O'ris xola.

Robiya tizzamda uxlab qolgan edi, uyg'onib ketdi-yu, chinqirib yig'lashga tushdi. Uning bo'zlaganini ko'rib boshqa qizlar ham piq-piq yig'lay boshlashdi. Ajralishayotganimizni, garchi bizdan sir tutishayotgan bo'lsa ham hammamiz sezib turardik. O'g'il bolalar-ku tishimizni-tishimizga bosib turdik-a, ammo qizlar o'zlarini qo'lga olisholmadi. Ota-onalarimiz-u, mehribon kishilarimizdan judo bo'lib bir-birimizga o'rganishib, bir-birimizga suyanishib qolgan ekanmiz, ayriliq vahimasi ikki-uch kundan buyon yuraklarimizni ezib, qalbimizni vayron qilib, dardga aylanib, yuzimizni so'lg'in, xayolimizni parishon qilib qo'ygan edi. Ana o'sha dardlar endi ko'z yoshi to faryodga aylanib, tashqariga otilib chiqqa boshladi. Hamma yoqni yig'i-sig'i ovozi qoplab ketdi.

– Akajon! – deb sochlarini yula boshladi Zulayxo.

– Bizni tashlab ketmanglar! – deb chaqiradi Dilbar.

– Samarjon!

– Xayr, Qoravoy!

– Orifjon aka, bizdan xabar olib turinglar! – deyishib ajralib qolayotgan to'qqiz qiz to'qqiz xil ohangda yig'lar edi. Mehribon onamizdek bo'lib qolgan Mariya Pavlovna ham o'zini tutolmay ko'zlaridan duv-duv yosh to'ki' b xuddi hiqichoq tutgandek hiqillashga tushdi.

Men detdomga kelganimdan buyon bunaqangi dilsiyohlikni, yuraklarni larzaga keltiruvchi bunaqangi dod-faryodni hech ko'rmagan edim. Goh urishib-talashib, goh chaqimchiliklar qilib bir-birimizning jig'imizga tegishib, ba'zan qizlarning sochidan tortib, ba'zan to'plarini olib qochib yig'latib yurgan bo'lsak-da,

o'zimiz ham bilmagan holda ko'z ilg'amas mehr iplari orqali bir-birimizga qattiq bog'lanib qolgan ekanmiz.

Yig'lar edik, to'xtamay yig'lar edik... Darvozadan egniga uzun shinel kiyib, boshiga otliq askarlarning tumshug'i uzun shapkasini bostirib olgan bir odam oqsoqlana-oqsoqlana chiqib keldi-yu, churillatib xushtak chalib yubordi.

– Yig'ini bas qilinglar, bo'lmasa hammangni qamab qo'yaman, – shunday deb haligi odam cho'loq oyog'i bilan yer tepingan edi, yig'layotganlar suvi shovla bo'lgan tegirmondek to'satdan jim bo'lishdi.

Qizlarni ichkariga olib kirib ketishgach, biz yana yo'lga tushdik. Beshinchi sinfgacha o'qiydigan o'g'il bolalarni yana bir detdomda qoldirishdi. Ukalarim Sulton, Usmon, Omonlar hali qizlar detdomi oldida ko'p yig'lab ko'z yoshlari tugab qolgan ekanmi, bu gal yig'lashmadi. Ko'zlarini mo'ltillatishib jimgina xayrlashishdi... Ammo bularning hammasi vaqtincha ekan, mashina o'rnidan qo'zg'alishi bilan Omon pitillab tarbiyachining qo'lidan chiqdi-da:

– Akajon!! – deb chinqirib orqamizdan yugurishga tushdi... Bechora ukaginam jon-jahdi bilan ko'ksini yirtib faryod chekib yuguryapti, qani endi mashina taqqa to'xtasa-yu, tushib bag'rimga bosib yosh quyilib kelayotgan ko'zlaridan o'psam!

– Akajon, to'xtang! – dedi-yu, toshga qoqilib, yuzi bilan yerga yiqildi ukam.

Tarbiyachi halloslagancha, yetib kelib yerdan olib bag'riga bosdi. Omon pitillab, oyoqlari bilan tarbiyachining qorniga tepib, yuzlarini timdalab olyapti...

– Yig'lama, – deb yuzimni o'ziga qaratdi Qoravoy, – asta-sekin o'rganib ketadi.

Yana bir soatlardan so'ng Samar, Qoravoy, Yepto'ymas – hammamiz bo'lib olti bolani temir yo'l qoshidagi hunar maktabiga joylashtirishdi.

Mariya Pavlovna kechga tomon qaytib keldi. Oltita yangigina yopilgan non, bitta shisha bankada liq to'la

qaymoq, ikki kilocha keladigan sharbati oqib turgan o'rik olib kelibdi. Hunar maktabining hovlisiga chiqib, ko'kat ustiga o'tirdik. Direktorimizning, kunduzi ko'p yig'laganidan bo'lsa kerak qovoqlari do'mbira bo'lib shishib ketibdi.

- Qalay, bolalar bilan tanishib oldilaringmi? - sekingina so'radi O'ris xola.

- Hammasi odamyovvoyiga o'xshaydi-ku, - nordon narsa chaynab olgandek aftini jiyirib dedi Qoravoy.

- Hechqisi yo'q, keyin oralaringdan qil o'tmaydigan o'rtoq ham bo'lib ketasizlar.

- Siz shu yerda qolasizmi? - deb so'radim.

- Qololmasam kerak lekin tez-tez xabar olib turaman... Faqat, o'g'illarim, sizlardan iltimosim shuki, yaxshi o'qinglar, tirishib o'qisalaring parovoz haydaydigan mashinist bo'lasizlar... Masterskoyda ishlaydigan katta usta bo'lasizlar, ishqilib meni uyaltirib qo'ymanglar. Ahil bo'linglar... Tarbiyachilarning gapidan chiqmanglar... Haftada bir marta qizlardan, bir marta o'g'il bolalardan xabar olib turinglar, xo'pmi?

- Xo'p.

- Oltovlaring kechasi-yu kunduzi birga bo'linglar. Shaharga chiqsalarining ham birga chiqinglar. Samarjon, sen bularga boshliq bo'lib qolasan.

- Yo'q, Orifjon bo'lsa qolsin, hammamiz uning gapidan chiqmaymiz.

- Mayli, Orifjon, bo'larni senga ishondim bo'lmasa.

- Yaxshi.

- Qani, turinglar-chi, bir achomlashib xayrlashaylik
- Mariya Pavlovna har birimizni alohida-alohida bag'riga bosib, peshanamizdan o'pdi, - qani endi ko'z yoshlarini artinglar, qo'linglar-chi, qani, barakalla! Hamisha ana shunday kulib, xushchaqchaq bo'lib yuringlar. Orifjon, latifalar aytib o'rtoqlaringni kuldirib yurgin... Xayr endi, o'g'illarim! Mendan xafa bo'lmanglar, xabar olib turaman...

UKAJONIM YO‘QOLIB QOLDI

Kutilmagan hodisa yuz berdi, ha-ha, hech kutilmaganda yuz berdi! Hammasi joyida, hammasi ko‘ngildagidek ketayotgan edi-ya! Direktorimiz tayinlab ketganidek haftada ukalarimizdan xabar olib turgandik. Ular ham yangi tarbiyachilarga, yangi o‘rtoqlariga tuppa-tuzuk ko‘nikishib qolishgan edi. Bilim yurtidagi ishlarimiz ham chakki emasdi. Hozircha o‘qishlar boshlanganicha yo‘q, kun bo‘yi vagonlarni remont qiladigan ustaxonalarda, temir kesib, har xil qismlar yasaydigan sexlarda aylanib yuramiz. Ikki marta parovozga tushib yaqin-yaqin stantsiyalarga sayohat ham qilib keldik... Ha-ha, hammasi joyida edi, lekin to‘satdan... Usmon bilan Omon oldinga dodlab chiqishdi.

– Kim urdi? – dedim qo‘rqib.

– Yo‘q, akajon, hech kim urmadi. Sulton akam yo‘qolib qoldi.

Bu xabarni eshitib ishonsangiz o‘zim ham dodlab yuborayozdim, ukalarimni yo‘lakda qoldirib, chol desa cholga, yosh desa yoshga o‘xshamaydigan, umuman necha yoshga kirganini hech bilib bo‘lmaydigan direktorning oldiga yugurdim. Xayriyat, yolg‘iz o‘zi ekan, gazeta o‘qib, devordagi eski, chekkalariga pashsha o‘tirib ketgan xaritani qarichlab o‘lchab o‘tirgan ekan. Menga bir qaradi-yu:

– E, qo‘qonli bola, – deb qo‘ydi.

– Ukam qani? – dedim qaltirab, – axir opam... yo‘q, otam qaytib kelsa nima deyman?

– Ukang dadangning oldiga ketgan bo‘lsa-chi?

– Hecham-da.

– Menga qara, qo‘qonli bola, – deb direktor nihoyat xaritadan boshini ko‘tarib menga yuzlandi, – ukang yolg‘iz qochgani yo‘q, Sasha Petrichenko degan bir bola bilan qochgan, ikkovi urushga ketamiz deb maslahat

qilishayotganini o'rtoblari eshitgan ekan... Ax-taryapmiz, uch kundan buyon bormagan joyimiz qolmadi... Dadalaring frontdami?

- Ha.

- Ukangda adresi bormidi?

- Ha.

- Menga qara, qo'qonli bola, hadeb hiqillab mening ko'nglimni buzma, ukang uzoqqa bormaydi... qorning qalay? Qani mening orqamdan yur.

Direktor derazadan mo'ralashib turgan ukalarimni ham olib hammamizni oshxonaga boshladi. Burni terlab pirashka pishirayotgan semiz xotindan so'ramasdan bir dasta pirashka olib bittadan ukalarimga, qolganini menga uzatib:

- Ukangni topamiz, - deb aldab-suldab ko'chaga chiqarib yubordi.

Yotoqxonaga borib sheriklarimga bo'lgan voqeani aytgan edim: «Sen ahmoq ekansan, direktorning bola axtarishga vaqti bormi, bolalar qancha ko'p ketib qolsa, ularga shuncha yaxshi, - o'zlari mazza qilib perashkalarni yeb yurishaveradi. Militsiyaga borish kerak doktorlardan surishtirish kerak» deb maslaxat berishdi.

Militsiyaxonaga qarab yuguryapman. «Shu, ukajon, Sultonjon, seni endi hecham urishmayman» deb xuddi jinniga o'xshab javrab boryapman. To'satdan uchratib qolsam-a, degan umidda yurishdan to'xtab atrofga alang-jalang ko'z tashlab olaman, militsiya idorasiga borib, eshigining tepasiga qiyshiq xarflar bilan «Navbatchi» deb yozib qo'yilgan xonaga kirdim. Hech kim yo'qqa o'xshaydi; yo'q, bor ekan, militsioner amaki otning kallasidek-kallasidek ikki mushtini bir-birining ustiga ustma-ust qo'yib hosil bo'lgan tepalikka peshanasini tirab oftobshuvoqda yotgan mushuk boladek yengil-engil xurрак tortyapti. Qizil shapkasini stol ustiga qo'yib qo'yipti, boshida taqir sochi yo'q, chekkalaridagi unda-

munda uchraydigan sochlari ham jo'ja bolaning patidek oppoq.

kelganimni bildirish uchun tomog'imni qirib yo'talib qo'ydim... Yo'q, uyqusi xuddi Sultonning uyqusiga o'xshab qattiq ekan, hech narsa sezmedi.

- Amaki? - dedim nihoyat yaqiniga borib.

- Gapingni aytaver, - degan javob qaytdi.

- Men ukamni yo'qotib qo'ydim.

- Men akamni yo'qotib, qo'yganman.

- Xudo ursin agar, - dedim gapimga ishontirish uchun.

- Meniyam non ursin agar, - deb yana xurрак tortib qo'ydi militsioner amaki. Nega u boshini ko'tarmaydi? Yoki meni esi yo'q, yosh bola deb o'ylayaptimikan?

- Amaki, dedim yana ham yaqinroq borib, - men eslik bolaman.

- Meni esa esim yo'g'roq.

- Amaki!

- Nima deysan?

- Mening otam frontda jang qilyapti, bildingizmi!

- Mening o'g'illarim ham jang qilyapti, bildingmi!

- Amaki, jon amaki! - deb yer tepinib ukalarim idish-tovoq yuvmaganda qanday baqirsam ana shunday baqirib yubordim.

- Ovozingni qara-ya, nemisning miltig'idek yaranglab chiqadi-ya, - shunday deb militsioner amaki boshini ko'tarib haligi otning kallasidek keladigan katta mushtlari bilan ko'zlarini ishqaladi, keyin kafti bilan burnini shunaqangi qattiq ezg'iladiki, nazarimda yalpoq qilib yuborgandek bo'ldi, - uch kundan buyon mijja qoqqanim yo'q, bo'tam. Xo'sh, nima deysan o'zi?

- Aytdim-ku.

- Nima deding? - qisilib borayotgan ko'zlarini kattaroq ochib so'radi amaki.

- Ukam yo'qolib qoldi.

- Qo'lidan ushlab olmagan ekansan-da.

– Detdomdan qochib ketibdi.

– Ahmoq ekan, – militsioner amaki og‘zini katta ochib esnadi-yu, ikki qo‘lini stolga tirab yana ko‘zlarini yumib oldi, – tekin ovqat, tekin kiyim-bosh, haftada kino... esi yo‘q ekan, borib shunday degin.

– Kimga?

– Ukangga.

– Aytdim-ku yo‘qolib qoldi deb!

– Borib aytgin, amakim xafa bo‘lyapti... – militsioner amaki gapining u yog‘gini aytolmadi, kallasini shilq etib stolga tushdi-yu, jim bo‘ldi-qo‘ydi... Birpas turdim, ikkipas turdim, yo‘q, uyg‘onadiganga o‘xshamaydi. Eshikni sindirib yuborgudek tarsillatib yopdim-u, ko‘chaga chiqib ketdim.

Endi qayoqqa bordim, kimdan so‘rasam bo‘larkin? Rostanam urushga ketdimikan-a? Yo‘q, u urushga bormaydi, ovqat axtarib ko‘chaga chiqqan-u, o‘g‘irlik qilib qo‘lga tushgan, qamalgan... Nega endi bu militsioner amaki menga yordam berishni istamayapti, axir bu yerda xurрак otib uxlash uchun o‘tirmagandir... Hozir kirib o‘ziniyam bir boplayki! Qarang-a, men bu yoqda ukajonimni axtarib ko‘chama-ko‘cha bo‘zlab yurarmishman-u, u kishi mazza qilib uyquni urib utiraverarmishlar.

Yana orqamga qaytib, navbatchi amakining huzuriga kirdim-u, peshanasiga turtib uyg‘otdim:

– Men nima qilay endi?

– Uxlab ol, bo‘tam, – dedi amaki ko‘zini yarim ochib.

– Kelinoyimga borib nima dey?

– Qaysi kelinoyingga?

– Aytdim-ku, o‘g‘lingizdan qora xat keldi deb...

– A?! – bir sapchib tushdi amaki, – nima deding, qaysi o‘g‘limdan?

– Kattasidan, – dedim yig‘lamsirab.

– Mirpo‘latdanmi?

– Ha, – deb qarang to‘satdan yig‘lab yuborsam bo‘ladimi.

– Nega halidan buyon chuldirab akam deysan, ukam deysan, – shovqin soldi militsioner amaki.

– Kelinoyim yotig‘i bilan aytgin devdila... kichigidan kelgan qora xatni iloji bo‘lsa, aytmay qo‘ya qol dedilar.

– Kichigidan? Mirkarimdan ham kelganmi?

– Ha, qahramonlarcha halok bo‘ptilar.

– Pahlavonim! – deb kap-katta odam xuddi kampirlarga o‘xshab ulu tortib yig‘lab yuborsa bo‘ladi-mi, – aytdim-a, kecha bir uyga borib kelay deb. Topib olganlari men, nima balo, qari cholning orqasidan oy ko‘rishganmi... Po‘latim, pahlavonim...

Militsioner amaki yo‘l-yo‘lakay javrab, xuddi mast odamdek gandraklagancha boshqa bir xonaga kirib ketdi...

«Mana endi, amakijon, postda o‘tirganda hecham uxlamaydigan bo‘lasiz», dedim-da, sekin tashqariga chiqib vokzal yaqinidagi yotoqxonamizga jo‘nab qoldim.

O‘sha kuni qimmatli do‘stim Qoravoyning aqlli maslahati bilan besh kishidan iborat qidiruv gruppasi tuzdik Samovarjon boshqalarga qaraganda aqlli, ham topqirroq bo‘lgani uchun gruppaning boshlig‘i, Yebto‘ymas uning o‘rinbosari bo‘ladi. Kechasi bilan uxlamasdan ikki yuztacha e‘lon yozib ertasiga shaharning katta ko‘chalariga, xiyobonlaridagi simyog‘ochlarga tirmashtirib tashladik.

Hamma ish bitgach, Samovar to‘satdan peshanasiga shappalab:

– Ishni chatoq qilibmiz, – deb uh tortdi.

– Mana, eshitinglar:

«E‘lon, e‘lon, e‘lon!

Qo‘qon tomondan kelgan Sulton Mirzayev degan bola yo‘qolib qoldi, yoshi o‘n ikkida, yuzi qorachadan kelgan, kallasi katta, yelkasi keng, pahlavonnamo bola. Kimda-kim bolani topsa yoki daragini eshitsa, zudlik bilan xabar berishini iltimos qilamiz.

Qidiruv gruppasi».

– Buning nimasi chatoq? – hayron bo‘ldi Yebto‘ymas.

– Qidiruv gruppasining adresi ko‘rsatilmagan-ku. Sul-ton topilsa xabarni kimga aytishadi...

– E-e, – deb qolgan to‘rttovimiz ham peshanamizga shappatilab qo‘ydik.

Bedarak yo‘qolgan ukamni bir haftacha axtardik. Hammamiz yetaklashib bir necha marta shahar militsiyasiga ham borib keldik kasalxonalarni surishtirdik o‘likxonaga borib, o‘lgan bolalarning ro‘yxatini bir boshdan ko‘zdan kechirdik.

Na tirigini topdik na o‘ligini!

Menga qolsa, ukajonimni oyoqlarim qavarib ketguncha ham axtarishga tayyor edim-ku, ammo yana bir falokat yuz berdi-yu... ha mayli, qolganini keyin aytib berarman.

JAJJI SINGLIM O‘LIM TO‘SHAGIDA

Sulton ukamni axtarishga berilib ketib, qarang-a, bir necha kundan buyon Zulayho bilan Robiyadan xabar ololmagan ekanman. Shu kechasi tushimga kirgandan keyin eslab, o‘zimdanda o‘zim uyalib ketdim.

Sheriklarim yotoqxonamiz starostasi yetakchiligida shahardan tashqariga baliq ovlashga otlanishdi.

Singillarimni ko‘rgani boraman degan edim, qolish uchun menga ruxsat berishdi. Cho‘ntagimda hemirim bo‘lmasa ham tramvayga chiqib bir yo‘la oltita bilet olgan boladek kekkayib o‘tirib oldim, umuman bu shaharga kelganimdan buyon hali qo‘lim pul ko‘rgani yo‘q. Tramvay, trolleybuslarda ko‘pincha, haqqi keyinroq berish sharti bilan nasiyaga yuraman. Bilet sotadigan xotinlar sezib qolishmasin deb ko‘pincha oynadan tashqariga tikilib xuddi bironi qidirayotgandek ko‘zimni o‘sha tomondan olmayman. Ba‘zan pattachi xotin tepamga kelib:

– Hoy bola, bilet olmaysanmi, – deb qoladi. Hozir deymanda, hadeb cho‘ntaklarimni kavlashtiraveraman, kavlashtiraveraman. Cho‘ntak qurg‘uridan ham naq o‘n

ikkitasi bor menda, hammasini kavlab bo'lgunimcha patachi qo'l siltab ketib qoladi.

Bugun ham yo'l kirani nasiya qilib qizlar detdomiga arang yetib keldim. Qorovul singlingni o'zim chaqirib beraman deb, meni darvozadan nariga o'tkazmadi. O'zi ichkariga kirib ketdi-yu, xiyol o'tmay o'zimizning detdomdan kelgan qoracha yuzli, qosh-ko'zi ham qopqora, Dilbar degan qizni yetaklab chiqdi.

- Zulayho qani? - dedim yuragim bir narsani sezgandek qo'rqib.

- Kasalxonada, - dedi qiz ma'yus tortib.

Bechora singillarim-ey, kasalxonaga tushib qolganlariga haftadan oshib ketibdi, jaji singlinga qizamiqqa o'xshash bir narsa chiqqanmish, kecha o'zimizning detdomdan kelgan qizlar ko'rgani borishibdi. Robiya bir o'ziga kelib, bir o'zidan ketib yotganmish. Zulayho hech narsa demay ho'ng-ho'ng yig'lab beribdi...

- Kasalxona yaqinmi? - dedim betoqat bo'lib,

- Shu ko'chada, o'zim boshlab boraman, - dedi Dilbar.

Shoshilib yo'lga tushdik yo tavba, yo tavba deyman o'zinga-o'zim. Bitta ukamning bedarak yo'qolib ketgani kammikan, endi bunisi ham bormidi menga! Bordi-yu... yo'q-yo'q, otam urushdan qaytguncha hammamiz sog'salomat bo'lishimiz kerak...

- Dilbar, - deyman miyamdagi yomon xayollardan qutulish uchun.

- Nima deysiz? - deydi oldimda deyarli chopqillab borayotgan qizcha.

- Bu yer yaxshimi yoki o'zimizning detdom yaxshimidi?

- Bu yer yaxshi.

- Ovqati-chi?

- Bu yerda to'rt mahal berishadi. Keyin tomoshalarga ham olib borishadi, armiyadan kelganlar bilan uchrashuvlar ham bo'lib turadi, - maqtashda davom etdi Dilbar.

Dilbar o'zi juda yaxshi qiz, Zulayho ham uni jonidan ortiq ko'radi. Robiya ham unga o'rganib qolgan, kichkina opam deb chaqiradi uni.

– Dilbar, – deyman yana.

– Nima deysiz?

– Sen juda aqlli qizsan.

– Aqlli bo'lsam nima qipti?

– Katta bo'lsang... – dedim-u, u yog'ini jo'rttaga aytmadim.

– Katta bo'lsam nima bo'lardi?

– Seni Sultonga kelin qilamiz, – deb kulib yubordim.

Dilbar, o'ling iloyim dedi-yu, chopqillab ketdi. Men quvlashga tushdim.

Xayriyat, ishim o'ngidan keldi, bugun yakshanba bo'lgani uchun bemorlar oldiga kirish bemaol ekan, qizil rangga bo'yalgan qiyshiq darvozaning qanotlarini lang ochib qo'yishipti. Hovlidagi gulzor atrofida kasallar-u, kasal ko'rgani kelganlar aralash-quralash o'tirishibdi.

– Aka! – degan ovoz eshitilib qoldi bir mahal. Sapchib tushib atrofga alangladim. Zulayho! Ha, ha, Zulayhoning o'zi, Robiyani bag'riga bosib biz tomonga jadal yurib kelyapti. Boshiga oq doka ro'mol o'rab, uzun xalat kiyib olganidanmi, katta xotinlarning nusxi urib qolibdi unga. Yo tavba, yo tavba, xuddi opamning o'zginasi-ya! Opajonim o'lmagandek menga qarab yugurib kelayotgandek..

Bir-birimizga yaqinlashgach, Zulayho aftini g'alati qilib bujmaytirdi-yu, yutinib yuzini yerga tikdi, piqillab yig'lab yubordi.

– Qo'y, xafa bo'lma, – dedim tuzukroq gap topolmay.

– Hecham kelmaysiz.

– Men eshitmabman.

– Robiya bir o'limdan qoldi.

– Endi tuzukmi?

– Kechasi issig'i tushib, ko'zini ochdi, – Zulayho yutinib, kafti bilan ko'z yoshlarini sidirib oldi, kechasi

bilan sizni chaqirib, katta aka tez keling, deb shunaqangi yig'gladiki...

– Qani, menga ber-chi, – jajji singlimni qo'limga olib, ishonsangiz, qo'rqib ketdim. Bugun erta uch yoshga to'lay deb turgan singlim ozib ketganidan olti oylik chaqaloqcha bo'lib qopti. Yuzlari sap-sariq, bo'yni olmaning savag'idek ingichka, peshanalari tirishib yotibdi.

O'rindiqlardan biriga Zulayho, Dilbar uchovimiz yonma-yon o'tirib xo'rsinishib anchagacha jim qoldik Dilbar oyog'ining uchi bilan yer chizib, aftidan haligi aytgan gapim esiga tushib ketyapti shekilli, har zamonda manga zimdan bir boqadi-yu, o'zicha g'alati qilib jilmayib qo'yadi. Zulayho nariroqda to'p-to'p bo'lib olib, qovunmi, uzummi yeb o'tirgan sog'-u bemorlarga qarab har zamonda bir yutinib qo'yadi.

– Sulton tinchmi? – so'radi singlim.

– Tinch, – dedim uning yo'qolib qolganini yashirish uchun o'zimni ataylab beparvoroq tutishga harakat qilib.

– Usmon-chi! Yana ozib ketgandir?

– Yo'q, bu yil tuzuk.

– Omon yig'lamayaptimikin?

– Haliyam O'ris xolam qaytib keladi, meni olib ketadi deb ishonib yuripti.

– Aka, – dedi Zulayho negadir yolvorgandek bir ohangda.

– Nima deysan?

– Yeydigan biror narsa olib kelsangiz-chi.

– Nima yeing kelyapti o'zi?

– Mayli, nima bo'lsayam... hammaga olib kelisha-di, biram ko'z-ko'zlab yeyishadiki... Robiya ertalab qovun deb xarxasha qildi, hozirgina shaftoli berasan deyayotgandi... Ana o'ziyam uyg'ondi.

Robiya allaqachon uyg'onib, menga termulib yotgan ekan. Yuziga tikilishim bilan:

– Akam, katta akam, – deb bemalol pichirlagandek bo'ldi.

Erkalab yuzlaridan, terlab turgan peshanasidan o‘pib, tizzamga o‘tqazmoqchi bo‘luvdim, nimjon qo‘lchalari bilan bo‘ynimdan mahkam achomlab oldi:

– Katta aka, uzum olib keldingizmi?

– Hozir olib kelaman, – Robiyani tizzamga o‘tqazib, o‘zimga qaratdimda, – uzum yeging kelyaptimi?

– Shaftoliyam olib keling, shaftolidan shuncha olib keling, – Robiya nozik barmoqchalarini yozib ko‘rsatdi.

– Xo‘p, shuncha olib kelaman, – deb ikki qo‘limning barmoklarini tengdan yozib ko‘rsatgan edim, Robiya xuddi to‘yib shaftoli yegandek o‘zida yo‘q sevinib ketdi, ko‘zlarini g‘alati suzib opasiga maqtanib ham qo‘ydi.

Shartta o‘rnimdan turdim-u, Dilbar bilan Zulayhoga kasal singlimni qoldirib ana shu kasal singlimni xursand qilish, o‘ksigan ko‘ngliga malham qo‘yish uchun biron narsa olib kelish umidida ko‘chaga qarab yugurdim.

CHAYQOV BOZORIDA TUFLI SOTMOQCHI BO‘LGANIM

Ko‘chaga chiqqanimdan keyingina cho‘ntagimda sariq chaqam ham yo‘qligini eslab qoldim.

Endi nima qildim?

Qovun yoki shaftolini bozor timlari tagiga qo‘yib, Orifjon kelib ukalariga olib ketsin deb kutib o‘tirishmagandir. Tanish-bilishim bo‘lsa ekan, otam kelganda beraman deb qarzga pul ko‘tarib olsam. Bu odamlari hamisha shoshib yuradigan poyoni yo‘q begona shaharda na tanish-u, na qarindosh bor... Yoki kiyimboshimni sotsammikin? Ha, xuddi shunday qilaman. Kun issiq, ko‘ylaksiz yursa ham bo‘laveradi. Faqat jajji singlim o‘ksimay uzum-u qovunlarni yeb darmonga kirib ketsa bo‘lgani. Yoo‘g‘-e... ko‘ylakni sotsam, ichimda mayka yo‘q, qipyalang‘och bo‘lib qolaman-ku, shimni ham sotib bo‘lmaydi, bitta tursikda ko‘chalarda yurish uyat. Tuflimni sotganim ma‘qul. Umuman, menga

tuflining keragi ham yo‘q, qishloqda yurganimizda yoz kirishi bilan yalang oyoq bo‘lib olardim... yozda ham tufli kiyib yurishni shu yerda ko‘rib turibman.

Eski-tuskilar sotiladigan chayqov bozorini mo‘ljalga olib yugurib qoldim. Xayriyat, bozor avjida ekan, lekin odam shunaqa ko‘p, shunaqangi tiqilinchki, na oldinga yurib bo‘ladi, na orqaga! Tuflimni yechib, ustidagi chang-chungini kuylagimning o‘ngiriga artdim-da, bog‘ichlarini bog‘lab yelkamga tashlab oldim. Xaridor yaxshi ko‘rsin deb ataylab kengroq joyga chiqib, tufli osilgan yelkamni ko‘taribroq turibman...

Bozor guvillaydi, minglab odamlar bir-biriga nimanidir tushuntiradi, tushuntirolmasdan xunob bo‘lib, qo‘l siltashadi, birov qo‘nqli etik olyapti, boshqasi sog‘i uzun botinkaning tagini ag‘darib ko‘ryapti. Robiyadan sal katta qizcha, kichkinagina maxsicha olib berasan deb dadasiga xarxasha qilib turibdi. Men tengi bir bola ichiga muz, solingan ayronni shopirib:

– Obi hayot bu.

Tanga rohat bu, – deb tinmay javrab turibdi, kun issiq, tomoqlarim qaqrab ketgan, sekin yoniga borib:

– Bir stakan ayroningdan ber, – deya iltimos qildim.

– Avval pulini cho‘z, – dedi bola kaftini ochib. Pul axtargan kishi bo‘lib, cho‘ntagimni bir oz kavlashtirib turdim-da:

– Pulini urushdan keyin berarman, – deb qo‘ydim.

– Ayronniyam urushdan keyin icharsan, – deb bola yana javrashga tushdi.

– Bergmasang berma, o‘sha achigan ayroningga o‘lib turganim yo‘q, – dedim-u, yana xaridor kutishga tushdim.

Qiziq, nega tuflimga xaridor kelmayapti ekan? Yoki yaxshi ko‘rinmayaptimikin? Tuflimni qo‘limga olib boshim uzra ko‘tarib turdim, oradan o‘n minut, yigirma minut, boringki, yarim soat o‘tib ketdi ham-ki, hech kim kelmayapti.

– Amaki, sizga tufli kerakmi? – dedim eski-tuski tufllarni ko‘rib yurgan bir odamning yengidan tortib,
– Tufling eski-ku, – dedi amaki tuflimni qo‘liga ham olmay.

– O‘zi eski-ku, lekin yangidan yaxshi, – dedim shoshilib, – mana tagcharmlarini ko‘ring, mana, taraklaydi!

– O‘g‘irlab kelganing yo‘qmi?

– O‘zirniki, xudo ursin agar... puliga kasalxonadagi singlimga qovun olib bormoqchiman.

– Menga kattarog‘i kerak jiyani.

– O‘zi kichkina-yu, lekin ichi keng, mana ko‘ring, amaki.

– Bo‘lmaydi, jiyani.

Qarasam xaridor ketib qoladiganga o‘xshaydi, mahkam etagiga tarmashib oldim:

– Yo‘qol, shipana! – shunday deb xaridor bir siltanib etagini tortib olib nari ketdi. Olmasang olma, senga tushib qolgan tuflim yo‘q, deb yana ko‘zimni to‘rt qilib xaridor kuta boshladim. Bir-ikki marta haligi ayronchi bolaga o‘xshatib:

– Kinga tufli, tagi charm, usti xrom, – deb javrab ham ko‘rdim, bo‘lmadi, hech bo‘lmadi.

Kun og‘ib ketdi, bozor ham tugadi hisob, katta yalanglikda yolg‘iz o‘zim qoldim. Oyog‘im tolib, tomog‘im qaqrab ketyapti, tuflini oyog‘imga kiyib sekin-asta yurib tashqariga chiqa boshladim.

Nima qilsam bo‘larkin? O‘g‘irlik qilsammikin, tilanchilik qilsammikin, yo‘q, unisiyam, bunisiyam bo‘lmaydi!

Bir chol buva yelkasida og‘ir yuk, qo‘lida kattakon chamadon, oyoqlari qaltirab inqillagancha bozor tomondan chiqib kelyapti. Miyamga ajoyib bir fikr keldi-yu, yugurib borib chamadoniga yopishdim:

– Bobojon, keling olib borib beraman.

– Qo‘lingni ol, – entikib dedi bobo.

– Yo‘q demang, jon buvajon, kirasiga ko‘p so‘ramayman.

– O‘zim kiraga olib ketyapman, qo‘lingni ol! – deb chol buva chuqur-chuqur nafas ola boshladi.

Turgan joyimda xuddi ajina chalib ketgandek so‘rrayib turib qoldim... Hu narida soca qo‘ygan bir yigit skameykada oyog‘ini chalishtirib o‘tirib gazeta o‘qiyapti. Yaxshi odamga o‘xshaydi, kiyimlari ham bashang, oyog‘idagi tuflisi shunaqangi yiltirayaptiki, ko‘zni qamashtiray deydi.

Yoniga qo‘rqa-pisa borib:

– Amaki, menga ozgina pul berib turing, – deya iltimos qildim.

– Pulni nima qiladilar?

– Kerak-da.

– Xo‘sh, qancha so‘raydilar?

– Mayli, qancha bo‘lsayam, – dedim ishim sal yurisha boshlaganidan o‘zimda yo‘q sevinib.

– Ming so‘m yetadimi?

– Yo‘g‘-e, ko‘p-ku, – dedim negadir o‘ng‘aysizlanib.

– Besh yuz so‘m bersam-chi?

– Mayli, keyin qaytarib beraman, otam kelgandan keyin albatta beraman, – deb qo‘limni cho‘zish uchun.

– Yaqinimga kelma! – deb jerkib berdi, – pul yo‘q menda.

– Jon amaki!

– Yo‘qol deyapman!

Yo‘q, yo‘q, ketmayman, hecham ketmayman, shunday bashang kiyingan tuflisi yiltirab turgan amakida mumkin emas. Bor! Hu ana, chap cho‘ntagi qappayib turibdi... Undan qanday bo‘lmasin pul olishim kerak.

– Amaki, afandi aytib beraymi? – dedim to‘satdan jonlanib.

– Afandi, qanaqa afandi?

– Kuldiradigan afandi.

– Qani, nariroqda turib ayt-chi, – deb yigit gazetani taxlab tizzasiga qo‘ydi.

– Afandi bir kuni, – dedim fikridan qaytib qolmasin deb shoshilib. Tasodifni qarangki, shu paytda bironta ham afandini eslay olmasam bo‘ladimi? Xayriyat, mana bittasi esimga kelib qoldi, – afandi bir kuni ko‘chada keta turib oyna topib olibdi, bunday qarasa o‘zining surati ko‘rinibdi, iya, kechirasiz, oyna siznikimidi, deb joyiga qo‘yib yo‘lida ketaveribdi.

– Shumi? – dedi tuflisi yiltiroq amaki aftini allaqanday bujmaytirib.

– Boshqasini aytaymi? – dedim shosha-pisha.

– Ayt-chi?

– Afandi boqqa o‘g‘irlikka kirib qo‘lga tushib qolibdi, bog‘bon nega ruxsatsiz kirding desa, afandi nega o‘zing xotiningga kavush olib bermading deb baqiribdi. Bog‘bon ne, men bog‘dan kelsam, sen tog‘dan kelasan-a, desa, afandi, mana shunaqa, gapni kavlasang gap chiqaveradi, dermish...

Tuflisi yiltiroq amaki kulmadi, loaqal jilmayib ham qo‘ymadi. Atrofga alanglab o‘rnidan turayotgan edi, to‘xtang, boshqasini aytaman deb, ha, yo‘q, deyishini ham kutmay tez-tez ayta boshladim:

– Afandi bir kuni jinoyat qilib qo‘lga tushgan ekan, podsho osilsin deb buyruq beribdi, osish oldidan afandidan oxirgi iltimosingiz bormi, bajo keltiramiz, deb so‘rashibdi. Afandi oxirgi iltimosim shuki, meni qornimdan osinglar debdi. Nega endi qorningizdan osamiz deb so‘rashsa, afandi tomog‘imning tagida qitig‘im bor, deb javob beribdi.

– Bor-yo‘g‘i shumi? – deb tuflisi yiltiroq amaki yo‘l-yo‘lakay gazetani taxlab jo‘nab keta boshladi.

– Pul bermaysizmi? – dedim orqasidan ergashib.

– Qanaqa pul? – ko‘zlarini olaytirib so‘radi tuflisi yiltiroq amaki.

– O‘zingiz aytuvdingiz-ku, pul beraman deb.

– Ha aytgandek ma ol, – tuflisi yiltiroq amaki oldimga besh tiyinlik sariq chaqa tashladi... Besh tiyin! Bitta qovun kamida o‘n sum turadi, bunaqa siyqa chaqadan

yana ikki yuzta to'plashim kerak.. Cho'ntagi to'la pul-u menga qilgan sadaqasini qarang! Sening sadaqangga zor emasman, bildingmi, o'lib qolsam ham olmayman... Ich-ichimdan bir xo'rsinish keldi-yu, yo'q, o'zimga qo'lga oldim, yig'lamadim. Yerdagi chaqani olib jon-jahdim bilan tuflisi yiltiroq amakining orqasidan otdim, mo'ljalga ham olganim yo'q edi-yu, tasodifni qarang, tanga pildirab borib qulog'ining orqasiga tegsa bo'ladimi!

- Shpanani ushla! - deb tuflisi yiltiroq amaki meni quvlab qoldi.

«MENI QAMAMANG, JON AMAKI!»

Tuflisi yiltiroqning ta'qibidan qutulgach, meva-cheva bozoriga qarab yo'l oldim. Nima bo'lganda ham, qovunmi yoki bir-ikki bosh uzummi olib borishim kerak bechora singillarim akam qachon keladi deb, kasalxonaning qizil darvozasi oldida ko'zlarini mo'ltillatib mung'ayib o'tirishgandir. Olib boraman, o'lsam-o'lamanki, lekin, albatta olib boraman... Nima, bitta qovun o'g'irlagani bilan odam o'g'ri bo'lib qolarmidi. O'zinga bo'lsa-ku hecham qilmasdim-a, lekin kasal singlimga juda achinib ketyapman... Qovunni qo'lga olishi bilan:

- Bu menga? - deb so'raydi quvonchdan ko'zlari chaq nab.

- Ha senga, - deyman erkalab. Keyin uzummi ham uzataman.

- Buyam menga? - deydi jajji singlim. Bemor Robiyaning sevinganini ko'rib Zulayho ham quvonadi, yolg'iz emasligidan, dunyoda mendek mehribon akajoni borligidan o'zida yo'q shodlanib ko'ngli tog'dek ko'tarilib ketadi.

Bozorga qovun-tarvuz, har xil ho'l mevalar tiqilib ketgan, kechki bozor bo'lgani uchunmi, savdo ham avjida. Xaridorlar talashib-tortishib o'tirmasdan duch kelgan narsani ko'tarib ketishyapti.

Qovun-tarvuz bozorida nima qilishni, ishni nimadan boshlashni bilmay garang bo'lib yurgan edim.

– Ushla, o'g'rini ushla! – degan shovqin ko'tarilib qoldi. Bunday qaragam men tengi-men tengi ikkita bola bittadan qovunni bag'riga bosib qochib boryapti. Egasi, keksagina bir ayol qovunni tashlab ketgani ko'zi qiymay turgan joyida deysinib:

– Ushlanglar, hoy musulmonlar, ushlasalaring-chi! – deb qichqiryapti. Ayol, nihoyat, uzun ko'ylagining etagini ko'tarib, bolalarning ortidan o'zi yugurdi... Qovunlar egasiz qoldi, bir uyum qovun husnini ko'z-ko'zlab turibdi. Bittasini olaymi olmaymi? Oldim!!! oldim-u, qiziq xuddi cho'g'ni changallab olgandek qovunni tashlab yubordim. Tavba, nega qochyapman endi? Axir qovunni olganim yo'q-ku!

Un bozori orqasiga o'tib nafasimni rostlab oldim. Qiziq, nega qaltirayapman ekan? Ie, yig'lagim ham kelyapti, ana yig'lab ham yubordim. Yo'q, yo'q, nima bo'lganda ham yig'lamasligim kerak... Nima bo'пти, otam qaytib kelsa, eson-omon uyimizga borib olsak gadoylarga sadaqa qilib gunohimni yuvib yuborarman...

Bozor to'la uzum-u shaftolilar, qip-qizarib pishgan naqsh olmalar, gaynoli-yu olxo'rilar...

– Xolajon, uzumingizdan bir bosh bering, – iltimos qildim paranji yopinib chimmatini qo'liga ushlab o'tirgan ayoldan. Ayol bir menga, bir chelakdagi uzumiga ko'z tashlab olgach, bir shingil uzatdi. Shingilda bor-yo'g'i uch dona uzum bor! Uch dona!! Yana tagin qanaqasi deng, ezilgani! Boshingam uramanmi uni.

– Menga bir bosh kerak bildingizmi? – dedim negadir achchig'im chiqib. Ezilgan uzumlarni oldiga tashladim.

– Obbo, noz-u firoqlarini qarang, – deb ayol chelakni yaqinrog'iga tortib sherigiga bir narsa deb shivirlab qo'ydi, sherigi shosha-pisha cho'ntagini pay-paslab orqa-o'ngiga qarab oldi. Nariroqda bir chol buva bilan mendan ko'ra sal kattaroq yigitcha ham biri savatda, boshqasi

chelakda oq xusayni sotib o'tirishibdi... Hozir cholnikidan olib qochaman, quvol-maydi, quvganda ham inqillab uzoqqa borolmaydi, degan fikr o'tdi boshimdan. Yigitcha uzum tortish bilan ovora bo'lib turganda chol buva og'zidan nosni tuflash uchun joy axtarib qoldi. Payt keldi! Chelakka tashladim o'zimni. Lip etib chelakni ilib oldim-u, o'ziyam uzumi tugab yengilgina bo'lib qolgan ekan, duch kelgan tomonga qarab qocha boshladim. Qop-qop sabzi-piyozlarning ustidan sakrab o'tyapman, to'saman deb quloch yoygan kishilarning qo'ltig'idan chiqib ketyapman. Hali qovun olib qochgan bolani hech kim quvmagandi, meni bo'lsa butun bozor ahli quvlab kelayotganga o'xshaydi.

– Ushla!

– Kissavurni tut! – deyishib katta-yu kichik birdan yugurib kelishyapti... Qayoqqa qochdim, qayoqqa! Qayoqqa qaragam ham odamlar chatanog'ini kerib, qulochini yozib yo'limni to'sib turganga o'xshaydi. Orqaga qaytib quvlab kelayotgan haligi yigitchani yelkam bilan urib yiqitib o'tdim...

Charchadim, nafasim qisiyapti, chelakni tashlasammikan? Yo'q-yo'q, tashlamayman!

– Churrrr! – deb hushtak chaldi militsioner. Ovoz qayoqdan keldi ekan deb yonboshiga o'girilishimni bilaman, boshimga qattiq bir narsa tegib munkib ketdim. Ustimga bir yo'la besh-olti kishi yopirilgandek bo'ldi, yelkamga tepki, boshim aralash musht yom g'iri tushyapti.

– Churrrr! – yana hushtak eshitildi, – qoch hammang, och bolani urib bo'ladimi, insofsizlar, qoch deyapman!

Tepkilash to'xtadi, musht yomg'iri ham tindi. Baquvvat bir qo'l bo'ynimdan changallab oyoqqa turg'izdi. Turg'izgan novcha, oriq, cho'ziq yuzli militsioner ekan.

– Padarla'nati, uzum kerak ekan, o'zimdanda so'ramaysanmi? – dedi chol buva nosqovog'idan kaftiga nos ag'darib, – o'zim berardim-ku.

Chol buva bir bosh ezilgan uzumni qo‘limga tutqazib, chelagini olib jo‘nayotgan edi, militsioner:

– To‘xtang, aktga qo‘l qo‘yasiz! – deb xuddi yosh bolani jerkkandek jerkib berdi.

Militsioner chelakni o‘zimga ko‘tartirib xuddi burgut quyon bolani changallagandek yelkamdan mahkam changallaganicha idorasiga sudradi. Derzasiga temir panjara qadalgan tor, pastak xonaga olib kirib bitta qog‘ozga allanarsalarni yozib, chol buva bilan haligi tozi itdek chopag‘on yigitchaga ham qo‘l qo‘ydirib oldi.

Chol buva chiqib keta turib: «Bola paqirni qo‘yib yubora qoling, militsioner o‘g‘lim, – deb iltimos qildi, – endi qilmaydi».

– Gap uzumda emas, – dedi qovog‘ini solib militsioner. – Hukumat mana shunaqa tentirab yurgan qarovsiz bolalarni yig‘ish haqida qaror chiqargan...

Hali ko‘rmagan ekanman, bu yerda yana ikkita bola o‘tirgan ekan. Biri yalang oyoq, kalta ishtoni dabdala bo‘lib ketgan, afti-boshiga xuddi tug‘ilganidan buyon suv tegmaganga o‘xshaydi: boshiga, dadasiniki bo‘lsa kerak soyaboni uzun chipor shapkani bostirib kiyib olibdi. Boshqasi bo‘lsa yerda o‘tirganicha tizzasini quchoqlab uxlab qopti; o‘zbek yoki o‘risligini ham bilib bo‘lmaydi, haddan tashqari o‘sib ketgan sap-sariq sochi xuddi makka sutaning popugiga o‘xshab yuziga yopirilib tushibdi.

– Oting nima? – so‘radi militsioner.

– Orifjon.

– Laqabing ham bormi?

– Bor. Besh bolali.

– Familiyang?

– Mirzayev.

– Kimning shaykasidasan?

– Shayka?! – dedim hayron bo‘lib, – qanaqa shayka?

– Gapni ko‘paytirma, – urishib berdi militsioner, – sheriklaringni ayt.

– Qanaqa sheriklarim?

- Zafar, - deb chaqirdi militsioner. Burchakdagi chipor shapkali bola dik etib o'rnidan turdi, - buni taniysanmi?

- Yo'q, - dedi Zafar yuzimga astoydil tikilib.

- Kimning shaykasidanliginiyam bilmaysanmi?

- Bilaman, - men tomon bir odim tashlab dedi Zafar, - bu bola Zag'chaning shaykasidan. Hammalari pastkash bular, meva o'g'irlashdan nariga o'tishmaydi. Cho'ntakka tushgani qo'rqishadi, mushtlashishni ham bilishmaydi... Xoinlar! Bizni sotganlar ham shular... Sizlar hali shoshmay turinglar.

Militsioner bir menga, bir Zafarga qarab o'zicha kulimsirab qo'ydi, kulimsiraganda uning yuzi juda ham yoqimli, o'zi ham mehribondek tuyularkan. O'rnidan turib deraza peshtaxtasidagi chelakdan sopi yo'q krujkaga suv qo'yib ichdi:

- Ichasanmi?

- Mayli, - dedim qo'rqa-pisa.

Men qultillatib suv ichayotganimda militsioner o'rniga o'tirib yana bir narsalarni yoza boshladi:

- Ota-onang bormi?

- Yo'q, - dedim labimni kaftimning orqasi bilan artib, - otam frontda, ikkinchi Ukraina frontida.

- Onang-chi?

- Vafot qilgan.

- Yolg'izmisan?

- Beshta ukam bor... Amaki, siz Sulton Mirzayev degan bolani ko'rmadingizmi?

- Ko'rganim yo'q.

- Yo'qolib qoldi. O'n besh kuncha bo'ldi. Amaki, jon amaki, meni qo'yib yuboring. Yana bitta singlim kasalxonada, meni kutib o'tirgandir.

- Sheriklaringni aytgin.

- Sheriklarim yo'q, xudo ursin agar. Mayli, uyingizga borib ishlaringizni qilib beray, o'tin yorishmi, qozon-tovoq yuvishmi mayli, nima bo'lsayam qilaveraman.

- Yolg'iz o'zing o'g'rilik qilarmiding?
- Ha.
- Nimalar o'g'irlarding?
- Mana shu uzumni oldim xolos... Qorong'i tushib qolyapti, javob bera qoling, adashib qolaman. Musofirman. Xo'p desangiz, afandi aytib berardim.
- Uhu, afandi aytishni ham bilasanmi?
- Bilaman, juda qiziqlaridan bilaman.
- Qani, bitta eshitaylik-chi? - deb militsioner yozishdan to'xtab, menga tikilib qoldi, - qani boshla-chi?
- Hozir, hozir... suvingizdan yana bitta ichsam maylimi? - dedim hovliqib.
- Icha qol, - ruxsat berdi militsioner. Suvni ichgach latifaning eng qizig'idan aytib, militsionerni xaxolatib kuldirish uchun nechtaki latifa bilsam hammasini birma-bir eslab chiqdim.
- Bilmas ekansan-ku, - xafsalasi pir bo'lgandek - dedi militsioner.
- Hozir, mana, - dedim avvalgidan ham shoshib. - Bir kuni mufla Nasriddinning qo'shnisi ertalab uyingizdan gupillagan ovoz eshitildi, tinchlikmi deb so'rabdi. Nasriddin to'nim yiqilib ketdi debdi. Qo'shnisi to'n ham gupillab ovoz chiqaradimi, desa, Nasriddin ichida o'zim ham bor edim, der emish...
- Xa-xa-xa! - deb militsioner nazarimda yolg'ondakam kulgandek bo'ldi, - obbo sen-ey, yaxshi bola ekansan-ku!
- Endi qo'yvorasizmi?
- Yo'q, yana bitta aytgin, keyin qo'yvoraman.
- Bir kuni afandidan yilingiz nima deb so'rash-sa, ho'kiz deb javob beribdi. Ie, odamning yili ham ho'kiz bo'ladimi deyishsa, afandi xotinlarniki sigir, erkaklarniki ho'kiz bo'ladi-da dermish.
- Voy, sen balo ekansan-ku! - bu gal militsioner chinakam kulib yubordi, - obbo sen-ey!
- Yana bitta aytib beraymi? - dedim maqtovdan erib ketib.

– Qani, qani? – o‘tirgan stoliki yaqinrog‘imga surib, dedi militsioner.

– Afandi bozorga keta turib uni olaman, buni olaman deyaveribdi. Xotini xudo xohlasa deb gapiring, desa afandi xohlasa ham olaman, xohlamasa ham olaman debdi. Bozorga borib pulini o‘g‘irlatib qo‘yibdi. Qaytib kelib eshigini taqillatgan ekan, xotini, kim u, deb so‘rabdi. Afandi xudo xohlasa ering bo‘laman dermish.

Qiziq, bu gal militsioner mutlaqo kulmadi, aksincha to‘satdan qovog‘i solinib ketdi. Xo‘mraygancha yonimga kelib, dadamning ketmonicha keladigan kafti bilan iyagimdan ko‘tarib:

– Kimning shaykasidansan? – deb so‘radi.

Tavba, mening o‘zim kimman-u, yana birovning shaykasidan ham bo‘larkanmanmi! To‘xta, to‘xta, deb o‘yladim. Ko‘rshermatning shaykasida edim, deb, yolg‘on gapirib qutulib qo‘ya qolsam-chi?

– Ochiq aytсам qo‘yib yuborasizmi? – dedim.

– Qo‘yib yuboraman.

– Ko‘rshermatning shaykasidanman. Militsioner chaqqon bir harakat bilan o‘rniga o‘ti-rib, qo‘liga ruchka oldi:

– Ko‘rshermat dedingmi?

– Ha.

– Familiyasi?

– Bilmayman.

– Shaykada yana kimlar bor edi?

– Islom qo‘rboshi.

– Buning familiyasini bilmaysanmi?

– Bilmayman.

– Yana kimlar bor?

– Yana?

– Laqabchi.

– Yana?

– Boshqasini bilmayman.

– Shaykalaringni nomi nima edi?

- Niqob kiygan qaroqchilar.
- Nima ish bilan shug'ullanardilaring?
- Yoymachi chollarning xurjunini olib qochardik.
- Yana?
- Chelakdagi suyuq oshlarni o'g'irlardik.
- Barakalla, uka, mana endi o'zingga kelding, - militsioner xursand bo'lib ketganidan yelkamga shapatilab qo'ydi, - militsiya rostgo'y, aybiga ochiq iqrora bo'lgan bolalarni yaxshi ko'radi... Ke endi, mana bu yerga qo'lingni qo'yib yubor, barakalla! Mana bu boshqa gap, akasi.

Militsioner men qo'l qo'ygan daftarni temir sandiqqa qulflab, kalitini qo'lida o'ynatganicha tashqariga chiqib ketdi-yu, xiyol o'tmay yana kirib keldi. Usti berk qizil mashina olib kelgan ekan, burchakda shundoqqina yerda uxlab qolgan haligi ikki yuvuqsiz bolani ko'tarib mashinaga chiqara boshladi. Men ham chol buva berib ketgan bir bosh uzumni olib sekin tashqariga chiqayotgan edim:

- Yo'l bo'lsin, yigitcha? - juda ham mehribon bir ohangda so'radi militsioner.

- Piyoda ketaveraman, - dedim qutulganimga shukr qilib.

- Yo'g'-e, jonlarini koyitmay mashinaga marhamat qilsinlar! - shunday deb militsioner ikki qo'li bilan biqinimdan xuddi changak bilan qisgandek qisib, mashinaga itqitib yubordi.

Meni qamamang, jon amaki! - deb dodlab yubordim, - axir singillarim kutib o'tirishibdi, uzumni o'shalarga oluvdim..

SARSONU SARGARDON**Uchinchi qism****DETKOLONIYADA**

Bir haftalardan so'ng boshqa bezori, cho'ntakkesar bolalarga qo'shib meni ham shahar tashqarisidagi detkoloniyaga olib chiqib ketishdi.

Detkoloniya ellik gektarcha keladigan kattakon bog'ning ichiga joylashgan ekan. Bu yerda menga o'xshagan bolalar-u, bilagiga lenta taqqan komandirlar, oppoq xalat kiyib olgan ayollar-u, do'q qilib gapiradigan qovog'i soliq nachalniklar shunaqangi ko'pki, xuddi shaharda hech kimni qoldirmay hammasini shu yerga haydab kelishganga o'xshaydi.

Kelgan kunimiz hammamizni murchaga solib, sochimizni ham ustara bilan tarashlab olib, boshimizni kuydirgan kalladek sip-silliq qilib qo'yishdi, tagi rezinkalik qo'nji uzun qo'pol botinka, trinkadan tikilgan rudapo kostyum-shimlar ham berishdi. Bu yerda elliktacha otryad bor ekan, har qaysi otryadning o'z komandiri, alohida baragi bo'larkan, o'qishga ham, ovqatlanishga ham, ishga ham saf bo'lib borib, saf bo'lib qaytisharkan.

Bolalar stol-stullar, katta-kichik yashiklar yasasharkan, arqon to'qiydigan seh qo'njli botinkalarga qalin qog'ozdan quticha yasaydigan seh buzilgan yashiklarni remont qiladigan seh ishga yaroqsiz bo'lib qolganlarining taxtasini olib, mixini sug'uradigan sex... xullas, sexlar shunaqangi ko'pki, hisobiga yetib bo'lmaydi.

Otryadlar otryadlar bilan, otryadning ichidagi bolalar bir-birlari bilan shaxsiy musobaqa o'ynasharkan, ishda, o'qishda tartib-intizomga rioya qilishda birinchilikni

olgan bolalar alohida ajratilgan oshxonalarda ovqat yeyisharkan. Keyin ana shu bolalarni o'n g'ildirakli katta «sudabekr» mashinasiga o'tqazib, shahargami, daryo bo'ylarigami sayohatga olib borisharkan. Bir yil davomida hamisha birinchilikni olib kelgan bola erkinlikka chiqarilarkan, xohlasa uyiga ketishi, xohlamasa, shu yerda qolib o'qib-ishlab yuraverishi mumkin ekan.

– Tushunarlimi? – so'radi komandirimiz Gogo.

Gogo o'zbekmi, o'rismi bilib bo'lmaydi. Nega desangiz, birpas o'rischalab, birpas o'zbekchalab gapiradi. Buning ustiga bilaklariga, yelka-yu yalang'och ko'kraklariga har xil rasmlar ham chizib tashlangan: uchib ketayotgan qush deysizmi, xanjar o'qtalib turgan yigit deysizmi, hatto tutun chiqarib ketayotgan parovozning suratigacha bor.

– Papiros chekkanlar bir sutkaga avaxta qilinadi, tushunarlimi? – so'radi Gogo,

– Tushunarli, – bir ovozdanda takrorladik yangi kelganlar.

– Sherigining narsasini o'g'irlaganlar uch sutka, tushunarlimi?

– Tushunarli.

– Shagom marsh! – buyruq berdi Gogo.

Ish joyimiz murchaning orqasidagi yalanglikda ekan, siniq yashiklarning mixini sug'urib, taxtasini alohida taxlashimiz kerak ekan. Bir kubometr taxta taxlasak kunlik norma bajarilgan bo'larkan.

Ombur-u bolg'achalarni qo'lga olib ishga tushib ket-dik...

– Besh bolali! – degan ovoz eshitildi bir mahal qulog'imga. Bir sapchib tushdim-u, bu yerda mening laqabimii biladigan hech kim yo'q edi-ku, shunday bo'lib tuyulgandir deb yana jon-jahdim bilan mix sug'urishda davom etdim.

– Orif! – degan tanish ovoz eshitildi yana. Boshimni shundoq ko'tardim-u, ishonsangiz, tarrakdek qotib qoldim... Nahotki bu o'ngim bo'lsa...

– Shermat! – baqirib yubordim men ham.

– Bu senmi-a!

– Bu o‘zingmisan, do‘stim! – deyishib mix sug‘urayotgan bolalarni hayron qoldirib, bir-birimizni quchoqlashib ketdik. Quchoqlashib bo‘lib bir-birimiz yuzimizga tikilishib turamiz-da, obbo sen-ey, deb achomlashib ketamiz.

– O‘rtoq komandir, – Gogoga murojaat qildi Ko‘rshermat bu mening hamshaharim bo‘ladi, besh minutga ruxsat bersangiz, gaplashib olsak.

– Bir soatga ruxsat beraman, – dedi Gogo, – chekkaroqqa chiqib, iloji bo‘lsa, bir-birlaringni yalashib ham olinglar.

Nariroqqa, suvsizlikdan quriy-quriy deb turgan qari olma daraxtining tagiga o‘tdik. Shermat quchog‘idagi yangi to‘qilgan chilvir arqonni yerga qo‘yib ustiga o‘tirdi-da:

– Ke, bir chekkasiga sen ham cho‘k – deb taklif qildi.

– Bu yerga qanday qilib kelib qolding?

– Sizlarni sog‘indim, – deb kulib qo‘ydim. – Islom qo‘rboshi qani?

– Uni kechqurun ko‘rasan... Qani gapir.

– Nimani gapiray!?

– Detdomdagilar tinchmi?

– Detdomni boshqa detdomlarga qo‘shib yuborishdi.

– Mariya Pavlovna indamadimi?

– Indash ham gapmi, yig‘ladi! O‘n besh kun yelib-yugurdi... Oxiri ilojini qilolmay bizni Toshkentga qo‘yib, o‘zi yig‘lab-yig‘lab qaytib ketdi.

– Hammalaring keldilaringmi?

– Yo‘q, o‘ttiztamiz xolos.

– Qolganlar-chi, Samovar qayerda? Qoravoy-chi?

– Ular Toshkentda qolishdi.

– O‘zing bu yerga qanday qilib kelib qolding?

– Uzum o‘g‘irlovdim.

– Sen-a, farishtadek bola-ya?.. Latifa aytib qutulib ketmabsan-da.

– Aytdim.

– Shundayam qo‘yvorishmadimi? Lekin Besh bolali, bu yerga kelganing yaxshi bo‘pti. – Ko‘rshermat detkoloniyani shunaqangi maqtashga tushdiki, maqtashniyam shunaqangi joyiga qo‘ydiki, asti qo‘yaverasiz. Bu yer dunyodagi hamma detdomlardan ham yaxshi emish, bolalari ham qulochkashlashib mushtlashadigan, «Bos, olg‘a bos» degan ashulani aytganda, yer-ko‘kni larzaga keltirib yuboradigan azamat bolalar emish...

Lekin Sulton bedarak yo‘qolgani, jajji singlim kasalxonada yotganini eshitib, Ko‘rshermat xomush bo‘lib qoldi. Ancha mahal yuzimga o‘ychan tikilib o‘tirdi-da.

– Yuraging tuzdek achishyaptimi, a? – deb so‘radi.

– Ha, – dedim o‘pkam to‘lib.

– Xafa bo‘lma, kechqurun Qo‘rboshi kelsin bir ilojini qilamiz... Seni bu yerdan bir amallab qochirish kerak.

– Yo‘g‘-e! – deb qo‘rqqanimdan Gogoga bir ko‘z tashlab oldim.

– Qo‘rqma, – dalda berdi do‘stim, – besh-o‘n kunga qochasan xolos. Ukalaringni jamlab qishloqqa olib borib qo‘yasan-u, yana qaytasan. Qaytmasang ham xafa bo‘lishmaydi, bu yer sal erkinroq... Qaytsang, jon deb qabul ham qilaverishadi... Bo‘lmasa ukalaring har yoqqa tarqab ketishadi. Bizda Danko degan bir bola bor, uning urush boshlanish oldidan yettita aka-ukasi bo‘lgan ekan, hozir yetti tomonga tarqab ketishibdi...

– Vaqtlaring tugadi! – churillatib hushtak chalib dedi komandirimiz Gogo, – Mirzayev, ish joyingga!

Kechqurungi uchrashuvimizda Islom bilan Shermatning menga bergan maslahati shu bo‘ldiki, bu yerdan qochish uchun jon kuydirib ishlab, o‘z otryadimda birinchi o‘ringa chiqib olishim, namunali bola deb qizil doskaga ketma-ket uch marta yozilishim, tartibga a‘lo darajada rioya qilyapti deb tarbiyaviy soatda maqta-lishim kerak ekan. Ana undan keyin menga, ya‘ni detkoloniyaning asiri

bo'lmish Orifhon Mirzayevga shaharga chiqib kelishim uchun ruxsat berilar emish. Men ana shu ruxsatdan foydalanib, asta quyon bo'lib qolishim mumkin ekan.

– Qo'lga tushib qolsam-chi? – so'radim Shermatdan.

– Qo'rqma dedim-ku, – yana dalda berdi do'stim, – aslida sen bu yerda hech kinga kerak emassan, Islom ikkovimiz senga oz-ozdan pul yig'ib beramiz, Qo'qonga yetib olishlaring uchun yetadigan pulni amallab to'g'rilab beramiz. To'g'rimi, Islom?

– To'g'ri – gapga qo'shildi Qo'rboshi, – arqon sotib pul yig'sa bo'ladi, har kuni odamlar arqon so'rab derazadan pul uzatishadi.

O'sha kundan boshlab butunlay boshqacha bo'lib qoldim. O'ziyam ishni juda sog'ingan ekanman, hatto uch normaga yetkazib mix sug'urgan kunlarim ham bo'ldi, tartibniyam buzmadim, o'qishniyam joyiga qo'yib bordim, lekin, mana oradan ikki oy o'tib ketyapti hamki, Shermat aytgan voqealar yuz bergani yo'q. Nomimni qizil doskaga ham yozishmayapti, tarbiyaviy soatlarda maqtashmadi ham. Tarbiyaviy soat boshlandi deguncha nuqul urush axborotlaridan gapirishgani-gapirishgan...

Keyingi paytlarda ukalarimni eslayverib, naq bo'lmasa kasal bo'lib qolayozdim. O'rnimga cho'zilib, ko'zimni yumdim deguncha darrov tushimga opajonim kiradi:

– Nega uyni tashlab kelding, uyimizning chirog'ini nega o'chirding? – deb so'raydi, cho'chib uyg'onib ketaman, atrofda hech kim yo'q, faqat hamxonalarimgina pishillab uxlab yotgan bo'lishadi. O'ng tomonimni bosib yotaman, bu gal endi tushimga otam kiradi:

– Sulton suvga oqib ketdi, nega oqizding, nega? – deb so'raydi. Sulton, ukaginam, deb dodlab yana uyg'onib ketaman. Ana o'sha hushim kirdi-chiqdi bo'lib, nasha chekkan bangidek garang yurgan kunlarimda bizni to'satdan kartoshka kovlashga olib boradigan bo'lib qolishdi. Shermat ham, Islom ham hammamiz bitta mashinada ketdik. Dalaga borib, bir-ikki soat ishlagach,

chasavoylar o‘zimizdan o‘zimizga qorovul tayinlab, o‘zlari allaqayerga musallas ichgani ketib qolishdi.

- Qochamiz! – shivirladi Shermat.
- Nega, sen ham ketasanmi?
- Sizlarni poyezdga chiqarib qaytaman.

Islom yuz ellik so‘m pul yiqqan ekan, darrov chiqarib berdi. Eson-omon yetib olsang, «Oyimqishloq»da qari xolam bor, oldiga borib mendan salom aytgin deb ko‘zlarini pirpiratib jindek yig‘lab ham oldi.

SHERMATNING YAXSHILIGI

Shermat ikkovimiz olmazor oralab yarim soatcha yurgach, shaharga olib boradigan sertuproq yo‘lga chiqib oldiq Jo‘xoripoya yuklab ketayotgan ho‘kiz arava ortidan ergashib shaharga peshinga yaqin kirib bordik.

Qizlar detdomiga kelib:

- Menga Zulayhoni chaqirib bering, – iltimos qildim qorovul amakidan.

- Akasimiding? – ko‘zlarini katta-katta ochib so‘radi qorovul.

- Ha, akasi bo‘laman.

- Aka bo‘lmay ket-e! – deb qorovul amaki meni urisha boshladi, – singling bechora ikki oydan buyon yo‘lingni poylayverib adoyi tamom bo‘ldi-ku!

- Praktikaga ketuvdim, – dedim nima deyishimni bilmay.

- Yana yolg‘on gapirishini qaranglar, – deb qorovul yo‘l-yo‘lakay xotinlarga o‘xshab meni qarg‘ab Zulayho bilan Robiyani ergashtirib chiqdi.

Bir soat chamasi yig‘lashdik desam, ishonavering. Gap yo‘q, so‘z yo‘q piq-piq yig‘i! Samovar bilan Qoravoy kelib hamma gapni yetkazishgan ekan, singillarim Sultonning qochib ketganini, to‘satdan mening yo‘qolib qolganimni allaqachon eshitishgan ekan. Eng yomoni, bizning detdomdan kelgan qizlardan faqat Dilbar, Zulayho,

Robiya uchovlari qolishibdi. Bir xillarini yaxshi odamlar o'ziga qiz qilib olibdi, bir qiz bilan Hakimani qarindoshlari olib ketishibdi.

– Akajon, biz ham ketaylik – hiqillab yolvordi Zulayho, – axir To'xta xolam, Parpi buvamlar bor-ku, jon aka, yo'q demang!

– Dilbar qani? – to'satdan so'radi Sheramat.

– Uxlab yotuvdi, – ko'z yoshlarini artib dedi singlim.

– Bor, uyg'otib chiq, ketamiz! – buyruq berdi Ko'rsheramat. Dilbarni ham olib qorovul amakining ruxsati bilan «shahar aylanib keladigan bo'ldik». Qorovul, qaytayotganlaringda menga bir so'mlik nos olib kelinglar deb pul uzatgan edi, Sheramat, pul o'zimizda ham topiladi deya pulni olmadi.

O'g'il bolalarning detdomida andak bo'lmasa ishning pachavasi chiqayozdi. Yoshini aniqlab bo'lmaydigan direktor, o'z odatiga ko'ra gazetadan urush axborotlarini o'qib, devordagi xaritadan urush bo'lib o'tgan shahar-u qishloqlarni belgilab o'tirgan ekan. To mashg'uloti tamom bo'lmaguncha bizga qayrilib qaramadi ham, nega kelding deb so'ramadi ham.

Nihoyat ko'zoynagini qo'liga olib:

– Olti oyga qolmay hammasi ozod bo'ladi, – deb qo'ydi, – xo'sh, yigitlar, eshitaman?

– Ukalarimni ko'rgani keluvdik – dedim xuddi orqamdan birov quvlab kelayotgandek shoshilib.

– Ukangni oti nima?

– Usmon, Omon Mirzayevlar.

– E, qo'qonlik qo'qonliklar... qani o'tiringlar-chi.

– Yo'q, tikka turaveramiz.

– O'tir deya pman, – direktor shunday bir ohangda buyurdiki, Sheramat ikkimiz beixtiyor o'tirib qoldik.

– Qorin qalay?

– To'qmiz, – dedik bir ovozdan.

– Yolg'on, ko'zlaringdan bilib turibman, – direktor tashqariga chiqib ketib, xiyol o'tmay katta patnisdan

to'rtta pirashka bilan guruch o'lchaydigan piyolalarni limmo-lim qilib sut olib kelib oldimizga qo'ydi, – qani, mana bo'larni bir tushirib olinglar-chi... Ha, barakalla! Mana bu boshqa gap... Sheriging ham qo'qonlikmi?

– Ha.

– Hozir qayerdasizlar?

– Temir yo'l maktabidamiz.

– Kiyimlaring detkoloniyani-ku?

– Kecha almashtirib oluvdik – deb andak bo'lmasa qo'limdagi sutni to'kib yuborayozdim, Shermatning ham rangi bo'zdek oqarib ketdi.

Xullas, har kuni o'n-o'n ikkita bola kelaverganidan mana shu detdom torlik qilib qopti. Direktor bolalarning bir qismini yaxshi-yaxshi odamlarni tanlab o'shalarga o'g'il qilib beribdi. Usmon bilan Omonni bir muallima olib ketibdi. Otam urushdan qaytguncha ularni bezovta qilishga mening haqqim yo'q ekan. Agar juda sog'ingan bo'lsam, borib ko'rib kelishim mumkin ekan. Ammo ularni yo'ldan uradigan bo'lsam, direktor mening ikki qulog'imni shartta kesib olarkan.

Xayriyat, ukajonlarim borgan joy ko'pam uzoq emas ekan, bir soatga qolar-qolmas muallima Xursanoy Qodirovaning uyini topib bordik. Ko'cha eshikdan shundoq kirishim bilan Omonga ko'zim tushib qoldi. Molning oxuriga o'xshagan uzun tog'orada cho'milayotgan ekan, yuz-u boshlariga oppoq ko'pik surtib olganidan yonidan o'tganimizni sezmay qoldi u. Usmon bo'lsa ayvondagi yog'och so'rida ko'ksini yerga berib suratli kitobni tomosha qilib o'tiribdi. Sekingina «Usmon» deyishimni bilaman, ukaginam nazarimda so'ridan otilib ketgandek bo'ldi. Sheriklarimni ham ko'rib, qaysi birimizning bag'rimizga otilishini bilmay, bir nafas dovdirab qoldi u. Xuddi shu paytda Omon ham tog'oradan yalang'ochligicha chiqib:

– Akajon! – deya baqirib yubordi. Hol-ahvol so'rashib o'tirishning mavridi emas edi, shuning uchun bu yer

yaxshimi, yoki qishloqqa ketamizmi deb so'rovdim, ketamiz deb irg'ishlab qolishdi ukalarim. Muallimaga «qilgan yaxshiliklaringiz uchun rahmat! Otam urushdan kelsa hammasini qaytaramiz. Mendan xafa bo'lmang, ukalarimni olib ketdim» degan mazmunda xat qoldirib, tramvay bekatiga qarab yugurdik...

Qo'qonga bilet olish qiyin ekan, bir haftalab, o'n kunlab navbat kutayotganlar ko'p ekan.

Osilib ketishdan boshqa ilojimiz qolmagan edi. Ko'rshermat, buning hech xafa bo'ladigan joyi yo'q. Urush boshlanishi bilan jamiki poyezdlarning zinasu-yu yo'lakhasi yetim bolalarning ixtiyoriga berilgan deb ko'nglimizni ko'tardi. Qo'qon poyezdining zinasiga o'tqazib:

– Besh bolali, sen yana qaytib kelasanmi? – deb so'radi mendan.

– Bilmasam, – deb qo'ydim.

– Lekin xat yozish esingdan chiqmasin, Dilbar, sen ham yozgin!

Poyezd bir-ikki qichqirib asta-sekin qo'zg'ala boshladi. Ko'rshermat biz bilan yonma-yon, yerda yugurib boryapti:

– Hech kimdan qo'rqmanglar! Revizor kelsa, dadamiz urushda denglar, onamizni traktor bosib o'lgan denglar, – deb o'rgatib ham boryapti.

– Xo'p, shunday deymiz, – deymiz biz ham chuvil-lashib.

– Hammanglar tengdan yig'langlar!

– Yaxshi.

– Ma, kostyumimni ol, ukangning boshiga o'rab ketasan, bo'lmasa shamollab qoladi.

– Rahmat.

– Mariya Pavlovnaga salom aytinglar, – yugurib kelayotgan Sheramat yana allanarsalar deb qichqirdi. Uzoqlashib ketgan edik yaxshi eshitolmadim.

Shermat qo'llarini silkitgancha uzoqlarda qolib ketdi.

MILITSIONER AMAKINING O‘TTIZ SO‘M PULI

Bir stantsiya yurgan edik poyezd to‘xtashi bilan hamma yoqni bilagiga lenta taqqan, qizil shapka kiygan yigitlar o‘rab oldi. Tomdagi, zinadagi, yo‘laklar-u vagon ichidagi biletsiz bolalarning tirsagidan, bo‘ynidan siqib ushlab chumchuq bolani chirqillatgandek chirqillatib pastga olib tusha boshlashdi. Qayoqdan kelyapsan, qayoqqa ketyapsan deyish yo‘q.

– Bilet ko‘rsat!

– Biletim yo‘q.

– Qani, oldimga tush! – tamom-vassalom.

Bizga o‘xshagan biletsiz sayohatga chiqqanlardan o‘ttiztachasini poyezddan olib qolib, tramvayning vagoniga o‘xshash cho‘ziq xonaga qamab qo‘yishdi. Qo‘lga tushganlarning ko‘plari bezori, cho‘ntakkesar bolalar ekan. Ular baqirishib, derazalarni do‘mbira qilib urishib, chiyillatib hushtaklar chalib naq bo‘lmasa ukalarimning yuragini chiqarib yuborayozishdi.

Nihoyat so‘roq berish navbati bizga ham yetib keldi, bilagiga lenta taqqan devqomat ikki yigit bizni militsioner amakining huzuriga olib kirdi. Militsioner amaki yoshgina yigit ekan, it yoqa ko‘ylagining yiltiroq tugmalarini yechib, negadir mushtlashmoqchidek yenglarini ham tirsagigacha shimarib o‘tirgan ekan.

– Xo‘sh, grajdanchalar, – deb ukalarimga bir boshdan razm sola boshladi, – sen hoynahoy akasi bo‘lsang kerak-a? Oting nima?

– Orifjon.

– Familiyangchi?

– Mirzayev.

– Qayerga ketayotuvdilaring?

– O‘zi shu yerga kelayotgan edik.

– Qovunchigami?

– Ha.

– Shaharga nimaga boruvdilaring?

Militsioner amakining ko'zini lo'q qilib bizga qarab turishi achchig'imni chiqarib yubordi, shuning uchun ham:

– Onamizni ko'rsatgani olib borishuvdi, – deb qo'ydim o'zimni tutolmay.

– To'xta, to'xta, – shunday deb militsioner amaki menga battarroq tikilib qoldi, – sen tag'in Mirza akamning o'g'li bo'lmagin.

– O'shaman-da.

– Ana xolos! Meni tanimadingmi?

– Tanimayroq turibman.

– Urushdan oldin uylaringga borib turardim-ku.

– Biznikiga mingtasi kelardi...

– To'g'ri, sizlarning uylaring katta dargoh edi...

– Qalay, oyilaring tuzukmikan?

Bu amaki bizni yo kimgadir adashtiryapti, yo ataylab shunday qilyapti, nima bo'lganda ham mujmalroq javob beraverganim ma'qul, deb o'yladim-u:

– Tuzuk deyishyapti, – dedim jo'rttaga yig'lamsirab.

– Yaqin o'rtada oyoqqa turib ketarmikan?

– Qiyomatgacha tek yotadi deyishyapti...

– Xafa bo'lma. – Militsioner amaki ko'nglimni ko'tardi, – palaj kasali o'zi shunaqa uzoqqa cho'ziladigan kasal bo'ladi, tuzalib ketadi... Olim bu bolalarni tanidingmi?

– Yo'q, – boshini chayqab qo'ydi bizni olib kirgan yigit.

– Bular Mirzakamning o'g'il-qizlari bo'ladi. Urushdan oldin ispolkomga rais edilar-ku, eslading-mi?.. Ajoyib kishi edi, qo'llarida uch oy kotiba bo'lib ishlaganman... Hozir o'zlari frontda. Bularni temir yo'ldan o'tkazib qo'y, Orifjon, yo'lkiraga puling bormi? Yo'q bo'lsa, ma ol, o'ttiz so'm yetadimi?

– Yetadi! – sevinganimdan andek bo'lmasa qichqirib yuborayozdim.

Shunday qilib, bizni ispolkom raisining o'g'il-qizlari bo'lganimiz uchun juda avaylab temir yo'ning narigi

tomoniga o'tkazib qo'yishdi. Bilagiga qizil lenta taqqan yigit qaytib ketgach, ukalarim bilan rosa kulishdik ko'zlarimizdan tirqirab yosh chiqib, qorinlarimiz og'rib qolguncha kulishdik. O'ziam opam o'lgandan buyon bunaqangi miriqib kulmagan edik. Ukalarim hali qo'rqanlaridan rangi-qutlari o'chib, sovuq urgan pomidorday gezarishib, bexosdan uyga qamalib qolgan qushchalardek bir-birining pinjiga kirishib o'tirgan edi, hozir esa juda yayrab ketishdi. Nazarimda har birining yuzida bittadan qizil gul ochilgandek ko'zlarida butun dunyoning shodligi jamlangandek bo'ldi.

Lekin bu, quvonch-u qiyqirib kulishlar uzoqqa cho'zilmadi, xuddi chaqmoq chaqinidek bir lahzada yo'q bo'lib ketdi... Endi qayoqqa boramiz, degan tashvish chulg'ab oldi boshimizni, vahima ichida bir-birimizga tikilib jim bo'lib qoldik.

Nima qildik qayoqqa bordik endi? Yoki shu atrofda choyxona bo'lsa o'sha yerda tunab, ertaga poyezdga yana bir harakat qilib ko'rish kerakmi? Yo'q, choyxonani ham bilagiga lenta boylaganlar kov-kov qilib yurishgandir, poyezdga ham chiqib bo'lmaydi, darrov ushlab yana birimizni detkolonkyaga, birimizni detdomga olib borib qo'yishadi, ukalarimni zo'rg'a topib olganimda yana ajralib ketsag-a.

- Zulayho, nima qildik endi?
- Bilmadim.
- Qora qiz, sen nima deysan?
- Bu yerdan tezroq ketish kerak.
- Usmon, sening fikring qalay?
- Piyoda ketaveramiz.
- Qo'qongacha-ya, esingni yeb qo'yibsan.
- Nima qipti, Robiyani men ko'tarib olaman.

Atrofga qorong'i tushib, yo'lovchilar ham siyraklashib qoldi. Arava-yu, ho'kiz qo'shilgan pirgonlar ham o'tmay qo'ydi.. Oxiri tavakkal qilib choyxonaga borishga qaror qildik.

Choyxona haligi melisaxonaning orqasida ekan. Torgina uyga yuzlab odamlar tiqilib olibdi, armiyadan qaytib kelayotgan askarlar ham bor, kattakon qoppga suyanib bemalol xurрак tortayotgan qaysi, nasha chekib uhu-uhu deb yo'talayotgani qaysi, bilib bo'lmaydi. Bitta ayol ona tovuq jo'jalarini yoniga olgandak ozg'in-ozg'in to'rtta bolasini yoniga olib stakanda choy ichiryapti, burchakda uchta qora soqolli odam urush to'g'risida gaplashishyapti...

Shundoqqina eshikning yonida joy bo'shab qoldi, ukalarimni o'tqazib militsioner amaki bergan pulga uchta non, bir hovuch pechak qand, choy olib keldim. Cho'loq choyxonachi biz tomonga tez-tez yashirincha ko'z tashlab qo'yyapti. Bir gal ko'ziga ko'zim tushib qoldi: bizni ushlab berish niyati yo'qqa o'xshaydi, ko'zlarida mehr, achinish borligi shundoqqina sezilib turibdi.

– Amaki, kechasi shu yerda yotib qolsak maylimi? – dedim yoniga borib, pulimiz bor, haqqini to'laymiz.

– Qayerliksizlar? – menga emas ukalarimga qarab so'radi choyxonachi.

– Qo'qonlikmiz.

– Poyezddan olib qolishdimi?

– Ha.

– Poyezdda sanqib yurgan bolalarni yoppasiga ushlab haqida hukumatning qarori chiqqan, bu yerni ham tez-tez tekshirib turishibdi.

– Bir kechaga mayli deng, jon amaki!

– Hu narida militsiyaning idorasi bor, ruxsat olib chiqsang, taglaringga atlas ko'rpacha solib beraman... Bor endi, menga xalaqit beryapsan.

Ukalarimning yoniga yig'lavoray-yig'lavoray deb qaytdim. Robiya og'zida noni bilan Zulayhoning tizzasida uxlab qopti. Omon non chaynayapti-yu, ko'zi uyquda, munkib-munkib ketyapti. Choyxonachi jo'mragiga tunuka qadalgan uchta bo'sh choynakni ko'tarib

tepamizga keldi. Xuddi mol tanlab olayotgan xaridordek hammamizga bir boshdan nazar solib chiqdi, oxiri boshini chayqab qo'ydi:

– Qani, mening orqamdan yuringlar-chi.

– Qayoqqa? – qo'rqanimdan sapchib o'rnimdan turib ketdim.

– Joy beraman. Lekin saharda jo'nab qolasizlar, – choyxonachi negadir Usmonning burnini bir siqib qo'ydi, – qani orqamdan yuringlar.

Choyxonaning zah qorong'i, sichqonlarning hidi kelib turgan omborxonasida oyog'i singan bir so'ri bor ekan, o'shaning ustiga eski-tuski to'shaklarni to'shab joy qilib berdi, bir sholchani dumalatib boshimizga yostiq qilib oldik. Choyxonachi chiroqni puflab chiqib ketgach, kun bo'yi it quvgan soqovdek yuguraverib charchagan ekanmiz, gapirishga ham holimiz kelmay qotib uxlab qoldik.

Bir mahal birov oyog'imdan tortib uyg'ota boshladi, ko'zimni ochsam tepamda choyxonachi turibdi:

– Qani endi juftakni rostlab qolinglar-chi.

Hammamiz o'rnimizdan turgach, choyxonachi oqshomgi qizil o'ttiz so'mlikni o'zimizga qaytarib berib: «biror joyda nonushta qilib olarsizlar, lekin, stantsiyadan poyezdga chiqaman deb ovora bo'lmanglar, qo'lga tushasizlar, kechadan buyon uch mashina bola ushlab olishdi» deb yuragimizga vahima solib qo'ydi.

Nariroqqa borib yana maslahat qurdik. Pulimiz bitta biletga arang yetadi, qolganlarimiz nima qilamiz? Yo Toshkentga qaytganimiz ma'qulmi, unda yana har tomonga tarqab ketamiz-ku? Ehtimol, otam urushdan qaytib bizni axtarib yurgandir. To'xta xolam bilan Parpi buvam ham yig'lashib kutib o'tirishgandir.

– Temir yo'l bo'ylab piyoda ketaveramiz, – qattiq turib oldi Zulayho.

– Ovqat-chi, yo'lda nima yeymiz?

– Tilanchilik qilsak ham yetib olamiz, – dedi Dilbar.

- Charchadik deb yig'lamaysizlarmi?
- Yo'q! - baravariga qichqirishdi ukalarim.
- Dalalarda uxlashga to'g'ri keladi.
- Chidaymiz!
- Bo'rilariga, quturgan itlar galasiga uchrab qolsak-chi?
- Qo'rqmaymiz!

Bozorga tushib Islom bilan Ko'rshermat hadya qilgan pulga pichoq, eski kastryulka, to'rt quti gugurt, tuz bilan ozgina non xarid qilib oldig-u, qayerdasan Qo'qonjon deb, olti yetimcha yo'lga ravona bo'ldik.

«NARIGI DUNYOGA BORSANGIZ...»

Temir yo'l yoqalab kunbotar tomon ketyapmiz, goh poyoni yo'qdek tuyulgan tekis yo'ldan ketamiz, goh yo'limiz qamishzorlar orasidan o'tib qoladi. O't-o'lanlar qurib sarg'ayib yotibdi. Nazarimda butun borliq sariq nur ichida chayqalayotgandek quyosh ham ho' osmon-u falakda to'p-to'p uchib, loqayd sayr qilib yurgan qushlar-u qamishlarning popuklarigacha sarg'ish ko'rinadi. Ukalarimning rangi ham allanechuk sarg'ayib ketgandek.

Qancha yo'l bosdik bilmaymiz, oldinda yana qancha yo'l bor, buniyam bilmaymiz. Qovoqlar osilgan, yuraklar g'ash, qorinlar och, oyoqlar charchagan, xuddi kimnidir qabristonga kuzatib borayotgandek bitta-bitta qadam tashlab ketyapmiz.

O'tgan kuni yo'l bo'yidagi bir qishloqchaga kirib Shermatning kostyumi bilan o'zinning qo'nji uzun botinkamni yolvora-yolvora to'rtta non-u, bir lagan chala qurigan mayizga almashtirib chiqqanman.

Ertalab non ham, mayiz ham tamom bo'ldi, kastryulkadagi qaynatilgan suvdan boshqa hech narsamiz qolmagan.

Robiya yelkamda, kastyumimning etagini qaytarib ichiga solib olganman uni, uxlab qolganga o'xshaydi,

tancha chekkasida yotgan mushuk boladek bir me'yorda pishillab boryapti. Omon yonma-yon ketyapti. Qiziq, yo'lga tushganimizdan buyon u mendan nari ketmay qo'ydi, kechalari ham yonimda, bo'ynimdan mahkam quchoqlab yotadi.

Zulayho bilan Dilbar ko'ch-ko'lonimizni tayoqqa osib, tayoqning ikki uchini yelkalariga ilishib oldinda jadal ketishyapti, o'zlaricha nimalarnidir gaplashib «qurib ketsin» deb qo'yishyapti. Ular shunaqangi ahil, bir-biriga shunaqangi mehribon bo'lib ketishganki, asti qo'yaverasiz. Usmon daladan qaytayotgan cho'pon bolaga o'xshab tayog'ini sudrab hammadan ortda qolib ketgan.

– Aka, – deb shimimdan torta boshladi Omon, – non deyapman.

– Non yo'q, dedim-ku.

– Bo'lmasa mayiz berasiz.

– Mayiz ham tamom bo'lgan.

– O'zlaring yeb, menga bermas ekansizlarda, a? Kechasi meni uxlatib yedilaring-ku? Bunday boshimni ko'tarsam Usmon yeyayotgan ekan, uningizni yaxshi ko'rasiz, a?.. Bermasangiz yurmayman.

– Qaynagan suv bor, ichasanmi?

– Ichmayman, ichim quldirab ketyapti o'zi.

Omon o'zini yerga tappa tashlab biron narsa bermasangiz hecham yurmayman, ko'tarsangiz bo'yingizni tishlab olaman, deb o'tirib oldi. Bunaqangi paytda ukaginamni yo non, yo ertak bilan aldash mumkin. Ko'rib turganingizdek non yo'q, aksiga yurib ertakning ham yangisi tamom bo'lgan, eskisiga ko'ndirib bo'lmaydi uni. Usmon o'rningdan tur, tayoqlarimizni ot qilib minib kim o'zarga chopishamiz degan edi, sen kechasi mayizimni yeb qo'yding deb, battarroq yig'lashga tushdi.

– O'rningdan tursang, yangi ertagim bor, aytib beraman, – deb ko'ndira boshladi Dilbar.

– Aldaysiz, – hiqillab dedi Omon. – Qasam iching-chi bo‘lmasa.

– Har narsa bo‘lay, – qasam ichdi Dilbar. Robiyani Zulayhoga berib, Omonni yelkamga chiqarib oldim. Yo‘lga tushdik Dilbar ertak boshladi:

– Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir xasis boy bo‘lgan ekan.

– Meli boqqolga o‘xshabmi? – so‘radi Omon.

– Ha, Meli boqqolga o‘xshash... O‘sha boyning uyida bir qari ho‘kiz bo‘lgan ekan...

– Ho‘kiz uyda emas, og‘ilxonada bo‘ladi, – yana gapga aralashdi Omon.

– Gap qo‘shmay tur-da, o‘sha ho‘kiz juda qarib, o‘rnidan turolmaydigan bo‘lib qolibdi. Xasis boy bir kuni uni ko‘chaga olib chiqib, qo‘shga yaramasang, so‘yay desam go‘shting bo‘lmasa, sen tekinxo‘rni bekorga boqib yuramanmi deb, tayoq bilan urib haydab yuboribdi. Xo‘kizvoy endi qayoqqa bordim, ovqatni qayerdan topib yedim, deb xafa bo‘lib ketayotgan ekan, yo‘l chekkasida yig‘lab turgan bir qari otni ko‘rib qolibdi. Ha, Otvoy, nega yig‘layapsan, deb so‘rabdi Xo‘kizvoy. E Xo‘kizvoy, ahvolim og‘ir, debdi Otvoy, xasis boy meni rosa o‘ttiz yil ishlatdi, oxiri qarib kuchdan qolganimda arava tortolmasang, uloq chopolmasang, so‘yay desam go‘shnga yaramasang, seni boqib nima qilaman, ovqatingni o‘zing topib ye deb, kaltaklab ko‘chaga xaydadi. Xafa bo‘lma, debdi Xo‘kizvoy, yur, daryo bo‘yiga ketamiz, o‘sha yoqlarda mazza qilib yashayveramiz.

Ikkovlari yo‘lga tushishibdi. Ketishayotsa, ko‘chaning qoq o‘rtasida bir Eshak ag‘anab yotgan emish. Tur deyishsa, turolmayman dermish Eshakvoy. Nega bu ahvolga tushib qolding deyishsa, Eshakvoy yig‘lab, xasis boyning uyida rosa o‘ttiz yil tinim bilmay ishladim, oxiri qarib qoluvdim, boy bozor-o‘charga yaramasang, tegirmonga yuk ko‘tarib borolmasang, so‘yay desam go‘shting harom bo‘lsa, deb urib-urib ko‘chaga haydadi, debdi.

Xafa bo'lma, debdi Xo'kizvoy, yur biz bilan, daryo bo'yiga boramiz, o'sha yerda bir amallab kunimizni ko'ramiz.

Oldida Xo'kizvoy, ketidan Otvoy, uning ketidan Eshakvoy yo'lga tushishibdi. Bir joyga borishsa, ariqning ichida bir it «ving-ving» deb yotgan emish. Xo'kizvoy ha, nega yig'layapsan, desa, Itvoy, xasis boynikida umrim boricha xizmat qildim, oxiri qarib qolganimda, o'g'rilarni quvib yuborolmasang, bo'rilardan qo'rqsang, sen tekinxo'rni boshinga uramanmi deb, tayoq bilan urib ko'chaga haydadi, debdi. Xafa bo'lma, debdi Xo'kizvoy, yaxshisi, biz bilan yur, daryo bo'yiga boramiz, o'sha yoqlarda bir amallab kunimizni ko'ramiz.

Oldinda Xo'kizvoy, ketidan Otvoy, uning ketidan Eshakvoy, uning ketidan Itvoy yo'lga ravona bo'lishibdi. Bir joyga kelishsa ajriqning ustida yunglari to'kilgan bir qari Mushuk o'zini oftobga toblab yotgan emip, hadeb miyov-miyov deb yig'lab dumini silkitarmish. Ha. Mushukvoy, nega yig'layapsan, deb so'rabdi Xo'kizvoy. Qornimga emas, qadringa yig'layapman, debdi Mushukvoy, xasis boyning omborida rosa o'ttiz yil poyloqchilik qildim, oxiri qarib qoluvdim boy sichqon tutolmasang, kalamushdan qo'rqsang, bekorga ovqatni yeb yotaverasanmi, deb ko'chaga haydab yubordi. Xafa bo'lma, debdi Ho'kizvoy, yaxshisi biz bilan yur, daryo bo'yiga ketyapmiz, o'sha yerlarda bir amallab kunimizni ko'ramiz.

Oldinda Xo'kizvoy, ketidan Otvoy, uning ketidan Eshakvoy, uning ketidan Itvoy, uning ketidan Mushukvoy yana yo'lga tushishibdi. Yo'l yurpshibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Yetti kecha-yu yetti kunduz deganda atrofi paxsa devor bilan o'ralgan kattakon bir qo'rg'onga yetib kelishibdi, qo'rg'onning ichkarisida issiqqina bir uy ham bor ekan. Shu uyga kirib, endigina yotib dam olamiz deb turishgan ekan, sherning vahimali o'kirgani, bo'rining uvillagani,

tulkining chaqaloqdek ingalab yig‘lagani eshitilib qolibdi. Qo‘rqanlaridan hammalari dag‘-dag‘ qaltirashayotgan ekan, Xo‘kizvoy shoshmasdan o‘rnidan turib, qo‘rqmanglar, Bitta sher bilan olishishga kuchim yetadi hali deb o‘tkir shoxini eshikka to‘g‘rilab shay bo‘lib turibdi. Sher ostonada paydo bo‘lishi bilan qorniga shunaqangi qattiq suzibdiki, bechora sherning qorni qizdirilgan childirmadek tarsillab yorilib ketibdi. Otvoy ikki oyoqlab bo‘rining og‘ziga tepibdi, Eshakvoy bor kuchini to‘plab, tulkining dumidan tishlabdi-da, aylantirib-aylantirib derazadan tashqariga otibdi. Itvoy vovillab yuboribdi, Mushukvoy miyovlashga tushibdi. Bu shovqin-suronni eshitgan tashqaridagi yirtqich hayvonlar qo‘rqanlaridan har tomonga tiraqaylab gochib qolishibdi.

Xasis boynikidan quvilgan hayvonlar ertalab yana yo‘lga tushishibdi. Yetti kecha-yu yetti kunduz yo‘l bosib daryo bo‘yiga eson-omon yetib olishibdi. Borishsa, ariqlarda sharaqlab suvlar oqib yotganmish, yaylovlarda gurkirab o‘tlar o‘sib yotganmish, ovlasa bo‘ladigan qushlar, sichqon-u kalamushlar galalashib yurganmish. Xo‘kizvo-yu Otvoy, Eshakvo-yu Itvoy, Mushukvoylar ana shu yerda mazza qilib yashashib, davr-u davron surishibdi... Qorinlari ham to‘q ekanmi? – so‘radi ertakning oxirida Omon.

– Ha, qorinlari ham to‘q ekan, – deb qo‘ydi Dilbar.

– Mening qornim bo‘lsa ochqab ketyapti, – deb Omon yelkamda turganacha g‘ingshiy boshladi yana. G‘ingshishiga-ku chidab ketaverar edim-a, ammo ikki qulog‘imdan baravar cho‘za boshlagan edi, yurolmay qoldim. Jindek sabr qilsa-ku, hu ro‘parada qishloqcha ko‘rinib qoldi, borib, yegulik biror narsaning ilojini qilib kelardim-a, qayoqda, yelkamdan tushirib yupatmoqchi bo‘luvdim, yerga orqasi bilan yotib olib, xuddi to‘nkarilgan qo‘ng‘izdek qo‘l-oyoqlarini baravar silkita boshladi:

– Opajon, qornim och... – deb hammamizning ko‘nglimizni ham buzib yubordi.

Yo‘q, endi uni yupatib bo‘lmaydi. Usmon ukamni yonimga olib ro‘paradagi qishloqqa kirib chiqishga qaror qildim.

Qishloqchada bor-yo‘g‘i bitta ko‘cha-yu o‘ttiztacha uy bor ekan, xolos. Uylari ham ko‘rimsiz, pakana, xuddi hazillashib qurilganga o‘xshaydi. Ko‘cha eshiklari oldiga poxolmi, o‘tinmi, duch kelgan narsalarni uyum-uyum qilib taxlab ham qo‘yishibdi. Ko‘cha boshidagi eshigi qiyshayib ketgan bir uy oldiga kelib, to‘xtab qoldik. Bugun birinchi marta tilamchilikka chiqishimiz, nima deb tilanish kerak... yo eshikni taqillatib, ozgina non so‘rab qo‘yaqolsammikin, bermasa-chi? Ko‘nglini yumshatadigan biron narsa o‘qish kerak boshqa tilanchilar ham, odatda shunaqa qilishardi... Lekin nimani o‘qiyman, nimani? Hech narsa bilmayman-ku!

Menam devona-yu Mashrab, Jahon birlan ishim bormi, shumi?! Shuyam she‘r bo‘pti-yu! Bunga hech kimning qalbi erimaydi-ku!!

Ramazon aytib keldim eshigingizga,

Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga desam-chi? Demayman, hecham demayman! Qurib ketsin shu tilanchilik. Mayli, ochimizdan o‘lsak o‘la qolay-lik!.. Nazarimda atrofimni bolalar o‘rab, tillarini chiqarib «tilanchi, tilanchi!» deb mazax qilayotgandek bo‘lib tuyuldi... Xo‘rligim kelib ko‘zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi... Yo‘q, yo‘q! Kerakmas, kerakmas!.. Yugurib ketdim, qayoqqa, bilmayman...

Qishloqchadan chiqib, ajriq ustiga o‘zimni otdim, yumshoqqina o‘t ustida dumalab, boshlarimni urib uzoq yig‘ladim. Nega, bilmayman! Ehtimol, qishloqqa qaytib ota-onamning chirog‘ini yoqaman deb, bechora ukalarimni qiynab qo‘yganim uchundir, ehtimol, ukalarim har yoqqa tarqab ketishmasin deb qo‘rqib, o‘zboshimchalik qilib, ularni mehribon odamlarning

muruvvatidan mahrum qilib, yarim och, yarimi yalang'och tentiratib yurganim uchundir...

Bir mahal ko'ksimdagi og'ir narsa erib ketgandek yengillashib qoldim. Chalqancha yotib ko'kimtir osmonga, uvadadek parcha-parcha bo'lib titilib ketgan oppoq bulutlarga tikilib jim qoldim... Osmon nega bunaqangi keng, bunaqangi tubsiz ekan-a?.. Odam o'lganda joni osmon-u falakka uchib ketadi deyishadi. Rostmikan? Ehtimol, opamning ham joni shu poyoni yo'q bo'shliqda muallaq yurgandir... Hu ana, qushlarga o'xshab allanarsalar salanglab uchib yurishibdi, ehtimol, narigi dunyoga ketayotgan arvohlarning sharpasidir ular...

Yana ich-ichimdan xo'rsinish keldi, miyamda allaqanday fikrlar aylanib, yuragim shirin to'lqinlana boshladi, pichirlab she'r o'qiy boshladim:

*Narigi dunyoga borsangiz,
Opajonimni ko'rsangiz,
Orifjondan salom deng.
Rasm chizgan o'g'lingiz,
Xuddi sizning o'zingiz,
Usmonjondan salom deng.
Qoshi qaro qaldirg'och,
Tuz totmagan qorni och,
Omonjondan salom deng.
Tili shirin jajji qiz,
Ham ota-yu onasiz Robiyadan salom deng.
Husni ham edi ko'rkam,
Bedarak ketgan ukam,
Sultonjondan salom deng.
Sizni qumsab yig'lagan,
Erta-yu kech bo'zlagan,
Zulayhodan salom deng.*

– Aka, – deb oyog‘imdan tortqilay boshladi Usmon, – Hu anavi yerda bitta kampir bizga qarab-qarab qo‘yyapti.

O‘rnimdan turib o‘tirdim. Rost, bir kampir kaftini peshanasiga soyabon qilib bizga qarab turipti... Kim bo‘ldi ekan?.. Hali qaramagan ekanmiz, atrof poyoni yo‘q sholipoyalar ekan, bir xil paykallarning Sholisini o‘rib, taram o‘rib qo‘yishibdi, bir xillari o‘rilmagan – sarg‘ayib pishgan boshloqlar, xuddi ayb ish qilib qo‘ygandek bir xilda egilib, kimgadir ta‘zim qilib turishibdi.

Qo‘rqa-pisa kampirning oldiga bordik. To‘xta xolaga o‘xshab pakanagina, lekin o‘taketgan oriq ayol ekan. Qo‘lida sopi kalta o‘roq, belini ikkita doka ro‘mol bilan tang‘ib olibdi. Bir xirmonning o‘rnicha keladigan joyning sholisini mol yegandek tatalab arang o‘ribdi. «O‘roq tortishni bilmas ekan» degan fikr o‘tdi boshimdan.

– Xola, sholingizni o‘rib beraymi? – dedim, negadir shoshilib.

– Voy, tilginangdan o‘rgilay, kimning o‘g‘lisan? – dedi xola bir menga, bir Usmonga sinchiklab tikilarkan.

Xolaning mendan sal kattaroq yakka-yu yolg‘iz o‘g‘li bor ekan, o‘shani shu yil kuzda uylantirmoqchi bo‘lib, sholini ko‘proq ekishgan ekan, lekin sholi pishay-pishay deb turganda o‘g‘lini urushga olib ketib qolishibdi.

Sopi kalta o‘roqni qo‘limga olib jon-jahdim bilan ishga tushdim. Usmon ukalarimni olib kelgani ketdi.

«YOVVOYI SIGIR»LARNI EMMOQCHI BO‘LGANIMIZ

Bu kecha shundoqqina temir yo‘lning yonginasida, shoxlari qurib qolgan qari tutning tagida, yumshoqqina ajriq ustida tunadik. Kapa qurishga juda usta bo‘lib qolganmiz. Qo‘limizdagi tayoqlarni yerga qoqib, ustiga kampir xola sovg‘a qilgan ip adyolning yarmini tashlaymiz, yonlarini qurigan qamish yoki yantoq bilan to‘sisib, ustimizga haligi ip adyolning qolganini

to'shaymiz, ko'z yumib-ochguncha qarabsizki, ertaklardagi shohona qasrlarga o'xshash qasr paydo bo'lib, qolibdi-da!

Ba'zan, duch kelib qolsak choyxonada tunaymiz, ba'zan bitta-yarimta rahmdil xotin uyiga olib kirib ketadi, ba'zan, mana shunaqa shohona qasrlar qurishga to'g'ri kelib qoladi.

Kapadan sekin boshimni chiqarib atrofga qaradim. Toshkent tomondan qip-qizarib tong otib kelyapti, tepamizdagi tutda men nomini bilmaydigan allaqanday qush kar-kar deb sayrab qo'yyapti. Qo'qon tomondan kelayotgan passajir poyezdi ilondek cho'zilib shaka-shuqiga olib o'tib keta boshladi. Qo'qonda bolalarni ushlayotganga o'xshaydi, zinalarda, tomlarning ustida to'p-to'p bo'lib ketishyapti, tik turib ketayotgan bir bola:

– Lo'lilarga salom! – deb biz tomonga eski shapkasini otib yubordi. Bitta vagonga, negadir ot ham yuklashibdi. Otlar derazadan boshini chiqarib, kalta-kalta quloqlarini chimirib ketishyapti.

– Aka, poyezd o'tdimi! – gap qo'shib qoldi Zulayho.

– Ha, – deb qo'ydim, g'alati-g'alati o'ylarga berilib.

– Aka, siz xafa bo'lyapsizmi?

– Nega xafa bo'lar ekanman.

– Hamma yuklarni siz ko'taryapsiz... oyog'ingizni uqalab qo'yaymi.

– Oyog'im og'rigani yo'q.

– Xo'p deya qoling, uqalagim kelyapti.

– Ha mayli.

– Aka, siz ko'pam xafa bo'lavermang, qishloqqa borsak hamma ishni o'zim qilaman, hovlilarniyam supuraman, idishlarniyam yuvaman, sigirniyam o'zim sog'aman.

– Sigirimiz yo'q-ku?

– Kolxoz qarz berib turar. Dadasi armiyaga ketganlarga berarkan-ku. Keyin siz kolxozga ishga kirasiz, men ham kiraman...

– Yo‘q, sen uy ishlariga qaraysan.

– Aka, Dilbar biz bilan qolmoqchi. Yo‘q demaymiz, xo‘pmi? U sho‘rlikning bironta qarindoshi ham yo‘q, uylari ham buzilib ketgan ekan... U sizni o‘ziga aka qilib olmoqchi. Akang juda mehribon, qani endi mening ham shunaqa akajonim bo‘lsaydi, deydi. Sizlar bilan qolib kolxozga chiqib ishlayman deyapti, maylimi?

– Mayli.

– Faqat akang meni qora qiz deb chaqirmasin deyapti.

– Axir o‘zi qop-qora-ku!

– Hecham-da.

Omonning qiziq odati bor, uyqudan uyg‘onayotganida albatta bironta tansiq ovqatning nomini aytib yig‘lab uyg‘onadi. Bugun !.o‘lsa, to‘satdan Usmon ikkovlari yotgan joylarida jo‘jaxo‘rozdek olishib ketishdi.

– Ahmoq, nega meni urasan, – uyqusirab Omonni bir tushirdi Usmon.

– Nega bo‘lmasa qovunimni olib qo‘yasan? – baqirib dedi Omon.

– Qovuningni olganim yo‘q.

– Olding, hozirgina qo‘limda turuvdi.

– Tush ko‘rgandirsan.

– Hecham-da, to‘lab ber hozir.

Ikkovlarini bir amallab yarashtirib, to‘yona qasrimizni yig‘ib, nonushtaga tayyorgarlik ko‘ra boshladik. Bir hovuchdan jiyda bilan oz-ozdan qaynoq suv ichib yo‘lga tushdik.

Bir oz yurgach to‘satdan soylikda o‘tlab yurgan sigirlarga ko‘zimiz tushib qoldi, qiziq, bu kimsasiz joylarga sigirlar qayoqdan kelib qoldi ekan? Yoki uyidan qochib, yovvoyilashib ketgan mollarmikan?

– Aka, bittasi sut berarkan, – dedi Zulayho, – qarang, yelini tirsillab turibdi.

Rost, targ‘il sigir yelinini arang ko‘tarib turibdi, o‘ziyam bir chelak sut beradiganga o‘xshaydi. Ushlatarmikan, ushlatsa mazza qilib sog‘ib olgan

bo'lardik-da. Fikrimni singillarimga aytgan edim, tasodifni qarangki, ular ham xuddi shu haqda o'ylab turishgan ekan, rozi bo'lishdi.

Targ'ilga yaqinlashib, bir tutam qurigan o't uzatgan edim, dumi bilan pashshasini qo'riy-qo'riy sekin-asta men tomonga yura boshladi. Hovuchimdagi o'tni yeb, yana bormi degandek kaftimni yalab ham qo'ydi. Oldiga bir quchoq o'tni uyib, yeliniga sekin qo'l uzatgan edim, jonvor loaqal oyog'ini ham qimirlatmadi, demak yovvoyi emas, sog'sa bo'larkan!

- Qora qiz, kastyulni olib kel! - deb qichqirdim.

Opamga o'xshatib kastyulni ikki tizzam orasiga qo'yib, barmoqlarimni ho'llab, govakday-govakday keladigan yo'g'on emchaklarini tortqilay boshladim, avvaliga tizillab, ingichkagina sut kelib turdi-yu, keyin govmish iyib ketdi shekilli, sut povillab quyila boshladi. Ko'z yumib ochguncha kastyulimiz limmolim to'lib ketdi, ikkita emchagiga esa hali qo'l ham urganim yo'q, sutning yarmi turibdi. Shuncha sutni tashlab ketish... bordi-yu, emib olsak-chi... Qishloqda bolalar bilan mol boqib yurganimizda bir-birimizning sigirimizni emish o'ynardik o'shanda hammadan ko'p men emardim.

- Usmon, emchagini emasanmi? - deb so'radim ukamdan.

- Tepadi.

- Oyog'idan ushlab turaman.

- Yurib ketsa-chi?

- Tezroq kel deyaрман!

Qizlar kastyuldagi sutni ko'tarib, xuddi egasi kelib qolishidan qo'rqishgandek hovliqishib, qiyqirishib, kulishib temir yo'l tomonga, Robiya bilan Omonning yoniga qarab yugurishdi. Usmon ikkimiz emaklab govmishning ikki biqinidan ostiga kirib qaynatilgan po'stdumbadek yumshoqqina emchagini og'zimizga endigina solgan edik hamki, yo'q, men allaqachon

iliqqina sutni buzoq bolaga o'xshab lo'q-lo'q yutayotgan edim, Usmon burnini jiyyrib emchakni hidlab turgan edi:

– Hey o'g'ri! – degan begona ovoz eshilib qoldi qulog'imga. Sakrab o'rnimizdan tursak ish chatoq. Ro'paramizda men tengi, Usmon tengi keladigan to'rtta bola turibdi.

– Nega birovning sigirini emyapsizlar? – dedi peshanasi do'ngroq bir bola.

Echkiemarlar daydi sigirlarni emib ketadi deb eshitgan edim, shu gap esimga kelib:

– Biz, biz... echkiemarlarmiz, – dedim shosha-pisha.

– Bekor aytibsan, gapiryapsan-ku, – dedi peshanasi do'ng men tomonga bir odim tashlab.

– Ertalab gapirib, kechqurun soqov bo'lib qolamiz, – dedim janjal chiqishining oldini olish uchun ataylab hazilga burib.

– Nega emding! – shunday deb peshanasi do'ng ko'kragimdan itarib yubordi.

– Qornim och bo'lgandan keyin emaman-da, turtma.

– Turtaveraman, – shunday deb peshanasi do'ng chap qo'li bilan yoqamni siqib, o'ng qo'li bilan qulog'imning tagiga shunaqangi keltirib urdiki, nazarimda ko'zlarimdan lov etib o't chiqib ketgandek bo'ldi.

Yo'q, bulardan osonlikcha qutulib bo'lmaydiganga o'xshaydi, sal bo'sh kelsam, avval o'zimni, undan keyin ukalarimni majaqlab tashlashadi. Detdomdaligimda Ko'rshermat kalla solishni o'rgatgan edi, yuragini mo'ljalga olib ursang, har qanday kuchli bola ham albatta yiqilib tushadi, toychoq bolani mingandek minib olib, charchaguningcha savalayverasan degan edi. Bir siltanib peshanasi do'ngning qo'lidan chiqdim-da, uchto'rt odim chekinib, yugurib kelib burni aralash og'ziga kalla urdim.

– Ih – dedi-yu peshanasi do'ng yerga o'tirib qoldi. O'girilib qolganlariga kalla urmoqchi bo'luvdim, yo'q, bo'lmadi: biri bo'ynimga, biri oyog'imga, uchinchisi

belimga yopishib yerga bosa boshlashdi. Usmon dodlab bittasiga tashlangan edi, bechora ukaginamning qorniga shunaqangi tepdiki, orqasi bilan yerga yiqilib tushdi. Bu orada peshanasi do'ng ham o'zini o'nglab yetib keldi-yu, ko'plashib meni yerga bosib olishdi. Peshanasi do'ng qorninga minib:

– Ahvoling qalay endi? – deb yuzimga bir tarsaki tushirdi. Bunday qaragam, ikkitasi Usmonni ham minib olibdi. Yo'q, yo'q! – deb baqirdim-u, bilmadim bu kuch qayoqdan paydo bo'ldi ekan, ustimdagi bolani itqib o'rnimdan turib ketdim.

Dilbar bilan Zulayho ham halloslab kelib qolishdi, bittaga bitta bo'lib oldik Zulayhoni men qobil-mo'min, o'larday nimjon deb ehtiyot qilib yurar edim, yo'q, yanglishgan ekanman, singilginam balo ekan. O'zi tengi bir bolaning yuziga chang solib qulog'idan cho'zg'ilab, burgut quyon bolani bo'g'gandek bo'g'ib yerga yotqizib qo'ydi. Qora qiz bo'lsa chinakam o'g'il bolaning o'zi ekan. O'ziga o'xshagan bitta qora bola bilan qulochkashlab mushtlashyapti, shartta qulog'ining tagiga tarsillatib tushiradi deng! Xayriyat, Usmon ham o'zini o'nglab olibdi, malla sochli bolani oldiga solib chinqiratib quvib yuribdi.

Yana bir kalla solib, peshanasi do'ngni yerga yiqitib, meni qanday mingan bo'lsa, ana o'shanday qilib oldim-u:

– Xo'sh, o'zlarining ahvollari qalay? – deb so'radim.

– Hozir majaqlab tashlayman seni, – dedi peshanasi do'ng chuqur-chuqur nafas olib. Keyin bir chirandi-yu meni ustidan otib yubordi. Xuddi kurash tushayotgandek bir-birimizning belimizni ushlab oldik. Qornim ochligi bilinib qoldi, oyoqlarim dir-dir qaltirab butun vujudimdan ter quyilib kelyapti... peshanasi do'ngning beli bo'lsa, yog'ochdan yasalganmi deyman, hech bukolmayapman. O'ziyam har kuni sergo'sht palov yesa kerak hirsdan ham kuchli ekan, qo'llari belimni changakdek qisib kelyapti... Lekin yiqilmasligim kerak.. yiqilmayman, yiqitib bo'psan!

– Qo‘yvor akamni! – deb qayoqdandir paydo bo‘lib qolgan Omon, yuk ko‘tarib yuradigan yo‘g‘on tayog‘imiz bor edi, ana o‘sha bilan peshanasi do‘ngning miyasiga tushirdi.

Peshanasi do‘ng o‘girilib orqasiga qarayman deb, chayqalib yuzi bilan yerga yiqildi.

Boshliqlarining yuz tuban yiqilganini ko‘rib qolganlari ham jang maydonini tashlab tum-taraqay qochib qolishdi.

– Tezroq ketaylik – entikib dedi Zulayho, – hozir qishloqdan dadalarini boshlab kelishib qolishi mumkin.

Temir yo‘l ustidan jadal yurib ketdik. Haligi men emgan sigir «xayr bolalarim» degandek dumini silkitganча orqamizdan ma‘yus tikilib qoldi.

OMONGA BERILGAN KATTA MUKOFOT

Kattakon bir qishloq ichidan o‘tib boryapmiz. Yetimning qorni besh bo‘lur, biri hamisha bo‘sh bo‘lur, deganlaridek qornimiz bo‘sh, ichidan chuldiragan, g‘uldiragan yoqimli, yoqimsiz ovozlar ham eshitilib boryapti.

Kutilmaganda qulog‘imga surnay bilan dumbiraning omuxta ovozi, childirmaning yoqimli baka-bumi eshitilib qoldi. Yaqin o‘rtada to‘y bo‘layotganga o‘xshaydi... Qishlog‘imizda bitta-yarimta to‘y bo‘ladigan bo‘lsa ukalarimdan birortasini orqamga ko‘tarib borardim, sho‘rva ichib, palov yeb kelardik. Bakovullar bolalardan sen qayerliksan deb surishtirib o‘tirmasdan, hammasini qator o‘tqizib dasta-dasta nonlar ulashardi... Ehtimol, bu yerda ham odat shunaqadir, ikkitadan non olganimizda ham, o‘n ikkita olgan bo‘lamiz... Shu yo‘sin o‘y surib ketayotgan edik chap tomondagi eshikdan Usmon tengi bir bola kattakon qora echkini minib chiqib qoldi. Bizga ko‘zi tushgach, o‘zi ham, echkisi ham orqaga tisarila boshladi.

– Hoy bola, to‘y qayerda bo‘lyapti? – so‘radim boladan.

– Temir yo‘lning naryog‘ida.

– O‘g‘il to‘yimi yoki qiz to‘yimi?

– Armiyadan geroy bo‘lib kelgan, o‘shanga to‘y qilishyapti, – deb bola echkisining ustidan tushib soqolini tortqilab uyiga olib kirib keta boshladi. Borish fikri ukalarimga ham ma‘qul bo‘ldi, aksincha, xursand bo‘lib ketishdi, ammo to‘yxonaga yetay deganimizda, andek bo‘lmasa, ishning pachavasi chiqayozdi.

To‘yxona yonidagi yalanglikda yosh bolalar shunaqangi ko‘p ekanki, nima balo, bu qishloqda katta odamlarning o‘rniga ham nuqul yosh bolalar yasharmikan, deb o‘yladim ichimda. Yana tag‘in qanaqa bolalar deng, borib turgan bezori, tegajoq!

– Lo‘lilar keldi!

– Lo‘li bolalar keldi, – deyishib, dik-dik sakrashib to‘yxona eshigi oldida bizni har tomondan qurshab olishdi. Biz to‘yxonaga qarab intilamiz, ular bo‘lsa ko‘ksimizdan itarib, o‘zlari o‘ynayotgan maydon tomonga qarab surgashadi. Qo‘l ushlab atrofimizga davra qurib olishdi. Biz bo‘lsak qo‘rqqanimizdan shiraga qo‘ngan pashshadek g‘uj bo‘lib olganmiz.

– Hoy lo‘li qiz, – deb haligi do‘ppi kiygan bir bola Dilbarning ko‘ylagidan tortdi, – rom ochishni, bilasanmi?

– Bilmayman, – zarda bilan dedi Dilbar.

– Nimani bilasan?

– Boshingga tayoq bilan urishni bilaman, – javob qaytardi Dilbar.

– Tilini zaharligini qaranglar, – deb yangi do‘ppili endi Zulayhoning etagidan torta boshladi. – hoy qiz, o‘yinga tushib ber.

– O‘yinga tushishni bilmayman.

– Voy nimani bilasanlar bo‘lmasa.

– Tilingni sug‘urib olishni bilamiz!

Begona bolalar xaxolab kulishib yuborishdi-yu, biror hunar ko'rsatmasalaring davradan chiqarmaymiz deb turib olishdi. Yorib chiqib ketaylik desak davraning chekkarog'ida armiyaga chaqirsa ham bo'laveradigan katta-katta yigitlar turishibdi...

- Afandi aytib beraymi? - deb baqirdim.

- Qanaqa afandi, - chuvillashdi begona bolalar.

- Kuldiradigan.

- Qani, boshla-chi!

- Orqaga tisarilibroq turinglar, ukalarim qo'rqib ketyapti. Qizig'idan aytsam, non olib chiqib berasizlarmi?

- Avval eshitaylik-chi.

- Bir bor ekan, bir yo'q ekan, - deb hammalariga bir-bir ko'z tashlab chiqdim, - bitta afandi bor ekan. Undan yilingiz nima deb so'rashsa, ajdarho deb javob beribdi. Ie, odamning yili ham ajdarho bo'ladimi deyishsa, afandi ellik yil oldin ilon edi, katta bo'lib ajdarho bo'ldi-da, dermish.

Bolalar gurr etib kulib yuborisharmikan, desam, qayoqda, miq etishmasa bo'ladimi, hatto bittasi shuyam afandi bo'ldi-yu, deb aftini bujmaytirib qo'ydi. Qani, sal qiziqrog'idan aytay-chi deb, boshqasini boshladim:

- Afandi mast bo'lib olib, ko'chalarda men sherman, deb to'polon qilib yurgan ekan, bu gap podshoning qulog'iga yetib boribdi. Podsho g'azablanib afandini tutib kelishga buyruq beribdi. Keltirishgach, podsho bu mamlakatning sheri men bo'laman, bir mamlakatda ikkita sherning bo'lishi mumkin emas, afandini dorga osinglar, deb buyruq berib yuboribdi. Qo'rqib ketgan afandi shartta o'rnidan turib, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

- Kechirasiz, taqsir, men sherning urg'ochisi bo'laman, - dermish.

Tavba, bu bolalar qanaqa o'zi, yo hammasiyam ovsarmi, yana kulishmadi-ya! Bo'zrayib aftimga tikilib turishavergandi, uchinchi, to'rtinchisiniyam aytdim,

kulisharmikan deb ketidan o‘zim xaxolab kulib ham berdim.

– Yo‘q, bo‘lmaydi, o‘yinga tushib berasan! – Har tomondan chuvillashdi begona bolalar. Tamom, deb o‘yladim, palov ham, issiqqina sho‘rva ham, yangi yopilgan non ham yo‘q endi... Hafsalam pir bo‘lib nima qilishimni bilmay turgan edim, Omon ukam meni turtib, «aka, she‘r o‘qib beraymi?» deb shivirladi. Aytgandek.

– She‘r o‘qib bersak non berasizlarmi? – murojaat qildim begona bolalarga. Javoblarini ham kutmay, ukamni yonginamizda turgan tunkaning ustiga chiqarib, qattiq o‘qi deb shivirladim qulog‘iga. Omon osmonga qarab ko‘zlarini pirpiratib, bir oz jim turdi-da, keyin she‘r ohangida boshini silkitib, qo‘llari bilan g‘alati-g‘alati ishoralar qilib o‘qiy boshladi:

*Pashsha quv-quv etadi,
Marg‘ilonga yetadi.
Marg‘ilonning qizlari,
Achchiq olma ekibdi.
Achchiq olma pishibdi,
Tol ko‘chaga tushibdi
Tol ko‘changiz tor ekan,
Unda bazzoz bor ekan,
Ul bazzozning qizlari,
Shol ko‘ylakka zor ekan...*

– Fu, – deb qo‘ydi shundoqqina Omonning oyog‘i ostida turgan o‘zi tengi bo‘g‘irsoqdek bir qizcha, – shuyam she‘r bo‘pti-yu, buni hamma biladi.

Qizchani fu-fulashi Omonning achchig‘ini chiqardi. Achchig‘i chiqqanda ukaginamning bo‘yin tomirlari shishib, ko‘zlari olayib ketadi. Hozir ham shunaqa bo‘ldi. U endi o‘ch oladi, o‘ch olmaguncha qo‘ymaydi u. Qizcha tomonga xiyol egilib, bir yutinib oldi-da, ikki qo‘lini biqiniga tirab:

*Qo'limda daftar,
Osmonda kaptar,
Mana bu qizni qaranglar,
Cho'chqadan ham battar!*

deb she'r o'qib yubordi Omon.

Bu gal to'planganlar ora-sira chapak chalib qo'yishdi,
bo'g'irsoq qizchani yonida turgan o'rtog'i qiqirlab
kulib, chapakni ham qattiqroq urgan edi, Omon o'sha
qizchaga qarab:

*Hilo-hiloli,
O'n besh kiloli,
Mana bu qizni qaranglar,
Biram chiroyli!*

deb she'r o'qidi. Ukaginamning she'ridan ham
harakatlari, qoshlarini kerib, yelkalarini uchirib,
ko'zlarini goh suzib, goh olaytirib yuborishlari bolalarni
o'ziga rom qilib oldi, qarsak ustiga qarsak yangrab ketdi.

– Hoy lo'licha, tag'in bitta o'qib ber! – qichqirdi haligi
Zulayhoning ko'yligidan tortqilagan yangi do'ppili bola.
Ukaginam qichqirgan bolaning ko'zlariga tikilib, odatiga
ko'ra bir yutinib oldi-yu, o'sha tomonga bo'ynini cho'zib,
she'r o'qiy ketdi:

*Chaqma-chaqar,
Olov yoqar,
Tomga chiqib,
Bitini boqar.*

- Yashavor!
- Yana o'qi, lo'li bo'la.

*Sim-sim samovar qaynaydi
Zinger ipini chaynaydi,*

*Qurib ketgur Ahmadjon,
Qizlar bilan o'ynaydi!*

- Voy, otiniyam to'g'ri aytdi!
- Yana o'qi!
- Manavi bolaniyam bir bopla, ikkita non beramiz!

*Lola chaman gul,
Atir-upa sur.
Oying kelguncha,
Uyni poylab tur.*

«Mana bu bolani bopla» deb topshiriq bergan bolaning o'zini chimdib oldi shoir ukam.

Tashqarida bo'layotgan qiyqirig'-u qarsaklar, lo'li bolalar she'r o'qiyapti degan ovozlari to'yxonadagi kap-katta odamlarni ham qiziqtirib qo'ydi shekilli, ular ham to'p-to'p bo'lib chiqib, bo'yinlarini cho'zib, o'rta tiqila boshlashdi. Dadamga o'xshagan novchadan kelgan, lekin o'taketgan darajada oriq, burni negov qovoqdeq quloqlari supradek keladigan cho'ziq yuzli bir amaki:

- Bolakay, yana bitta o'qisang, mana shu pulni beraman, - deb bitta qizil o'n so'mlik ko'rsatdi. Omon shosha-pisha ovoz chiqqan tomonga o'girilib:

*Jo'ra-Jo'ra-Juravoy,
Mashinasi gruzovoy,
Toqqa chiqsa o'tini yo'q,
Uyga kelsa xotini yo'q.*

deb she'r o'qidi. Bu gal «boplading, lo'li bola»ni kattalar aytishdi, qarsakning zo'rini ham o'shalar chaldi. Shu paytda kutilmagan bir voqea yuz berdi. Katta odamlar davrasidan ko'ksida qahramonlik yulduzi yal-yal yonib turgan, boshida chustnusxa do'ppi, oyog'ida uzun xrom etik o'rta bo'y, dumaloq yuzli bir yigit chiqib keldi-da,

qora to'nka ustida shu to'nkning bir butog'idek bo'rtib
turgan Omon ukamni dast ko'tarib, peshanasidan o'pdi:

- Oting nima?
- Omon.
- Yana she'ringdan bormi?
- Juda ko'p hali.
- Qani, baland ovoz bilan o'qi bo'lmasa.
- Non berasizmi?
- Beraman, go'sht ham beraman, boshla.

*Baka-baka-bang,
Dor o'ynang,
Dordan yiqilib,
Yig'lab o'tirmang.*

- Yana bilasanmi?
- Bilaman.
- Qani, mana bu dasturxonchi xolangga bag'ishlab
ham bitta o'qib ber-chi.

*Xalcha xolam o'tirdi
Nonga asal botirdi.
Yoniga mushuk kelganda,
Kesak bilan qotirdi.*

- Barakalla azamat, o'qiyver!

*- Lola bilan do'st bo'ldim,
Sharob ichdim mast bo'ldim.
Lola soldi maylisga,
Toza qoldim nomusga.*

*Chumchuq donimni yeb ketdi,
Ertaga beraman deb ketdi.
Poyezd yo'liga chiqqanda,
Kuzda kelaman deb ketdi...*

Askar amaki haddan tashqari xursand bo‘lib ketdi shekilli, hamma yog‘i kir ukaginamni bag‘riga bosib, o‘n besh kundan buyon suv tegmagan yuzlaridan o‘pib, ichkariga, to‘yxonaga olib kirib ketdi. Mana bu bulbuligo‘yoni qaranglar, deb boshqalarga ham she‘rlar o‘qitib berdi.

*Chuchvara qaynaydiyo,
Akamga bermaydiyo,
Bermasa bermasino,
Uyimga kirmasino.*

*Pakana poyezd kelyapti,
Ichida akam kelyapti,
Bizga boqib kelyapti,
Nishon taqib kelyapti.*

Askar amaki g‘alati odam ekan, she‘r o‘qish tugagandan keyin ham ukajonimni qo‘yib yubormay anchagacha bag‘riga bosib turdi, keyin shu holicha, bag‘riga bosganча omborxonaga olib kirib ketdi. Xiyol o‘tmay, Omonjon to‘y boladek yasanib chiqdi: egnida beqasam to‘n, belida shohi belbog‘, boshida gilam do‘ppi.

– Qani mehmonlar, omborxonaga yuringlar, – bizni ham taklif qildi askar amaki, – sizlarni o‘zim bir mehmon qilay.

QAROQCHIGA DUCH KELDIK

- Aka, – deydi Usmon ukam.
- Nima deysan? – deb qo‘yaman.
- Endi dam olaylik.
- Yana birpas yuraylik.
- Oyog‘im chalishib ketyapti.
- Omon chopqillab ketyapti-ku.
- Erkatoyingizning yuki yo‘q-da.

– Hu anavi daraxtzorga yetaylik mayli, dam olsak olarmiz. Usmon ukamga qarab, unga achinib ketdim, chindan ham unga qiyin, yelkasida og‘ir yuk ko‘tarib kelyapti, faqat Usmongina emas, boshqalari ham charchashdi. To‘yxonadan chiqqanimizdan buyon to‘xtamaymiz. Anavi kuni sigir boqqan bolalar bilan mushtlashganimizda qo‘rqqanimizdan ko‘p yo‘l bosgan edik. Bugun haddan, tashqari xursand bo‘lib ketganimizdan ko‘p yurib yubordik.

Daraxtzorga yetib kelgach, bir kechani shu yerda o‘tkazishga qaror qildik. Olmazor urushdan oldin xo‘b obod bo‘lgan bo‘lsa kerak hozir qarovsizlikdan xarobazorlikka aylanibdi, shoxlari qurib, tanlariga qurt tushib ketibdi. Poyezd yo‘lining narigi yog‘i poyoni yo‘q cho‘l, sarg‘ayib yotibdi. Olis-olislarda to‘p-to‘p uylar ko‘zga tashlanadi... Baxtimizga daraxtzorning o‘rtasidan katta anhor o‘tarkan, suvi chuchuk qaynatmasdan ham ichsa bo‘ladigan, qurigan shox-shabbalar to‘lib yotibdi, istagancha o‘t ham yoqish mumkin.

Ukalarim olma g‘azanak teramiz deb keng maydonga tarqab ketishdi. Ular qaytguncha kapani tikib, kastryulda suv ham qaynatib qo‘ydim.

– Aziz mehmonlar, qani dasturxonga marhamat.

Yumshoqqina ajriq ustiga davra qurdik. Hamma-ham shuncha yo‘l bosib kelganimizga qaramay xur tetik ko‘rinamiz. To‘yxonada ikki qiyiq non-u, meva-cheva tugib berishdi, rahmat, ming rahmat o‘sha geroy amakiga! O‘sha bo‘lmaganda, kim biladi, begona bolalar bizni ne ko‘yga solishgan bo‘lardi.

– Obbo Omon-ey, – deb erkaladim ukamni, – yana to‘yga duch kelib qolsak she‘rlaringdan o‘qib berasanmi?

– Ovqatdan ko‘p berishadimi? – ko‘zlarini chaqnatib so‘radi ukam.

– Bo‘lmasam-chi.

– Unda o‘yinga ham tushib beraman.

– Voy, sen o‘yinni ham bilasanmi?

– Bilaman, – hozir o‘ynavoradigandek qo‘llarini yozib o‘rnidan turdi Omon, – chaling bo‘lmasa.

– Nimani chalaman?

– Qarsak chalasiz-da, hammalaring chalinglar.

– Aka, rostdan ham bir o‘yin qilaylik – deb yolvordi Zulayho. Nazarimda shu paytda o‘yin-kulgi qilishga hammamizda ham moyillik borgan o‘xshaydi, o‘yinni qumsaydigan kayfiyat detdomdan chiqqanimizdan buyon hech birimizda bo‘lmagandi. Har kuni tashvish, har kuni ko‘z yoshi-yu qovoq-dimog‘, jonga ham tegib ketdi o‘zi.

Navbati bilan hammamiz o‘ynaydigan bo‘ldik. Jajji singlim Robiyadan boshladik u hozir biram shirin bo‘lgan, tillari ham biram burro, lekin ozib, kichkina bo‘lib qolgan u, xoh ko‘ring, xoh ko‘rmang, qizlar o‘ynaydigan yelim qo‘g‘irchoqning o‘zginasi deysiz. Robiya qarsak chalishimiz bilan qo‘llarini yozib bir oz jim turdi-da, keyin chopqillab borib Zulayhoning bag‘riga yiqildi, uyalib ketdi shekilli, boshini berkitib oldi.

– Navbatdagi nomerimizda Omon Mirzayev! – deb tantanali e‘lon qildim yana.

Bu ukam o‘zi boshqacha! She‘r desangiz she‘r, o‘yin desangiz o‘yin, ertakka ustaligini aytmaysizmi!.. Muqomlari biram chiroyli, yelkasini uchirishlarini qarang, buni albatta o‘qitaman, artistlikka o‘qitaman! Usmonjon bo‘lsa, yo‘q, u o‘ynay olmadi. Uyalaman deb eshilib-buralib o‘rtada tik turaverdi... Yo‘q, bu o‘sha qornini yerga berib, patnisning ustida daftarini yozib olib rasmini chizavergani ma‘qul ekan... Zulayho, qo‘llari uzun emasmi, laylakka o‘xshab lapanglab hammamizni rosa kuldirdi.

– Navbatdagi nomerimizda Dilbarxonim, – deb e‘lon qildim. Dilbar otilib o‘rnidan turdi-yu, bir menga, bir Zulayhoga qarab:

– Davrani kengroq olsalaring o‘ynayman, – deb qo‘ydi.

Davrani kengroq oldik.

– Omon ham men bilan o‘ynasa o‘ynayman. Xo‘p ana, Omonni ham turgizib qo‘ydik.

– Vaxay bolaga chalasizlar, – oxirgi talabi shu bo‘ldi Dilbarxonimning.

Zulayho kastryulning qopqog‘ini childirma qilib chala boshladi, biz ohangga moslab qarsak urishga tushdik. Quvonch-u shodliklarimiz xayqiriqqa aylanib, yer-u ko‘kni qoplab ketgandek bo‘ldi. Daraxtlar tepasidagi qushchalar xam bizga jo‘r bo‘layotganga o‘xshaydi, poyezdlar ham sho‘x-sho‘x qichqirib o‘ta boshladi... Dilbar o‘yinchi ekan, ha-ha, chinakam o‘yinchi ekan u! Ovozlar ham qaymoqdekkina, qo‘llarining harakati, ozg‘in gavdasining yengil aylanishi, ko‘zlarini suzib, qoshlarini goh kerib, goh chimirib so‘z ma‘nolarini ta‘kidlashi,.. qasam ich desangiz qasam ichib aytaman-ki, ilgari bunaqangi o‘yinchini hech ko‘rmagandim.

Ot belida o‘zangi,

Vahay bola.

Otam bo‘ldi belangi,

Vahay bola.

Otam bo‘lsa belangi,

Vahay bola.

Onam bo‘ladi Xangi,

Vahay bola.

Bo‘yinturuq omochman,

Vahay bola.

Ko‘lga qumg‘on humochman,

Vahay bola.

O‘yinga tortmapg meni,

Vahay bola.

Yo‘nilmagan yog‘ochman,

Vahay bola.

Bo‘z to‘qisang arqonman,

Vahay bola.

*Asli o'zim qo'rqqoqman,
 Vahay bola.
 Yurak degan narsa yo'q,
 Vahay bola.
 Xudo urgan chatoqman,
 Vahay bola.*

Qiziq, juda qiziq bo'lyapti, qo'llarim qarsakda, lablarimda vahay-vahay, xayollarim qayoqlarga uchib ketayotganini o'zim ham sezmayman... Dilbarning otasi ham, onasi ham yo'q. Otasini eslay olmas emish, opasi beshga to'lganda vafot qilgan ekan, ammasi qiz qilib olibdi, ammasi ham o'lib ketibdi... Urush boshlanguncha rosa uyma-uy tentirabdi: shirmoy pazning nonini sotibdi, oshpaz xotinning cho'risi bo'libdi, tappi dumalatarkan, uy supurarkan, qo'lchalari tolib kir yuvarkan... Bir kuni samovarga suvsiz o't qalab, teshib qo'yibdi, oshpaz, bechora Dilbari urib, ko'zini chiqaribdi, sochlarini yulib olibdi. Uning uyidan qochib choyxonalarda yotib yurgan ekan, Mariya Pavlovnaga duch kelib qolibdi. Bechora Dilbar... uning bu dunyoda bironta ham yaqin kishisi yo'q emish, uni olib ketaman, biz bilan birga turadi. Otam kelguncha kolxozda ishlaymiz. Keyin o'qishga beramiz uni, u artistlikka o'qiydi, men o'qituvchi bo'laman...

O'yin, qarsak qiyriqlarimiz avjiga chiqib boryapti, daraxtlar-u giyohlargacha bizga jo'r bo'layotganga o'xshaydi, cho'l-biyobonlar-u poyonsiz olmazorlarning egasi go'yo bizning o'zimiz, hayqirib o'tayotgan poyezdlar ham bizniki, biz yetim ham emasmiz, yo'q-yo'q biz sho'x . bolalarmiz, biz shod, xursandmiz...

*Otam ketgan urushga,
 Vahay bola,
 Dushmanni ko'p qirishga,
 Vahay bola.*

*Boshi uzun, ko'zi ko'r,
Vahay bola.
Gitlerni o'ldirishga,
Vahay bola.
Gitler ekan badqovoq,
Vahay bola.
Afti xunuk karquloq,
Vahay bola.
Bosh deb olib yurgani,
Vahay bola.
Kalla emas to'rqovoq
Vahay bola.*

Dilbar to'satdan o'ynashdan to'xtab, olmazor tomonga tikilib qoldi:

– Birov kelyapti!

Rost, sezmay qolibmiz, shundoqqina peshanamizga kelib qolibdi-ku! Kim bo'ldi ekan, ko'chadagi devonalarga o'xshab soch-soqoli o'sib ketgan, kir, isqirt... Yonida pichog'i ham borga o'xshaydi, yelkasida miltiq. Qorovulmikan? Yo'q, qorovullar bunaqa isqirt bo'lmaydi. O'g'ri bo'lsa-ya! Yo'g'-e, bu atrofda odam bolasi yo'q-ku, kimni tunardi u. Qochoq bo'lsa-ya, ha-ha, voyenkomatdan qochib yurgan odam bu!

– Nega to'xtab qoldilaring? – dedi isqirt tepamizga kelib, – davom etaveringlar... Ancha bo'ldi o'yin tomosha qilmaganimga... Changalzorda yotuvdim, qulog'imga patefonning ovozi eshiltigandek bo'ldi, bunday qarasam, sizlar ekansizlar... Hoy qizcha, nega turib qolding, o'yna deyapman.

– O'ynamayman! – boshini egib oldi Dilbar.

– Majbur qilsam-chi, – dedi Isqirt.

– Bari bir, o'ynamayman.

– O'ho', Xudoyorxonning qiziga o'xshab dimog'ing juda baland-ku, – deb bizga yaqinlashib kela boshladi Isqirt. Hammamiz o'rnimizdan turib, bo'riga duch kelgan qo'zichoqlarga o'xshab g'uj bo'lib oldik.

– Tugundagi nima? – to‘satdan ko‘zlari chaqnab ketdi Isqirtning.

– Non, – shosha-pisha javob qaytardi Omon – hammasini menga berishgan.

– O‘ho‘, qayerda berishdi?

– To‘yda, geroy amaki berdi.

– Qani, bu yoqqa olib kel-chi.

Kallavaram ukam-ey, bir qiyiq nonki shundayligicha Isqirtga uzatmoqchi. Tugunni shartta qo‘lidan olib bag‘rimga bosdim.

– Bu yoqqa olib kel deyaipman, – o‘shqirdi Isqirt.

– Yo‘q, yo‘q, bermayman, och bo‘ridek tishini takillatib turibdi, bersam hammasini yeb qo‘yadi u. Isqirt biz tomonga yana bir odim tashladi.

– Amaki, bu ukalarimniki... biz uzoq ellarga ketyapmiz... Tilanchilik qilib ketyapmiz...

– Ber deyaipman!

– Jon amaki, ukalarimga rahm qiling!

Isqirt yutindi, ko‘zi ham bo‘rinikiga o‘xshab kulrang ekan, chaqnab turibdi... Tugunchaga yopishuvdi, siltanib tortib oldim, ukalarim dodlab yuborishdi.

– Yaxshilikcha ber, ochman!

– Biz ham ochmiz, bermayman!

– Bermaysanmi?

– Yo‘q.

Gurzidek keladigan kattakon mushti bilan miyamga tushirganini bilaman, osmon gir aylanib ketgandek bo‘ldi, ukalarimning chinqirganini ham elas-elas eslayman, keyin o‘zimdanda ketib qolibman... Qancha yotganimni bilmayman, bir mahal ko‘zimni ochsam atrofimda ukalarim yig‘lashib turibdi, qorong‘i tushib qolibdi.

– Aka, akajon, – ko‘ksimga boshini qo‘ydi Omoy, – turing, bizni qo‘rqitmang... Men judayam qo‘rqib ketyapman...

– Nonni olib ketdimi, – sekin boshimni ko‘tarib so‘radim.

– Xudoyo teshib chiqsin, – qarg‘andi Zulayho.

Endi bu yerda tunab bo‘lmaydi, qosh qorayguncha ho‘ro‘paradagi qishloqqa borib biron rahmdil kishidan joy so‘rashga qaror qilib, ko‘ch-ko‘lonimizni ko‘tarib yo‘lga tushdik.

– Otam kelsin, seni shunday boplaydiki, – deb javrab boryapti Omon, – hamma nonlarimizni qaytarib olamiz hali...

TEMIR YO‘L QOROVULINIIG UYIDA SHIFO TOPGANIMIZ

Kichik bir stantsiya yaqiniga kelganda hammamiz adoyi tamom bo‘ldik. Zulayhoning isitmasi ko‘tarilib ketdi. Robiya bo‘lsa kechadan buyon tinmay hiqillab, bir o‘ziga kelib, bir o‘zidan ketib turibdi. Bugun kechasi qobil-mo‘min ukam Usmonning oyog‘idagi yarasi zo‘riqib, shishi tizzasigacha ko‘tarilib ketdi. O‘zimning ham oyoqlarim haddan tashqari shishib, barmoqlarim orasi yiringlab ketgan. Kechadan buyon boshim lo‘qillab og‘rib, burnimdan to‘xtamay suv kelib turibdi... Avvalgi kuni kechasi yomg‘irda qoluvdik o‘shanda hammamiz adoyi-tamom bo‘lgan ekanmiz. Oramizda faqat Dilbargina sog‘, ammo uning ham ruhi shunaqangi tushib ketganki, go‘yo biz hammamiz o‘lib qolyapmiz-u, bitta o‘zi kimsasiz dashtlarda qolib ketayotgandek.

Suvi qurib qolgan ariqning ichiga ikki adyolni to‘shab, ukalarimni qator yotqizdim, stantsiya yonida quduq bor ekan, kistryulni to‘ldirib kelib, suv qaynatib berdim. Ukalarim non ham yeyishmadi, suv ham ichishmadi, ko‘zlarida shunaqangi bir qo‘rquv, ta‘riflab bo‘lmaydigan g‘amginlik borki, qaragani botina olmayman. Orqamni kuzning iliq oftobiga berib, tizzamni quchoqlab anchagacha o‘y surib o‘tirdim... Qiziq, nimani o‘ylasam o‘yimning oxiri otamga borib taqalyapti... Hammaning otasi otopuskaga kelib bolalarini ko‘rib ketadi, bizning otamiz bo‘lsa biron

marta ham kelmadi... Yoki, o'sha detkoloniyada yuraverganim ma'qulmidi... Ustim but, qornim to'q ediku... Ukalaram ham birovning qo'lida bo'lsa-da, rasimli kitoblarni tomosha qilib, oxurga o'xshagan uzun to'g'oralarda cho'milib, mazza qilib yurishgan edi-ku! Hammasiga Shermat bilan Islom sababchi bo'ldi, o'shalar ukalaring har yoqqa tarqab ketadi, keyin ming yilda ham topisha olmaysizlar deb qo'rqitishmaganda bunaqa qilmagan bo'larmidim... Zulayho bilan Robiya-chi? Nega ularni bezovta qildim ekan-a? Men ahmoq singillarimni sog'ingan ekanman, ko'rishib orqamga qaytib ketavermaymanmi! Ota-onamning chirog'ini yoqmoqchi ekanman, o'zim borib yoqaversam bo'lmasmidi!

Qizlar detdomi yaxshi edi, mehribon odamlar ko'p edi, har xil uchrashuvlar, ko'ngilni ko'taradigan gaplar bo'lardi... Bir kuni ularni ko'rgani borganimda katta uchrashuvning ustidan chiqib qolibman, qizlar oppoq kiyinishib, sochlariga lenta, bo'ynilariga alvon galstuklar taqib saf-saf bo'lib turishibdi. O'rtada kallasi katta bir shoir she'r o'qiyapti: Sizlar yetim emassizlar, otadek rahmdil xalq, onadek mexribon Vatan yumshoq qo'llari bilan boshingizni silab, parvarishlab voyaga yetkaziyapti. Hur qizlardek oppoq kiyingansiz, qorningiz ochsa – oshxona, o'qisangiz – darsxona, zeriksangiz – kino-tomosha, yo'q, ona-qizlarim, sizlar yetim emassizlar, degan gaplarni aytyapti.

Ketidan, aniq esimda, ozg'ingina bir xotin ham so'zga chiqib gapiruvdi; shu detdomda tarbiyalangan ekan, hozir katta bir rayonning gapi o'tadigan rahbarlaridan ekan...

To'g'ri, o'shanda singillarim yetim emasdi, mehribon odamlar qurshovida edi!.. Mana endi yetim bo'ldi ular! Men yetim qilib qo'ydim ularni, ariq ichida chalajon bo'lib yotishibdi endi!

Endi nima qildim?

Hoy, hayqirib o'tayotgan poyezdlar, menga maslahat bering!

Hoy, osmonda sayr qilib beparvo uchib yurgan qushlar, ayting, Orifjon nima qilsin endi!

Yo'q, stansiyaga borib shartta militsiyaga uchrashaman. Mayli, bizni ushlasin, joy-joyimizga qaytarib yuborsin, otam armiyadan qaytgach, mendan xafa bo'lsa bo'lar.

- Orif aka, - sekin chaqirdi Dilbar, - yig'layapsizmi?

- Yo'q.

- Ko'zingizdan yosh oqayapti-ku.

- Men Toshkentga qaytsakmikin deb o'ylayapman.

- Qo'qonga yaqin qolganda-ya.

- Sen, yaqin qoldik deb o'ylaysanmi?

- Bo'lmasa-chi.

- Nima qilaylik bo'lmasa?

- Stantsiyada doktor bordir.

- Bordi-yu, doktor bo'lmasa-chi?

- Unda bitta-yarimta rahmdil odamdan yordam so'raymiz, - maslahat berib ko'nglimni ko'tardi Dilbar, - endi tezroq boring, Robiya yana xirillayapti.

Stantsiya, hali aytganimdek uncha katta emas, bor-yo'g'i to'rtta uy bor xolos. Eshigi temir yo'lga qaragan katta bino oldida biron tayoqning uchiga bog'langan supurgi bilan stantsiya hovlisini supurib, o'zicha g'ing'illab ashula ham aytib yuribdi. Yoshi otam tengi keladi, mo'ylovi shunaqangi uzunki, uchlari buralib-buralib borib qulog'ining orqasiga o'tib ketibdi. Yoniga borib sekin salom beruvdim, indamadi. Qiziq, ikkinchi salomimga ham alik olmadi. Etagidan tortdim, menga o'girilgan edi:

- Ukam kasal, - dedim yig'lamsirab, - yordam bering!

- Qulog'im og'ir, qattiqroq gapir, - dedi qorovul qulog'ini men tomonga to'g'irlab. Haligi gapimni takrorlagan edim. «Poyezd ketib qoldi-ku», deb qo'ydi.

- Ukam kasal! - shunaqangi qattiq baqirdimki. nazarimda poyezdning gudogidan ham o'tkazib yuborgandek bo'ldim.

- Kasal? – deb belini rosladi qorovul.
- Ha.
- Kim?
- Ukam.
- Ukam?
- Ha... Biz yetimchamiz.
- Qayoqdan kelyapsizlar?
- Toshkentdan.
- Poyezddan tashlab ketishdimi?
- Yo‘q, piyoda kelyapmiz.
- Piyoda?!

Shu bilan baqirib-chaqirish ham tamom bo‘ldi, qorovul avval oyog‘imga, keyin shaltog‘i chiqib ketgan kiyim-boshimga, oxirida aftimga tikilib, labini burib, bosh chayqab qo‘ydi.

- Ukang qani?
- Hu, narida, ariqning ichida.
- Qani, yurchi.

Dilbardan boshqa hamma ukam ariq ichida cho‘zilishib yotgan ekan, bir xillari uxlab, bir xillari shunchaki cho‘zilishib yotishar edi. Qorovul tepalariga kelib uzoq tikildi, ostki labini tishlab, yana boshini chayqab qo‘ydi. Keyin bir o‘ziga kelib, bir o‘zidan ketib yotgan jajji singlimni avaylab qo‘liga oldi. Ko‘chko‘lonimizni ko‘tarib, jimgina orqasidan ergashdik.

Stantsiyaning orqasidan pastga qarab yo‘l ketarkan, o‘sha yo‘l bo‘ylab yarim chaqirimcha yurgan edik tomiga poxol bosilgan pastak-pastak besh-olti uydan iborat qo‘rg‘onchaga duch keldik. Hovlisining atrofi qamishlar bilan o‘ralgan, ko‘cha eshigi ham qamishdan to‘qilgan bir uyga kirdik.

- Arofat! – deb chaqirdi qorovul.

Ichkaridan xamir qorib o‘tirgan bo‘lsa kerak ikki qo‘li tirsagigacha oppoq unga belangan, pak-pakana, xuddi bo‘g‘irsoqdek dum-dumaloq bir ayol pildirab chiqib keldi:

– Voy xudoyim-ey, tinçhlikmi? – negadir juda past ovozda so‘radi ayol.

– Yetim bolalar... kasal bo‘lib qolibdi, – tushuntirdi qorovul. Bizni ichkariga, tagiga qalin poxol solinib, poxol ustiga gulli kigiz to‘shalgan uyga olib kirishdi. Qorovul og‘ilxonada qizil qashqa oti bor ekan, egarlab chiqib: «Sen bularga qarab tur, men cholni olib kelaman» – deb qayoqqadir jo‘nab ketdi.

Bo‘g‘irsoq xola voy xudoyimdan boshqa so‘zni bilmas ekan. Zulayho bilan Robiyani ko‘rpaga yotqizganda ham, voy xudoyimlab turdi, asal bilan sutni qo‘shib qaynatib ichkazayotganda ham voy xudoyimni og‘zidan qo‘ymadi. Bizga choy-non qo‘yganda ham, hovlidagi sholini tovuqlar o‘rtaga olib cho‘qiganda ham:

– Voy xudoyim-ey! – deb qo‘yaverdi.

Bo‘g‘irsoq xola qulog‘iga negadir, tunukadan yasalgan oybaldoq, ko‘kragiga elliktacha mis tanga taqib olibdi. Qarshimizga o‘tirib:

– Sutdan tag‘in quyib beraymi? – deb so‘radi.

– Mayli, – dedim.

– Qayerlik bo‘lasizlar?

– Qo‘qon tomondan.

– Voy xudoyim-ey...

– Yo‘ldda shamollab qoldik, kechasi bilan ustimizdan sharillab yomg‘ir quydi, – deb tushuntirdim.

– Voy xudoyimla-ey, – shunday deb bo‘g‘irsoq xola pildirab o‘rnidan turib ketdi. Tashqaridan ityaloqqa o‘xshash bir qozoncha olib kirib, yog‘ cho‘chita boshladi. Yog‘ning hidi shunaqangi badbo‘y ekanki, Omon o‘qchib-o‘qchib arang o‘tirdi. Bo‘g‘irsoq xola «hammalaring shamollagansizlar, dimoqlaring chirsillab turibdi, hozir badanlaringga bo‘rsiq yog‘i surtaman, bir uxlab tursalaring, hech narsa ko‘rmagandek bo‘lib ketaverasizlar» deb badanimizga o‘sha sassiq yog‘dan qalin qilib surtib, boshimizgacha ko‘mir ko‘rpaga o‘rab tashladi. O‘zi bosh tomonimizga

o'tirib, tog'oradagi xamirni supraga ag'darib, har bittasi yelpig'ichday-elpig'ichday keladigan patir yasay boshladi.

- Oting nima, o'g'lim? - deb so'radi. - Hammala-ring bir ota-onadanmisizlar?

- Ha.

- Voy xudoyim-ey, ota-onalaring qayerda?

- Otam urushda, opam vafot qilib ketganlar.

- Voy xudoyim-ey... Bizdan hijolat bo'lmanglar... amakilaring juda yetimparvar odam, sizlarga o'xshaganlarni ko'p boshlab keladi. Chipta ololmagan, och-nahor qolgan beva-bechoralarga, xudoga shukr, qo'llari ochiq...

- Tashqarida otning kishnagani, «tak», «dirr», degan past-baland ovozlar eshitilib qoldi. Xiyol o'tmay qorovul chuvakkina o'ris cholni boshlab kirdi, o'ris cholning qo'li, boshi tinmay qaltirab turarkan.

- Butun boshli yetimxona ochibsan-ku, - dedi u yarmini o'rischa, yarmini o'zbekcha qilib. Qorovul yaxshi eshitmadi shekilli:

- Yomg'irda qolishibdi! - deb qo'ydi.

O'ris chol oldin uyning to'rirog'ida alohida o'rinda yotgan Zulayho bilan Robiyani ko'rdi. Galma-galdan qo'ltiqlariga nay shisha tiqib isiqlarini o'Ichadi.

Tomirlarini ushlab bosh chayqadi. Nihoyat Robiyaning ko'kragiga boshini qo'yib uzoq jim qoldi-da:

- Qizimka chatoq! - deb qo'ydi.

- Umid bormi? - o'rischalab so'radi qorovul. O'ris chol javob qaytarmay chamadonchasini ochib, ikkov singlimga ham hap dori ichirdi, dumbalariga emlab ham qo'ydi.

Robiya kutilmaganda ko'zini ochib:

- Aka, katta aka! - deb ovoz chiqarib qoldi. Ovozini eshitib, nazarimda mendan ko'ra ham o'ris chol xursand bo'lib ketdi shekilli:

- Qizimka yaxshi, - dedi o'zbekchalab.

Navbat bizga keldi. Omon bu yerda ham rosa ish ko'rsatdi. Qo'ltig'iga nay shishani qo'ydirmadi, kap dorini ham ostona tomonga otib yubordi.

– Qo'lingizni tishlab olaman! – deb o'ris cholga baqira boshladi.

O'ris chol badanimizga bo'g'irsoq xola surtgan yog'ni maqtab, qorong'i tushguncha shu yerda o'tirdi. Qorovuldan menga ham bitta bo'rsiq otib ber, miltig'iga sochma o'q beraman deb iltimos qildi. Qorovul yaxshi eshitmadi shekilli:

– Qo'qon poyezdimi? – deb so'radi.

– Yo'q, bo'rsiq, – ovozini xiyol ko'tarib dedi o'ris chol.

– Bo'rimi?

– Bo'r-siq! – hali men stantsiyada baqirgandek baqirdi chol.

– Otib beraymi! – so'radi qorovul, – otib bersam yetimlarni tuzatasizmi?

– Tuzataman...qizimka yaxshi bo'ladi.

– Bo'g'irsoq xola sho'rva pishirib keldi. Bunaqangi g'alati ta'mli sho'rvani ilgari hech ichmagandik. O'zi shiringa o'xshaydi-yu, lekin balchiqning hidi kelib turibdi. Hammamiz ishtaha bilan ovqatlandik, Robiya ham ko'zini ochib, tizzamda o'tirib ancha sho'rva ichdi. Ammo o'ris chol qaytalab emlayotganda chinqirib yana yurak-bag'rimni ezib yubordi...

Yarim kechasi Zulayho meni turtkilab uyg'ota boshladi!

– Nima deysan? – dedim ko'zimni ochgim kelmay.

– Qorovul xotinini urdi, – shivirladi singlim.

– Yo'g'-e!

– Shunday bo'kirtirib urdiki...

Nima deb javob qaytarishni bilmay o'ylanib yotib yana uxlab qolibman.

«XUDOYI TAOLO YUBORGAN CHO‘LOQ MAXLUQLAR»

Robiya bmlan Zulayho tuzalib, darmonga kirguncha shu yerda qolib ketdik. Yegan ovqatimiz malol kelmasin deb garchi oyog‘imning ishish butunlay qaytmagan, barmoqlarim orasidagi mayda yarachalar bitmagan bo‘lsa-da, uy ishlariga qarashib turdim. Hovlilariga hovli bo‘lgandan buyon supurgi tegmakan ekan, Usmon ikkovimiz naq bir kun ovora bo‘ldik. Molxonalarida go‘ng uyulib, sigir bilan buzoq aylanolmay qolibdi, tovuqxonalariga qadam bosib bo‘lmaydi, ot boylangan bostirmaning tagida nushxo‘rd bilan go‘ng aralashib yotibdi... O‘zim ham mana shunaqangi ishlarni sog‘inib qolgan ekanman, uch kun deganda hamma yoqni yog‘ tomsa yalaguday qilib tozalab, tomorqalaridagi makka poyalarini yig‘ishtirishga o‘tdim.

Men o‘rib turaverdim, Usmon bilan Dilbar tashib turishaverdi. Ishga shunday berilib ketibmanki, qorovul tepamizga kelganini ham sezmay qolibmiz, bir narsa deb gapirgan ekan, buni ham eshitmabmiz. Bir mahal yelkamdan tortib o‘ziga qaratdi:

– Horma deyapman!

– Bor bo‘ling.

– O‘roq tortishga usta ekansan, menga o‘g‘il bo‘p qo‘ya qolmaysanmi?

Shu yo‘sin bir-birimizga jinday baqirishib oldik. O‘sha kuni kechqurun qorovul erib ketdi shekilli, ukalarim darmonga kirishi bilan, Qo‘qon poyezdiga o‘tqazib qo‘yishga so‘z ham berib yubordi. Lekin ertasiga uyga qaytmadi u, indinisiga ham qaytmadi. Biz makka poyani o‘rib bo‘lib ko‘l bo‘yida kartoshkalari bor ekan, o‘shani kovlayotgan edik, Robiyani ko‘tarib Zulayho borib qoldi, qovog‘i soliq, lab-lunji osilgan.

– Bo‘g‘irsoq xola ketinglar deyapti.

– Yo‘g‘-e, – dedim qo‘rqib.

– Narsalarimizni tashqariga olib chiqib tashladi, – dedi singlim yig'lamsirab.

Yugurib kelsak, rostdan ham ish chatoq. Bo'g'irsoq xola xuddi chayon chaqib olgan odamdek voy xudoyimlab hovlida vozillab yuribdi, duch kelgan narsani urib sindirib, tinmay javrab ham yuribdi:

– Nega qarab turibsanlar, – deb baqirdi menga, – jo'nanglar endi.

– Qayoqqa jo'naymiz, – dedim jo'rttaga o'zimni go'llikka solib.

– Qayoqdan kelgan bo'lsang o'sha yoqqa jo'na.

– Axir, xolajon, yo'l kiramiz yo'q-ku?

– Yo'l kirang yo'q ekan, nega detdomingda jimgina yuravermading... qaysi biringni boqaman, yo'qol!

– Xolajon!

– Xola dema meni. Senlarni deb kardan ikki marta kaltak yeb oldim... Yetim boqsang og'zi-buning qonga to'ladi deb shuni aytishadi-da...

– Amakim qayoqqa ketdilar.

– Ochiq mozorga.

– Mozorlaring qayerda?

– Yo'qol! – butunlay tutoqib ketdi Bo'g'irsoq xola. Demak qarori qat'iy. Shuni yotiqchasiga aytsa ham bo'lardi-ku, juda o'ligimizni tashlab olmas edik-ku! O'ziyam bugun-erta jo'naymiz deb turuvdik...

Stantsiyaga chiqib, qorovul amakini surishtirgan edik, yo'l qurilishiga ketgan, o'n kunsiz kelmaydi deyishdi. Bo'g'irsoq xola shuning uchun kuchayib ketgan ekan-da! Qorovul amaki bo'lganda-ku, mo'ylovini sal qimirlatib qo'ysa, voy xudoyimdan boshqasiga yaramay qolardi-ya...

Lekin nima bo'lganda ham Bo'g'irsoq xola ja unaqa insofsizlardan emas ekan, buni biz tugunchamizni yechib ko'rganda sezib qoldik: yettita sutga yo'g'rilgan patir, yarim xalta chala qurigan qurut, bitta pishirilgan o'rdak solib beribdi. Rahmat xolajon, ming marta rahmat sizga.

Badanimizga surib qo‘ygan badbo‘y yog‘ingiz uchun, har kuni ikki mahallab pishirib bergan sutlaringiz uchun, oyoqlarimizning yarasiga bosgan malhamlaringiz uchun – hamma-hammasi uchun mingdan ming rahmat sizga. Xayr, yaxshi qoling.

– Xo‘sh, ukajonlar, – deb so‘radim, – endi qayoqqa yurdik, Toshkentgami, qishloqqami?

– Qishloqqa, – bir ovozdan qichqirishdi ukalarim.

– Katta Tagob qishlog‘iga qarab shagom marsh! – deb komanda berdim.

Uch soat yurdikki, to‘rt soat yurdikmi, bunisi aniq esimda yo‘q, keng dalada, yovvoyi jiydalar ostida o‘rdak go‘shni yeb o‘tirgan edik, Omon:

– Bo‘ri! – deb qichqirib yubordi. Hammamiz o‘rnimizdan turib tayoqqa yopishdik.

– Qani? – dedim o‘zimni bosib.

– Ho‘ ana, biz tomonga bostirib kelayapti.

– Voy, u eshak-ku! – dedi Zulayho ko‘kragiga tuflab.

– Hechamda, – bo‘sh kelmadi Omon, – qara, quloqlarini chimirib turishini!

Bo‘rimi, eshakmi har qalay biz tomonga jadal yurib kela boshladi. Yaqinlashgach, bunday sinchiklab qararak, junlari o‘sh ketgan, ko‘k eshak ekan. Oldimizga kelib to‘xtaganida yana sinchiklab qaragan edik, bechora eshakning oldingi oyog‘i cho‘loq, ustini oppoq yag‘ir ham qoplab ketgan ekan.

– Aka, bu o‘zimizning eshak-ku! – irg‘ishlab dedi Omon.

– Hechamda, bu yovvoyi eshak, – bilag‘onlik qilib dedi Usmon. Eshakni har tomonidan qurshab olib, har kim o‘z mulohazasini bayon qila boshladi. Omon, negadir bir-ikki bor junidan tortib ham ko‘rdi. Bechora eshak bo‘lsa, angrayib, goh nima qilsalaring qilaveringlar, endi ixtiyorim sizlarda degandek boshini solintirib, jim turaverdi. Zulayho bilan Dilbar «har kuni kechasi sizlar uxlaganda ey xudo, mushkulimizni oson qil, yo‘limizni

yaqin qil» deb yolvorardik, bu eshakni bizga xudoning o'zi yubordi, deb tushuntira boshlashdi.

– Rost, deb o'yladim o'zimcha, xudo yuborgan bo'lsa bordir.

– Aka, ustiga minib ko'raymi? – hovliqib so'radi Omon.

– Ukamni eshakning beliga mindirgan edim, hayriyat cho'changlamadi, shataloq ham otmadi, uzun quloqlarini bir chimirdi-yu, boshini egganicha tumshug'ini yerga tirab, jim turaverdi.

– Bordi-yu, egasi bo'lsa-chi? – so'radi Usmon.

– Bu atrofda qishloq yo'q-ku, – shunaqa deb o'z so'zlarida qattiq turib olishdi qizlar.

– Eshakning ustiga adyolimizni to'rt buklab tashlab. navbati bilan hammamiz minib ko'rdik, keyin ikkitadan bo'lib mindik, eng oxirida uchtdan minib sinovdan o'tkazdik. U yoq-bu yoqqa yurgazib ham ko'rdik, faqat yurganda oqsoqlanib bechoraning tumshug'i yerga tegay-tegay deb borarkan, boshqa aybi yo'q.

– Zulayho, xudodan eshak so'raganingda bir yo'la to'qimi bilan yurganini ham qo'shib so'ramagan ekansan-da, – deb hazillashtim singlimga.

– Eshagini bergan xudo to'qimini ham beradi, – shak keltirmang degandek jerkib berdi Zulayho.

Tasodifni qarangki, o'sha eshak topib olgan kunimiz ertasiga bir cho'loq it ham topib oldik. Egasi tashlab ketgan xaroba uyda tunagan edik. Ertalab yo'lga otlanayotganimizda junlari xurpayib ketgan, erkag-urg'ochiligini ham bilib bo'lmaydigan qovog'i soliq, orqa oyog'i cho'loq bir it ergashdi. Men urib haydamoqchi bo'luvdim, Zulayho:

– Qo'ying, urmang! – deb yolvordi, – ehtimol, buniyam xudo yuborgandir.

Shundayqilib ham eshak, ham itlik bo'lib oldik, lekin xudoyi taoloning bizga atab yuborgan maxluqlari xuddi bir-birini masxara qilayotgandek biri oldingi oyog'i bilan

oqsab, tumshug'ini yerga urib olay-urib olay deb yursa, boshqasi orqa oyog'i bilan oqsab, orqasi bilan yerga o'tirib qolay-o'tirib qolay deb surgalib yurarkan. «Shunisiga ham shukur» deb yo'lda davom etaverdik.

ESHAK BOZORI QAYDADIR

Bugun-erta qishlog'imizga kirib boramiz-u oftobda toblab yotgan Parpi buvamni «vah!» deb qo'rqitib yuboramiz, deb o'ylab chuchvarani xom sanab yurgan ekanmiz, buni biz eshak aravada ketayotgan chol-u kampirlar bilan suhbat qilganimizdan keyingina bilib qoldik. O'sha kuni bozor edi shekilli, ko'cha to'la odam, birovi qop ko'tarib birovi qo'y xaydab stantsiya tomonga oshiqyapti. Chol bilan kampir bo'lsa aravalariga olti qop piyoz yuklab olishibdi.

– Buvajon, aravangizning shotisidan ushlab ketsak maylimi? – deb so'radik.

– Toliqib qoldinglarmi? – savolimizga savol bilan javob qaytardi chol buva.

– Bu stantsiyaning nomi nima? – so'rashda davom etdim men.

– Veliko deyiladi.

– Qo'qonga hali uzoqmi?

– Qo'qongami? Hozir... Qo'qonga, onasi, sen bilmaysanmi, oltita dedingmi? Ha, olti stantsiya bor hali...

Mana shu gapdan keyin hammamizning qadamimiz o'z-o'zidan susayib, asta-sekin bir-birimizdan ortda qolib keta boshladik, charchog'imiz o'n chandon kuchayib ketgandek bo'ldi, hatto sho'ring qurg'ur eshagimiz ham «e-ha!» deya hangrab yubordi, kuchugimiz bir vakanglab oldi.

Olti stantsiya... Har birining orasi o'ttiz chaqrimdan bo'lgandayam bir yuz sakson chaqirim-a, aytishga oson! Bu yoqda kuz oxirlab, kechalari oq qirov tushib, atrof

sovib, tuni bilan tishlarimiz taraklab chiqayapti. Sal kunda sovuq shamollar esib, gupillatib qor yog'a boshlaydi... Bordi-yu eshakni sotib puliga bilet olsakchi, bilet bilan poyezdga chiqsa ushlaymaydi-ku? Shu haqda uch kundan buyon maslahat qilamiz, aslida ukalarim rozi-yu men sal ko'nmayroq turibman. Eshakni sotishga sotib qo'ysag-u, bilet ololmasak, unda yana avvalgidek piyoda qolamiz. Ko'ch-ko'lonimizni nimaga ortamiz, Omon bilan Robiyani kim ko'taradi. Endi ularni avvalgidek ko'tarib ketishga kuch-u madorimiz ham qolmagan, sovuq urgan poyadek qiltillashib, rahmatjon bo'lib qolganmiz.

Ho', buvajon! – deb qichqirdim uzoqlashib ketgan eshak arvaning ortidan, – bu atrofda eshak bozori bormi?

– Mol bozoriga borib so'ra, – javob qaytdi aravadan.

– Mol bozori stantsiyadan bir chaqirimcha narida, bedazorga o'xshagan kenga maydonda ekan. Bu yerda qo'ylarning bo'yniga arqon boylamasdan gala-gala xaydab kelib sotisharkan, mollar ham yog'ochdan omonatgina qurilgan qo'ralarga qamab sotilarkan. Ot bozori-yu, ishonsangiz tuya bozorigacha bor ekan bu yerda. Bitta tuya mast bo'lsa kerak, oyog'i-yu bo'yniga boylangan zanjirni uzishga harakat qilib tinmay bo'kirib turibdi...

– Eshagimizni bozorga solishdan oldin ukalarim u bilan xayrlashib olishdi. Kuchugimiz ham «xayr, ey cho'loq do'stim» degandek osmonga karab bir ulib qo'ydi.

– Eshak bozori hoh ishoning hoh ishonmang, ot bozoridan kattaroq ekan, o'ziam, bu atrofning odamlari ot o'rniga nuqul eshak minisharmikan, shunaqangi savdolashishyaptiki, asta qo'yaverasiz. Har bittasi nortuyadek-nortuyadek keladigan bel ingichka, oyog'i yo'g'on eshaklar; beli kalta, kallasi uzun, yoldor eshaklar; minishga yaqindagina o'rgatilib, ustiga kechagina to'qim qo'yilgan xushbichim xo'tikchalar... bir xillarini shunaqangi yasatishibdiki, bay-bay-bay, xuddi sotgani emas, ko'z-ko'z qilagni olib chiqishayotgandek.

No'xtasiga har xil yiltiroq pistonlar qadab, peshanasiga ko'zmunchoq osib, ustiga hoshiyali gilam to'qimalar urib chiqqanlar ham bor, otga o'xshatib egarlab, og'ziga kumush yugan solib chiqqanlar undan ko'p.

Bizning eshak bo'lsa, ochig'ini aytsam, ko'rimsizgina ekan, buning ustiga to'rt oyog'ini bir joyga to'plab, negadir dag'-dag' qaltirab ham turibdi.

- Tumshug'ini sal ko'tar, - deb shivirladim Usmon ukamga.

- Ko'tarib turaverib yelkam og'rib ketdi, - yig'lamsirab dedi ukam.

- Dumini qimirlatib qo'y bo'lmasa.

- Ichiga tortib olyapti-yu... Aka, ustiga ko'ylagimni yopib qo'yaymi? Odamlar yag'irini ko'rib, burnini jiyirib ketishyapti.

- Yopsang yopa qol, - dedim-u xaridor kutib atrofga qaray boshladim. Xaridorlarning aksariyati beliga ikkitadan belbog' bog'lab olgan qora soqolli chollar, boshiga mazzangilarning lakkasidan o'rab olgan, munkillab qolgan, tishi yo'qligidan gapirganda xushtak chalib gapiradigan kampirlar... Yoshlar kim, borlari ham armiyadan cho'loq bo'lib kelgan qo'ltiqtayoqli askarlar... «Talashib-tortishib» o'tirmay, aytganiga berib yuboraveraman, - deb ko'nglimdan o'tkazdim, - olti yuz so'm so'rasayam beraveraman, uch yuziga bilet olsak, qolganiga ukalarimga kiyim-bosh olib beraman. Parpi buvam bilan To'xta xolamga sovg'a ham olamiz...»

Ho', ana, yelkasiga xurjun osgan, oppoq soqolli chol buva bir eshakning u yoq-bu yog'iga o'tib ko'rib sal sho'xroq ekan, menga yuvoshrog'i kerak edi, orqasiga qaytdi. O'shanga ko'rsatsam-chi?

- Assalomu alaykum, bobojon! - dedim juda odobli yigitchalarga o'xshab qo'limni ko'ksimga qo'yib.

- Vaalaykum assalom, bo'talog'im, - deb sallali bobo gilam xurjunini bu yelkasidan narigi yelkasiga o'tkazib oldi.

- Sizga yuvoshgina eshak kerakmi?
- Inshoollo, bo'talog'im.
- Bizda shunaqasi bor, yuring, bir ko'ring!
- Qani-qani, bo'talog'im.

Sallali bobo yaqiniga borsam tepib oladi deb qo'rqdi shekilli, sal beriroqda to'xtab negadir o'ng qo'lini qoshining ustiga soyabon qilib eshagimizga uzoq, tikildi.

- Bay-bay-bay! - dedi keyin zavqi kelib, - bu eshakmi yoki Hazrat Alining tulporimi?

- Eshak, - dedim payqab qolmasin deb shoshilib, - o'zi juda yuvosh, tepishniyam bilmaydi.

- Bay-bay-bay, - sal orqasiga tisarildi sallali bobo, - tepish uchun oyog'ini ko'tarolmasa kerak-da, bo'talog'im?

- Tishlamaydiyam, - deb maqtadim yana.

- Og'zida tishi bo'lsa tishlaydi-da, bo'talog'im.

- Tishi bo'lmasayam xshakni yaxshi yeydi, - deb bo'sh kelmay turib oldim, - o'zi juda yosh, mana, tishlarini ko'ring endi chiqyapti.

- Bay-bay-bay! Bu jonivor o'likmi, tirikmi o'zi?

- Tirik, bobojon, xudo ursin agar tirik! Mana, yurgizib ko'ring! Usmon, orqasidan itar!

- Yo'g'-e, bo'talog'im, bu bir oy oldin o'lib ketgan eshagimning arvo'higa o'xshaydi-ku!

- Yo'q, bobojon, bu eshak boshqa eshak... Ola qoling, arzonginaga beramiz.

- Eshagingni olsam, kira haqqini kim to'laydi?

- Qanaqa kira haqqi? - dedim xayron bo'lib.

- Axir, bo'talog'im, bu jonivoring uyimga yetolmaydi, aravaga yuklab ketishga to'g'ri keladi.

- Bemalol yetadi, xudo ursin agar, Usmon, sen aytgin, - dedim yig'lavorguday bo'lib.

Usmon ukam eshakning qo'ltig'i tagidan lip etib chiqib, nima deyishini bilmay, sallali boboga qarab lablarini g'alati burib iljayib qo'ydi.

– Mayli, bobojon, sizga olti yuz so‘mga beraman, – deb yolvordim, – ola qoling!

– Yo‘q, bo‘talog‘im, menga minadigani kerak.

– Minsa bo‘ladi, Usmon, sen aytgin.

– To‘g‘ri, – gapimni tasdiqladi ukam, – uch kishi minsa ham bo‘ladi.

Sallali bobo, yelkasi charchab qoldi shekilli, xurjunini u yelkasidan bu yog‘iga yana almashtirib oldi-da, oppoq, soqolini silkitib, kula-kula nari ketdi... Olmasa olmas, deb ko‘nglimizdan o‘tkazdik ukam ikkovimiz, boshqa serpulrog‘iga sotarmiz...

Xaridorning serpuliyam kelmadi, kampuliyam kelmadi, baqiroq, dallollarga o‘xshab eshagimni maqtab birpas baqirib ham ko‘rdim, buniyam nafi tegmadi.

Faqat bizning eshagimizgina emas, boshqa gijinglagan otdeklari ham qolib ketdi. Avvaliga xafa bo‘ldim-u, keyin to‘satdan ajoyib bir fikr boshimga kelishi bilan quvonchimni ichimga sig‘dirolmay andak bo‘lmasa o‘shqirib yuborayozdim. Bu fikrim, eshakning bo‘ynini yuqoriga ko‘taraverib qo‘llari tolib ketgan Usmonga ham, akamiz eshakni yaxshi pullab kelsa, bizga no‘xatsho‘rak olib beradi deb, no‘xatsho‘rak sotayotgan ayolning qarshisida so‘lagini yutib, labini chapillatib o‘tirgan ukalarimga ham juda ma‘qul bo‘lib tushdi.

Ko‘ch-ko‘lonimizni eshagimizga ortib, cho‘loq kuchugimizni ortimizdan ergashtirib, vokzalga qarab yugurdik. Ukalarimni beriroqda qoldirib eshagimni yetaklab to‘ppa-to‘g‘ri vokzalga kirib, bilet sotadigan xonaning eshikchasini taqillatdim, eshikcha giyq etib ochilib ichkarida keksagina bir ayolning boshi ko‘rindi:

– Xizmat, yigitcha? – juda yoqimli, xuddi erkala-yotganday bir ohangda so‘radi ayol.

– Qo‘qonga bilet bormi? – dedim shoshilib.

– Bugunga yo‘q.

– Ertagalikka-chi?

– Topiladi.

– Menga to‘rtta bilet kerak.
– Qani, yigitcha, avval pulini uzating-chi.
– Xolajon, menda pul yo‘q, – yig‘lamsirab davom etdim u yog‘iga, – biletning puliga eshagimni ola qoling, o‘g‘illaringizga berarsiz.

– Nima?! – qoshlari kerilib ketdi kassir xolaning.
– Yo‘q, demang, xolajon! O‘zi eshak bo‘lsayam, juda aqlli, mana ko‘ring! Quloqlarini chimirib turishini.

Kassir xola eshikchadan boshini chiqarib eshakka ko‘z tashladi-yu, shunaqangi qattiq kulib yubordiki, eshagim cho‘chib, andak bo‘lmasa Usmonning qo‘lidan chiqib ketayozdi. Kassir xolaning tutqanog‘i tutib qoldi shekilli, boshini ichkariga tortib olgandan keyin ham kulaverdi. Ikki qo‘lini stolga urib voy, voy o‘lmasam, deb kuladi deng. Oxiri o‘zini bosib, o‘ttiz yildan buyon kassir bo‘lib ishlab bunaqasini hech ko‘rmagan edim dedi-yu, yana kulib yubordi. Bu gal og‘zini katta ochib, osmonga qarab kula boshladi.

– Menga qarang, yigitcha, mabodo siz afandi emasmisiz? – dedi nihoyat o‘ziga kelib.

– Xo‘p desangiz afandiyam aytib beraman, jon xolajon! Qiziqларidan aytaman.

– Ukaginam-ey, axir bu bilet davlatniki-ku.

– Davlatniki bo‘lsa nima qipti, eshakni ham davlatga o‘tkazib yuboraverasiz-da...

Xuddi shu paytda militsionerlarning hushtagiga o‘xshash xushtakning churillagan ovozi eshitilib qol-di. Bir sakrab tushib, orqamga o‘girilgan edim, hayriyat, militsioner emas, bilagiga qizil boylagan temir yo‘l navbatchisi ekan.

– Eshakni kim olib kirdi? – dag‘dag‘a qilib so‘radi navbatchi.

– Men, – dedim tizzalarim dag‘-dag‘ qaltirab.

– Nega olib kirding, tentak?

– Biletga almashtirmoqchiman.

– Biletga, qanaqa biletga?!

- Qo'qonga boradigan.
- Tort eshagingni!
- Tortmayman!
- Hayda deyaрман!
- Haydamayman, ukalarim qiynalib ketdi, bildingizmi! Oyoqlarimiz shishib ketdi, mana ko'ring!

Navbatchining tarafini olib boshqa odamlar ham eshagimizning orqasidan itar-itari qilishib bizni tashqariga olib chiqib tashlashdi.

PAKANA BUVA YIG'LAYDI

Toshkentdan chiqqanimizda kunbotar tomonga qarab yuruvdik, oftob orqamizni qizdirib qolardi. Endi bo'lsa, mana uch kundan buyon kunchiqdi tomonga qarab ketyapmiz. Endi oftobning ham tafti yo'q, o'zi ham nursizlanib sovuq urgan pomidordek gezarib qolgan.

To'xtamay shamol esyapti. Bu yerlarda shamol shunaqangi qattiq esarkanki, xuddi och qolgan bo'ridek uvillab yuboradi deng. Dov-daraxtlarning sarg'aygan xazonini yerga urib, yerdagi cho'p-u xaslarni pirpirak qilib osmonga olib chiqib, chiyillatib hushtaklar chalib esarkan. Hozir ayniqsa kuchayib ketdi. Chang-u to'zondan endi haligi gezarib turgan quyoshni ham ko'rib bo'lmay qoldi, o'zimizni ham ba'zan uch-to'rt metrغا surgab ketyapti. Qadrdon eshagimizga ikki ukamni mindirib, yelkalarini choyshab bilan o'rab, boshqalarimiz inidan qochgan asalarilar podshosini o'rtaga olib qochgandek, eshakni o'rtaga olib birimiz ayilidan, birimiz no'xtasidan, boshqamiz to'qimidan ushlab g'uj bo'lib ketyapmiz.

Havo ham sovigandan-sovib boryapti, ayoz yuzlarimizni chimdib-chimdib olyapti... Bir-birimizga gap qo'shmaymiz, nimani ham gaplashardik. Ko'ngilda vahimadan boshqa hech narsa yo'q... Qish yaqinlashib qolganga o'xshaydi, ust-boshimiz yupun, to'r ko'yilag-u astarsiz ko'styum... To'satdan muzlab qolsag-a, unda

nima bo'ladi? Biz mana shundan qo'rqib, mana shundan vahimaga tushib boryapmiz.

– Aka, orqada birov kelyapti, – deb turtdi meni Zulayho.

O'girilib qarasam... rost, eshak mingan chol kelayotgan ekan, lekin cholmi, bolami... bola desam boshida kattakon sallasi, iyagida qop-qora soqoli bor, chol desam bo'yi shunaqangi kichkinaki, eshakning tizginini ushlab kelayotgan qo'llari ham shunaqangi kaltaki, xuddi Omon ukamning o'zginasi deysiz... Yana o'girilib sinchiklabroq qaradim... Tovba, jinmi, alvastimi bo'lsa-ya! Shunaqa shamol esgan kunlari devlar ham yo'lga chiqadi deb ko'p eshitganman. Yo'ldan adashgan devga duch kelib qolgan bo'lsag-a!

– Aka, yaqinlashib qoldi, – shivirladi Zulayho.

– Ishing bo'lmasin, – dedim orqamga o'girilgani qo'rqib.

Chol yonma-yon kelib qoldi. Eshagi ham devdek keladigan, quloqlari uzun, oyoqlari yo'g'on ko'k eshak ekan... Yonimizdan o'ta turib:

– Chiroqlarim, bu qattiq shamolda qayoqqa ketyapsizlar? – deb so'radi.

Ovozi odamnikiga o'xshaydi. Qo'rqa-pisa yonboshimga o'girilib:

– Assalomu alaykum, – deb odob bilan salom berdim.

– Vaalaykum, mullo bo'ling, – deb eshagining tizginini tortdi Pakana buva, – oting nima, chirog'im?

– Orifjon.

– Yaxshi nom ekan, chirog'im, qayoqqa ketyapsizlar?

– Qo'qonga.

– A?! – dedi Pakana buva biz tomonga bo'ynini cho'zib, – nima deding, chirog'im?

– Qo'qonga dedim, buvajon.

– Yo'g'-e, chirog'im.

– Rost, buvajon, biz yetimlarmiz.

– Yetimlarmiz?

- H..

- Bay-bay! Qayoqdan kelyapsizlar?

- Toshkentdan.

- Toshkentdan? Bay-bay-bay! - deb to'satdan yoqasini ushlab, sallali boshini silkitib, o'zini-o'zi bo'g'a boshladi Pakana buva. Keyin mana bular kimlar bo'ladi dedi. Ukalarim degan edim, birma-bir hammalarining ismini so'rab chiqdi. Men Pakana buvaning rahmini keltirish, maboda ko'ngli yumshab qolsa, bir kechaga uyidan joy so'rash umidida ataylab o'zimni juda g'arib, juda qiynalgan qilib ko'rsata boshladim.

- Ukalarim kasal! - dedim yig'lamsirab.

- Voy bechoralar-e! - dedi Pakana buva menga o'xshab yig'lamsirab.

- Oyoqlarimiz shishib ketgan...

- Ey xudoyim!

- Qornimiz ham och!

- Yo parvardigor!

- Yurishga darmonimiz ham yo'q.

- Chirog'im, chiroqlarim, - deb Pakana buva biror yeri qattiq og'riyotgandek ko'zlarini chirt yumib, lablarini tishlab, sallali boshini silkita boshladi. Bir mahal xuddi eshon pochchalar qiroat qilgandek:

- Bugun bozorga o'xshaydir,

Yetimlar zor-zor qaqshaydir.

Alarning holiga boqsang,

Ota-onasi yo'qqa o'xshaydir.

deb she'r o'qidi-yu, to'satdan piq-piq yiglay boshladi... Ana xolos, deb ukalarim bilan ko'z urishtirib oldik, Omon yig'lagudek bo'lsa, yig'lamasang non beramiz deb aldab yupatsak bo'lardi, Pakana buvani nima deb yupatsak bo'larkin?

- Men ham bolaligimda yetim bo'lganman, - dedi Pakana buva chuqur xo'rsinib, - Miroqilxojining molxonasida katta bo'lganman. Ishlayverib mana shunaqa pakana bo'lib qolganman...

– Mayli, buvajon, yig‘lamang! – deb qo‘ydim nima deyishimni bilmay.

– Nega molni sug‘ormading deb shunaqangi urardiki, menga rahmi kelib mollar bo‘kirib yuborardi.

– Voy xudoyim-ey! – dedi kaltakdan qo‘rqadigan Zulayho.

– Ovqat o‘rniga nuqul yuvindi berardi, – yig‘lashda davom etdi Pakana buva, – bir marta yuvindi talashib itlar bilan urishib ham qolganman...

– Buvajon-ey! – deb xo‘rsindi Dilbar.

– Biror martayam yangi kiyim olib bermagan, – bu gal ho‘ngrab yig‘lab yubordi Pakana buva, – xotining eski lozimidan ko‘ylak tiktirib berardi.

– Juda xasis ekan, – deb qo‘ydim.

– Gadoy kelsa, tashqarisidan joy berardi-yu, ertalab o‘rnidan turguncha xaltadagi nonini o‘g‘irlab...

Pakana buvani hech to‘xtatib bo‘lmadi. Yetimligini tugatib, endi besh yil avval olamdan o‘tib ketgan jannatmakon xotini eslab yig‘lay boshladi. Hozirgi xotini xudoning g‘azabi ekan, Pakana buvaga hech kun bermas emish, o‘g‘li Davlatshohdan qora xat kelganiga uch oy bo‘libdi, aza ochib yurtga maraka beraylik desa, xotini ko‘nmasmish.

Pakana buva nihoyat yig‘lashdan to‘xtab «ey parvardigori olam» deb bir xo‘rsindi-yu, eshakni to‘xtatib ustidan tusha boshladi.

– Oting nimaydi? – deb so‘radi Usmondan.

– Usmon.

– Hazrati Usmon-u zunnurayn, qanday yaxshi ism-a!..

– Eshak minishni bilasanmi? Qani, uzangiga oyog‘ingni qo‘y-chi, barakalla, chirog‘im.

Pakana buva piyoda ketayotgan ukalarimni eshagiga mindirdi, ustma-ust ikkita gulli chopon kiyib olgan ekan, bittasini yechib o‘zimizning eshakda pildirab ketishayotgan Omon bilan Robiyaning yelkasiga yopdi.

– Qani, jo‘nadik endi, chiroqlarim, – dedi oxirida.

– Qayoqqa boramiz, bobojon? – sal tashvishlanibroq so‘radim.

– Qayoqqa bo‘lardi, – jerkib berdi Pakana buva, – bugun biznikida tunaysizlar, ertalab xudo yana bir yo‘lga boshlar...

Pakana buva ikkimiz piyoda jo‘nadik. Buvajonimiz endi qiziq-qiziq gaplardan gapira boshladi. O‘sha Miroqilxoji juda xasis bo‘lgan ekan, sandiq to‘la tillasi bo‘lsa ham qotgan nonni suyak kemirgandek kemirib o‘tirarkan. Qarollar ko‘pincha boyning xaltasidagi qotgan nonini olib o‘rniga suyak solib qo‘yisharkan... Pakana buva hozirgi xotini har qancha zug‘um qilsa ham, bari bir undan qo‘rqmas ekan. O‘tgan yili yozda yostig‘ining tagiga ilon yashirib qo‘yib rosa yuragini yoribdi, yaqinginada xotini uxlab yotgan uyga suv boylab yuborgan ekan, bechora xotini ertalabgacha o‘rdak bo‘lib suzib chiqibdi.

– Oting nimaydi? – deb so‘radi Pakana buva mudrab ketayotgan Omondan.

– Omon, – deb qo‘ydi ukam.

– Menga o‘g‘il bo‘lasanmi?

– Yo‘q.

– Voy, nega?

– O‘zingiz mendan kichkinasiz-ku! – dedi ukam.

Pakana buva tizzalariga urib, xaxolab uzoq kuldi, biz ham qo‘shildik.

PAKANA BUVA QAMOQDA

Shom qorong‘usida poyoni yo‘q, o‘rikszorga kirib bordik, o‘riksorning qoq, o‘rtasida atrofi paxsa devor bilan o‘ralgan yakka-yu yagona qo‘rg‘oncha bor ekan, shu yerda eshaklardan tushdik.

Pakana buva ichkariga kirib ketib yarim soatlar chamasi yo‘q bo‘lib ketdi. Nihoyat, kimdandir kaltak

yegandek lab-lunji gezarib chiqdi-yu, ikki tabaqali chetan eshikni ochib:

– Mehmonlar, qani ichkariga marhamat, – deya qo'llari bilan qo'rg'on ichkarisiga ishora qildi.

Qo'rg'on ichi ichkari-tashqarili hovlilardan iborat ekan. Tashqari hovlida molxona bilan baqamti tushgan mehmonxona bo'lib, Pakana buva bizni ana shu mehmonxonaga kiritib, o'zi chopqillagancha yana qayoqqadir chiqib ketdi. Xiyol o'tmay halloslab, chuqur-chuqur, nafas olib ichkaridan kattakon kigizni sudrab chiqdi. Yana bir kirib chiqqanida bir quchoq qurigan o'rik o'tin ham keltirib, anchadan buyon o't yoqilmaganidan namiqib qolgan kattakon o'choqqa guldiramozon qilib o't yoqib berdi.

O'choq, atrofiga davra qurib isinayotgan edik, Pakana buva yana yo'q bo'lib qoldi. Birpas kutdik, ikkipas kutdik, yo'q. Pakana buva butunlay yo'q, bo'lib ketdi.

– Bechora buvam bizga atab palov pishirayotgan bo'lsa-ya, – deb kuldi Dilbar.

– Qaynoqqina sho'rva olib chiqsa ham mayli, – deb dugonasiga hazil qildi Zulayho,

– Men-chi, bolalar, o'rik solib pishirilgan shavlani yaxshi ko'raman, – lablarini chapillatib qo'ydi Usmon.

Ovqat chiqsa shoshib qolmaylik deb kigizni uyning o'rtasiga yozib, o'tirish uchun joy hozirlab qo'ydik. O'choq yonidagi tokchada qora chiroq bor ekan, o'shani yoqqan edik, xona ancha yorishgandek bo'ldi. Uyning ichi tutundan bo'lsa kerak, mo'ridek qorayib ketibdi, tokchalarini is bosib, o'rgimchaklar in qurib olibdi.

Derazani bir qanotini ochib tashqariga mo'ralab o'tirdik. Shamol daraxtlarning yalang'och shoxiga urilib hushtak chalib o'tayapti, hovli to'la o'rikning xazoni, shamol sap-sariq, xazonlarni shildiratib goh u yoqqa, goh bu yoqqa haydab yuribdi. Itimiz shundoqqina ostonaga tumshug'ini qo'yib, biron narsa yeyayotgan bo'lsalaring men ham benasib qolmay degandek

ko'zlarini mo'ltiratib yotibdi... Pakana buva yoki chindan ham devmikan-a?.. Axir ertaklarda ham ko'pincha shunaqa bo'ladi-ku, devlar odamlarni allaqanday qo'rg'onlarga olib borib qamab, oldilariga molning tezagini qo'yib ketgan paytlari ham bo'lgan-ku...

- Katta aka, suv bering, - deb so'rab qoldi jajji singlim.

- Hozir, - deb qo'ydim Robiyaga.

- Eshikka chiqqim kelyapti, - oyog'ini tipirchilatib Omon ham.

- Birpas turgin, - deb yolvordim ukamga.

- Hozir ishtonimni ho'l qilib qo'yaman... Qo'rqa-pisa ukamni tashqariga olib chiqib keldim.

To'satdan ostonada uzun bo'yli, qomatlari kelishgan, oq ko'ylak, oq matodan avra to'n kiygan, peshanasini ham oq durra bilan tangib olgan qirq yoshlardagi bir ayol ko'rindi.

- O'tiribsizlarmi, jo'jalarim?

Hammamiz ilkis o'rnimizdan turib shosha-pisha salom berdik. Bilmadim, ayolga salom berish uchun o'rnimizdan turdikmi yoki qo'lidagi patnida nima olib kelganini bilish uchun turdikmi, har qalay, hammamiz o'rnimizdan turib ketdik. Keyin biz novcha xolaga salom berdikmi yoki patniga salom berdikmi bunisini ham bilolmay qoldim.

- Nega angrayib turibsizlar, o'tiringlar, - patnisni o'rtaga qo'ydi ayol. Patnida ikkita non, ozgina o'rik, bir choynak choy bor ekan, «issiq ovqat keyinroq chiqsa kerak» deya ko'nglimdan o'tkazdim:

- Chol buvam qanilar?

- Qamab qo'ydim, - tushuntirdi novcha xola, - o'g'illaridan qora xat kelgandan buyon mana shunaqa sal savdoyiroq bo'lib qolganlar... Yo'lda ham rosa yig'lab bergandir?

- Yo'q, unchalik emas, - deb qo'ydim.

- Meniyam rosa yomonlagandir?

- Yo'q, unchalik emas.

- Ostonadagi it sizlarnikimi?

- Ha, bizniki.
- Afti buncha xunuk?
- Qorni ochda...

Novcha xolaning yuzi xuddi yog'ochdan yo'nilganga o'xshaydi, jon asari sezilmayapti. Ko'zlari ham harakatsiz, qoshlari ham qotib qolgandek, hatto gapirganda lablari ham qimirlamas ekan, tavba qildim-ey, bu ovoz qayoqdan chiqayotgan ekan?

- Kechasi itni uyga kiritmanglar, xo'pmi?
- Xo'p.
- Chiroqni o'chirib yotinglar.
- Xo'p, - dedik yana.

Tamom-vassalom. Novcha xola xuddi kafan kiygan o'likdek, yoki undan ham ochiqroq qilib aytsam, o'likning arvohidek sharpasiz yurib chiqib ketdi.

- O'rtadagi nonga agon! - komanda berdi Usmon.

Ikkita zog'arani yettiga bo'lib (itimiz ham hamisha bir ulush yeydi), bir xo'plamdan choy bilan yutib oldiku, issiq ovqatdan umidimizni uzib, yotish tayyorgarligini ko'ra boshladik.

Eshakning oxuriga to'ldirib xazon solib chiqdim, itni ichkari kiritib chiroqni o'chirdim. Bugun ertak aytish navbati Zulayhoniki edi:

- Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir yalmog'iz kampir bo'lgan ekan, deb gap boshladi singlim.

- Egnida oq ko'ylag-u, boshida oq do'ppisi ham bor ekan, - deb o'shqirib kulib yubordi Dilbar. Kulgi sal bosilishi bilan Usmon boshini ko'tarib:

- Patnisday ikkita zog'orasi ham bor ekan, - deya kulgini yana boshlab yubordi. Charchaguncha kulishib oldik.

- Aka, bitta she'r to'qidim, o'qiymi? - so'radi Omon ukam.

- O'qi, tezroq o'qi, - chuvillasdiki ukalarim.

Omon o'rnidan turib qorong'i uyda qo'llari bilan har xil imo-ishoralar qilib, baland ovozda she'r o'qiy boshladi:

*Pakana buvi yig'laydi,
Belini mahkam bog'laydi.
Men ham yetim bo'ldim deb,
Yuragini dog'laydi.*

*Novcha xola non berdi,
Jo'jalarga don berdi.
Uyga qaytib kirganda,
Iyak qoqib jon berdi.*

Yana qiqirishib kulishdik-u bechora Pakana buva haqida o'ylab ketdik... Uni qamoqdan qanday qutqar-sak bo'larkan, shu haqda ancha mahalgacha talashib-tortishib yotdik. Oxirgi bir qarorga kelolmay dong qotib uxlab qolibmiz.

PAKANA BUVA HADYALARI

Bir mahal kimdir oyog'imdan tortib uyg'ota boshladi. Ko'zimni yirtib-tirtib qaragam, tepamda qo'lida piligi tutab turgan qora chiroq, Pakana buva turibdi:

- Tez bo'l, chirog'im!
- Siz... bu sizmi? - so'radim uyqusirab.
- Tez bo'l deyaqman, yetimcha!
- Nima qilay axir?
- Ukalarimgni uyg'ot, qochamiz!

O'lay agar, nima bo'layotganini hech tushunmayapman, shunday bo'lsayam ukalarimni uyg'otdim. Bilasizk-u, Omon uyg'onayotganida «karnay chalib» uyg'onadi. Pakana buva shosha-pisha ukamning og'zini kafti bilan berkitib: «xolang uyg'onasa ikkovimizni ham qamab qo'yadi» deb arang yupatdi uni...

Imo-ishora bilan harakat qilib, ukalarimni eshaklarga mindirib yana kechagidek Pakana buva ikkimiz piyoda jo'nadik.

Vaqt juda erta ekan, yorug' yulduz endigina chiqibdi. Shamol tikib, qora bulutlar ham qayoqdadir ko'k bo'lib, osmon charaqlab ochilib ketibdi. Havo shunday ayozki, tishlarimiz taraklab boryapti. O'rik maydonlarini ortda qoldirib, keng yalanglikka chiqqach:

– Buvajon, o'zi qayoqqa ketyapmiz? – deb so'radim.

– Qo'qonga, sizlarni qo'yib kelaman, – tushuntirdi, Pakana buva.

– Qo'qonga? – ham xursand bo'lib, ham sal-pal ishonqiramay so'radim, – Qo'qon juda uzoq-ku?

– O'sha uzoq bo'lgani uchun ham olib borib qo'yay deyapmanda, yetimcha, – xavotir oldi shekilli orqaga qarab oldi. Pakana buva, – yaqin bo'lganda ovora bo'lib utirmasdim... Lekin, chirog'im, bopladim, juda bopladim.

– Kimni?

– Kimni bo'lardi, oppoq oyimni-da. – Oppoq oyingiz kim, buvajon?

– Buncha ezmasan, yetimcha, – deb Pakana buva bir yer tepinib oldi, – xotinimni aytayapman. Ha-ha-ha! U meni boplayman devdi, men uni bopladim! Oqshom meni qo'ltig'iga qo'zi bolani qisgandek qisib, oyoqlarimni tipirchilatib, sallam tushib ketdi desam boshimga shapatilab urib omborxonaga qamab qo'ydi... Avvaliga yetimlarim och qoldi deb eshikni childirma qilib rosa chaldim. Keyin ha mayli, sen Oqoyimni bir boplamasammi dedim-da, uxlashini poylab o'tirdim. Chiroqni o'chirishi bilan xurjunni to'ldirib o'rik, mayiz, yong'oq oldim... Bir qiyiq guruch ham tugib oldim... Yo'lda palovxon to'ra qilib yeymiz... Katta xumda eritilgan yog' ham bor, o'shandan ham olay dedim-u, qorong'ida bilmasdan xumning ichiga tushib ketsam keyin chiqolmayman deb qo'rqdim... Omborxonaning orqasida o'zim uvada tiqib qo'ygan kattakon teshik bor, o'shandan chiqib kelib bunday qarasam sizlar uxlab yotibsizlar. Sen, chirog'im, uxlaganingda gapirib uxlar ekansan... Olib chiqqan narsalarimni og'ilxonaga,

oxurning ichiga berkitdim-da, opamnikiga qarab eshakni choptirib ketdim... Borib hammasini aytib berdim. Opam, qo'y ukaginam, yig'lama, yetimlaringga nonni o'zim yopib beraman deb, mana shu xurjundagi nonni tayyorlab berdi, tuxumlarniyam o'zi pishirib berdi... Tabasharning choyxonasida boplab nonushta qilamiz.

- Robiya qizim, - jo'rttaga tilini yarimta qilib so'radi Pakana buva, - tuxum yeysanmi?

- Yeyman, - qo'lini cho'zib dedi jajji singlim.

- Voy ona qizim-ey, hozir archib beraman.

Pakana buva o'zining eshagini to'xtatib xurjunga qo'l soldi, tuxum olib hammamizga ikkitadan ulashib chiqdi, keyin orqaga o'girilib «sen Oqoyim shoshmay turgin, bir boplamasammi, ko'rpangga tipratikon qamab qo'yib bir qo'rqitmasammi», deb dag'dag'a qilib qo'ydi.

Kun chiqay deganda Pakana buva aytgan Tabashar qishlog'ining kunga betgay qilib solingan, guldor shiftiga sayroqi bedanalar osib qo'yilgan hashamatli choyxonasiga yetib keldik. Quyuq nonushta qildik-u yana yo'lga tushdik.

Qiziq, bu Pakana buvaning o'zi qanaqa odam, yoki xotini aytganidek jinnimikan? Jinni desak, choyxonachi amaki uni shunaqangi hurmat bilan kutib oldiki, asti qo'yaverasiz. Taglariga qavat-qavat atlas ko'rpachalar solib choyni ham jo'mragi sinmagan qorni katta oq choynaklarga damlab berdi... Sog' desak, sog' odam ham shunaqa mehribon, shunaqa kamtar bo'ladi-mi... Bunisiga ham hech ishongimiz kelmay turibdi.

- Shunday qilib desanglar, chiroqlarim, - deb tinmay so'zlab borayapti Pakana buva, - yetimlik - bu xudoning ne'mati. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ham yetim bo'lgan ekanlar, birovlarning xizmatini qilib voyaga yetgan ekanlar... Xizmatdan bo'yin tovlamanglar, xo'pmi?

- Xo'p, - deb qo'yamiz.

- Dilozor bo'lmanglar.

- Xo'p,

– Kattalarni hurmat-u, kichiklarni izzat qilinglar.
– Yaxshi.
– Erinchoq bo‘lmanglar, maqtanchoq ham bo‘lmanglar, yolg‘on ham gapirmanglar. Ovqat yeyishdan oldin qo‘lni albatta yuvib, bismilloh deb yenglar... Mana bu qizim yaxshi qiz ekan... Oting nima edi?
– Zulayho.
– Yusuf va Zulayho, qanday yaxshi-ya, payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning jufti haloliya... Zulayho qizim, katta bo‘lsang menga kelin bo‘lasanmi? Jiyanlarim ko‘p, oltita jiyanim bor. Mana bu qora qizni ham kelin qilaman... Oting nima edi?259

– Dilbar.
– Dilbar qizim, nega sen qop-qorasan? Yoki oying o‘choqning oldida tug‘ib kuydirib qo‘yganmi-a? Yoki boshqa qozonda pishganmisan-a?.. Xo‘sh Omon botir, eshakda o‘tiraverib orqang og‘rib qolmadimi?
– Og‘ridi, – yig‘lamsirab dedi Omon.
– Yong‘oq bersam yeysanmi?
– Chaqib bersangiz yeyman.
– Hozirda, hozir chirog‘im... Senga ham beraymi, hazrati Usmon? Yo‘q chirog‘im, senga yong‘oq bermay qo‘ya qolay, maylimi? Sening burning dum-dumaloq ekan, xuddi yong‘oqqa o‘xshaydi, o‘shani surib ketaver! Ha-ha-ha!

Pakana buva shunday samimiy, shunday yurakdan kuldiki, biz ham qo‘shilib kulganimizni o‘zimiz sezmay qolibmiz.

– Buvajon, – deb chaqirdi Omon, – mana shu Usmon rasm chizishga juda usta.
– Rostdanmi? – xuddi hayron qolgandek qoshlarini kerib so‘radi Pakana buva.
– Rost, ishonmasangiz o‘zidan so‘rang.
– Rasm chizishga ustamisan, chirog‘im?
– Ustaman, – maqtanib qo‘ydi Usmon.
– Echkinging soqolini ham chiza olasanmi?

– Chiza olaman.

– Hushtakning ovozi ham chiza olasanmi?

– Chiza olaman.

– Ho'sh, qani chizchi! Vah-vah-vah! – bu gal Pakana buva shunday qattiq kuldiki, nazarimda mudrab ketayotgan eshaklarimiz cho'chib tushgandek bo'ldi, orqada sudralib kelayotgan kuchugimiz ham bir irillab oldi.

Kulisha-kulisha qorong'i tushguncha yo'l bosdik. Nimgo'sha degan bir qishloqda Pakana buvaning qarindoshlari bor ekan, bu yerda bir kecha tunab, ertasiga azon mahali yana yo'lga otlandik. Peshinga yaqin dam olish uchun kattakon bir chinor tagiga to'xtagan edik, Pakana buva Omon bilan Robiyani ikki tizzasiga o'tqazib, boshlaridan silab uzoq erkaladi. Cho'ntaklariga mayiz, yong'oq solib:

– Mening yo'g'imda yeb ketinglar, xo'pmi? – deb tayinladi.

– Buvajon, Qo'qongacha olib borib qo'yaman devdingiz-ku? – deya so'radim shoshilib.

– Yo'q, chirog'im, endi men qaytaman, – yana yig'lamsiray boshladi Pakana buva, – kolxozda molboqarman, mollarimni hech kimga tayinlamay keluvdim... Bu yog'iga endi qiynalmaysizlar, Xo'jandga oz qoldi... Xo'jand – Xo'bjam degani. Xo'bjam degani, chirog'im, yaxshilar jamlandi degani... Bu yoqda yaxshi odamlar ko'p, xudo xohlasa ko'chada qolmaysizlar. Qani, chiroqlarim, endi bir achomlashib xayrlashaylikchi! Barakalla! Iya, ona qizim, nega ko'zing yoshlanib qoldi? Sen yig'lasang menam yig'layman.

Uzoq xayrlashdik. Singillarimni yupataman deb, ko'nglim qurg'ur bo'shroq emasmi, o'zim ham yig'lab yubordim.

– Qani endi, yetimchalar, jo'nanglar-chi! – to'satdan baqirib yubordi Pakana buva.

Yo'lga tushib yigirma metrcha yurgan edik hamki, orqamizdan: «Hoy, to'xtanglar!» deb chaqirib qoldi

buvajonimiz. Eshagini jadal haydab kelib, havoning avzoyi buzuq, ukalaringning qulog'ini o'rab ketarsan deb belidagi belbog'ini yechib uzatdi... Yana yigirma metrcha yurgan edik:

- To'xta! - deb yana ortimizdan kela boshladi. To'nini yechib Omonga uzatdi, ikkovimizning bo'yimiz teng, sovqotsang kiyarsan, lekin akalaring aldasa bera ko'rma, deb soqolini silkitib kulib qo'ydi:

- Xayr endi, chiroqlarim, xudoning o'zi asrasin!

- Xayr bobojon!

- Pakana buvalaringni eslab yuringlar, xo'pmi?

- Sizni hecham unutmaymiz, bobojon!

- Hoy, to'xtanglar, chiroqlarim! Bu eshak bilan uzoqqa borolmaysizlar, eshaklarimizni almashtirib olamiz. Ukalaringni tushir, tushir deyaрман! - negadir yer tepinib, baqirib yubordi Pakana buva.

- Buvajon, axir o'zingiz qiynalasiz, - chuvillashdi ukalarim.

- Omborxonada yetti qop o'rigim bor, bahorga chiqib bir qopini sotsam, bunaqangi uzun quloqdan to'rttasini beradi... Yo xotinidan qo'rqadi deyapsizlarmi? Hechamda! Opam bilan uni shunday boplaymizki... Oqoyimning bitta ham qarindoshi yo'q! Mening to'qqizta jiyanim bor... Qani endi ukalaringni mindirchi, barakalla! Yig'lama yetimcha. Meniyam yig'lagim kelyapti, ana yig'lavordim shekilli! Aytdim-ku men ham yetimcha bo'lganman deb... Qani endi, jo'nanglar-chi, jo'na deyaрман! Orqalaringga qaramay ketinglar!

Bari bir orqamizga qarab-qarab sekinlik bilan yurib boryapmiz. Xuddi qalbimiz shu yerda qolgan-u, jismimiz ketayotgandek... Shu paytda juda qiziq, voqea yuz berdi. Itimiz cho'loqlanib bizning ortimizdan ergashdi-yu, eshagimiz qolib ketganini ko'rib uning oldiga qarab yugurdi. O'sha yerda bir oz vakanglab turgach, yana bizning ortimizdan kela boshladi. Ko'p

yurmay ortiga qaytib borib, cho'loq, eshagimiz oldida turib qoldi.

Pakana buva bir yonida eshak, bir yonida it, qo'l siltab turardi, bora-bora qo'ziqorindek kichkina bo'lib qoldi.

Besh kun yurdikmi, olti kun yurdikmi, bunisi aniq esimda yo'q, har qalay izg'irin shamol esib turgan edi, yarim tunda oyoqlarimizni arang sudrab bosib, xuddi qabrdan tirilib kelayotgandek chalajon bir holatda qadrdon qishlog'imizga kirib bordik.

To'xta xolam bizni ko'rib avvaliga ishonmadi, tushimmi, o'ngimmi deb ancha mahal angrayib turdi. Keyin to'satdan ko'zlarini katta-katta ochib:

– Bobolaring qani? – deya dodlab yubordi.

Ma'lum bo'lishicha Toshkentdan bizni so'roqlab avval militsioner, ketidan Usmon bilan Omonni o'g'il qilib olgan muallima kelib ketishibdi. Bundan uch kun oldin Parpi buvam bilan Roziq tog'am bizni axtarib Toshkentga ketishgan ekan. Sultonboy masalasiga kelsak, u allaqachon bu yerga kelib olib, bir o'zi yetti bolaning ovqatini tushirib maza qilib yurgan ekan.

– Uyg'otaymi? – deb so'radi To'xta xolam.

– Yo'q, o'zim uyg'otaman, – charchog'imni ham unutib, sakrab o'rnimdan turib ketdim, – avval alamimdan chiqqunimcha savalayman, keyin uyg'otaman... Yo'q, avval uyg'otib keyin savalayman.

ONA QISHLOG‘IM

To‘rtinchi qism

UYIMIZDA KALTAK YEGANIM

Qishlog‘imiz hamon o‘sha-o‘sha, ertalab charaqlab quyosh chiqarkan, kechqurun botib hamma yoq zimiston bo‘larkan, xotinlar mish-mish to‘qirkan, bolalar oshiq talashib bir-birlari bilan mushtlasharkan.

Yangilikning eng kattasi shu bo‘ptiki, O‘ris xola bizning maktabga ham mudir, ham rus tilidan muallima bo‘lib kelibdi. O‘zimizning detdomda tarbiyalanib yurgan «Oshqovoq» laqabli Zokirni, «Vahimachi» laqabli Rozalarni boshqa detdomga topshirmay o‘zi bilan birga olib kelibdi kolxoz idorasi yonidagi tashlandiq uyni remontdan chiqarib o‘zlariga makon qilib olishibdi.

Parpi buvam qarzini uza olmagach, ichkari hovlisini, maydon-u o‘rikzorlargacha qo‘shib Meli boqqolga berib yuboribdi. Boqqolning bir ko‘zi yaxshi ko‘rmaydi deb, armiyadan qochib yurgan katta o‘g‘li Jamolponsod bobomning uylariga ko‘chib kirib olibdi.

Hamisha men bilan Sultondan kaltak yeb yelkasini qisib yuradigan o‘g‘illariga Boqqol buva kattakon to‘y qilib beribdi. Ammo to‘yning oxiri azaga aylanib ketibdi – kechasi Boqqol buva mehmonlar bilan ovora bo‘lib poyloqchilikka bora olmagan ekan, kolxozning omborini o‘g‘ri urib ketibdi: choy, sovun, objuvozda oqlangan guruch, o‘n to‘rt qop makka... hammasini aravaga yuklab ketishibdi.

Roziq tog‘am bo‘lsa hamon o‘sha-o‘shaligicha qolibdi, to‘rtta odam to‘plangan joyda qiziqchilig-u latifabozlik qilgani-qilgan, hamon-uyida bitta kir tushag-u bitta qora qozondan boshqa hech vaqosi yo‘q, topganini bizga o‘xshagan yetimlarga yedirib yuraveribdi.

Eng yaqin o'rtog'im, sirdoshim Mahmudxon sholi to'ponidan yopilgan nonni yeyaverib, oxiri kasalga chalinib, cho'pdek ozib ketibdi, xoh ko'ring, xoh, ko'rmang chumchuq qo'riydigan poyloqchining o'zginasi deysiz.

Hayitkalla, Akram bilag'on, Abdukarim, Dilijon, Qoraborot singari o'rtoqlarimni bo'lsa, hech jin urgani yo'q, bir-birining nonini aldab yeb, bo'lar-bo'lmasga mushtlashib, ertasiga yana yarashib, «Eshak mindi-yu», «Bov ustiga bov» o'ynashib mazza qilib yurishibdi ekan.

Otam opamning vafot qilganini kimdandir eshitibdi, yig'lamoqdan beri bo'lib tatarcha xat yozibdi, bitta emas ketma-ket beshta jo'natibdi. Tatarcha tojikchaga qaraganda sal osonroq bo'lar ekan, ichidagi «bu laybul, shuayshul»ini hisobga olmasa xuddi o'zbekchanning o'zi deysiz. Men borguncha ukalaringni bag'ringga bosib o'tir, buvajoningni maslahatidan chiqma, Roziq tog'angning etagidan mahkam ushla, deb qayta-qayta tayinlabdi.

Shuncha yo'l bosib, shuncha mashaqqatlarni chekib, ukalarimni eson-omon olib kelganimga qishlog'imizdagilar meni xuddi urushdan qaytgan qahramonni kutgandek kutib, hurmat-u e'zozimni ham joyiga qo'yishar deb o'ylagandim. Yo'q, unafa qilishmadi. Bir xillar, hatto tekin ovqat, tekin kiyim-bosh, mazza qilib yuraversalaring bo'lmasmidi, deb urishib ham berishdi. Roziq tog'am, O'ris xola, Parpi buvam – xullas, hech biri xursand bo'lmadi. Hatto qaytarib olib borib qo'ymoqchi bo'lganlar ham chiqib qoldi, xayriyatki, To'xta xolam bor ekan, o'sha yonimizni olib qoldi.

Pakana buva hadya qilgan eshakni bir pud bug'doyga almashtirib, o'sha bug'doy yoniga uch yelpig'ich tariq qo'shib tortib kelgan edik, o'n besh kunga yetar-yetmas changini chiqarib yubordik.

Soy mahallalik Hoshim amaki degan odamga yog'och kerak ekan deb eshitib qoldik. Molxonamiz yangi qurilganda, yog'ochlari yo'g'on, to'sin o'rniga quloch

yetmas xarilar tashlangan. Ichiga kirib bunday chamalab ko'rsam, pullasa bo'ladigan elliktacha yog'ochi bor ekan. Shularni sotib, puliga don-dun olsak maylimi deb, Parpi buvamga maslahat solgan edim:

– Bilganingni qilavermaysanmi, o'zboshimcha! – deb jerkib berdi.

O'zi shu Parpi buvamga hech tushunolmay qoldim: avvaliga men tirik ekanman, sizlarni yetimxonaga yubormayman deb, xarxasha qilgan edi. Mana endi bo'lsa, nega ukalaringni haydab kelding, yo men yeb sen quruq qoldingmi deb jerkigani-jerkigan. Ilgarilari bo'tam, bo'talog'im deb erkalatardi, endi bo'lsa otimni «o'zboshimcha» qo'yib olgan...

Hoshim amaki! Meli boqqoldan ham xasisroq ekan. bizni shunaqangi aldadiki, sal bo'lmasa yig'lavorayozdim. Og'ilxonani o'zimizga buzdirdi. Buzgunimizcha har bitta yog'ochga bir kilodan bug'doy beraman deb turgan odam, buzib yog'ochini taxlab bo'lganimizdan keyin, e attang, chakki buzibsizlar, yog'ochlaringga qurt tushgan ekan, menga bunaqasi kerak emas deb turib olsa bo'ladimi? Ikkitasiga bir kilodan arpa berishga arang ko'ndi.

Arpa unining hech quvvati bo'lmas ekan, atala qilib ichsak ham, non yopib yesak ham, og'zimizdan qari suv kelib, darrov ochqab qolaverdik. Shuning uchun ham bir haftaga yetar-yetmas buni ham sob qilib bo'ldik. Hayriyatki, Roziq tog'am bilan O'ris xola voyenkomatdan qog'oz qildirib keb berishdi, ana shu qog'oz bilan kolxoz omboridan xaftada ikki kilo makka olib turdik. Bo'lmasa, kim biladi deysiz, qish ichi ochlikdan shishib o'lib ketgan bo'larmidik.

Har kuni och yuraverishganidanmi, ukalarim ham menga teskari bo'b qolishdi. Ayniqsa, Sulton ukamni hech eplab bo'lmayapti. U, Toshkentdan, aka-ukalarim bu yerda ekan, To'xta xolam bilan Parpi buvamlarning topganini bitta o'zim yeb, yeganim oldimda, yemaganim

ketimda mazza qilib yuraman deb, ataylab qochgan ekan. Biz kelgach, ulushi ozayib, lab-lunji osildi-yu, Omon bilan Usmon ukamni menga qarshi qayray boshladi.

Bir kuni kechqurun o'choq oldida o'y surib o'tirgandim. Ochig'i, ukalarimning kechki ovqatiga atala pishiraymi, qatirma qilaymi, qaysi biriga un kamroq ketadi-yu, qornimiz yaxshiroq qappayadi deb o'ylanayotgandim. Sulton Usmon bilan Omonni ergashtirib, hovliqqancha kirib keldi-yu, yelkamdan tortib o'rnimdan turg'iza boshladi.

- Gapir! - dedi odatdagidek qo'rslik bilan.

- Nimani gapiray? - dedim hamon o'zimga kelolmay.

- Bizni qachon detdomga olib borib qo'lasan?

- Olib bormayman! - dedim uzil-kesil qilib, - biz ketsak ota-onamizning chirog'i o'chib qoladi, tushunsangchi, axir!

- Chiroq kerak bo'lsa, o'ziga yoqaver... bizni olib borib qo'lasan.

- Opam otang qaytguncha tarqab ketmanglar degan!

- Olib borib qo'lasanmi, yo'qmi? - yoqamni siqa boshladi Sulton.

- Yo'q! - negadir baqirib yubordim... Bilmadim, mana shu baqirishim yoqmadimi yoki avvaldan maslahatni pishitib qo'yishgan ekanmi, uchov ukam meni yerga bosib, savalab ketishdi... O'zim shu kunlarda quvvatim ketib ramahtajon bo'lib yuruvdim, qarshilik ko'rsatishga hech holim kelmadi. Qarangga, men shu ukam yo'qolib qolganda begona shahar ko'chalarida bo'zlab bir necha kun yugurgan edim. Usmon bilan Omon-chi? Ikkovini Toshkentdan bu yerga yetkazib kelguncha, yo'lda ne-ne mashaqqatlarni chekmagandim!.. Hammalarini bir joyga to'plab, otam qaytguncha jamuljam qilib o'tiray desam... meni tepkilashib yotipti-ya! Qorinlari och bo'lgani uchun alamini mendan olishyapti.

- Voy, akamni urishyapti, - hovli tomonda Zulayhoniig qichqirgani eshitildi... O'tgan yili sholi

ekilgan yerlarning kurmagi sholidan ertaroq pishib, tagiga to'kilib chuqur-chaqoqlarga to'planib qolgan ekan. Kimdir uni supurib olib, oftobda obdon quritib, keliga solib tuyib yalpigan ekan, yaxshigina don chiqibdi. Zulayho bilan Dilbar ham bir haftadan buyon sholipoyalarda kurmak yig'ib yurishibdi. Bugun ham o'sha yoqqa ketishgandi, kelishganga o'xshaydi.

Singillarimning ovozi eshitib, Sul-ton o'zini ochiq derazaga urdi, ketidan Usmon bilan Omon ham shataloq otib qochib qolishdi.

- Aka, akajon, - yig'lab yubordi singlim, - nega o'zingizni kaltaklatib qarab o'tiribsiz? Nega axir?!

- Qo'y, yig'lama, - yupatdim singlimni, - o'zimiz hazillashayotgan edik.

- Hecham-da, - gapga aralashdi Dilbar, - ko'zingizning osti ko'karib ketipti-yu...

Hech narsa demadim, rosti, nima deyishimni ham bilmas edim.

AFANDILAR BRIGADASI

Bir kuni kechqurun qorovul Umurzoq tog'a uyma-uy yurib jamiki yoshlar kolxoz choyxonasiga boraversin, kattakon majlis bo'ladi, deb e'lon qilib qoldi. Ukalarimni ergashtirib men ham choyxonaga yugurdim... Yo'q, biz kechga qolibmiz, allaqachon hamma yoq odamga liq to'libdi. Men tengi, mendan sal katta, Sul-ton tengi, Zulayho tengi bolalar-u qizlar majlisdan keyin kino ko'rsatadi deb o'ylashgan bo'lsa kerak, ukalarigacha yetaklab allaqachon yetib kelishibdi.

- Nima bo'larkan? - so'radim Hayitkalladan.

- Non ulashishadiganga o'xshaydi, - tushuntirdi o'rtog'im.

- Bekor aytibsan, kalla! - e'tiroz bildirdi Akram bilag'on, - urush brigadasi tuzilarkan.

- Biz ham urushga borarmikanmiz?

– Yo‘q, dalada urush bo‘ladi shekilli, – mujmalroq javob qaytardi Akram bilag‘on.

Choyxonada g‘ovur avjiga, chiqib borayotgan edi, xayriyat, ostonada kolxozimizning ona-bola raisi ko‘rinib qoldi. Mashrab tog‘a, huv birda aytganimdek, rais bo‘lgani bilan o‘zi hech narsani hal qilolmaydi, majlislarniyam Xayri xolam bilan birga o‘tkazadi. Xayri xolam o‘tir desa o‘tiradi, tur desa turadi. Odamlar ham raisdan ko‘ra ko‘proq, Xayri xolamdan qo‘rqishadi. Nega desangiz, xolam bosmachilar avj olib ketganda paranji yopinib razvedkachilik qilgan ekan. Urush tamom bo‘lgach, katta komandir xolamga ovoz chiqarmasdan otadigan to‘pponcha hadya qilgan ekan. Odamlar ana shu to‘pponchadan juda qo‘rqishadi.

– Qani, jim bo‘linglar-chi, – qo‘ng‘iroq chalib dedi rais.

Zal suv quygandek jim bo‘lib qoldi. Mashrab tog‘a boshdan-oyoq hammaga birma-bir ko‘z tashlab chiqdi:

– Shularning hammasi o‘zimizning qishloqning bolalarimi? – so‘radi oxirida.

– O‘zimizniki, – deyishdi bolalar.

– Shu vaqtgacha qayerda yotuvdilaring?

– Kesakning tagida yotuvdik, – kulib dedi Akram bilag‘on.

Mashrab tog‘a, aftidan gapni nimadan boshlashni bilmayotganga o‘xshaydi. Oldingi qatorda Roziq tog‘amga o‘xshash cho‘loqlar bilan yonma-yon o‘tirgan Xayri xolamga bir ko‘z tashlab olgach:

– Gap bunday, bolalar, – deb qattiq-qattiq gapira boshladi nihoyat, – urush avjiga chiqdi. Battol yovni mamlakatimizdan quvib chiqarganimiz bilan hali u taslim bo‘lganicha yo‘q. Urushga qop-qop don-dun, arava-arava amirkon paxta kerak... To‘g‘rimi?

– Noto‘g‘ri, – shunday deb Hayitkalla o‘rnidan turib ketdi, – zambarakning o‘qi bilan o‘ldirib bo‘lmagan

dushmanni yumshoqqina paxta bilan o'ldirib bo'larmikan!

– Sen jim o'tir, mahmadona! – urishib berdi rais, -- don-dun, paxta yetishtiradigan otalarimiz, akalarimiz urushda. Siz bilan biz endi ularning o'rnini bosishimiz kerak, to'g'rimi?

– To'g'ri! – har tomondan qichqirishdi bolalar.

– Onalarimiz-u opalarimiz ham qiynalib ketishdi. Ularga ham yordamlashishimiz kerak.

– Men sigir sog'ishni bilmayman-ku? – deb qo'ydi Akram bilag'on.

– Yolg'on! – deb sekin o'rnidan turdi Qoraborot, – bu bola yolg'on gapiryapti. Sigir sog'ishniyam, ishtoniga yamoq solishniyam biladi bu.

Bolalar-u oldingi qatorda o'tirgan kattalar ham gurillab kulib yuborishdi. Rais ham tarvuzdek dum-dumaloq qornini silkitib bir oz kulib turdi-da, to'satdan sog' qo'li bilan stolni mushtlab:

– Jim! – deb baqirib yubordi.

Hamma yana jim bo'lib qoldi. Rais tog'a qo'shni qishloqlarda yoshlardan iborat frontovoy brigadalar tuzilgani, bu brigadalarining a'zolari dalalarda chinakan jangchilardek qahramonlik ko'rsatayotganligi haqida gapirib, bizning kolxoz pravleniyesi ham ana shunday brigadalar tuzishga qaror qilganligini e'lon qildi.

– Qarshilik yo'qmi? – deb so'radi oxirida.

– Rozimiz! – zalni boshlariga ko'tarib qichqirishdi bolalar. Kutilmaganda mening ukam Sulton qo'l ko'tarib, o'zi ham sekin o'rnidan tura boshladi:

– Men ham kolxozga kirsam bo'ladimi?

– Kimning o'g'lisan?

– Mirzapolvonning.

– Otangdan xat kelib turibdimi?

– Tatarcha xat kelyapti.

– Yaxshi, sen ham yoshlar brigadasiga a'zo bo'lding.

– Menga ham nonushta beriladimi?

- Beriladi.
- Tushlik-chi?
- Boshqalarga bermasak ham senga berib turamiz.

O'tir endi. Brigadaga boshida yozilib qo'yib, keyin ish og'irlashganda dumini xoda qilib juftakni rostlab qoladiganlarga oramizda o'rin bo'lmasligi kerak. Ha, hammani ham olavermaymiz. Yoshi o'n uch bilan o'n besh o'rtasida bo'lgan serg'ayrat yigit-qizlarni olamiz.

O'sha kuni juda qattiq tortishuvlardan keyin yigirmatadan a'zosi bo'lgan ikkita frontovoy brigada tuzildi. Past mahalladan tuzilgan brigadaga kolxozning eski qorovuli, bir oyog'ini Moskva ostonalariga tashlab kelgan Turon amaki boshliq etib tayinlandi. O'rta mahalla bolalaridan tashkil topgan bizning brigadamizga nomigagina o'qituvchilik qilib yurgan, aslida ma'lumoti Sultonnikidan ham past bo'lgan Roziq tog'am boshliq etib tayinlandi. Past mahalla bolalari o'sha zahotiyoc, bizning brigadamizga «Afandichilar» brigadasi deb laqab qo'yibdi. Biz ham qarab turmadik, Turon amakimning musallas ichsa yig'laydigan odati bor edi, shuni hisobga olib ularga ham «Yig'loqilar» brigadasi deb laqab qo'ydik.

O'n besh gektardan yer, bir qo'shdan ho'kiz, navbati bilan minish sharti bilan bitta ot-arava ham berishdi.

- Otni men minaman, - dedi Hayitkalla o'zini boshqalardan katta qilib ko'rsatish uchun bo'ynini cho'zib.

- Umringda eshak minganing yo'g'-u, - e'tiroz bildirdi Akram bilag'on, - senga aravakashlikni kim qo'yibdi, otni akang minadi!

Bir oyda o'n kunga beriladigan ot-arava rosa talash bo'ldi-yu, ammo qo'sh haydashni hech kim bo'yniga olmay naq bir soat chamasi talashib-tortishib o'tirdik. Oxiri Roziq tog'am Parpi amakidan so'rab ko'raylik, rozi bo'lsa brigadaning qo'shchisi o'sha bo'lsin, yer haydash bilan hazillashib bo'lmaydi, obi-tobiga keltirib, ag'darib

haydalmasa, yer yaxshi hosil bermaydi deb, maslahat berdi. Parpi buvam zax uyda o'tirib, shaq-shuq, moki otib bo'z to'qishdan zerikib yurgan ekan, kuniga bir yarimtadan mehnat ko'ki bersalaring, men rozi dedi.

- Ertaga, kun chiqishi bilan oqo'rikning tagiga to'planamiz, - dedi Roziq tog'am oxiri bizga javob berib, - qo'llaringda zambil-u ketmon bo'lsin.

ISH AFANDI AYTISHDAN BOSHLANDI

Roziq tog'am aytgan mahalda quloch yetmas tanasi qing'ir-qiyshiq, bo'lib o'sgan kattakon oqo'rik tagiga to'plandik. Bunday qaragam, brigadamizning a'zolari hammasi ham ajoyib bolalar, azamat qizlar ekan. Zulayho, Dilbar, Sul-ton - bizning uydan to'rt kishi chiqibmiz. Bu yoqda yengini shimarib, ko'kragini kerib Hayitkalla o'tiribdi. O'zi nimjongina bo'lsa ham ish buyursang g'ing demay ishlayveradigan, shuning uchun ham dadasining kattakon ketmonini ko'tarib chiqqan Mahmudxon, ishdan ko'ra gapni ko'p gapiradigan Akram bilag'on, aka-uka Dilijon-u Qulijonlar, yelkasi keng, bilagi yo'g'on pahlavonnamo Qoraborot, O'ris xolaning asrandi qizi, ketmon bilan belkurakning farqiga bormaydigan, ammo qaysi biri qo'liga oldin tushib qolsa joni chiqquncha ishlashga shay turgan Roza bilan Zokiroshqovoq... Yo'q, nima desangiz deyavering-ku, ammo lekin bizning a'zolarimiz chakki emasga o'xshaydi.

- Xo'sh, askarlar, ishni nimadan boshlaymiz? - so'rab qoldi Roziq tog'am.

- Afandi aytishdan, - dedi Akram.

- Esing joyidami! - xafa bo'ldi brigadirimiz, - kuzga borib punktga paxta topshiramizmi yoki afandi aytib beramizmi?

- Afandi aytib beraveramiz.

- To'g'ri, avval bitta afandi aytib berasiz.

- Aytmasangiz ishlamaymiz.

- Bolalar, men ish tashlash e'lon qildim, - deb brigadamiz a'zolari har tomondan chuvillab qolishdi. Roziq tog'am avvaliga jahli chiqqanidan lunjini shishirib, qizarib-bo'zarib o'tirdi-yu, keyin to'satdan sharaqlab kulib yubordi:

- Obbo senlar-ey, ha mayli... - shunday deb brigadirimiz yana bir kulib oldi, - Mulla Nasriddin yoshligida mana bu Akramga o'xshab sal shaytonroq ekan-u, bir domlaga shogird tushibdi. Bir kuni domlanning muridi tovoqda asal bilan to'rtta yog'liq patir tashlab ketibdi. Domla peshin namoziga keta turib: «bo'tam, tovoqdagi zahar bo'ladi, tega ko'rmang» deb tayinlab ketibdi. Chiqib ketishi bilan Mulla Nasriddin tovoqdagi asalni haligi nonlarga qo'shib pok-pokiza tushirib tek o'tiraveribdi. Domla kelib: «Kosadagi zahar qani?» - deb qichqiribdi. Mulla Nasriddin: «Taqsir, behosdan siyohdoningizni sindirib qo'yuvdim, kelguningizcha o'lsam o'lib qo'ya qolay deb zaharni poqqos ichib yubordim» deb javob qaytaribdi. Roziq tog'am latifasini tugatib, bolalar tag'in aytib berasiz deb chuvillab qolishidan qo'rqdi shekilli, to'satdan, juda ham jiddiy bir ohangda gap boshlab yubordi... Kolxoz pravleniyesi bizga zo'r ishonch bildiribdi, qo'limizga yer, suv, xo'kiz berib qo'yibdi. Ana shu ishonchni oqlash uchun kechasi-yu kunduzi ishlab yuqori hosil ko'tarishimiz kerak ekan. Buning uchun g'aflatda qolmay, uyma-uy yurib, go'ng chiqarishimiz zarur ekan. Har bir gektar yerga kam deganda ellik tonnadan go'ng solmaguncha mo'ljaldagi hosilni olish haqida o'ylamasak ham bo'laverar ekan.

- Fuu, - deb burnini jiyirdi Roza, - go'ng sassiq bo'ladi-ku, paxtaga hidi urib qolmaydimi?

- Burningga latta tiqib qo'yamiz, qizaloq! - gapga aralashdi Hayitkalla. Rozaning tutingan akasi Zokiroshqovoq singlimni haqorat qildi deb o'ylab, Hayitga qarab mustht o'qtaldi:

– O‘zingning burningni yerga ipqab qo‘yaman!
Hayitkalla xuddi birov oyog‘ini bosib olgandek dik etib o‘rnidan turib ketdi:

– Nima deding, g‘o‘ppa semiz, yana bir takrorla!

Roziq tog‘am bir o‘shqirib bergan edi, xayriyat, ikkovlari ham jim bo‘lib qolishdi.

Brigadamizga tabelchi bo‘lmasa ham tabelchiga o‘xshab ishga chiqqanlarning ro‘yxatini olib, bajargan normalarini yozib yuradigan bir bola kerak ekan.

– Xo‘sh, bu vazifaga kimni ko‘rsatasizlar? – so‘radi brigadirimiz.

– Orifni! – chuvillashdi bolalar, – o‘zi juda halol, rostgo‘y, afandi aytishga ham usta.

– Yaxshi. Xo‘sh, oshpaz kim bo‘lsin?

– Zulayhodan ustasi yo‘q, – deyishib brigadamiz a‘zolari singlimni oshpazlikka tayinlab yuborishdi. Roziq tog‘am kolxoz bitta sog‘in sigir bermoqchi, eplay olamizmi degan edi, bolalar o‘ylanib qolishdi. Ochig‘i, men ham o‘ylanib ketdim... Bordi-yu, sigirni boqishni men bo‘ynimga olsam-chi, ukalarim Usmon, Omonlar bekorchi, axir sigirni olsak bularga ermak bo‘ladi-ku, undan keyin sutidan uncha-muncha o‘zimizga ham tegib turadi-ku... fikrimni ko‘pchilikka aytgan edim, Hayitkalla bosh chayqab «bo‘lmaydi» deb qo‘ydi.

– Xo‘sh, nega bo‘lmas ekan? – shoshilib so‘radi brigadirimiz.

– Orif kechasi sigirni emib qo‘yadi, – kulib dedi Hayitkalla.

l’oshkentdan qaytayotganimizda yo‘lda sigir emganimizni o‘rtoqlarimga bir necha bor so‘zlab bergan edim, shuning uchun ham Hayitkallaning bu gapi ularni kuldirib yubordi.

– Yo‘q, sigirni Orifga bersa bo‘ladi, – o‘rnidan turib dedi Akram bilag‘on, – lekin bitta sharti bor.

– Qanaqa shart? – so‘radi brigadirimiz.

– Kechasi sigirning emchagiga xalta tutib qo‘yish kerak.

Yana o'rtada kulgi ko'tarildi. Kulisha-kulisha sigirni faqat dalada sog'ish sharti bilan bizga in'om qilib yuborishdi.

O'rnimizdan turib bizga ajratilgan yerlarning chegarasini aniqlash bilan mashg'ul bo'ldik. Hammasi bo'lib, hosildor yerlar ekan-u, lekin urush boshlangandan buyon ekilmay yovvoyi o't bosib ketibdi. Baxtimizni qarangki, laxtay-luxtay yerlarimiz orasida yarim gektarcha keladigan o'rikzor, qachonlardir yashab olamdan o'tib ketgan Uzoq jinni degan odamdan qolgan uzumzor bog' bor ekan. Bu yil meva-chevani burnimizdan chiqquncha yer ekanmiz deb, o'yladig-u, hammamiz ham o'zimizda yo'q, xursand bo'lib ketdik.

Qichqirishib, bir-birimizni quvlashib qishloqqa qaytib, uyma-uy yurib ko'chaga go'ng chiqara boshladik. Toshkent yo'lida boshimizdan kechgan voqealarning ipidan ignasigacha xabardor bo'lgan Hayitkalla biron kishining ko'cha eshigi oldiga borib, belkurakni hassa qilib, xiyol engashadi-da:

– Haq, do'st yo oblo! Yetimlarga go'nggingizdan ozgina sadaqa qilib yuboring, – deb hazil qiladi.

– Sigirning tappisi bo'lsa ham mayli, – deb qo'yadi Akram bilag'on.

– Qo'yning qumalog'ini mayiz o'rnida ko'ramiz, – hazilni davom ettiradi Qoraborot.

Biz qiyqirishib kulgan bo'lamiz.

O'sha kuni naq qorong'i tushguncha ishlab, ishonsangiz, zig'ircha ham charchamadik.

MO'L HOSIL UCHUN JANGGA

Ammo, bir xursandchilik ketidan bir xafachilik deganlaridek, ertasiga ertalab dilimiz rufton bo'ldi. Biz tashqariga chiqargan go'naglarni kechasi bilan allakimlar tashib ketibdi. Xonadonlar qaytarib olib kirib ketdimi

desak, yo'q, hammalari qasam ichishdi. Lekin oradan bir soat o'tar-o'tmas go'ngni kim o'g'irlagani ma'lum bo'lib qoldi. Ot bilan arava «Yig'loqilar» brigadasida edi, go'ngni tuni bilan uxlamay o'shalar tashib olishibdi. Hoziroq borib qaytarib olamiz deb besh-o'ntamiz yeng shimargan edik, Roziq tog'am: «arzimagan go'ngni deb janjallashib o'tiramizmi, xali xonadonlarda go'ng ko'p...» deb rozilik bermadi.

Kechqurun ishdan qaytayotganimizda Akram bilag'on bilan mening o'rtamda taxminan bunday suhbat bo'lib o'tdi:

- Beshbolali, - shoshilib dedi Akram.

- Nima deysan? - deb qo'ydim.

- Sen tabelchimisan o'zi?

- O'zlaring saylab qo'ydilaring-ku!

- Brigadamiz a'zolarining mehnatiga joning achishadimi?

- Achishganda qandoq.

- Bo'lmasa, go'ngni o'g'irratib qarab turaveramizmi?

- Roziq tog'am ko'nmayapti-ku axir.

- Unga bildirmasdan hal qilsak-chi?

- Qanday qilib, qani ayt-chi?

Obbo azamatlar-ey, obbo shaytonlar-ey! Men bilan brigadirga bildirmasdan allaqachon maslahatni pishitib qo'yishdi, ya'ni kechasi go'ngni o'z dalamizga tashib olishga qaror qilishibdi.

- Rozimisan? - dedi Akram sal cho'chibroq.

- Rozi bo'lganda qandoq, - dedim xursand bo'lib.

- Parpi! buvangni eshagini minib chiqasan, xo'pmi?

- Xo'p.

- Sultonniyam olib chiq, baquvvat bola, yaxshi yuk ko'taradi. Lekin qizlar bilmasligi kerak, xo'pmi?

- Xo'p dedim-ku, ezma.

O'sha kuni o'n to'rt bola, to'qqiz eshak naq tong otguncha tinim bilmay ishladik. Mahallamizning eshaklari ham bizga o'xshash sho'x bolalar bilan

ishlashni orzu qilib yurgan ekanmi yoki eshak zoti aslida kechasi yaxshi yuk ko'tarar ekanmi, ishqilib shunaqangi unumli ishladiki, asti qo'yaverasiz... Ammo, aslida men sizga mana shunisini, ya'ni ertasiga kechasi go'ng-tepada bo'lib o'tgan katta mushtlashuvni aytib bermoqchi edim. Biz, ochig'ini aytsam, mushtlashmoqchi emas edik, yo'q, xudo ursin agar, boshida bunaqangi niyatimiz yo'q edi. Ertasiga tuppa-tuzuk ishlab, Esonbuva degan cholning chordevorxonasini buzib, tuprog'ini ko'chaga chiqardik. Kechqurun xayrxo'shlab uy-uyimizga tarqalib ham ketdik. To'satdan, ha-ha to'satdan, brigadamizning eng kichik a'zosi bo'lmish Yunus:

- Orif aka! - deb chaqirib qoldi meni.
- Nima deysan! - dedim hovlida turib.
- Bu yoqqa chiqing!
- O'zing kiraver.
- Yelkamda yuk bor.

Yugurib oldiga chiqdim. Ish chatoq bo'пти. Yunus yelkasida yuki bilan tegirmonga ketayotgan ekan, «Yig'loqilar» brigadasi a'zolari bizning go'ngimizni yana o'z yerlariga tashishayotganini ko'rib qolibdi.

Oyog'imni qo'limga olib Akram bilag'onlarnikiga yugurdim, Akramni yonimga olib Hayitkallani izlab ketdik. Yarim soat o'tar-o'tmas o'n to'rt bola jamuljam bo'lib, kaltag-u tayoqlar bilan qurollanib mo'l hosilning garovi bo'lgan go'ngtepamizni qo'shni brigada a'zolaridan himoya qilish uchun dalaga qarab yugurdik. «Yig'loqilar» rostdan ham qimmatli o'g'itimizga mo'ri-malaxdek yopishib, biri qopda, biri chelakda zipilashib tashib ketishayotgan ekan. Hatto poyloqchi ham tayinlab qo'yishibdi. Past mahalla bolalari bizning mahalla bolalari bilan talashib-tortishib, ko'pincha bizdan yengilishib yurishardi. Alam qilgandan bizga har xil laqablar ham qo'yishgan. Biz ham qarab turmasdan biriga Abbas malla, boshqasiga Odil salla, uchinchisiga

Olim chala, to'rtinchisiga Miyon atala deb laqab qo'yganmiz. Hozir mana shu alamzadalar bizga qarab xo'mrayishib turibdi.

– Go'ngni tashla! – dedim Miyon atalaning yoniga borib. Boshqasining oldiga borsam ham bo'lardi-yu, lekin Miyon atala tabelchi edi, tabelchi tabelchi bilan gaplashgani ma'qul deb shunday qildim.

– Go'ng kolxozniki! – dedi Miyon atala entikib.

– Tashla, deyapman!

– Tashlamayman, yetimcha, yetti kulcha!

– Kim yetimcha!

– Sen, beshbolali yetimchasan.

– Tilingni tiy.

– Toshkentdan kela turib tilanchilik qilgansan, gadoysan! Kartoshka o'g'irlagansan. Endi bizning go'ngimizni tortib olmoqchimisan. Nari tur, qorningni tilib tashlayman!

Men, hali sizga aytdim-ku, xudo ursin agar, mushtlashmoqchi emas edim. Lekin o'zingiz ham ko'rib turibsizki, junday past kelsam nomim qo'rqqoqqa chiqadi, tabelchilik sha'nimga dog' tushadi! Keyin... Keyin yil oxirigacha bu sallayu mallalar bizga kun berishmaydi. «Go'ng o'g'rilariga o'lim!» – deb beixtiyor baqirib yubordim.

«Yig'loqi»lar ham, aftidan, katta mushtlashishga tayyorgarlik ko'rib chiqishganga o'xshaydi. Nega desangiz, hammalari yeng shimarib saf tortib turishibdi.

– Mo'l hosil uchun jangga! – deb buyruq berib Miyon atala ko'kraginga bir tushirdi.

Bir nafas ichida hammamiz aralash-quralash bo'lib ketdik. Goh biz zo'r kelib yumshoqqina go'ngtepa ustiga «Yig'loqi»larni bosib olamiz, goh, ular kuchayib ketib bizni piypalab ketishadi. Xayriyatki oramizda Sulton bilan Qoraborot bor ekan, shu ikkovi naq beshtasini quvlab o'z yerlariga qo'yib keldi. Bir mahal tagimda yotgan Miyon atala:

– Orif, ke endi yarasha qolaylik, – deb qolsa bo‘ladimi.

– Endi go‘ng o‘g‘irlamaysanmi? – deb so‘radim.

– Yo‘q.

– Qasam ich bo‘lmasa.

– Qorningga atala ursin! – deb qasam ichib yubordi Miyon atala.

E boringki, goh urishib-talashib, goh o‘ynashib, kulishib o‘n kun deganda dalamizni mahalliy o‘g‘itga to‘ldirib yubordik. Kolxozimizning ona-bola raisi xursand bo‘lib, mukofotiga bir yo‘la uch kilogramm mol go‘shti berdirib yuboribdi.

UCH PAR ETIK TAQSIMOTI

Mariya Pavlovna brigadamizga har kuni keladi, tushlik mahalida ko‘pincha gazetalar o‘qib beradi, urush axborotlaridan so‘zlab beradi. Keyin Roziq tog‘am bilan iyagini-iyagiga tirashib olib biz bilmagan allanarsalar to‘grisida gaplashishga tushib ketishadi. Bugun O‘ris xola negadir xuddi to‘yga kelgandek yasan-tusanni joyiga qo‘yib, kiyimlariga xushbo‘y atir sepib kelibdi. Bir chekkaga o‘tirib yana sirli suhbat boshlashgan edi, qani bilaychi, nimalar haqida gaplashishar ekan deb qumg‘ondagi sovib qolgan choyni ko‘tarib sekin yonlariga bordim. O‘ris xola bolalarni maktabga yubormasdan ishlatishingiz yaxshi emas, tushgacha ishlab, tushdan keyin o‘qishiga borib tursin deyapti. Roziq tog‘am, meni savodsiz deb maktabdan haydaganingiz ham yetar, endi mening ishlarimga ko‘pam aralashavermang, deb qo‘yyapti.

– Aralashaman, – dedi to‘satdan jonlanib O‘ris xola, – davlatga avvalo o‘qimishli kadrlar kerak.

– Bugun davlat bizdan paxta so‘rayapti!

– Avval o‘qish, keyin paxta deyapman, – deb O‘ris xola sekin o‘rnidan tura boshladi.

– Avval paxta, keyin o‘qish deyapman! – shunday deb turtina-surtina Roziq tog‘am ham o‘rnidan tura boshladi. Ikkovlari bir-birlariga yaqinlashib, g‘alati-g‘alati qarashlar qilib tikilishib qolishdi. Men hozir mushtlashib ketishsa kerak, mabodo shunday voqea yuz bersa, qaysi birining yonini olsam ekan deb qiynalib turuvdim, yo‘q, oqishlarida mehr-shafqat, o‘pka-gina va yana men tushunmaydigan allaqanday ifodalar borgan o‘xshab ketdi.

– Obbo Maryamxon-ey, – kulib yubordi Roziq tog‘am. – o‘zingiz ham O‘risga o‘xshab ja cho‘rt kesar ekansizda.

– Axir o‘zim o‘risman-da, – deb Mariya Pavlovna ham xandon otib kulib qo‘ydi.

Qo‘l olishib qilichmi-to‘qmoq qilishmadi-yu, lekin yarash-yarash qilib olishdi. O‘ris xola bizning brigadamizga yana yigirmata o‘quvchi ajratib, a‘zolarimizning sonini qirqqa yetkazadigan, yigirmatasi tushgacha, qolgani tushdan keyin ishlaydigan bo‘ldi. O‘qish ham to‘xtamaydi, ish ham yotib qolmaydi, mo‘l hosil uchun jang ham davom etaveradi.

– Kelishdikmi? – qo‘lini uzatib dedi O‘ris xola.

– Qo‘llaringiz biram yumshoqki! – dedi Roziq tog‘am negadir sholg‘omdek qizarib.

O‘ris xola kechgacha bizning dlamizda qolib ketdi. Asrandi o‘g‘li Zokirqovoq bilan qo‘li qavarib ketmon ushlay olmay qolgan Rozaga yordamlashib yurdi. Kechki ovqatni ichgach, hammamiz idoraga majlisga jo‘nadik. Kelsak, hu birda aytganim, kolxozning klub desa klubga, choyxona desa choyxonaga o‘xshamaydigan katta binosi odamga to‘lib ketibdi. Kattalarning aytishicha, bu bino kolxoz yangi tuzilgan yili qurilgan ekan. Bino bitgandan keyin bunday qarashsa, ichida haligi g‘ildiragi katta qo‘qon arava bo‘ladi-ku, ana o‘shandan bittasi qolib ketibdi. Buni qanday olib chiqdik endi deb rosa bosh qotirishibdi. Bittasi buzib olib chiqaylik desa, boshqasi

kolxoz mulkini buzib bo'lmaydi debdi. Oxiri klubning tomini buzib aravani tepadan tortib olishibdi.

Klubda odam ko'p, men tengi, mendan kichik bolalar, oldingi qatorda soqolini silab savlat to'kib o'tirgan chollar, bolasini emizib o'tirgan ayollar, iyagini-iyagiga tirab suhbatlashayotgan kampirlar, bo'lar-bo'lmasga qiqirlashib kulishayotgan qizlar, xullas, butun qishloq yoppasiga ko'chib kelganga o'xshaydi.

Qatorlarda taxminan mana bunday suhbatlar ham bo'lib turibdi:

- Oynisa, eshitdingizmi, Robixonni ko'zi yoribdi-ya!
- Voy, erining urushga ketganiga uch yil bo'ldi-yu.
- Bolasi ichiga yopishib qolgan ekan!
- Dilbar, eringdan xat bormi?
- Uch oydan buyon dom-darak yo'q.
- Menikiyam, negadir, yozmay qo'ydi.
- Ha, ishqilib, omon bo'lishsa bas.
- Bekobodlik bir yigit ikki oyoqsiz qaytibdi, eshitdingizmi?

- Eshitdim, xotini to'shakka o'rab chaqaloqdek ko'tarib yurgan emish...

- Parpi buva?
- Labbay bo'tam.
- Kechagi hafta bozorga boroldingizmi?
- Bordim, bo'tam.
- Narx-navo qalay?
- Bir kilo bug'doy uch yuz so'm sotilyapti.
- Eshitdilaringmi?
- Nimani?
- Parpi buvam jo'natgan zambarak teskari otayotgan emish.

- Kim aytdi?
- Kecha Yaypandan eshitib keldim.
- Yo tavba!

E boringki, mana shunaqangi mayda-chuyda gaplar avjga chiqib borayotgan edi, xuddi shu paytda

kolxozimizning ona-bola raisi klubga kirib kelishdi. Xayri xolam pastga, mish-mishlar tarqatib o'tirgan ayollarning yoniga o'tirdi, Mashrab tog'am sahnaga chiqib jiringlatib qo'ng'iroq chaldi. G'ovur bosilgach:

– Umrzoq buva, odamlarning bori shumi? – deb so'radi.

– Hozircha shu, – deb qo'ydi qorovul.

– Mayda bolalarni nega haydab keldingiz, nima, men bular bilan lapta o'ynaymanmi?

– Majlisdan keyin «eshak mindi» o'ynasak ham bo'ladi, – deb kuldi Hayitkalla.

Odamlar kulmoqchi bo'luvdi, rais qovog'ini solib yana qo'ng'iroq chaldi:

– O'rtoqlar, yigitlarimiz urushda jon olib jon beryapti... Siz bilan biz haligacha da laga qo'sh chiqara olganimiz yo'q. Qattiq musobaqalashib ishlayotgan ikkita yoshlar brigadasini hisobga olmaganda boshqa brigadalarda go'ng chiqarish ham, ariq-zovur tozalash ham chatoq... Ertadan boshlab ishga boshqacharoq kirishmasanglar hammangni yoppasiga armiyaga jo'natib yuboraman.

– Kampirlarni hammi? – deb so'radi Akram bilag'on.

– Sen, tirrancha, jim o'tir, bo'lmasa seniyam qo'shib jo'nataman! – o'shqirib dedi rais.

Oldingi qatorda chollar bilan yonma-yon o'tirgan Parpi buvam sekin o'rnidan turib: «Hozircha ariq-zovuringni qo'yatur, hali yer muzdan bo'shagani yo'q. Lekin sen bitta savolga aniq javob ber» deb qistalang qilib turib oldi.

– Xo'sh, qanaqa savol ekan? – jahli chiqqandek bir ohangda so'radi rais.

– To'rt yashik kir sovun keldi deb eshituvdik, shu nima bo'ldi?

– Sotdik.

– A? – qulog'ini qo'li bilan rais tomonga burib so'radi Parpi buva.

– Sotib puliga xo‘kizlarga kunjara oldik.

– Tavba, – deb qo‘ydi Parpi buvam, – ha mayli. Uch yuz metr ko‘rpalik chit keldi deb eshitdik. Nega uni taqsimlamayapsan? Odamlarning kiyimini qara, yamoq tushaverganidan eshakning to‘qimiga o‘xshab qalin tortib ketibdi...

– Chitniyam sotdik.

– A?!

– Ha, sotib puliga tegirmon toshi oldik.

Odamlar o‘rtasida g‘ovur boshlandi. Chollar ham, bolalar ham, kampir-u bo‘y qizlargacha gapga tushib ketishdi. Rais qo‘ng‘iroq chalgan edi, g‘ovur bosilish o‘rniga, qaytaga avj ola boshladi. Xayri xolam shartta o‘rnidan turib:

– Hoy musulmonlar! – deb polni bir tepib qo‘ydi.

Odamlar Xayri xolamdan qo‘rqishar ekan, zal suv quygandek jimjit bo‘lib qoldi. Parpi buvam ham, tavba qildim, endi qilmayman degandek boshini egib oldi.

Xayri-xolam kolxozda bor-yo‘g‘i bitta traktor bor, shuning yoniga yana o‘ttiz qo‘sh ho‘kiz dalaga chiqmasa to‘rt yuz gektar yerni haydab bo‘ladimi, ho‘kiz yem yemasa omoch tortolmaydi, endi tegirmon toshi masalasiga kelsak, tegirmonsiz qishloq qishloq, bo‘ptimi, bir kap arpa yoki tariq tortib kelish uchun qo‘shni qishloqqa qatnash uyatku, qani kim shu ishlarga qarshi bo‘lsa o‘rnidan tursin, deb o‘tirganlarga bir-bir ko‘z tashlab chiqdi.

Hech kim o‘rnidan turmadi, demak, masala ravshan. Tegirmonsiz ham, ho‘kizlarni qo‘shmasdan ham ish bitirib bo‘lmas ekan.

– O‘rtoqlar, – dedi o‘zini bosib olgan rais amaki, – o‘rtoq kolxozchilar! Ruxsatingiz bilan «Qahramon» kolxozining umumiy majlisini ochiq, deb e‘lon qilaman.

Qarsak shunaqangi qattiq yangradiki, naq bo‘lmasa klubning tomi osmonga uchib ketayozdi. Bunday qarasam qarsakni nuqul bolalar chalyapti. Majlisdan

haydab chiqarilmaganlari uchun mening o'ртоqlarim o'zlarida yo'q, xursand edi, shu xursandchilik qarsakka aylanib borardi...

Rais qo'ng'iroq chalib:

- Xo'p, - deb qo'ydi cho'zib, - hay'at saylab o'tirmaylik. To'g'rimi?

- To'g'ri! - deyishdi bolalar hech narsaga tushunmay.

- Ko'riladigan masala bitta, yoki sizlarda qo'shimcha bormi?

- Bizda qo'shimcha yo'q, - dedi bizning qatorda o'tirgan bolalardan bittasi.

- Bo'lmasa, o'ртоqlar, kolxozga uch par kerzi etik kelgan. Shuni taqsimlash masalasini ko'rib chiqamiz. Qarshilar yo'qmi? Yo'q, bo'lsa, doklad uchun so'z o'zimga... Parpi buva, nega siz hiringlab kulyapsiz, yoki men maymun o'ynatayapmanmi? Xo'p... o'ртоqlar, rayon matlubot jamiyatidan uch par etik olindi. Bir parini qishi bilan yaxob suvi quyib chiqqan Usmon brigadirga bersak. Ikkinchi parini raislaring bo'lganim uchun menga bersalaring... Xo'sh, uchinchi parini kimga beramiz?

- Roziq tog'amga! - deb qichqirishdi bizning brigada a'zolari.

- Turon amakiga! - deb chuvillashdi «Yig'loqi»lar.

- Bo'lmasa, - davom etdi rais, - ikkita yoshlar brigadasiga boshchilik qilayotgan ikkita cho'log'imiz bor, etikni bir poydan shu ikki cho'loqqa bo'lib bersak. Qarshilik yo'qmi? Yaxshi, bo'lmasa shu bilan kun tartibimiz tamom. «Qahramon» kolxozi a'zolarining umumiy majlisini yopiq deb e'lon qilaman.

Odamlar majlisdan qattiq ranjib chiqishdi. Tonnalab guruchlar yo'q bo'lib ketyapti-yu, qayoqdagi to'ng'izning terisidan bo'lgan uch par etikni taqsimlash uchun bizni ovora qilib o'tiribdi-ya, deb ichida so'kinib borayotganlar ham, «aslidaku seni raislikdan allaqachon olib tashlash kerak edi-ya, ammo lekin katta buvingning

to'pponchasini hurmat qilamiz-da», deb oshkor gapirib borayotganlar ham bor.

Men bo'lsam... Negadir xursandman. Kolxozga a'zo bo'lib, kattalar qatori qo'l ko'tarib ovoz berganimdanmi, yoki singlimdan ham menga mehribonroq, bo'lib borayotgan Dilbar shu paytda men bilan yonma-yon ketayotganidanmi, nimadanligini bilmayman-u, lekin juda-juda ham xursandman. Dilbar, ishonsangiz, ukalarimni ham jon-dilidan yaxshi ko'rib qoldi. Toshkentdan qaytganimizdan keyin O'ris xola Dilbarni o'ziga olmoqchi edi, ko'nmay, turib oldi, shular och bo'lsa och, to'q, bo'lsa to'q, bo'lib yashayveraman dedi. Mana endi Dilbar ham men qatori kolxozchi, kuniga bir tovoq osh-u ikkita zog'oraga ishlab turibdi, yarmini yeb yarmini ukalarimga beryapti.

– Dilbar, nimalarni o'ylab ketyapsan? – so'radim orqada kelayotgan qora qizdan.

– Har narsalarni, keyin sizniyam o'ylayapman.

– Mening nimamni o'ylayapsan?

– Sizga juda qiyin. To'xta xolam, bechora Orifim bolaligidayoq chol bo'lib qoldi deyapti... Orif aka, bugundan boshlab hecham ikki norma ishlamaysiz, xo'pmi?

– Xo'p.

– Orif aka.

– Nima deysan?

– Bir narsa aytсам hech kimga aytmaymizmi?

– Hech kimga aytmayman.

– Roziq tog'am Mariya Pavlovna bilan turmush qurarmish.

– Kim aytdi?

– Xotinlardan eshitdim.

QISHLOQDA SHAYTON ORALABDI

Bahor boshlanishi bilan shunaqangi qattiq, ocharchilik boshlanib ketdiki, vahimasining o'ziyoq, odamlarni sulaytirib qo'ya boshladi...

Kolxoz ombori ham To'ti xolamni non qutisiga o'xshab qurib qoldi.

Bizga makka bermay qo'yishdi. Birdan-bir tirikchiligimiz shu brigadada ulashiladigan yarimtadan non-u, Zulayhoni yovg'on ovqati, buniyam ukalarim bilan bo'lishib ichamiz.

Ozib, darmondan ketib, rangimiz allanechuk sarg'ayib keta boshladi. Sulton avvaliga g'ingshib, tuzukroq ovqat topib bermasang, uyingni buzib sotib yuboraman deb, do'q-po'pisa qilib yurdi-yu keyin to'satdan jim bo'lib qoldi.

Xuddi ana shu Sulton jim bo'lib yurgan kunlarda qishlog'imizga ona-bola shayton oralab hammaning yuragini taka-puka qilib yubordi. Xoh ko'ring, xoh ko'rmang shohdor echkinging o'zginasi emish, dumi bir quloch kelarmish, ko'zi to'rtta emish-u to'rtovi ham yal-yal yonib turarmish, ba'zan odamga o'xshab gapirib ham yuborarmish, devorlardan sakrab o'tarmish, deraza oldiga kelib o'yinga tusharmish, qozonda ovqat bo'lsa paqqos yeb o'rniga suv quyib ketarmish, nazari tushsa non qutidagi nonlar ham molning tezagiga aylanib qolarmish.

Mana shunaqangi mish-mishlar ko'payib, kechqurunlari ko'chaga chiqqani qo'rqib, chiqsak ham goho ishtonimizni ho'l qilib qaytib, butunlay uyga gamalib qoldik. Bunchalik qo'rqmas ham edig-u, lekin o'sha ona-bola shaytonni o'zimiz ham ikki marta ko'rib qoldik. Bir marta hovlida, dumini dikonglatib o'ynayotganda, bir marta og'ilxona vayronasi o'rnida, ko'zlari lovillab yonib turganda ko'rib qoldik. Hayriyatki, Parpi buvam bilan To'xta xolamlar bor

ekan, kechalari chiqib biz bilan birga yotishyapti. Bo'lmasa kim biladi deysiz, ahvolimiz nima kechgan bo'lardi.

Lekin Sulton bilan Usmon bo'lsa bu vahimali gaplarga parvo ham qilishmadi, aksincha, shunaqangi mish-mishlar ko'paygandan buyon uyda o'tirmay, yarim kechagacha allaqayerlarda sanqib yuradigan odat chiqarib qolishdi.

Mana bugun ham nomozshomdanoq ikkovlari yo'q bo'lib qolishgan. To'xta xolam ozgina meva olib chiqqan ekan, to'rttadan ulashib berib charx yigirishga tushdi. Zulayho bilan Dilbar yaxshi savalgan paxtadan pilta tayyorlab bera boshlashdi. Xolamning aytishlaricha, Bibi Fotima ham charx yigirgan ekanlar. Charx yigirish savob emish, kishi jannati bo'larmish...

– Xola, kishi jannati bo'lsa nima bo'ladi? – deb so'radi Omon ukam.

– Tilginangdan o'rgilay, – dedi xolam, – kishi jannati bo'lsa, jannatga tushadi-da.

– U yerga tushsa nima bo'ladi?

– Yegani oldida, yemagani ketida bo'ladi.

– Qo'y go'shtlari ham serob bo'ladimi?

– Serob bo'ladi, lochinim.

– Bo'lmasa, xolajon, mengayam charx yigirishni o'rgatasiz men ham jannati bo'laman, – dedi Omon xolamga yaqinroq o'tirib, – qani, menga bering-chi!

To'xta xolam kulib, bu ish qizlarning, undan keyin ayollarning ishi, deb ukamga yana to'rtta o'rik uzatdi.

Bekor o'tirib zerikkanimizdan Omon ukam yaxshi ko'radigan «Poshshoyi vazir» degan o'yinni boshlab yubordik. Omadni qarangki, birinchi o'tirgandayoq Omon podsho bo'lib oldi.

– Poshshoyim, o'g'ri tutdim! – dedi xiyol o'tmay vazir bo'lib olgan Zulayho.

– O'g'ri kim? – so'radi poshshoyi a'zam.

– Dilbar opam, – javob qaytardi vaziri dono.

– Nima o‘g‘irlabdi?
– Otxonadan o‘t o‘g‘irlabdi.
– Qanday jazo beraylik, vazirim?
– Hukmingizga havola, podshoxim.
– Ot bo‘lib kishnab bersin! – farmoni oliy berdi podshoyi a‘zam! Dilbar ot bo‘lib kishnash uchun endi chog‘lanayotgan edi, kimdir ko‘cha eshigimizni do‘mbira qilib chaldi-yu:

– Sultonni o‘ldirib qo‘yishdi! – deb chinqirib yubordi.
Hammamiz otilib ko‘chaga chiqdik. Qichqirgan Hayitkalla ekan.

– Karmisanlar! – entikib dedi o‘rtog‘im.

Rost, Meli boqqolning hovlisidan yosh bolaning dodlagani, allakimlarning aralash-quralash shovqini eshitilyapti. Bir-birimizni o‘rtda qoldirib, birimiz yalang oyoq boshqamiz kovishni poyma-poy kiyib o‘sha yoqqa qarab yugurdik.

Meli boqqolning ichkari hovlisiga allaqachon odam sig‘may ketibdi. Hovlining o‘rtasidagi qari nok daraxtiga Sulton bilan Usmonni bog‘lab qo‘yishibdi. Ikkala ukamning ham egnida qora echkining po‘stagidan po‘stinga o‘xshatib qo‘pol tikilgan kiyim, hatto oyoqlarida ham qora po‘stakdan tikilgan choriq... Po‘staklarni darrov tanidim, omborxonamizning bir chekkasida uyulib yotgandi, besh-o‘n kun avval yo‘q, bo‘lib qoluvdi. Men ularni Sulton nonga almashtirib yeb yuborgan deb yursam... gap bu yoqda ekan-da...

Ikkovi ukamning ham yuzi kaltakdan dabdala bo‘lib ketibdi, Sultonning peshanasidan qon oqib turibdi.

– Ukajon! – baqirib yubordim-u, yechib yuborish uchun ularga tashlandim. Ammo boqqolning katta o‘g‘li Jamolponsod ko‘ksinga bir tepgan edi, orqam bilan yerga o‘tirib qoldim. Singillarim chinqirib ponsodga tashlanishdi. Bir nafas ichida hovli ur to‘polon bo‘lib ketdi. Ammo boqqolning armiyadan qochib yurgan

Jamolponsod, Kamolponsod degan o'g'illari ukalarimni nariga uloqtirib Usmon bilan Sultonning yoniga hech kimni yo'latishmadi.

– Militsiya kelguncha shundoq turadi! – deb qamchi bilan ukalarimning goh boshiga, goh qorniga har zamonda bir urib ham qo'yishyapti.

Meli boqqol bo'lsa xuddi jang maydonida dushmani asir olgan qahramondek gerdayib, bo'lib o'tgan voqeani odamlarga gapirib beryapti... Avvalgi kuni kechqurun ko'cha eshikni sharaqlatib ochib, uylariga ona-bola shayton kirib kelibdi. Boqqol kalima o'girib bolalari bilan tanchaning ichiga kirib ketibdi. Bir mahal tanchadan boshlarini chiqarib yana kalima o'gira-o'gira oshxonaga borishsa, qozonga palov damlab qo'yishgan ekan, palov o'rnida yarim qozon suv turganmish.

Bugun juma oqshomi bo'lgani uchun yana juvoz moyiga osh damlashibdi. Tasodifni qarangki, dam tovoqni endi bosishlari bilan deraza oldida ona-bola shayton yana paydo bo'lib qo'llarini silkitib, dumlarini dikonglatib g'alati-g'alati qiliqlar ko'rsata boshlabdi. «Yo'q, debdi boqqol, senlarga bir qozon palovni yedirib yuborgandan ko'ra o'lganim ming marta yaxshi», shunday deb shartta qoziqdagi miltiqni olib, og'zini shaytonlarga to'g'irlab asta-sekin ustilariga bostirib kelaveribdi.

– Otmang! – deb baqirib yuboribdi bola shayton.

– Qo'rqma! – debdi ona shayton.

Xuddi shu paytda narigi uydan Jamolponsod bilan Kamolponsodlar chiqib kelishibdi-yu, ko'plashib shaytonlarni ushlab olishibdi.

– Meli boqqolni shayton ham alday olmabdi-ya!

– O'zi o'nta shaytonga dars beradi-ku!

– Bir tovoq oshingni yesa, nima, davlating kamayib qolarmidi! – degan gaplar ham bo'lib turibdi. Lekin aka-uka ponsodlarning vajohatidan qo'rqib, hech kim bandilarni ozod qilishga botina olmay turibdi. Xuddi shu

paytda yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi Roziq tog'am paydo bo'lib qoldi. Aftidan yo'l-yo'lakay hamma gapni eshitganga o'xshaydi. G'azabidan qaltirab qisqa-qisqa nafas olyapti. Ko'zlari chaqnab, burun kataklari kengayib: «Soldatning bolasini kim bog'ladi?» deb so'radi.

Meli boqqol bir narsalar deb tushuntirmoqchi bo'luvdi, Roziq tog'am «Kim boyladi deyapman!» deya sherdek o'kirib yubordi.

– Bu bolalar o'g'irlik ustida qo'lga tushdi, – bo'sh kelmadi boqqol buva ham.

– Sening o'zing o'g'risan!

– Nima?

– O'g'ri, muttahaam sening o'zingsan!

– Nima? Nima? – shunday deb boqqolning ikki o'g'li Roziq, tog'amga tashlanish uchun ustiga bostirib kela boshlashdi.

– Bir kilo donni besh baravar foydasiga berasan, bu o'g'irlik emasmi?

– Men qishloqni boqyapman, Roziq!

– Talayapsan, pakana!

– Men bo'lmasam hammang shishib o'larding, insofsiz!

– Nari tur, boshingni yoraman! – Roziq, tog'am qo'ltiqtayog'i bilan boqqolning ko'krigidan nari itardi, – mana bu ikki o'g'ling qochoq xoin!

– Bularni hukumat yaroqsizga chiqargan, og'zingga qarab gapir.

– Ko'zi ko'r deb spravka to'g'rilab olibdi, uyatsizlar! Yigirma to'rt yildan buyon ko'r bo'lmay endi ko'r bo'lib qoldingmi, Jamol? Yana hukumatni pesh qiladi-ya! Orif, hiqillab yig'layvermasdan qog'oz olib chiq, akt yozamiz, bularni o'zim fosh qilib tashlayman!.. Gvardiya serjanti Mirzapolvon Ahmedovning o'g'illarini daraxtga bog'lab urganing uchun hukumat seni sog' qo'ymaydi! Qaranglar-a, Ahmedov tizzadan qon kechib jang qilarmish-u, bu akam omborga qorovul bo'lib olib

palovxonto'rani yeb yotarmishlar. Bu bechoralar och yuribdi-ku, Ilojini topolmaganidan shunday qilishganini bilmadingmi... Qishloqda bitta shayton bor. Bu – sensan! Seni xarbiy tribunal sud qiladi, og'zingdan otadi!

Harbiy tribunal degan so'zni eshitib boqqol dovdirab qoldi o'g'illari ham qo'rqib ketishdi shekilli shosha-pisha Sulton bilan Usmonni yechib yuborishib, mehribonlik ko'rsata boshlashdi. Boqqol buva, «Roziqvoy, kayfing bormi deyman, sal qizishib ketdinig... Men bu bolalarga yaxshilik qilmoqchi edim, qo'llariga to'rt-besh kilo don-dun berib yubormoqchi edim» deb qo'yarda qo'ymay Roziq tog'amni so'riga o'tqazib, qo'liga zo'rlab bir piyola choy tutqazdi.

Ertasiga yetti uxlab tushimizga ham kirmaydigan bir voqea yuz berdi. Sulton bilan Usmon to'satdan yo'qolib qolishdi. Roziq, tog'am ikkalamizning axtarib bormagan joyimiz surishtirmagan odamimiz qolmadi...

Bir haftadan keyin ularni Qo'qondagi detdomdan topdik.

– Nega bunday qilding, ahmoq! – dedim ham alam, ham quvonchdan yig'lagudek bo'lib.

– Nima qildik, ketamizmi endi?

– Yo'q, – boshini battar egib dedi Sulton, – men tosh ko'taradigan polvon bo'lmoqchiman... Qishloqda hech qornim to'ymayapti...

– Sen-chi? – so'radim xalidan beri bizdan ko'zini olib qochayotgan Usmondan.

Ukam indamadi, boshini solintirganicha jim turaverdi.

– Gapirsang-chi, – urishib berdi Roziq tog'am, – biz ketishimiz kerak, qorong'i tushib qolyapti.

Usmon ukam sekin o'rnidan turib, menga yaqinlashdi-yu, boshini ko'ksimga qo'yib, piq-piq yig'lay boshladi.

– Aka!

– Nima deysan? Yig'lama, ukajon! – dedim dilim vayron bo'lib.

– Aka, menga shu yer yaxshi!.. Qolaman! O'zimning ham ko'nglim bo'sh emasmi, yig'lab yubordim.

Ikki ukam Qo'qon detdomida qolib ketdi.

JANJAL AVJIGA CHIQIB BORYAPTI

O'sha kunlari dalamizda ish haddan tashqari qizib ketgan edi. Yerimiz birdaniga yetilib berdi, qirq ketmon, bir qo'sh ho'kiz baravariga yopishdik. Har ketmonchiga to'rt sotixdan norma belgilab qo'yganmiz. Ammo kolxozimizning ona-bola raisi kelib, iloji bo'lsa hammanglar bir paykalga qator bo'lib, yonbosh chopinglar, ish unumli bo'ladi. Yerni chopib bo'lguncha dalada yotsanglar ham bo'ladi. Agar dalada yotib oy yorug'ida ham ishlanglar qo'y so'yib beramiz, deyishdi.

Uzoq jinnining tashlandiq, uylarini supurib-sidirib, qirq o'g'il-qiz ko'chib chiqdik, ukalarim ham men bilan shu yerda tunaydigan bo'lishdi. Roziq tog'am, Parpi buvamlar ham uylariga bormay qo'yishgan.

Yer yaxshi yetilgan bo'lsa, ketmoning o'tkir-u o'rtoqlaring soz bo'lib, o'yin-kulgi bilan ishlang charchoq nimaligini bilmas ekansan. Ellam boshlanishi bilan Hayitkalla:

– Keyinda qolganing qulog'ini kesish! – hazillashadi.

– Chala chopgan chol moxovning xotini bo'lsin, - deydi Akram bilag'on ham.

Qirq ketmonchimiz, qirq xil ketmon uramiz. Akram, Hayit, Mahmudxon-u aka-uka Dilijon-Qulijonlar ketmon urishning havosini yaxshi olishgan. Shoshmasdan, jonlarini koyitmasdan bir me'yorda urishadi. O'ris xolaning asrandisi Zokirqovoq bo'lsa, ketmon chopishni butunlay bilmas ekan, belini g'oz tutib ketmon dastasining uchidan ushlab urganidan mo'ljalga

tushirolmaydi. Oramizda ketmonning dastasini minib olib chopayotganlar ham, safdan ortda qolmaslik uchun shoshilib, ketmon tegmagan joyga tuproq chochib ketayotganlar ham bor.

– Ketmon chopmoq olmoq-solmoq, – deb qo‘yadi sheriklarimizdan bittasi.

– Qo‘sh haydamoq bormoq, kelmoq, – deydi boshqasi.

– Xamir qilmoq jon chiqmoq – deydi uchinchisi.

Shu yo‘sin tasir-tusuriga olib ketmon urib ketamiz. Tuproq, qurib qolmasin uchun Parpi buvam orqamizdan mola bosib keladi. Mola og‘ir bo‘lsa, kesak yaxshi ezilib, yer yaxshi tekislanadi, nam ham uzoq saqlanib qoladi. Shuning uchun buvam molaning bir tomoniga Omonni chiqarib, boshqa tomoniga tosh boylab oladi. Besh kecha-yu kunduzda jamiki yerlarimizni chopib, chigitga tayyorlab bo‘ldik. Marza qirqib, ariq tozalab, g‘o‘zapoya tomirlarini terib yurgan edik, to‘satdan brigadamizga Meli boqqol kelib qoldi. Katta las qiyiqqa to‘ldirib bir narsa tugib kepti. «Roziqvoy, anavi kungi mayda-chuyda gaplar uchun arazlashib yurmay yarash oshi qilaylik deb keldim» – deya qiyiqni ochib yubordi. Qiyiqda guruch, sabzi-piyoz, yangi so‘yilgan qo‘y go‘shiti, bilqillab turgan dumba yog‘i bor ekan.

– Bolalaring ham bekorchi bo‘lib qolganga o‘xshaydi, tokimni choptirib bermaysanmi? – so‘radi Meli boqqol negadir shu paytda o‘yga tolib qolgan Roziq tog‘amdan.

– Sizda tok yo‘q edi shekilli? – parishonxotirlik bilan so‘radi brigadirimiz.

– Parpi amakim bizga bog‘-u chorvoqlarini hadya qilib yuborganlar, – tushuntirdi boqqol buva.

Parpi buvam Meli boqqolni ko‘rganda qaltirab qoladi, ikkovlari qayerdagi duch kelishsa, o‘sha yerda daxanaki jang qilishmasa yoki pisqi-pasod gap aytishmasa ko‘ngillari joyiga tushmaydi. Parpi buvam ho‘kizlarni hashakka qo‘yib, marza qirg‘og‘iga belini suyab,

barmoqlari bilan soqolini tarab o'tirgan edi. Meli boqqol keltirgan guruchdan ozginasini kaftiga olib bir oz tikilib turdi-da, keyin bir narsa esiga kelgandek to'satdan jonlanib:

- Boqqol, guruchni qayerdan oldingiz? - deb so'radi.

- Kelingizga tug'dirib kelyapman, - rangi allanechuk oqarib, bit ko'zlari pipirab ketdi boqqolning.

Boqqolning g'alati bo'lib ketganini sezgan Parpi buvam chap qo'lini marzaga tirab sekin o'rnidan turdi:

- Bu zormanda objuozniki-ku!

- Yo'g'-e, mozori sharif ursin.

- Bu zormanda kolxozning guruchi-ku!

- Amaki, tepamda xudo bor, og'zingizga qarab gapiring.

- Chilgi sholini kolxozdan boshqa hech joyda ekishmagan... Bu o'g'irlik guruch bo'lmasin tag'in, boqqol?

Mana shu gapdan keyin nazarimda, o'rtada bir narsa portlab ketganday bo'ldi, hamma o'rnidan turib ketdi. Meli boqqol jahl bilan turayotib, o'ngirini bosib oldi shekilli munkib ketdi. Roziq tog'am qiyiqdagi guruchdan kaftiga olib avval g'ijimladi, keyin negadir to'rt-besh donasini chaynab:

- To'g'ri, objuozning guruchi bu, - deb qo'ydi. Hayitkalla bolalarning orasini yorib o'tib:

- Roziq tog'a, - dedi entikib, ko'zlarini chaqnatib, - mana shu guruchdan boqqol buvamning yerto'lasida yana tag'in sakkiz qopi bor.

- To'qqiz qop, - qo'shimcha qildi qozon boshida o'rmalashib yurgan Akram bilag'on.

- To'qqiz qop? - qoshlari past-baland bo'lib ketdi brigadirimizning.

Brigadamizning qirq a'zosi nimqorin bo'lib o'tiribmiz, ketmon ko'tarishga holimiz kelmay peshinda beriladigan suyuq atalani poylab so'lagimizni yutyapmiz. Boqqol buvaning yerto'lasida bo'lsa... ehtimol, o'g'irlikdir,

ehtimol kuzda kolxoz omboridan yo'qolgan guruch shudir. Tekshirib ko'rish kerak, ha-ha, albatta tekshirish kerak.

– Ketdik, askarlar! – deb Roziq tog'am birinchi bo'lib yo'lga tushdi.

Hammamiz qishloq tomonga qarab yugurdik. Parpi buvam ham, o'choq boshida o'ynab o'tirgan Omon-u Robiyagacha bitta qolmay xuddi birov tekinga ovqat ulashayotgandek, ertaroq borsak ko'proq, beradigandek, bir-birimizni ortda qoldirib yugura boshladik.

Rost, hammasi rost bo'lib chiqdi. Meli boqqolning qator tushgan uylari ostida kattakon yerto'la bor ekan, yerto'lada o'n bir qop guruch, to'qqiz qop makka, yana qanchadan qancha don-u dun, qand-qurs, mevalar, kiyimlig-u yashiklarda mushukko'zi choylar... Boqqol buvaning bola-chaqasi, nevara-chevaralarining dod-u voyiga, boqqolnyng bitta qo'ymay hammangni qamataman deb qilgan do'q-u po'pisasiga parvo qilmay, nimaiki ko'rgan bo'lsak hammasini ro'yxatga oldik. Xuddi dushman bosib olgan qishloqni ozod qilgan askarlardek kerilishib, dalamizga qaytdik-u, Zulayho pishirib qo'yg'an sersut atalamizni ichgani o'tirdik.

– Birov ot choptirib kelyapti, – dedi Mahmudxon qishloq tomonga ko'z tashlab. Hammamiz gur etib o'rnimizdan turib ketdik, rost, kimdir ot ustida qushdek uchib kelyapti.

– Rais, – dedi bolalardan biri.

– Ko'rmisan, uchastkovoy-ku! – dedi boshqasi.

Uchastka militsioneri Karimov amaki naq peshanamizga kelib, otning boshini tortdi-yu, ammo ustidan tushmadi. Qizil shapkasini bostirib kiyib, o'ng yoniga to'pponchasini ham taqib kelibdi. Oti ham xuddi Go'ro'g'lining tulporiga o'xshaydi, o'ynoqlab, tagidan chiqib ketay-chiqib ketay deb turibdi.

– Roziq Aliyev kim? – so'radi uchastkovoy uzangiga oyog'ini tirab.

– Men, – deb qo‘ydi Roziq tog‘am o‘tirgan o‘rnidan qo‘zg‘almay.

– Birovning uyini tintuv qilishga sizga kim huquq berdi?

– Mana bu qoshiq, yalab o‘tirgan qiziltumshuqlar.

– Parpi Qosimov kim? – so‘rashda davom etdi otliq.

– Men bo‘laman, o‘g‘lim, – yumshoqqina qilib javob qaytardi Parpi buvam, – Islom qo‘rboshiga o‘xshab dag‘-dag‘a qilmasdan avvalo otdan tush, biz bilan ko‘rish.

Jirkanmasang, mana sersutgina atalamiz bor, birga baham ko‘raylik...

– Nega birovning uyiga bosqinchilik qildingiz?

– Men sharti ketib parti qolgan chol bosqinchilik qilishga yaraymanmi, bolam!

Uchastkovoy amaki, kolxoz idorasiga borib akt tuzamiz deb Roziq, tog‘am bilan buvajonimni oldiga solib olib ketdi.

Ana kelib qolishar, mana kelib qolishar deb kunni kech qildik, qaytishmadi. Ertasiga ham daraklari bo‘lmadi.

Qishloq vahima ichida qoldi. Biz ham qo‘rqib ketdik. Oxiri O‘ris xolamning maslaxati bilan brigadamizning qirq a‘zosi hammamiz birgalashib borib voyenkomatga arz qilishga qaror qildik.

Yelkasiga uch yulduzli pogon taqqan komandir amaki hovlini bola bosib ketganini ko‘rib, hoy-nahoy ovqat so‘rab kelishgandirov deb o‘yladi shekilli, oldimizga chavatidek yupqa yopilgan bir savat non ko‘tarib chiqdi:

– Shovqin solmasdan, navbat bilan kelinglar!

– Non so‘rab kelganimiz yo‘q, lekin bersangiz bosh tortmoqchi emasmiz, aslida arz bilan kelganimiz, – deb bo‘lib o‘tgan voqeani boshdan-oyoq so‘zlab berdik. Komandir amaki savatdagi nonni yerga qo‘yib ichkari kirib ketdi-yu, yana bitta komandirni boshlab chiqdi. Keyingi chiqqan komandirning o‘rismi, o‘zbekmi ekanligini bilolmadik, nega desangiz, o‘rischa bilan o‘zbekchani qorishtirib tatarcha ohangda so‘zlarkan.

- Shuhrat ordeni taqib kelgan razvedkachi Roziq Aliyevnimi? – deb so‘radi u.

- Ha, xuddi o‘shani, – deb chuvillashdik biz.

- Zambarakka pul bergan cholni hammi?

- Ha, uniyam.

- Demak, sizlar frontovoy brigadaning a‘zolari ekansizlar-da?

- Ha, shunaqamiz.

- Xo‘sh, dalada ishlar qalay ketyapti?

- Yerni chigitga tayyorlab qo‘yganmiz.

Komandir amaki hech tashvishlanmanglar, men hoziroq katta idoralarga telefon qilaman, frontovoy brigadaning ordenli komandiri Roziq Aliyev bilan uning dehqonchilik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Parpi Qosimovni bo‘shatib yuborishadi deb, ikkitamizga bit-tadan chavati non ulashdi.

Dalamizga qaytib kelsak, Parpi buvam bilan Roziq togam bizdan oldinroq yetib kelishib, Zulayho qaynatib bergan qora qumg‘ondan choy ichishib, Omon bilan Robiyani tizzalariga olib erkalatib o‘tirishgan ekan.

YANGI RAIS

Bir hafta davomida qishlog‘imiz uxlamadi hisob, qaynarbuloqdek biqirlab qaynab turdi. Katta-yu kichik ko‘chada, majlis ustiga majlis, gap deganni hech to‘xtatib bo‘lmayapti. Goh, quvonchli, goh qayg‘uli voqealar shunaqangi tez almashinib turibdiki, ochig‘ini aytsam, o‘zimiz ham shoshib qolganmiz.

Meli boqqol qamalgan kuni:

- Yashasin! – deb qarsak chaldik. O‘g‘illari Jamolponsod bilan Kamolponsod qochib ketganini eshitib:

- E attang! – deb bosh chayqab qo‘ydik. Ona-bola raisimiz bo‘shanglikda ayblanib ishdan olingan oqshom:

- Ajab bo‘pti! – degan gaplarni aytdik.

MTS direktori, opamning dugonasi, bizni detdomga joylashga bosh-qosh bo'lgan Rahbar opa kolxozimizga rais bo'lib kelgan kuni:

– Soz bo'ldi, ko'nglimiz tog' bo'ldi! – deb bir-birimizni tabriklashib do'ppimizni osmonga otdik.

Keyin yana hammasi o'z iziga tushib qishlog'imiz jim-jit bo'lib qoldi. Erkaklar latifasini, xotinlar mish-mishini, bizga o'xshash o'g'il bolalar «Eshak mindi»sini boshlab yuborishdi.

Yangi raisimiz bizning dalamizga ikki marta kelib-ketdi. Avvalgi safar kelganida Parpi buvam bilan uzoq gaplashib o'tirdi, boqqolning ishi bir yoqlik bo'lsin, bog'ingizni qaytarib olib beraman, dedi. Keyingi kelganda biz, ya'ni brigadaning qirq a'zosi qo'limizda yog'och kurakcha, kapgir, tizzadan loy kechib juyaklarga chigit qadayotgan edik. Ishimizni kuzatib yurib to'satdan mening qarshimda to'xtadi-da:

– Menga qara, sen Karomatning katta o'g'limi-san?
– deb so'radi.

– O'shaman, – dedim negadir xijolat bo'lib.

– Sen detdomda eding shekilli-ku?

– Keb qolganmiz.

– Ukalaring-chi? – so'rashda davom etdi Rahbar opa.

– Hammamiz shu yerdamiz, – deb qo'ydim yana.

– Dadanglardan xat bormi?

– Qishdan buyon kelgani yo'q.

Rahbar opa boshqa hech narsa so'ramadi-yu, o'rik tagiga borib, Roziq tog'am bilan bir narsalar haqida uzoq suhbatlashishdi. Men tomonga galma-galdan ko'z tashlab qo'yishayotganidan biz haqimizda gaplashishayotgan bo'lsa kerak, deb ko'nglimdan o'tkazdim.

Biz tushgacha chigit ekishni tugallashimiz kerak edi, jadal ishlayotganimizning boisi ham shundan edi. Hatto Parpi buvam ham uch kundan buyon to'ning bariga chigit solib: «Chuqur tashlab qo'yding, sayoz ekyapsan...» deb shovqin solib biz bilan yonma-yon yuribdi.

Tushlikka zang urilmasdan oldinoq ishni tugatib bo'ldik. Qozonimiz katta oqo'rikning tagida edi, borsak, yangi raisimiz hamon shu yerda ekan, brigadirimiz bilan bir narsalarni hisob-kitob qilishib daftariga yozib o'tirgan ekan.

Tushlikni birga qildik. Rais opa Zulayhoni go'ja oshga usta ekansan deb, maqtab qo'ydi-yu, keyin o'tirgan o'rnida bizga murojaat qila boshladi:

- Qimmatli ukalarim, singillarim, rahmat sizlarga! Sizlar kolxozdagina emas, balki rayonda ham birinchi bo'lib chigit ekishni tugalladilaring, - rais opa o'tirib gapirishga o'rganmagan shekilli, asta o'rnidan turib oldi, - Parpi amaki, sizga ham, Roziqjon, sizga ham kolxoz pravleniyesi nomidan, shaxsan o'z nomimdan ofarin aytmoqchiman... Yil oxirigacha ana shunday g'ayrat bilan ishlasalaring, yerlaring paxtani sog'inib yotgan yer ekan, juda katta xirmon ko'tarishlaringga aminman. Yer ham, kolxoz ham ot-ulov ham o'zlaringniki! Kelajakda bu yerlar gurkirab o'sib, boy-badavlat bo'ladimi yoki kambag'alligicha qolib, beli bukchayib yuraveradimi, bu ham sizlarga bog'liq. Har biringiz: bu yerlar meniki, uning kelajagi - mening kelajagim deb qarashga o'rganishingiz kerak...

Rahbar opa xuddi ashula aytayotgandek ovozini goh balandlatib, goh pastlatib so'zlarkan. Keyin gapirayotganda qo'li bilan havoni kesib, o'tirganlarning goh unisiga, goh bunisiga qattiq tikilib so'zlarkan... Men shu paytda negadir opajonimni eslab ketdim... Ular birga katta bo'lishgan, birga o'qishgan, ishga ham bir kunda, bir soatda kirishgan. Kim biladi: hozir opajonim hayot bo'lganda bu yerlarga rais bo'larmidi. Ha, odamlar albatta, uni saylashgan bo'lardi. O'tgan majlisda ham qistashgan. Opam avval o'rnimga traktorchi tayyorlay, keyin bir gap bo'lar deb ko'nmagandi, bu gal ko'nardi, albatta ko'nardi...

– Hozircha gap shu, ertadan boshlab Usmon buvaning brigadasiga yordamga o‘tasizlar. Ularga frontovoy brigada qanday bo‘lishini bir ko‘rsatib qo‘yasizlar, kelishdikmi?

- Kelishdik! – bir ovozdanda takrorlashdi o‘tirganlar.
- Meni uyaltirib qo‘ymaysizlarmi?
- Uyaltirib qo‘ymaymiz.

Shundan keyin majlisning bu yog‘i suhbatga aylanib ketdi.

Hayitkalla o‘tirgan o‘rnida qo‘l ko‘tardi:

- Rais opa, bir narsa so‘rasam maylimi?
- So‘ray qol.

– Eski raisimiz, qaysi brigada chigit ekishni oldin tugatsa mukofotga qo‘y oladi degandi, shu nima bo‘ladi?

– O‘sha gap – gap, – dedi rais opa oyog‘i tolib qoldi shekilli o‘tirgani joy axtarib, – sizlarga albatta bitta qo‘y beriladi.

– Rais opa, – deyarli baqirib gapira boshladi Hayitkalla, – iloji bo‘lsa, qo‘yning urg‘ochisidan berdirsangiz.

– Nega endi qo‘yning urg‘ochisi kerak bo‘lib qoldi?

– So‘ysak emchagini mana bu Beshbolaliga berardik, chaqaloqligida opasini yaxshi emolmagan ekan, kechasi bilan g‘ingshib chiqyapti!

Bolalar-u qizlar sharaqlab kulib yuborishdi. Rais opa ham kulib, qoyil qolgandek boshini chayqab: «Sen balo ekansan-ku!» deb maqtab qo‘ydi Hayitni. Askiyada hech kimdan yengilishni istamasdim. Beixtiyor o‘rnimdan turib ketdim:

- Rais opa!
- Labbay, Orifjon?
- Iloji bo‘lsa qo‘yning qo‘chqoridan bersangiz.
- Xo‘sh, nega endi?

– So‘yishdan oldin Hayitkalla bilan bir suzishtirib olardik-da! Bu bolaning boshi qichib qolganga o‘xshaydi, kechasi bilan devolni suzib chiqyapti!

O'rtadagi kulgi bosilmasdan Akram bilag'on dik etib o'rnidan turib ketdi:

- Rais opa!

- Labbay, uka?

- Iloji bo'lsa qo'yingizning unisiniyam, bunisiniyam bermay qo'ya qoling.

- Xo'sh, nega bermas ekanman?

- Bu ikki mahmadonani go'sht o'rniga musht bilan to'yg'azsammi deb turibman...

Bizga yangi raisning kamtarligidan ko'ra ham kulganda qiyqirib jarangdor ovoz bilan hammadan baland, ham uzoq kulishi ma'qul bo'lib qoldi. Shuning uchun ham qo'y payrovini hech bo'shashtirmay rosa kuldirib xursand qilib jo'natdik. Qaytayotganda: «bitta qo'y sizlardan o'rgilsin, askiyachi ukalarim» deb hammamiz bilan qo'l berib xayrlashdi.

O'sha kuni kechqurun yana bir quvonchli voqea bo'lib o'tdi. Meli boqqolning yerto'lasidan topilgan guruch chindan ham kolxoz omboridan o'g'irlangan guruchlar ekan, dadasi, akasi armiyaga ketgan xonadonlarga o'n kilogrammdan taqsimlab berishdi.

Kechasi bilan uxlamay palovxo'rlik qilib chiqdik.

«OSTONASI TILLODAN UY SENIKI»

Roziq tog'am bilan O'ris xolaning nikoh to'ylarida rosa mazza qilib o'ynab-kulib olibmiz.

Roziq tog'amning tengqurlari biri oyoqsiz, biri qo'lsiz, boshqasi kontuziyaga uchrab boshi likonglaydigan bo'lib qolgani uchun o'yinga tushish ham, ashula aytish ham o'zimizga qolib ketibdi. Hayitkalla childirmachi, Qoraborot dutorchi, Akram o'yinchi-yu, men kuyovnavkarlar nomidan yor-yor aytadigan laparchi bo'lib ketibman.

Kuyovnavkarlar kirgan uyga tortinishib, yelkamizni qisib, uyatdan sholg'omdek qizarishib kirganimiz elas-

elas esimda. Keyin Soy mahallalik chapaqay Xo‘janazar amaki: «Endi sizlar ham kap-katta yigit bo‘lib qoldilaring, mana shu piyoladagini dam olmasdan simirib yuboringlar-chi», deb musallas uzatgani ham salpal esimda... Keyin, hali aytganimdek, birimiz o‘yinchiyu, birimiz laparchi bo‘lib ketibmiz.

Men ayollar o‘tirgan uyga kirib ko‘ziga surma, qoshiga o‘sma qo‘yib, egniga burma ko‘ylag-u, boshiga durra o‘rab o‘zbek qizlariga o‘xshab noz-u istisno bilan o‘tirgan O‘ris xolaga: «Nega erga tegyapsiz, nega bizni yetim qilib tashlab ketyapsiz» deb rosa yig‘labman. Qizlar childirma chalib o‘yin qilayotgan ayvonga borib:

– *Uzun-uzun arg‘amchini tortishaylik,
yor-yor, tortishaylik.
Tagobingning qizi bilan aytishaylik,
yor-yor, aytishaylik.*

deb lapar boshlab, yigitlar davrasida o‘tirgan Hayitvoy, Akram, Qoraborotlarni menga jo‘r bo‘lasanlar, deb yonimga chaqirib olibman.

Qizlar :

– *Atlas ko‘ylak etagiga tut qoqaylik,
yor-yor, tut qoqaylik,
Kuyov bola yuragiga o‘t yoqaylik,
yor-yor, o‘t yoqaylik.*

deb javob qaytarishibdi. Biz ham o‘zimizni yo‘qotmay, qizlarnikidan qolishmaydigan ohangda laparimizni davom ettiribmiz.

Biz:

– *Kuyov bola kuyib yongan yor ishqida,
yor-yor, yor ishqida.
Kuyib-kuyib ado bo‘lgan yor ishqida,
yor-yor, yor ishqida.
Atlas ko‘ylak yarashadi kelinchakka,*

yor-yor, kelinchakka.

Kelin atlas surganda qochmang aka,

yor-yor, qochmang aka.

Tog'da toycha kishnaydiyo, ot bo'ldim deb,

yor-yor, ot bo'ldim deb.

Uyda kelin, yig'laydiyo, yot bo'ldim deb,

yor-yor, yot bo'ldim deb.

Qizlar:

– Yig'lama qiz, yig'lamayo, baxt seniki,

yor-yor, baxt seniki!

Ostonasi tillodan uy seniki,

yor-yor, uy seniki.

– deb rosa yor-yor aytibmiz. E, boringki, qo'limizdan yetaklab ko'chaga olib chiqib qo'ygunlaricha bo'ynimizni cho'zib, tomog'imizni qirib lapar aytaveribmiz. Men ko'chadan yana qaytib kirib, kuyovlik sarposida uyalib o'tirgan Roziq tog'amni mahkam quchoqlab olibman. Otam qani, otajonimni topib berasiz deb shunaqangi yig'labmanki, shunaqangi yig'labmanki, hammani jonidan bezor qilib yuboribman...

Omon ukam she'r aytib, o'yinga tushib oxirida menga to'n bilan do'ppi kiygizasizlar deb o'rtani olib borayotgan Xo'janazar amakining qo'llarini tishlab olibdi, bularniyam sezma bman.

Oxiri meni Dilbar bilan Zulayho ikki qo'ltig'imdan olib sudrab uyga olib kirib ketishibdi.

Ertalab bu gaplarni eshitgach, uyalganimdan, ishonsangiz, dodlab yuborayozdim.

– Rost, Orif aka, – deb so'zida davom etdi Dilbar, – rais opamlarning oldiga ham bordingiz. Opajon, bu yil paxta mo'l bo'ladi, mukofotiga bitta o'ynab olsam maylimi, deb so'ratingiz.

– To'yda Rahbar opam ham bormidi?

– Ichkarida Mariya Pavlovnaning oldida o'tiruvdi-ku.

– Mening ustimdan rosa kulishgandir?

– Rais opa chakkangizga bitta o'n so'mlik qistirib: «Opagingang o'rgilsin, bo'lar ish bo'пти, endi to'yguningcha o'ynab ol» dedilar. Keyin...

– Nima keyin?

– Keyin meniyam o'yinga tortdingiz.

– Yo'g'e!

– Rost, tortdingiz. Men bilan o'ynamasang singlim emassan, dedingiz.

Xullas, hali aytganimdek, uyalganimdan o'zimni qo'ygani joy topolmay qoldim. O'sha kuni ishgayam chiqmadim, sheriklarimga ro'para bo'lgani yuzim chidamadi. Otam o'zining eng so'nggi xatida tokning tagini albatta chopinglar, bo'lmasa navdasi surmaydi deb tayinlagan edi. Kun bo'yi tok chopish bilan mashg'ul bo'ldim.

Kechqurun kolxozimizning qorovuli Umurzoq tog'a meni chaqirib kelib qoldi, qo'rqa-pisa oldiga chiquvdim:

– Qani, tezroq orqamga mingash-chi! – deb qistalang qildi.

– Tinchlikmi o'zi! – dedim qurqib.

– Rais chaqirtiryapti.

Idoraga borguncha yuragimni hovuchlab bordim. Hoy-nahoy kechagi bema'ni qiliqlarim uchun tanbeh berishsa kerak. Hammasini bo'ynimga olaman, tavba qilaman, tamom-vassalom.

Raisning xonasida Roziq tog'am, O'ris xola, Rahbar opam uchovlari o'tirishibdi... Qiziq, chillali kelin-kuyovlar uyda o'tirmay nega endi bu yerga kelishdi ekan? Demak, meni muhokama qilishmoqchi! Uchovlari o'rtaga olishmoqchi meni...

– Xo'sh, Orifjon, ahvollar qalay? – so'radi raisimiz.

Boshimni egib oldim.

– Lekin laparga juda usta ekansan. Yana indamadim.

– O'yinlaring ham chakki emas, – gapga qo'shildi Mariya Pavlovna.

Aybimga ochiq iqrор bo'lishim kerak edi. Sekin boshimni ko'tarib Rahbar opamga tik boqdim... Raisimiz, negadir, kulimsirab turibdi... Tavba, yo tavba! Qarshimda xuddi opam turganga o'xshaydi, Qoshi-ko'zining qoraligi, kulcha yuz, bug'doy rangligi, o'rta bo'y, xushbichimligi, ko'zlarining charaqlab, yupqa lablarining g'alati burilishi... Opam, opajonim. Tomog'imga bir narsa tiqilgandek bo'ldi, ko'zimga yosh keldi.

– Orifjon, seni bir maslahatlik ish bilan chaqirtirdim, – o'rnidan turib gapira boshladi Rahbar opa, – xabaring bor, kolxozimizda buxgalter yo'q hisobi...

– Qori tog'a-chi? – deb so'radim.

– Qori tog'ang yangi harfga tushunmay bizni ko'p qiynayapti... Qo'qonda hisobchilar tayyorlaydigan olti oylik kurs ochilibdi. Shunga Roziq tog'angni jo'natsak nima deysan?

– Juda yaxshi ish bo'lardi, – dedim shosha-pisha.

– O'rniga seni brigadir qilib tayinlamoqchimiz.

– Meni?!

– Ha, seni. Mana, Roziq tog'ang, Mariya Pavlovna uchovimiz maslahatlashdik. Sendan boshqasi eplay olmaydi deyishyapti. Sen bolalarning boshini qovushtirishga ustasan. Bu yoqda Parpi buvang, bu yoqda mana men ishqilib seni yolg'izlab qo'ymaymiz... Bunday olib qaraganda sen endi kichkina bola ham emasan.

Dilim ravshan tortib qalbimga shodlik, quvonch hislari quyilgandek bo'ldi. Shu bilan birga nimadandir qo'rqib, entikib ham ketdim.

– Nahotki, to'yda bir marta o'ynaganim uchun shunaqangi qattiq jazolasalaring, – dedim hazilga olib,

– Bu jazo emas, – Mariya Pavlovnaga qarab ko'zini qisib qo'ydi rais opa, – to'yni qizitganing uchun mukofot... Endi ikkinchi masala shundan iboratki... Yaqinda urush tugар ekan. G'alaba bilan tugар ekan,

kolxoz hayoti yana avvalgi iziga tushib olarkan. Ana o'shanda bizga ko'plab o'qituvchilar, doktorlar, agronom-u quruvchilar kerak bo'larkan. Shuning uchun Qo'qon shahridagi bilim yurtlarining tayyorlov kurslariga yigirmata yigit-qiz jo'natishimiz kerak ekan.

Bolalarni tayyorlash Mariya Pavlovna ikkovkmizga topshirildi. Yigirmata yigit-qizni ko'ndirguncha naq uch kun ovora bo'ldik. Avvaliga bizni aldab-suldab detdomga tashlab kelisharkan deb hech kim rozilik bermadi. Keyin Zulayho, Hayitvoy, Akramlar pedagogika bilim yurtiga yozilganini ko'rib, meditsina bilim yurtiga, temir yo'l maktabiga, neftchilik texnikumiga boradiganlar shunaqangi ko'payib ketdiki, janjal chiqib ketishiga oz qoldi.

Dilbarning ham o'qishini, muallimami yoki meditsina hamshirasi bo'lib qaytishini juda-juda ham istar edim. Ammo bu qaysar qiz avval Zulayho o'qib kelsin, ungacha men sizga, ukalarimga qarashib turaman deb ko'nmedi. Mariya Pavlovna ham yolvorib ko'rdi bo'lmadi.

Zulayhoni ota-onasi bor tenqurlari ichida o'ksib qolmasin deb yaxshi kiyintirishga harakat qildim. Yangi kiyim-bosh olib berishga pulimiz yo'q edi, To'xta xolamda ham hech narsa qolmagan ekan. Oyimning yap-yangi kiyimlari qolgan edi. Ana o'shalarni mashinachiga eltib berib singlinga moslab berishni iltimos qildim.

Tuni bilan To'xta xolam ikkovimiz uxlamay sut qorib patir yopdik, danak chaqib mag'iz qovurdik, suzma, qaymoq tayyorladik. Ertalab fотиha berish uchun Parpi buvam ham chiqdi. Hammamiz dadajonimni armiyaga kuzatgan, oyijonimning o'ligini chiqargan kattakon yorug' uyimizga to'plandik.

– Ilohi omin! – Parpi buvam qo'l ko'tardi-yu, negadir ovozi qaltirab u yog'ini aytolmay piq-piq yig'lay boshladi, uzoq yig'ladi, – ha mayli, ishqilib o'lim bo'lmasin!

Yetimparvar hukumatimizning muruvvatidan foydalanib odam bo'lib qaytgin...

Buvajonim qaltirab turgan qo'llari bilan belbog'ini yechib qatidan hamyon olib Zulayhoga uzatdi.

– O'limlikka asrab yurgandim. Bozor-o'chardami, dala tuzdami dumalab qolsam o'ligim ko'chada qolmasin deb asrab yurgandim... Ma, hamyonni ol, kissangga solib qo'ygin. Ota-onam yo'q deb ko'ngillaring o'ksib yurmasin... Xudoga shukur, mana Orif akang ham katta yigit bo'lib qoldi, endi hech kimdan kam emassizlar... O'qishga ketayotganlar allaqachon jamuljam bo'lib g'ildiragi katta ikkita qo'qon aravaga o'ntadan o'tirib bizni betoqat kutishayotgan ekan. Mariya Pavlovna ularni texnikumlarga joylab qaytishi kerak edi. Bizga ko'zi tushishi bilan, kechikkanimizga xavotirlandi shekilli, «tinchlikmi» – deb so'radi-yu, javobimizni ham kutmay singlimni oyog'idan olib aravaga chiqara boshladi. Oxiri o'zi ham chiqib joylashib o'tirdi-da:

– Jo'nadikmi? – deya murojaat qildi aravakashga,

– Mariya Pavlovna, – deb narigi aravada o'tirgan Hayitvoy shartta o'rnidan turib ketdi, – mening bitta iltimosim bor, yo'q demang. Beshbolali xayrlashuvga bitta afandi aytib bersin.

O'ris xola yelkasini qisib hayron bo'lib turgan edi, boshqa bolalar ham aytsin, qizig'idan aytsin deb talab qila boshlashdi.

– Tezroq bo'l, bo'lmasa! – buyurdi oxirida O'ris xola;

– Afandi Qo'qondagi Xonim madrasasida o'n besh yil o'qibdi-yu, – deb gap boshlovdim Hayitvoy:

– Madrasadami yoki pedbilim yurtidami? – deb luqma tashladi.

– O'n besh yil o'qibdi-yu, lekin kallasiga hech narsa kirmabdi, – deya kelgan joyidan davom ettirmoqchi bo'luvdim, bu gal Akram o'rnidan turib ketdi:

– Hayitvoyga o'xshab kalla o'rniga qovoq ko'tarib borgan bo'lsa kerak-da!

Latifamni davom ettirmoqchi bo‘luvdim, vaqtni qizg‘anganidan igna ustida turgandek betoqat bo‘layotgan Mariya Pavlovna:

– Qani, haydang! – deb buyruq berdi aravakashga.

Aravalar jo‘nashi bilan kuzatgani kelgan xotin-xalajlar, chol-kampirlar-u bizga o‘xshash bola-chaqalar birdan arava ortidan ergashib, har biri o‘z yaqiniga oxirgi maslahatlarini bera boshladi.

– Odiljon, bora solib xat jo‘natgin, taylog‘im!

– Muqimjon, bolaginam, yotish oldidan kindigingga yog‘ surtib olishni unutm, bo‘lmasa ishtoningni ho‘l qilib qo‘yasan!

– Pulingni belbog‘ingga tugib, ichingdan boylab olgin!

– Qaytishingda ukangga sumak olishni unutm, xo‘pmi?

– Esingdan chiqmasin, ko‘chaga chiqqanlaringda qo‘l ushlab yuringlar.

– Zulayho, Sulton bilan Usmondan xabar olib tur! – deb qichqirdim oxirida men ham.

TAMOM

MUNDARIJA

«TANISHING, DO‘STINGIZ ORIFJON!»	3
--	---

OPAJONIM BOR EDI..**Birinchi qism**

Chaqiriq qog‘ozi	8
Eshak mingan xabarchi	12
«Bir ko‘zli yovning boshi uzilsin»	19
«Tezroq keling, otajonim!»	26
Parpi buvam zambarak sotib olmoqchi	32
Sulton izdan chiqib boryapti	39
Tepalik uchun bo‘lgan mushtlashuv	43
Otamizdan xat keldi	52
Opam bozorga olib bordi... ..	57
Sumalak, sumalak, jon sumalak!	63
Opam, opajonim	74
Endi nima qilamiz?	79

BEGONA ELLARDA**Ikkinchi qism**

Omon o‘ris xolaga o‘g‘il bo‘lmoqchi	87
Qaroqchilar meni qanday qilib kaltaklashgani	93
O‘ris xola ham yetim bo‘lgan ekan	99
Bir bor ekan, bir yo‘q ekan	104
Yetimlarning tungi nolishi	107
Dumli masxarabozlar	115
«Qaroqchilarning xazinasi»	120
To‘xta xolamning lazzatli qatlamasi	128
Begona shaharga otlandik	133
«Hamisha kulib yashanglar»	137
Ukajonim yo‘qolib qoldi	143
Jaji singlim o‘lim to‘shagida	149
Chayqov bozorida tufli sotmoqchi bo‘lganim	153
«Meni qamamang, jon amaki!»	158

SARSON-U SARGARDON**Uchinchi qism**

Detkoloniyada	166
Shermatning yaxshiligi	171
Militsioner amakining o'ttiz so'm puli	175
«Narigi dunyoga borsangiz...»	180
«Yovvoyi sigir»larni emmoqchi bo'lganimiz	188
Omonga berilgan katta mukofot	193
Qaroqchiga duch keldik	201
Temir yo'l qorovulining uyida shifo topganimiz	207
«Xudoyi taolo yuborgan cho'loq maxluqlar»	214
Eshak bozori qaydadir	218
Pakana buva yig'laydi	224
Pakana buva qamoqda	229
Pakana buva hadyalari	233

ONA QISHLOG'IM**To'rtinchi qism**

Uyimizda kaltak yeganim	240
Afandilar brigadasi	244
Ish afandi aytishdan boshlandi	248
Mo'l hosil uchun jangga	251
Uch par etik taqsimoti	255
Qishloqda shayton oralabdi	262
Janjal avjiga chiqib boryapti	268
Yangi rais	273
«Ostonasi tillodan uy seniki»	2

Adabiy-badiiy nashr

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

BESH BOLALI YIGIT

Sarguzasht roman

Muharrir

Anvar NAMOZOV

Texnik muharrir

Vera DEMCHENKO

Musahhih

Abdumalik TO'XTAYEV

Kompyuterda sahifalovchi

Feruza BOTIROVA

Bosishga 14.08.2009-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 9,125. Shartli bosma tobogi 15,12.

Garnitura «SchoolBook Uzb95». Ofset qogoz.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 187.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol kochasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bolimi 278-36-89; Marketing bolimi 128-78-43

faks 273-00-14; e-mail: yangiasr@inbox.ru